


R.A. ALIMOVA, M.T. SAGDIYEV, B.A. ADILOV

# **QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINING BIOKIMYOSI**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

R.A. ALIMOVA, M.T. SAGDIYEV,  
B.A. ADILOV

# **QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BIOKIMYOSI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

Toshkent  
«IQTISOD-MOLIYA»  
2018

UOK: 574.24+581.1

KBK: 41.2

Taqrizchilar: b.f.d., prof., **S.N.Dolimova;**  
b.f.d., prof., **X.X.Kimsanboev**

**A 50 Qishloq xo'jalik mahsulotlari biokimyosi:** O'quv qo'llanma / R.A. Alimova, M.T. Sagdiyev, B.A. Adilov; – T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. – 212 b.

O'quv qo'llanma fan va ishchi dasturlarga muvofiq tuzilgan bo'lib, «5410500 – Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi» yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Qo'llanmada g'alla, den-dukkakli, moyli, ildizmeva, yem-xashlik, sabzavot va poliz ekinlari, ho'l va rezavor mevalar, kartoshka mahsulotlari hamda sut va sut mahsulotlari biokimyosi bo'yicha so'nggi zamonaviy mal'umotlar keltirilgan bo'lib, bunda qishloq xo'jaligi mahsulotlari asosiy biokimyoiy moddalarining tarkibi, biologik qiymati, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash jarayonidagi o'zgarishlarga alohida e'tibor qaratilgan.

O'quv qo'llanma qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash mutaxassisligi talabalari uchun ilmiy va uslubiy yordam ko'rsatadi degan umiddamiz.

*O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining  
2018-yil 14-iyundagi 531-soni buyrugiga asosan 5111000 -Kasbiy ta'lim (5410500 –  
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishhash texnologiyasi) tomonidan  
o'quv qo'llanma sifatida tavsija etilgan*

UOK: 574.24+581.1

KBK: 41.2ya73

**ISBN 978-9943-13-749-3**

© Alimova R.A., Sagdiyev M.T.,

Adilov B.A., 2018

© "Iqtisod-Moliya", 2018



## KIRISH

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, ~~le'st molchilar~~ talabini mamlakatimizda yetishtirilayotgan meva-sabzavot, poliz, uzum, kartoshka, chorvachilik, parrandachilik va ~~baliq~~ mahsulotlari hisobiga to'la qondirish borasida respublikamiz mintaqalarining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, ularni ~~ishlab~~ chiqarishni ko'paytirish, qayta ishlash, eksport qilish, ichki ~~bozorni~~ to'ldirish bo'yicha ishlab chiqilgan qator loyihalarga muvofiq ~~keng ko'lamli~~ ishlardan amalga oshirilmoqda.

Mustaqillik yillarda oziq-ovqat sohasini rivojlantirish borasida ~~keng~~ ko'lamli islohotlar amalga oshirilib; mazkur sohaga investitsiya jalb etgan holda, zamонавиу texnologiyalarni meva-sabzavot, go'sht va sut mahsulotlarini qayta ishlash va ishlab chiqarishga joriy qilinishi, ishlab chiqarish texnologik bazasining yangilanishi evaziga ichki bozorni sifatli mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash imkoniyati yaratilib, sanoatda muskur tarmoq ulushining tobora oshishiga zamin yaratdi.

Ma'lumki, O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish o'sish sur'ati yiliga o'rtacha 9-10% tashkil etmoqda. Shuningdek, mahsulotning eksport hajmi ham yildan-yilga ortmoqda. Bu borada davlatimiz tomonidan muhim farmon va qarorlar, davlat dasturlari qabul qilinib, ularning ijrosi izchil ta'minlanmoqda. So'nggi 5 yilda mamlakatda oziq-ovqat sohasini ~~jadal~~ rivojlantirish va diversifikatsiyalash uning xomashyo bazasini ~~kengaytirish~~ va mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini berdi. Jumladan, meva-sabzavot va uzum mahsulotlari ishlab chiqarish 1,6 baravarga, go'sht mahsulotlari – 1,4 baravarga, sut mahsulotlari – 1,4 baravarga oshdi. Bugungi kunda respublikada 9760 dan ortiq oziq-ovqat korxonalari faoliyat ko'tsaatib kelmoqda. Yiliga o'rtacha 1,74 mln tonna meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'lgan 270 dan ortiq korxona faoliyat yuritmoqda, shuningdek, 479 ming tonna oziq-

ovqat mahsulotlarini saqlash quvvatiga ega sovutish kameralari bilan jihozlangan 994 ta zamonaviy sig‘imlar mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-martdagи PQ-2505-son qarori bilan tasdiqlangan “2016-2020-yillarda oziq-ovqat mahsulotlari xomashyo bazasini, meva-sabzavot va go‘sht-sut mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni yanada rivojlantirish, ishlab chiqarish va eksport hajmlarini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2017-yil 6-yanvardagi PQ-2716-son “2017-2018-yillarda meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va chuqur qayta ishlash quvvatlarini tashkil etishni rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi dasturlar doirasida 740,1 mln dollar qiymatga teng 434 ta loyiha amalga oshirilishi belgilangan. Shundan: 163 ta loyiha, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash quvvatlarini respublikaning meva-sabzavot va uzumchilikka ixtisoslashtirilgan tumanlarida tashkil etish; 39 ta go‘sht va sut mahsulotlarini qayta ishlash quvvatlarini xomashyoga yaqin hududlarda tashkil etish; 159 ta loyiha, eksport qilish belgilangan yangi va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash uchun sovutish kameralari bilan jihozlangan sig‘imlar tashkil etish; 36 ta loyiha, qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish; 37 ta loyiha bo‘yicha qandolat, alkogolsiz ichimliklar va boshqa turdagи oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish shular jumlasidandir.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining 3.3-bandи, ya’ni “Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish”ga muvofiq, Yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarini maqbullahshitirish, bunda: 2017-yilda paxta ekin maydonlarini 49 ming gektarga va g‘alla maydonlarini 10 ming gektarga qisqartirish; qisqartirilgan ekin maydonlariga boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlarini, jumladan, 8,1 ming gektarga kartoshka, 27,2 ming gektarga sabzavot, 5,9 ming gektarga intensiv bog‘, 2,9 ming gektarga tokzor,

**10,9** ming gektarga ozuqa ekinlari va **4** ming gektarga moyli ekinlar joylashtirish belgilangan. Dasturlarda oziq-ovqat mahsulotlari **xomashyo** bazasini, meva-sabzavot mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni yanada rivojlantirish, ichki iste'mol bozorini mahalliy mahsulotlar hisobiga to'ldirish va yuqori qo'shimcha qiymatga ega **bo'lgan** mahsulotlarni eksport qilishni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Natijada 2017-2021-yillarda qishloq xo'jaligida oziq-ovqat mahsulotlari xomashyosini ishlab chiqarish o'rtacha **1,4** baravarga, jumladan meva-sabzavot va uzum – **1,4** baravarga, go'sht – **1,3** baravarga, sut – **1,5** baravarga ko'payadi. Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 2021-yilda 2016-yilga nisbatan **2,3** baravarga, qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari eksporti hajmi esa **2** baravarga oshishi ta'minlanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash va qayta ishlanga qaratilgan alohida e'tibor, tarmoqni rivojlantirishda ilmiy asoslangan yondashuvning yo'lga qo'yilishi oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash hajmini ko'paytirish va aholi farovonligini ta'minlashga imkon bermoqda. Ayniqsa, yurtimizda ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlabgina qolmasdan, eksport ham qilinayotgani bu sohani rivojlantirishda ilm-fan yutuqlarini qo'llash, ilmiy muassasalar faoliyatini kengaytirish, tadqiqotlar va izlanishlar samaradorligini ta'minlash, zamonaviy bilimlarga ega yetuk yosh mutaxassislar yetishtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuqori natijalar berayotganidan dalolatdir.

Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlanga mutaxassislarini yetishtirishda ularda birlamchi qishloq xo'jaligi xomashyolarining biokimyoiy tarkibi, mahsulotlarni qayta ishlashda tarkibidagi asosiy oziqa moddalarini miqdor hamda sifatiy o'zgarishlari va shu asosda xalqaro standartlarga javob beradigan eksportbop mahsulotlar tayyorlash bo'yicha bilim hamda ko'nikmalarini shakllantirish muhim

ahamiyatga ega.

Mazkur «Qishloq xo'jaligi mahsulotlari biokimyosi» fani bo'yicha tuzilgan o'quv qo'llanmada fermentlar va ularni qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashdagi o'rni, g'alla ekinlari, don-dukkakli ekinlar, moyli ekinlar, kartoshka, ildizmevalar va yem-xashak ekinlari, sabzavot va poliz ekinlari, ho'l va rezavor mevalar hamda sut va sut mahsulotlari biokimyosi bo'yicha so'nggi zamонавиј маљумотлар келтирсан болиб, унда qishloq xo'jaligi mahsulotlarining turli qismlaridagi biokimyoviy moddalarning taqsimlanishi, asosiy biokimyoviy moddalarning tarkibi va biologik qiymati, mahsulotlarni saqlash va yetilish davridagi biokimyoviy jarayonlar, biokimyoviy moddalarni to'planishi va sifatiga ta'sir etuvchi omillar, mahsulotlarni qayta ishlashda, xususan termik ishlov berish, bijg'itish, konservalashda sifatining o'zgarishi, turli qayta ishlash omillari omillar ta'sirida mahsulotlarning orgonoleptik xususiyatlarini shakllanishiga alohida e'tibor qaratilgan.

O'quv qo'llanma qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasida zamонавиј билимларга ега mutaxassislarни yetishtirib chiqarishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi, degan umiddamiz.

# **I BOB. «QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARI BIOKIMYOSI» FANIGA KIRISH**

## **1.1. Kirish. Fanning ahamiyati**

“Qishloq xo’jalik mahsulotlari biokimyosi” fani umumiy o’simliklar va hayvonlar biokimyosi fanining bo’limidan iborat bo’lib, tarkibiga sut biokimyosini qo’shib berilgan. O’quv qo’llanmada tirik organizmda boradigan biokimyoviy hamda sut va go’sht mahsulotlarida kechadigan fizikaviy-kimyoviy jarayonlarni o’rganishdan iborat bo’ladi. Qishloq xo’jalik mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash mutaxassisliklari talabalari uchun birinchi navbatda bu jarayonlarni nazariy asoslari va amaliyotda qo’llash usullarini bilish zarur bo’ladi. Ushbu fanni o’zlashtirish uchun organik kimyo, fizkolloid kimyo, o’simliklar va hayvonlar genetikasi, o’simliklar fiziologiyasi, hayvonlar morfologiyasi va fiziologiyasi fanlaridan ma’lum bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishi shart.

“Qishloq xo’jalik mahsulotlari biokimyosi” kursi quyidagi fanlarni o’qishda asos bo’lib xizmat qiladi: “Qishloq xo’jalik mahsulotlarini standartlash va sertifikatsiyalash”, “O’simlikshunoslik mahsulotlari ishlab chiqarish”, “Go’sht mahsulotlari ishlab chiqarish”, “Qishloq xo’jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash”. Talaba “Qishloq xo’jalik mahsulotlari biokimyosi” fanini o’rgangandan so’ng, terminlarni o’zlashtirib, kimyoviy tarkibini baholash to’g’risida tushunchaga ega bo’lib, qishloq xo’jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash to’g’risidagi bilimlarga ega bo’lishi kerak. Undan tashqari biokimyoviy ko’rsatkichlarni aniqlash va analitik o’lchovlar o’tkazish bo’yicha ko’nikmalarga ega bo’lishi kerak.

## **1.2. Fanning rivojlanish tarixi**

XVIII asrda biokimyo rivojlanishi uchun asos bo'lgan M.V. Lomonosovning (1711-1765) qonuni - tabiatda materiya va harakatning saqlanishidir. XVIII asr oxirida Lavuaze tajribasi asosida moddalar massasining saqlanish qonuni kashf etilishi asosida nafas olishning mohiyati va bu jarayondagi kislorodning roli tushuntirildi. XIX asr boshlarida Djozef Pristli va K.Sheeelar  $\text{CO}_2$ ,  $\text{NH}_3$ , va  $\text{O}_2$  o'simliklarni yashashiga bog'liq jarayonlarini ko'rsatib berdilar. Yu.Libix esa XIX asr oxirlarida o'simliklarning mineral oziqlanish nazariyasini asoslab berdi. XIX asr o'ttalarida F. Vyoler (1800-1882) mochevinani sintezladi, u sun'iy yo'l bilan organizmdan tashqarida amalgalashdi.

1861-yilda A.M.Butlerov organik moddalar tuzilish nazariyasini yaratdi. E.Fisher XIX asr oxirida XX asr boshlarida oqsillarni tuzilishini peptid nazariyasini yaratdi, aminokislotalarning strukturalari va xususiyatlarini ko'rsatib berdi.

Biokimyo fanining rivojlanishiga asos solgan rus va sovet olimlaridan Aleksey N. Bax (1870-1946), V.I. Engelgardt (1894-1984), Boris Ilich Zbarskiy (1954) va boshqalardir.

XX asr boshlarida I.Mechnikov va P.Erlix immunitetning hujayra va gumoral nazariyasini, M.S. Tsvet xlorofillning xromotografik bo'linish usulini ishlab chiqdilar. 1930-yilda V. A.Engelgardt fosforlanish jarayoni nafas olish bilan bog'liqligini ko'rsatib berdi. 1932- yilda X.Krebs va K.Xenzeliat ornitin siklini ochishga muvaffaq bo'ldilar. 1937-yilda X.Krebs uch karbon kislotalar siklini kashf etdi. 1938-yilda A.Braunshteyn va M.G. Irtsmanlar transaminlanish reaksiyasini ochib berdilar. 1941-yilda F.Lilman hujayradagi energiyani tashuvchi birikma ATF ekanligini ko'rsatdi. 1950-yilda E.Chargaff DNK strukturasidagi ma'lum azot asoslarining teng miqdori bo'lishini aniqladi. L.Poling esa shu yilda

oqsil strukturasida x-spiral borligini e'tirof etgan. 1953-yilda D.Uotson va F.Krik DNK ning qo'sh spiralli modelini kashf etdilar. Undan tashqari oxirgi yillarda dunyo olimlari genetik kodning tarkibini topishgan. Oqsil biosintezi mexanizmlari ochilgan, RNK va ribosomalar strukturalari o'rganilgan. Biogen molekulalarning biosintezi va parchalanishi amaliyotda aniqlangan.

Oxirgi yillardagi ilmiy izlanishlar enzimologiya, biokinetika, immunologiya, molekulyar biologiya, genetika, biotexnologiya va boshqa fanlar haqidagi bilimlarimiz kengayib bormoqda. Ushbu bilimlarni qo'llagan holda, ya'ni bionanotexnologiya, gen injeneriyasi, hujayra texnologiyalari, bioinformatika kabi yangi ilmiy yo'nalishlar tashkil topayapti. Biokimyo fanidan yuqori bilimga ega bolish uchun genetik, hujayra, molekulyar, fermentativ muhandislik kabi usullardan foydalanib yangi innovatsion ishlanmalarni tayyorlash zarur bo'ladi.

Biokimyo fanini o'zlashtirishda talaba biogen molekulalar tuzilishi haqida bilimlarga ega bolib, moddalar almashinuvi jarayonlarida boradigan o'zgarishlar va fermentlar ishtirokida o'rganib boradi. Undan tashqari biogen molekulalar tarkibi o'rganilib, ularni saqlash davomida va qayta ishlashda to'qimalarda kechadigan jarayonlarni amaliyotga tatbiq qilish ko'zda tutiladi.

Kelib chiqishi umumiyl bo'lgan eukariotik hujayralar tirik organizmning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi, ular tuzilishining asosi kichik molekulali biogen molekulalardir. Tuzilishidagi bir xillik axborotni uzatish DNK → RNK → oqsil shaklida boradi. Axborotning bir xilligi umumiyl axborot bazasini tashkil etsada, uni yig'ib har bir organizmda individual borishi e'tirof etiladi. Tirik organizmlarning axborotligi nafaqat nuklein kislota axborot hajmi bilan, balki, organizmdagi umumiyl biogen molekulalarning spektrlari bilan belgilanadi.

Tirik organizmning funksional faoliyati asosini kimyoviy reaksiyalar ko'rsatadi. Ularni boshqaruvchi hujayra strukturalarida

asosiy ta'sir etuvchi element bo'lib funksional oqsil xizmat qiladi. Hamma oqsillar haqidagi axborot DNK da saqlanadi, uning elementar birligi bo'lib gen xizmat qiladi. Gen apparati faoliyati tufayli oqsillarning tanlab sintezlanishi boshqarilsa, uning ta'sirida hujayra va organizmlarning ishlashi uning izmida bo'ladi. Metabolik jarayonlarni tartibga solish energetik va plastik resurslar hisobiga amalga oshadi.

Energiyaning asosiy manbalari bo'lib uglevodlar, lipidlar hisoblanib, ularning oksidlanishi natijasida rezerv energiya sifatida maxsus biogen energiya zaxira qiluvchi molekulalar (ATF, GTF, UTF, ts-AMF va boshqalar)da to'planadi. Ushbu molekulalar miqdori o'simlik va hayvon organizmining faolligi va hayotchanligini belgilaydi.

O'simliklar va hayvonlar yuqori rivojlangan funksional tizim qatoriga kirib, ularda keng miqdorda moddalar sintezlanadi va ular o'simliklar, hayvonlar va insonlar uchun juda zarur hisoblanadi. O'simliklar faoliyati natijasida quyosh energiyasi yordamida xilmashil organik moddalar sintezini amalga oshiradilar. Undan tashqari o'simliklar biologik faol moddalarni sintezlab, ular hujayraga maxsus ta'sir etishi bilan ajralib turadi hamda inson va hayvon organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida qayd etilgan holatlar, yer yuzidagi tirik organizmlarning o'zaro bog'iqligi va bir-birini to'ldirishini anglatadi. O'simliklar atmosfera azotini o'zlashtira olmaydi, shuning uchun tabiatda azot bilan ta'minlovchi bakteriyalar Rhisobium dukkakli o'simliklar ildizida (soya, beda, no'xat, mosh va boshqalar) faoliyat ko'rsatadi. Bu simbioz o'simliklarni azot bilan ta'minlaydi, bakteriyalar esa o'simliklarning zaxira energetik va plastik moddalar, o'simlik hujayralarining modda almashinuvi jarayonida hosil bo'ladiganlari asosida amalga oshadi.

### **1.3. Fanning maqsad va vazifalari**

“Qishloq xo‘jalik mahsulotlari biokimyosi” fanini o‘qitishdan maqsad qishloq xo‘jalik mahsulotlarini kimyoviy tarkibi, o‘simpliklar va hayvonlar xomashyosini komponentlarining funksional xususiyatlarini, ularni saqlash va qayta ishlashdagi biokimyoviy jarayonlarini borishi va inson organizmidagi modda almashinuviga ta’sirini o‘rganishdan iborat.

Mahsulotlarni dastlabki qayta ishlash va saqlash sohasidagi qishloq xo‘jaligi mutaxassislari o‘simpliklarda moddalar almashinuvi jarayonlarini o‘rganib, uni hosildorlikni oshirishga qaratilsa hamda yangi qishloq xo‘jalik ekinlari navlarini yaratib, ularni noqulay sharoit va patogenlarga qarshi kurashishini tashkil etishdan iborat bo‘ladi.

Shuning uchun “Qishloq xo‘jalik mahsulotlari biokimyosi” kursiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- uglevodlarning asosiy guruuhlarining tarkibi, tuzilishi, biologik vazifalari, azotli, fenolli, terpenoid birikmalar, organik kislotalar, alkaloidlar, glikozidlar va efir moylari o‘rganiladi;

- fermentlar to‘g‘risidagi zamonaviy matumotlar, ferment sistemalarning hujayralardagi vazifalari, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlashda fermentlarning ishlatilishi va hokazo;

- organik moddalar sintezi va parchalanishi jarayonlari, azotning  $\text{NH}_4^+$ ,  $\text{NO}_3^-$  va  $\text{NO}_2^-$  shakllarining o‘zlashtirish mexanizmlari va o‘simplik mahsulotlarida nitratlarning to‘planishi sabablari va boshqalar;

- spiritli, sut kislotali va propion kislotali bijg‘ish jarayonlari va ularni oziq-ovqat va yem ishlab chiqarishda qollash asoslari;

- o‘simplik mahsulotlarining kimyoviy tarkibini o‘zgarish sabablari o‘simpliklar genotipiga bog‘liqligi, mevalarning yetilish

fazalari, iqlimiylar tabiiy sharoitlarning ta'siri, tuproq unumдорligi, suv balansi va oziqlanish kabi jarayonlarni;

-meva va sabzavotlarning kimyoviy tarkibi, dukkakli-don mahsulotlari tarkibi, moyli o'simliklar urug'i, yem-xashak ekinlari vegetativ massasi, ildizmevalar tarkibi;

-qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash va saqlashga alohida e'tibor qaratish;

-sutning kimyoviy tarkibi, ularni qayta ishlashda o'zgarishlari, mikroorganizmlar fermentlarining ta'siri.

#### **1.4. O'simlik mahsulotlari biokimyosi**

O'simliklar har xil vegetativ qismlarida biogen moddalarini sintezlash va to'plash xususiyatiga egadir. Bu moddalar inson va hayvonlar organizmi uchun zarur moddalardir. O'simliklarda bu vazifani bajarish uchun faol fotosintetik sistema mavjud bo'lib, oddiy anorganik ( $\text{CO}_2$  va  $\text{H}_2\text{O}$ ) birikmalardan xilma-xil murakkab biogen molekulalar sintezlanadi va bu birikmalar insonlar va hayvonlar tomonidan plastik va energetik moddalar sifatida o'zlashtiriladi.

Biogen molekulalarning to'planishi o'simliklarning yer ustki qismi (barg, meva, urug')da va yer ostki qismida (ildiz, ildizmeva) bo'lib, ular o'simliklar hujayralarida sintezlanadi, ularning faolligi boshqarish tizimining nazoratida bo'ladi.

Hujayra tirik organizmnning asosiy elementar struktura birligi bo'lib, birlashgan tizimni tashkil etib, ularning asosi maxsus organellalardan iboratdir. Ular ma'lum vazifalarni bajaradilar va bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Undan tashqari hujayralarning bog'liqligi maxsus tarzda boshqariladi. Boshqarishda hujayralardagi fitogormonlar ishtiroy etadilar va hujayralarning maxsuslashuvini belgilaydilar.

Umuman hujayra ma'lum shaki va o'lchamga ega bo'lib, tartibli strukturani tashkil etadi. Hujayralarning harakati dasturlangan bo'lib, murakkab boshqaruv tizimi tomonidan nazoratda bo'ladi. Meva-sabzavot hujayralari o'ziga xos o'sish va rivojlanish xususiyatiga egadirlar. Meva-sabzavotlarning parenxima to'qimalari pishgan yupqa devorli hujayralardan iborat bo'lib, ularning asosiy hajmini markaziy vakuola egallaydi. Meva-sabzavotlarda zaxira to'qimalarga ahamiyat beriladi, ular parenxima hujayralaridan iborat bo'lib, ularda ma'lum biogen moddalar sintezlanishi va to'planishi mumkin. Parenxima hujayralari tuzilishi jihatdan sodda bo'lib, ularning yuzasidagi strukturalar sellyuloza qobig'ini hosil qiladi. Meva-sabzavot to'qimalarining o'sib ketishi parenxima hujayralarining soni va massasi ortishi hisobiga ro'y beradi.

## **II BOB. VITAMINLAR, FENOLLI VA TERPENOIDLI BIRIKMALAR**

### **2.1. Vitaminlar**

Vitaminlar inson va hayvonlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan, turli kimyoviy tuzilishdagi organik birikmalardir. Organizm uchun juda kam miqdorda talab etiladigan (oqsil, yog' va uglevodlardan farqi) bu birikmalar fermentlar molekulasi tarkibiga kirib, to'qimalardagi moddalar almashinuvida ishtirok etadi.

Odam va hayvonlar organizmi ko'pchilik vitaminlarni faqat o'simliklardan oziq-ovqat bilan birga oladi. Shuning uchun ovqat mahsulotlari tarkibida biror vitamining bo'lmasligi yoki yetishmasligi inson va hayvonlar organizmida moddalar almashinuvining buzilishiga, keyinchalik esa avitaminoz hamda gipovitaminoz deb ataladigan og'ir kasalliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

1880-yilda rus olimi shifokor I.I. Lunin hayvon organizmi vitaminsiz hayot kechira olmasligini birinchi marta aniqlagan.

1912-yilda polyak olimi K. Funk «vitamin» terminini ishlatishni (*vita – hayot, vitamin – hayot amini demakdir*) tavsiya etgan. U davrda barcha vitaminlar tarkibida amin guruhi bo'lsa kerak, deb faraz qilinar edi. Lekin vitaminlarning kimyoviy tarkibi aniqlangandan so'ng bu fikrning noto'g'ri ekanligi ma'lum bo'ldi. Hozir vitaminlarning kimyoviy tuzilishi aniqlangan bo'lsa-da, eski odad bo'yicha ular «vitamin» so'zi va lotin alfavitining bosh harfi bilan ataladi.

**Vitaminlar tasnifi.** Vitaminlar erituvchilarda erishiga qarab ikki guruhga bo'linadi:

1. *Suvda eruvchi vitaminlar* – B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>6</sub>, PP, H, P, C va U vitaminlar, pantoten, folat, para-aminobenzoat kislotalar, inozit va boshqalar.

2. *Yog'larda eruvchi vitaminlar* – A, D, E va K<sub>1</sub> vitaminlar.

Kimyoviy tasnifiga ko'ra vitaminlar 4 guruhga bo'linadi:

*1. Alifatik:*

- askorbin kislotasi (vitamin C, antiskorbut);
- pangomat kislota (vitamin B<sub>15</sub>);
- pantotenat kislota (vitamin B<sub>5</sub>, antidermatit);
- metilmetioninsulfoniyl xlorid (vitamin U, yaralarga qarshi).

*2. Alitsiklik:*

- retinol (vitamin A, antikseroftalmik);
- kaltsiferol (vitamin D, antiraxit).

*3. Aromatik:*

- filloxinon (vitamin K<sub>1</sub>, antigemmragik).

*4. Geterotsiklik:*

- tokoferol (vitamin E, ko'payish vitamini);
- bioflavanoid (vitamin P, kapillyarlarni mustahkamlovchi);
- nikotin kislotasi (vitamin PP, nikotinamid, niatsin, antipellagrik);
- piridoksin (vitamin B<sub>6</sub>, antidermatit);
- tiamin (vitamin B<sub>1</sub>, antinevrit);
- riboflavin (vitamin B<sub>2</sub>, o'sish vitamini);
- biotin (vitamin H, antiseboreya);
- foliy kislotasi (vitamin B<sub>9</sub>, folatsin, antianemiya);
- sianokobalamin (vitamin B<sub>12</sub>, antianemiya).

Ayrim vitamin bol'magan moddalar organizmda oddiy reaksiyalar orqali vitaminlarga aylanishi mumkin. Bunday moddalar *provitaminlar* deyiladi. Bunga karotinoidlar misol bo'ladi, karotinoidlar molekulasi 2 ta ( $\beta$ -karotin) yoki 1 ( $\alpha$ - va  $\gamma$ -karotinlar) molekula A vitaminga aylanishi mumkin. Bundan tashqari, ayrim sterinlar (ergosterin) inson terisi ultrabinafsha nurlari ta'sirida D vitaminiga aylanishi mumkin.

Moddalar almashinuvining alohida turlariga yoki organizmning aniq tuzilmalari faoliyatiga ijobiy ta'sir etuvchi, ammo organizmda almashirib bo'lmasligi isbotlanmagan moddalar *vitaminsimon moddalar* deyiladi. Bunday moddalarga bioflavonoidlar (vitamin P),

pangamat kislotasi (vitamin B<sub>15</sub>), paraaminobenzoy kislotasi (vitamin H<sub>1</sub>), orotat kislotasi (vitamin B<sub>13</sub>), xolin (vitamin B<sub>4</sub>), inozit (vitamin B<sub>8</sub>), karnitin (vitamin B<sub>5</sub>), metilmetioninsulfon xlorid (vitamin U), lipoat kislotasi kiradi.

**Vitaminli o'simliklardan xomashyo tayyorlash.** O'simlik mahsulot tarkibidagi vitaminlar miqdori doimo o'zgarib turib, ko'pincha o'simliklarning gullash davrida yer ustki organlarida maksimal miqdorda to'planadi. Mevalarda esa ular pishib yetilgan vaqtida ko'p yig'iladi. Shuning uchun vitaminli mahsulotlarni tayyorlash yuqorida aytib o'tilgan vitaminlarga boy davrida o'tkazilishi kerak.

Ko'pchilik vitaminlarning o'zi turg'un birikma bo'lsa ham ma'lum sharoitlarda (yuqori harorat, namlik, yorug'lik va boshqa faktorlar ta'sirida) oksidlanishi, parchalanishi yoki boshqa o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Natijada vitaminlar o'zining biologik faolligini yo'qotadi. Vitaminli mahsulotlarning yuqori sifatliligin saqlab qolish uchun ularni tayyorlashda, quritishda va saqlashda yuqorida ko'rsatilgan sharoitlarni hisobga olish zarur.

Vitaminli mahsulotlar havo quruq vaqtida, shudring ko'tarilgandan so'ng yig'ilishi lozim. Yig'ilgan mahsulotni bir yerga to'plab qo'ymasdan, tezda soya joyda yoki quritgichlarda (mevalar ochiq havoda) quritilishi maqsadga muvofiqdir. So'ngra yig'ilgan mahsulotni vitamin olish yoki galen preparatlari tayyorlash uchun tezda zavodlarga yuboriladi yoki omborlarda va dorixonalarda quruq, salqin, quyosh nuri tushmaydigan joylarda saqlash mumkin bo'ladigan tegishli idishlarda saqlanishi lozim.

**Vitaminlarning o'simliklar hayotidagi ahamiyati.** Vitaminlar o'simliklar hayotida katta rol o'ynaydi. Ular moddalar almashinuvining asosiy regulyatori – fermentlar biosintezida ishtirok etadi. Vitaminlarning ko'pchiligi oqsillar bilan birlashib, fermentlar hosil qiladi. Ba'zi vitaminlar aminokislotalar (**masalan**, vitamin H-biotin, asparagin, serin va boshqa aminokislotalar) almashinuvida ishtirok etadi.

Vitamin C, karotin, katexinlar va flavonollar o'simlik to'qimalarida doimiy ravishda ro'y berib turadigan oksidlanish va qaytarilish jarayonida faol qatnashadi. Bu jarayon davrida vitaminlar ma'lum vaqt ichida oksidlanib va qaytarilib turadi.

Vitaminlar ta'sirida o'simliklarning hosildorligi oshadi, yetilishi tezlashadi va ildizi tez rivojlanadi. Ba'zi vitaminlar (karotinoidlar) esa fotosintez jarayonida va o'simlik gullarining changlanishida ishtirok etadi.

**Vitaminlarning biosintezi.** Deyarli barcha vitaminlar o'simlik organizmida sintezlanadi. Faqat vitamin A va D ni hosil qiladigan birikmalar – provitaminlar o'simlik to'qimalarida sintezlanib, hayvon organizmiga o'tgandan so'ng ular o'z vitaminiga aylanadi.

O'simlik to'qimalarida vitaminlar biosintezining borishi hanuzgacha tajribalarda to'la aniqlangan emas.

Vitamin C (askorbin kislota) 6 ta uglerod atomli uglevodlar – geksozlarning o'simlik to'qimalarida oksidlanishidan hosil bo'ladi.

Glyukoza, fruktoza va boshqa geksozlar ishtirokida o'simlik to'qimalarida vitamin C miqdorining ko'payishi tajribalarda isbotlangan. Shuningdek, D-glyukozaning L-askorbin aylanish jarayoni D-glyukuron va L-gulon kislotalarning laktonlari orqali ro'y berishi ham aniqlangan.

Inozit ham geksozlardan hosil bo'ladi. Inozitning biosintezi sof holdagi geksozlarga nisbatan glikozidlar tarkibidagi geksozlar (arbutin, salitsin) va saxaroza hisobiga jadalroq boradi.

Vitamin P ta'siriga ega bo'lgan asosiy birikmalar flavanonlar va flavonlar hamda katexinlar o'simlik to'qimalarida shikim kislota, oraliq birikma – prefen kislota va atsetal qoldiqlari orqali uglevodlardan hosil bo'lishi mumkin.

Vitamin B o'simlik to'qimalarida fermentlar ishtirokida tiazol va pirimidinning birlashishi tufayli hosil bo'ladi.

Aminokislolar ham vitaminlar, biosintezida ishtirok etadi. Masalan, vitamin PP (nikotin kislota) triptofan aminokislotadan, pantoten kislota esa  $\beta$ -alanin aminokislotadan hosil bo'ladi. Bu


biosintez jarayonlar albatta fermentlar ta'sirida va boshqa birikmalar ishtirokida ro'y beradi.

### **Asosiy vitaminlarning qisqacha tavsifi**

#### Vitamin A – retinol

Yog'da eriydi. Sutkalik ehtiyoj taxminan 1 mg. Yorug'likni qabul qilish jarayonida ishtirok etadi, ko'z to'r pardasi tarkibidagi rodopsin oqsili tarkibiga kiradi.

Hujayra membranasi va shilliq pardali organlar faoliyatiga ta'sir etadi. Organizmda yetishmasligi shabko'rlikni keltirib chiqaradi, ko'z shox pardasini qurishiga, shilliq organlarni zararlanishiga olib keladi. Dengiz baliqlari jigarida to'planadi, provitamin A – karotinoidlar holatida esa chakanda, ryabina, na'matak, qizil qalampir mevalari va boshqa o'tlar – dalachoy va boshqalar tarkibida to'planadi.



Vitamin A (retinol)

Karotinlarga boy bo'lgan Davlat farmokopeyasiga kiritilgan o'simliklar:


Oddiy chetan( mevasi) – *Sorbus aucuparia L.*

Jumrutsimon chakanda (chipqanoq mevasi va moyi) – *Hippophae rhamnoides L.*

Dorivor kalendula (guli) – *Calendula officinalis L.*

#### B guruh vitaminlari

Suvda eruvchi. Sutkalik ehtiyoj miqdori 0,2 dan 20 mg tashkil etadi. Uglevod, lipid va oqsil almashinuvida, bir qator moddalar biosintezida ishtirok etadi. B guruh vitaminlarini yetishmasligi turli organlar va organizm faoliyatini buzilishiga olib keladi. Yuqori konsentratsiyada organizmda to'planmaydi.



### C vitaminini – askorbin kislotasi

Suvda eruvchi. Sutkalik ehtiyoj 50-100 mg. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida ishtirok etadi, organizmning ekstremal ta'sirlarga qarshiligini oshiradi. Vitamin yetishmasligi tsinga kasalligini (milklarni yumshab qolishi, tishlarni tushib ketishi, milq qonashi) keltirib chiqaradi. Na'matak mevasi, qora smorodina va boshqa mevalar tarkibida to'planadi.

Askorbin kislotasiga boy bo'lgan Davlat farmokopeyasiga kiritilgan o'simliklar:


Na'matak turlari (mevasi) – *Rosa L.*

Qora qaragat (smorodina) (bargi va mevasi) – *Ribes nigrum L.*

O'rmon qulupnayi (yertut) (bargi va mevasi) – *Fragaria vesca L.*


### D vitaminini (ergokaltsiferol, xolekaltsiferol)

Yog'da eruvchi. Organizmda kalsiy va fosfor almashinuvida, suyak va tishlar mineralizatsiyasida ishtirok etadi. Yetishmasligi bolalarda raxit (suyaklarni yumshab qolishi) va kattalarda osteoporozni (suyaklarni mo'rtlashishi) keltirib chiqaradi. Dengiz baliqlari jigarida to'planadi. Ayrim zamburug'lar (shox qorakuyasi) juda ko'p miqdorda provitamin D – ergosterin saqlaydi.




#### *E vitamin – tokoferol*

Yog'da eruvchi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida, ko'payish jarayonlarida ishtirok etadi, yurak-tomir va asab tizimiga ta'sir etadi. Antioksidant sanaladi. Yuqori miqdorda chakanda, na'matak mevasida va boshqa o'simlik moylari (makkajo'xori, zig'ir, kungaboqar) tarkibida uchraydi.



#### Tokoferol


*F. vitamini* – yuqori chegaralangan yog' kislotalari (araxidon va unga yaqin bo'lganlar). Prostaglandinlarga yaqin turadi. Yog'da eruvchi. Dengiz baliqlari jigari va ayrim yog' kislotalari tarkibida boladi.



#### $\Delta^{5,8,11,14,17}$ -eykozapenten kislota

### *K vitamin - filloxinon*

Yog'da eruvchi. Protrombin hosil qilishini boshqarib, qon ivishida qatnashadi. Qariyb barcha o'simliklar tarkibida uchraydi, ammo yuqori konsentratsiyada faqat ayrim o'simliklarda – qichitqi o't bargi, jag'-jag' yer ustki qismi, makkajo'xori popugi tarkibida bo'ladı. Yetishmasligi qon ivishini buzilishi va qon ketishini keltirib chiqaradi.



Vitamin K<sub>1</sub> (filloquinon)

K vitaminiga boy bo'lgan Davlat farmokopeyasiga kiritilgan o'simliklar:

Ikki uyli gazanda (chayon o'ti, chaqong'ich) – *Urtica dioica* L.

Makkajo'xori – (onalik ustunchasi) – *Zea mays* L.

Oddiy bodrezak (kalina, chigiz) (po'stlog'i va mevasi) – *Viburnum opulus* L.

Gangituvchi bozulbang (guli) – *Lagochillus inebrians* Bge.

Jag'-jag' (achambiti) (yer ustki qismi) – *Capsella bursa pastoris* Medic.

## **2.2. Polifenol birikmalar**


Fenol tabiatli moddalarga aromatik halqaga ega bo'lgan birikmalar kirib, uning asosida bir yoki bir nechta gidroksil guruhlar birlashgan benzol halqasi yotadi.

Fenol birikmalarining kimyoviy tasnifi biogenetik qonunga asoslanadi. Barcha fenollarni molekulyar tuzilishi murakkablashib borish tartibidagi bir nechta guruhga bo'lish mumkin:


| <b>Fenol birikmalari</b>                                       |  |
|--|--|
| Uglerod halqasi  | Birikmalarga misollar                              |
| <b>Bir benzol halqali</b>                                      |  |
| C <sub>6</sub>   | Oddiy fenollar, fenol glikozidlar                  |
| C <sub>6</sub> -C <sub>1</sub>                                 | Fenol spirtlar, fenol aldegidlar, fenol kislotalar |
| C <sub>6</sub> -C <sub>2</sub>                                 | Fenil sirka kislotalar                             |
| C <sub>6</sub> -C <sub>3</sub>                                 | Gidroksidolchin kislotalar, kumarinlar, xromonlar  |
| (C <sub>6</sub> -C <sub>3</sub> ) <sub>2</sub>                 | Lignanlar (dimer birikmalar)                       |
| <b>Ikkita benzol halqali</b>                                   |  |
| C <sub>6</sub> -C <sub>1</sub> -C <sub>6</sub>                 | Benzofenonlar, ksantonlar                          |
| C <sub>6</sub> -C <sub>2</sub> -C <sub>6</sub>                 | Stilbenlar   |
| C <sub>6</sub> -C <sub>3</sub> -C <sub>6</sub>                 | Flavanoidlar                                       |
| <b>Xinonlar</b>  |  |
| <b>Bir halqali</b>   | Benzoxinonlar                                      |
| <b>Ikki halqali</b>  | Naftaxinonlar                                      |
| <b>Uch halqali</b>   | Antraxinonlar va boshqa antratsen unumlari         |
| <b>Polimer fenol birikmalari</b>                               |  |
| <b>Oshlovchi moddalar</b>                                      |  |
| (C <sub>6</sub> -C <sub>1</sub> ) <sub>n</sub>                 | Gidrolizlanuvchi taninlar                          |
| (C <sub>6</sub> -C <sub>2</sub> ) <sub>n</sub>                 | Kondensatlanuvchi taninlar                         |
| (C <sub>6</sub> -C <sub>3</sub> -C <sub>6</sub> ) <sub>n</sub> | Liginilar  |
| (C <sub>6</sub> -C <sub>3</sub> ) <sub>n</sub>                 |  |

Fenollar, ularning glikozidlarini saqlovchi o'simliklar katta guruhiga tarkibida antratsen unumlarini saqlovchi o'simliklar kiradi.

**Antratsenlar va ularning tasnifi.** Antratsen moddalari saqlovchi o'simliklarga tarkibida antratsen halqasi saqlangan, oksidlangan, qaytarilgan, oksimetil yoki glikozid holidagi moddalar boladi. Ularning tarkibidagi antratsen yadrosi monomerlari turli darajada oksidlangan va kondensatlangan boladi. Gidroksil radikalning α, β yoki γ joylashishi ushbu birikmalarning fizik-kimyoviy va terapeutik xususiyatlarini o'zgarishiga ta'sir etadi.



**antratsen yadrosi**



### 2.1-rasm. Antratsen unumlari tasnifi sxemasi

**Antratsen unumlarini tabiatda tarqalishi.** Antratsen unumlari o'simlik olamida keng tarqalgan bo'lib, torondoshlar (Polygonaceae), itjumruttoshlar (Rhamnaceae), dukkakdoshlar (Fabaceae), lolaguldoshlar (Liliaceae), ro'yandoshlar (Rubiaceae) va boshqalarda ayniqsa ko'p.

Antratsen unumlari o'simlikda ko'pincha glikozid holida bo'lib hujayra shirasida erigan holda bo'ladi va o'simlikning shu organi zarg'aldoq-qizil rangga bo'yalgan bo'ladi. Antratsen unumlari ayrim mikroorganizmlarda, hasharotlarda ham topilgan.

**Fizik va kimyoviy xossalari.** Antratsen unumlari sariq, sariq-pushti, qizil rangli kristall moddalar bo'lib, aglikonlari efir,

xloroform, spirtda yaxshi, benzol va geksanda yomon eriydi, suvda esa erimaydi; glikozidlari esa organik erituvchilarda erimaydi, ammo suv-spirt (50-80%) aralashmasida, asetonda, ayrimlari suvda eriydi.

Antratsen unumlari qizdirilganda ( $201^{\circ}\text{C}$ ) uchuvchanlik (sublimatsiya) xossasiga ega. Antratsen unumlarning glikozidlari va qaytarilgan formalari optik aktiv moddalar bo'lib, qutblangan yorug'lik tekisligini o'ngga yoki chapga buradi.


Ishqor eritmasi ta'sirida antratsen glikozidlari parchalanib antroxinolat hosil qiladi, antroxinolatlar to'q qizil rangda bo'ladi. Shu antroxinolatlarni suvdagi eritmasiga kislota qo'shilsa yana aglikonga qaytib qizil rang yo'qolib, suvda erimaydigan sariq cho'kma hosil bo'ladi.

Gidroksil guruhi  $\alpha$ -holatda joylashgan antraxinon unumlari karbonil gruppasi bilan ichki vodorod bog'i hosil qiladi, shuning uchun bunday moddalar ishqorlar bilan ta'sirlashadi, ishqoriy metal karbonat eritmalari va ammiak bilan ta'sirlashmaydi. Erkin gidroksil guruhi  $\beta$ -holatda joylashgan antraxinon unumlari ko'proq reaksiya qobiliyatiga ega va ishqor eritmalari, gidrokarbonatlar va ammiak bilan reaksiyaga kirishib tuzlar hosil qiladi hamda eritmalarni qizil yoki binafsha rangga bo'yaydi.

Og'ir metall tuzlari bilan gidroksiantraxinonlar "lak" deb ataluvchi yorqin rangdagi kompleks birikmalar hosil qiladi va ular bo'yoq sifatida ishlataladi.

Antratsen unumlari xomashyo tarkibidan suv-spirt eritmasi orqali ekstraksiya yo'li bilan ajratib olinadi. Aglikonlarini glikoziddan ajratish uchun xomashyo xloroform yoki metil xlorid orqali ekstraksiya qilinadi.

**Biologik faolligi.** Antratsen unumlari ham o'simlik ham hayvon organizmida oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida ishtirok etadi, bakteritsidlik va spazmolitik faollik namoyon etadi. Ular surgi (emodin sinfi), psixotrop (giperitsin), yallig'lanishga qarshi (emodin sinfining qaytarilgan monomerlari), nefrolitik (alizarin sinfi), o'smalarga qarshi (antratsiklinlar) va turli fermentlar faolligiga ta'sir etuvchi sifatida qo'llaniladi.



### Biogen stimulyatorlarga boy preparatlar. Akademik V.P.

Filatovning ko'rsatishicha har qanday o'simlik yoki hayvon to'qimasini organizmdan ajratib olib, noqulay (lekin o'dirmaydigan) sharoitda saqlansa, to'qimada chuqur biokimyoiy o'zgarishlar yuz beradi. Normal moddalar almashinuvi jarayoni buziladi va hayot faoliyati so'na boshlaydi. To'qima o'z hayot faoliyatini tiklash uchun maxsus moddalar ishlab chiqaradi. Mana shu modda *biogen stimulyator* deb ataladi.


V.P. Filatov biogen stimulyatorga boy preparatlarni bemor organizmiga yuborib, ular organizm hayoti uchun qo'zg'atuvchan ta'sir ko'rsatganini va organizmnning kasallikka qarshi kurashish qobiliyatini oshirganini kuzatgan. Olim bu preparatlar bilan oldin ko'z kasalliklarini, keyinchalik boshqa og'ir kasalliklarni ham davolashni tavsiya etdi. U aloy bargidan biogen stimulyatorlarga boy preparat oldi. Bunday preparatlar, quyidagicha tayyorlanadi: aloyning kini bilan ko'chirib olingan yosh barglari 4-8° da va qorong'i yerda 12 sutka saqlanadi. So'ngra barglarni (tikanlarini olib tashlab) maydalab qirqib, bankalarga solinadi. Bankalardagi barg avtoklavda 120° da sterilizatsiya qilinadi. Ana shu barglar

implantatsiya qilish (teri ostiga tikish) uchun saqlanadi. Bundan tashqari, ulardan inyeksiya uchun ishlataladig'an ekstrakt ham tayyorlanadi. Buning uchun sterilizatsiya qilingan bargni ezib, distillangan suv yoki natriy xloridning izotonik eritmasiga solib qo'yiladi (1:5 miqdorda). Oradan 1-2 soat vaqt o'tgach, u qaynaguniga qadar qizdiriladi va suzib olib yana 2 minut qaynatiladi, keyin filtrlab ampulalarga quyiladi. Ampulalar og'zini kavsharlab, avtoklavda 120° da bir soat sterilizatsiya qilinadi.


Biogen stimulyatorlarga boy bargdan suvli suyuq ekstrakt (ichish uchun) va bargni quritib tabletka tayyorlanadi. Bu preparatlar ham ampulada chiqariladigan preparat o'rnidagi ishlataladi.

### **2.3. Terpenoidli birkmalar**

**Terpenoidlar va ularning tuzilishi.** Terpenoidlar (yoki izoprenoidlar) va ularning hosilalari beshta uglerod atomidan tashkil topgan izopren ( $C_5H_8$ )<sub>n</sub> unumlari hisoblangan hamda o'simliklar dunyosida (hayvonlarda ham) keng tarqalgan tabiiy birikmalar guruhidir. Bu birikmalar izoprenni turli xildagi polemerizatsiyasidan shakllanadi.



Izopren ( $C_5$ -birligi)



Bunday birikmalarga turlicha tuzilgan moddalar: efir moylari, smolalar, steroid birikmalar, karotinoidlar, kauchuk va boshqalar kiradi. Bu birikmalar molekulalarn tarkibida 2 ta yoki undan ko'proq izopren bo'laklari o'zaro ma'lum tartibda birlashgan bo'ladi (sxemaga qarang). Terpenoidlarning umumiy formulasi – ( $C_5H_8$ )<sub>n</sub>

| <b>Terpenoidlarning sinflari</b> | <b>Uglerod atomlari soni</b> | <b>Tabiatda tarqalishi</b>  |
|----------------------------------|------------------------------|---|
| Gemiterpen                       | $C_5$                        | Efir moylari  |
| Monoterpenoidlar                 | $C_{10}$                     | Efir moylari, iridoidlar, alkaloidlar   |
| Seskviterpenoidlar               | $C_{15}$                     | Efir moylari, alkaloidlar, seskviterpen laktonlar                               |
| Diterpenoidlar                   | $C_{20}$                     | Smola, alkaloidlar, xlorofill, K guruh vitaminlari, gibberelin                  |
| Sesteroterpenlar                 | $C_{25}$                     | Ofiobolanlar (zamburug'lar tomonidan ishlab chiqariladi)                        |
| Triterpenoidlar, steroidlar      | $C_{30}$                     | Saponinlar, kardiosteroidlar, ekdisteroidlar, limonidlar, alkaloidlar va boshq. |
| Tetraterpenoidlar                | $C_{40}$                     | Karotinoidlar, ksantofillar   |
| Politerpenoidlar                 | $(C_5H_8)_n$                 | Kauchuk, guttapercha  |

Terpenoidlarning ko'pchilik vakillarini – monoterpenoidlar seskviterpenoidlar, diterpenoidlarni – *efir moylari tashkil* etadi.

**Efir moylari va ularni tabiatda tarqalishi.** Efir moyi deb, o'simliklardan suv bug'i yordamida haydar olinishi mumkin bo'lgan, maxsus hidri va mazasi bor uchuvchan va asosan terpenoidlardan tashkil topgan organik moddalar aralashmasiga aytildi.

Xushbo'y hidli o'simliklar va ulardan olingan mahsulotlar odamlarga qadimdan ma'lum bo'lib, bulardan har xil kasalliklarni davolashda va ovqatlarga solishda ishlatganlar.

Orta asrda arablar o'simliklardan efir moylarini suv bug'i yordamida haydar olishni va keyin suvdan ajratib olishni bilganlar.

O'simlik dunyosida efir moylilar keng tarqalgan bo'lib, ularning soni 3000 ga yaqinini tashkil etadi. Ishlab chiqarishda 150-200 tasi ishlatiladi. 77 oilaga kiradigan 1050 dan ortiq efir moyli o'simliklar MDH hududida o'sadi. O'zbekistonda 650 ga yaqin efir moyi saqlovchi o'simliklar mavjud.

Lamiaceae yasnotkadoshlar (labguldoshlar – Labiateae), selderdoshlar – Apiaceae (soyabonguldoshlar – Umbelliferae),

Asteraceae – astradoshlar (murakkabguldoshlar – Compositae), sho'radoshlar (Chenopodiaceae), archadoshlar (sarvindoshlar) (Cupressaceae), mirtadoshlar (Myrtaceae), rutadoshlar (Rutaceae.), ra'noguldoshlar (Rosaceae) va boshqa oilalar vakillarida, ayniqsa, efir moylari juda ko'p uchraydi. Efir moylari bir o'simlik mahsulotida 0,001-20% gacha bo'lishi mumkin.

Efir moyi saqlovchi o'simliklar tropik va subtropik mintaqalarda keng tarqalgan. Tarkibida efir moyi bo'lgan o'simliklar asosan Ukraina, Moldoviya, Gruziya, Tojikiston, Qirg'iziston Respublikalarida, Shimoliy Kavkaz va Qrim o'lkkalarida ko'plab o'stiriladi.

O'simliklarning deyarli barcha organlarida efir moyi bo'ladi. U gul va meva, barg va yer ostki organlarida hamda o'simlikning butkul yer ustki qismida to'planadi. Ba'zan bitta o'simlikning turli, organlarida tarkibi jihatidan turlicha bo'lgan efir moylari bo'lishi mumkin. Masalan, pomeranets daraxti bargidan, gulidan, xom mevasidan va pishgan mevasi po'stidan tarkibi turlicha bo'lgan 4 xil efir moyi olinadi.

**O'simliklardagi efir moylarining yig'ilishiga turli omillarning ta'siri.** Efir moyining miqdori va tarkibiy qismi o'simlikning o'sish joyiga, taraqqiyot davriga, yoshiga va naviga qarab o'zgarib turadi. Efir moyining o'simlik tarkibida ko'p yoki kam bo'lishi havo haroratiga va namligiga, tuproq namligiga hamda yerdagi mineral moddalarning sifatiga va miqdoriga ko'p jihatdan bog'liqdir. Odatda janubda o'sadigan o'simliklar shimoldagiga nisbatan efir moyiga boy bo'ladi.

Efir moyining miqdori o'simliklarda 0,001-20% bo'lishi mumkin. Bu moyning miqdori va tarkibiy qismi o'simlikning o'sish joyiga, rivojlanish davriga, yoshiga va naviga qarab o'zgarib turadi. Turli o'simliklarda efir moyining ko'p miqdorda to'planishi turli vaqtлага to'g'ri keladi. Odatda o'simliklar gullah, ba'zilari g'unchalash davrida yoki bundan ham ertaroq efir moylarini maksimal miqdorda to'playdi. Efir moyining o'simlik tarkibida ko'p yoki kam miqdorda to'planishi havo haroratiga va namligiga, tuproq namligiga hamda yerdagi mineral moddalarning ko'p yoki ozligiga bog'liq.

Odatda havo harorati ko'tarila boshlagan sari o'simlik tarkibida efir moylari ko'proq sintezlanadi va aksincha, havo namligi ko'payishi bilan bu birikmalar miqdori kamayib boradi. Tuproqdag'i namlikning o'rta darajadan ko'p yoki kam bo'lishi o'simlik tarkibida efir moylarining kamayishiga olib keladi. Shuningdek qurg'oqchilik ba'zi o'simliklarda efir moylarining ko'p to'planishiga sabab bo'ladi.

Mineral moddalardan, masalan, K<sup>+</sup> kaliy kationi va RO<sup>-3</sup><sub>4</sub> anioni rozmarin tarkibida efir moyining ko'p to'planishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Odatda janubiy tumanlarning florasi shimoliy tumanlarnikiga nisbatan efir moyi saqlovchi turlarga boy. Shu sharoitda o'sadigan o'simliklarning efir moylarining hidi ko'proq xushbo'y, tarkibiy qismi ham murakkabroq bo'ladi.

**O'simliklar hayotidagi ahamiyati.** Efir moylarining o'simliklar hayotida tutgan o'rni, ya'ni ahamiyati shu vaqtgacha to'la aniqlanmagan. Ba'zi olimlar efir moylari va smolalar o'simliklarni turli kasallikklardan, zararkunandalardan, chirishdan hamda zaharlanishdan saqlash vazifasini o'taydi, degan fikrni bildiradilar. Ba'zi nazariyalarda esa efir moylari hasharotlarni jalg etadi va o'simlik gullarining changlanishiga yordam beradi, deyiladi. Bundan tashqari efir moylari o'simlik chiqindisi yoki zaxira ovqat moddasi bo'lib xizmat qiladi, degan fikrlar ham bor.

Olimlarning fikricha, efir moylari o'simliklarni kunduzi qattiq qizib ketishdan, kechasi esa qattiq sovushdan saqlaydi hamda to'qimalardagi suv bug'lanishini tartibga solib turadi. Yuqoridagi nazariyalalar qisman to'g'ri bolsa-da, efir moylarini o'simliklarda faqat shu maqsadlar uchungina xizmat qiladi, deyish xato bo'ladi. Keyingi vaqtarda bir guruh olimlar efir moylari boshqa biologik faol moddalar singari o'simliklar to'qimasida bo'ladigan moddalar almashinuviga jarayonida faol ishtirok etadi, degan fikrni bildirmoqdalar.

O'simlik tarkibidagi efir moylarining miqdori va tarkibi uning o'sish davriga bog'liq holda doimo o'zgarib turadi. O'simlikda avval oddiy birikmalar sintez bo'lgan bolsa, keyinchalik yuz beradigan o'zgarishlar (unish, g'uncha hosil qilish, gullah, meva tugisi va boshqalar)ga qarab efir moyining tarkibi o'zgaradi va vegetatsiya davrinining oxirida yanada murakkablashgan birikmalar hosil bo'ladi.

Ko'pincha o'simlikning qarishi davrida moy tarkibida oksidlangan tarkibiy qismlar yig'iladi. Yuqorida keltirilgan dalillar o'simliklardagi efir moylarining fiziologik ahamiyatini aniqlashda katta o'rinni tutadi.

### **Efir moyi ishlab chiqaruvchi va to'plovchi o'simlik qismlari.**

Efir moylari o'simlik to'qimalarda moy ishlab chiqaruvchi va saqllovchi maxsus organlarida to'planadi. Erkin holda uchraydigan efir moylaridan tashqari, glikozidlar tarkibiga kiradigan efir moylari ham mavjud. Ular glikozidlar parchalangandagina erkin holda ajralib chiqadi. Bunday glikozidlar to'qimalarining hujayra shirasida bo'ladi.

Efir moylarini ishlab chiqaruvchi va saqllovchi organlar, asosan ikki guruhga bo'linadi:

1. *Sirtqi – ekzogen organlar* – o'simliklar sirtida bo'lib, epidermal to'qima ustiga joylashgan.

2. *Ichki endogen* – organlar epidermal to'qimalar ostida joylashgan.

Efir moylari ishlab chiqaruvchi ekzogen organlarga bezsimon dog'lar, bezli tuklar va maxsus bezlar kiradi.

Odatda bezsimon dog'lar gulning tojbargida bo'lib, ular ishlab chiqargan moylar epidermal to'qimaning ustidagi kutikula qavati ostida to'planadi. Natijada oz miqdorda efir moyi to'planadigan va mikroskop ostidagini ko'rish mumkin bo'lgan dog'lar vujudga keladi.

Ba'zan o'simliklarning barg, poya va gul qo'rg'onida uchraydigan tuklarning bezli boshchalari bo'ladi. Bu boshchalar efir moyi ishlab chiqarishi mumkin. Shuning uchun bunday tuklar efir moyi ishlab chiqaruvchi bezli tuklar deb ataladi.

Efir moyi ishlab chiqaruvchi bezlar ekzogen organlarning eng murakkabi hisoblanadi. Odatda ular poya, barg va gul qo'rg'onning (tevaragining) epidermal to'qimasi ustiga oyoqchalari yordamida joylashgan bo'ladi. Oyoqchalari bitta yoki bir nechta qisqa hujayralardan, boshqalari esa efir moyi ishlab chiqaruvchi 4-12 va undan ortiq hujayralardan tuzilgan. Efir moylari kutikula qavati ostiga to'planganligi uchun bezlar ko'pincha so'rg'ich shaklida bo'ladi. Efir moyi ishlab chiqaradigan bezlar labguldoshlar va murakkabguldoshlar oilasiga kiradigan o'simliklarda ayniqsa ko'p.

Bunday bezlarni mikroskop ostida yalpiz, marmarak barglarida, moychechak gulida ko'rish mumkin.

Efir moylari ajratib chiqaruvchi va to'plovchi endogen organlarga moy to'planadigan joylar, kanalchalar, moy yo'llari hamda ildiz va ildizpoyanining epidermis yoki probka to'qimalari ostida bir-ikki qator bo'lib joylashgan hujayralar kiradi. Bunday hujayralar efir moyi ishlab chiqaradi va uni saqlaydi.

Efir moyi to'planadigan joylar shar yoki cho'ziq shaklda bo'lib, o'simliklar bargida va gulkosacha bargida, po'stlog'ida, yog'och qismida hamda meva po'stida uchraydi.

Efir moyi to'planadigan joylar o'simlik organlarida turli usullar bilan hosil bo'ladi. O'simlik to'qimalari hujayralarining siqilishi natijasida bo'shliq vujudga kelib, so'ngra uning chetlarida efir moyi ishlab chiqaradigan hujayralar paydo bo'ladi va ular moy yig'iladigan joyni hosil qiladi. Bu usul sxizogen tipi deb ataladi. Ba'zan to'qimalarda oldin ishlab chiqarilgan bir tomchi efir moyi o'z atrofidagi hujayralarni eritib, bo'shliq hosil qiladi. Natijada bu bo'shliq tevaragida efir moyi ajratuvchi hujayralar paydo bo'lib, ular moy yig'iladigan joyni vujudga keltiradi. Bu usul lizogen tipi deb ataladi. Odatda o'simliklarda bu ikki usulning to'qimalarda umumlashishidan sxizolizogen tipida hosil bo'lgan efir moyi to'planadigan joylarni ko'proq uchratish mumkin. Bu holda hujayralarning siqilib hosil qilgan bo'shlig'ida paydo bo'lgan efir moyi atrofidagi qolgan hujayralarni ham eritib moy yig'iladigan joyni vujudga keltiradi.

Kanalchalar va efir moyi yo'llariga shaklini o'zgartirgan (uzunlashgan) moy yig'iladigan joylar deb qarash mumkin. Ular devorining ichki tomonida moy ajratadigan hujayralar joylashgan. Bu hujayralarning kelib chiqishi ham efir moyi to'planadigan joylarning vujudga kelishiga o'xshash bo'lishi mumkin.

**Efir moylarini olish usullari.** Efir moyi o'simliklardan quyidagi usullar bilan olinadi:

1. *Efir moyini o'simliklardan suv yoki suv bug'i yordamida haydar olish usuli.* Bu eng eski va oddiy usul bo'yicha efir moyi olish uchun kubga (laboratoriya esa kolbaga) maydalangan o'simlik organi solinadi va ustiga suv quyiladi, so'ngra kub (yoki

kolba)sovutgich bilan birlashtirilib, qizdiriladi. Efir moyi bug'i suv bug'i bilansovutgichdan o'tadi-da, loyqa suv holatida distallatga aylanadi, so'ngraqabul qiluvchi idishga tushadi. Distillat biroz turgandan keyin efir moyi zichligiga qarab, maxsus yasalgan florentik idishlarda yoki suv ustiga yoki suv ostiga yig'iladi va so'ngraqabul moyi ajratib olinadi.

*Efir moylarini suv bug'i yordamida ajratib olish jarayoni quyidagicha boradi. Maxsus kolba yoki kubda suv bug'i hosil qilib, uni o'simlik organi solinuan idish tagidan o'tkaziladi. Bunda suv bug'i o'ziga efir moyi bug'ini qo'shib olib, sovutgichdan o'tadi. Bug'larsovib, suyuqlikka aylanadi va maxsus idishlarga tushadi.*

Efir moyini suv bilan haydab olinganda o'simlik organi ham suv bilan birga qiziydi. Bunda o'simlik organi kuyishi, efir moyining sifati esa qisman buzilishi mumkin. Efir moyi suv bug'i bilan haydalga esa bu hodisa yuz bermaydi. Shuning uchun tarkibiy qismi tez buziladigan efir moylari o'simliklardan suv bug'i yordamida haydab olinadi.

2. *Matseratsiya usuli* efir moylarining yog'larda erish xossasiga asoslangan. Shuning uchun bu usul qizdirilganda tarkibiy qismi o'zgarib ketadigan efir moylari olishda qo'llaniladi. Tarkibida efir moyi bo'lgan gullar maxsus idishga solinib, ustiga zaytun moyi quyiladi va 50°C gacha qizdiriladi. Natijada mahsulotdagi efir moyi zaytun moyiga o'tadi. Gullardan tozalangan moy maxsus maqsadlar uchun ishlataladi.

3. *Anfleraj (yutish)* usuli efir moylarining qattiq moylarga yutilishiga asoslangan. Bu usul bilan odatda gullardan yuqori sifatlari va qizdirilganda buziladigan efir moylari olinadi, yutilish jarayoni oddiy haroratda olib boriladi, shuning uchun efir moyi tarkibi buzilmay, sifati saqlanib qoladi. Bir necha kun davom etadigan yutilish jarayonida gullar o'zidan efir moyi ajratib chiqarishni davom ettirishi mumkin.

Bu usul bilan efir moylari olish uchun bo'yisi va eni 50x50 sm bo'lgan qalin oyna 5 sm qalinlikdagi maxsus ramkaga o'rnatiladi va ikki tomoniga yuqori sifatlari yog' aralashmasi (3 qism cho'chqa yog'i va 2 qism mol yog'i) yupqa qilib surtiladi. Yog' ustiga gullar yoki

tojbarglar qo'yiladi. Keyin ramalar, maxsus taxnlarga o'rnataladi va ustidagi gullar har kuni yangilanib turiladi. Plantatsiyadagi o'simliklarning gullah davri 1-2 haftadan ortiq davom etadigan bo'lsa, oyna ustidagi yog' ham yangilanadi. Shunday qilib, xushbo'y yog' tayyorlanadi. Bu yog'lar esa maxsus maqsadlar uchun ishlataladi.

Efir moylarini faollashtirilgan ko'mirga yuttirib olish usuli ham ishlab chiqilgan.

4. Presslash usuli bilan tarkibida ko'p miqdorda efir moyi bo'lgan mahsulotlar (limon, apelsin, pomeranets, bergamot va boshqa o'simliklarning mevalari)dan olinadi. Bunday o'simlik mevalarining po'sti qo'l bilan siqilganda ham ma'lum miqdorda efir moyi ajraladi. Agar efir moyi turgan joylarni tishli disk bilan yorib, meva po'sti siqilgudek bo'lsa, ko'proq moy ajraladi. Efir moyi zavodlarda ham shu usul bilan olinadi.

5. *Ekstraktsiya usuli* efir moylarining ko'pchilik organik erituvchilarda yaxshi erish xususiyatiga asoslangan. Efir moyi o'simlik organlaridan past haroratda yengil uchuvchan organik erituvchi yordamida ajratib olinadi. So'ngra organik erituvchi haydalib, efir moyi ajratib olinadi.

**Efir moylarining fizik xossalari va tibbiyotdagi ahamiyati.** Efir moylari ko'pincha rangsiz yoki ba'zan turli rangda (yashil, och sapiq, to'q ko'k, qizil, qo'ng'ir) bo'lib, o'ziga xos hidga va o'tkir mazaga ega bo'lgan uchuvchan tiniq suyuqlikdir. Uning zichligi ko'pincha suvdan yengil, ba'zan og'ir bo'lishi mumkin. Juda yengil efir moyining zichligi 0,8, eng og'iriniki esa 1,182.

Ko'pchilik efir moylari tarkibida assimetrik uglerod atomi bo'lgani sababli, yorug'lik tekisligini o'ngga yoki chapga og'diradi. Efir moylarining qaynash harorati qat'iy emas. Uni tashkil etgan komponentlar turli haroratda qaynab, alohida-alohida ajralib chiqaveradi. Efir moylari barcha organik erituvchilarda yaxshi eriydi, yog'lar bilan har xil miqdorda aralashadi, suvda erimaydi. Suv bilan chayqatilganda hidi va mazasi suvgaga o'tadi. Bu usulda olingan xushbuy suvlar tayyorlanadi va tibbiyotda ishlataladi.

Efir moylari neytral yoki kuchsiz kislotali muhitga ega. Ular sovutilganda, kristall qismi ajralib chiqadi. Ana shu qismi stearopten (ko'p ishlatiladi), qolgan suyuq qismi esa eleopten deb ataladi.

**Tibbiyotdagি ahamiyati.** Efir moylari organik birikmalar aralashmasidan tashkil topgan bo'lib, shu moy tarkibidagi ba'zi qismlargina tibbiyotda, parfyumeriyada va boshqalarda ishlatiladi. Efir moylarining asosiy qismlari sifatida ko'pincha kislorodli birikmalar - spirtlar, kislotalar, ularning murakkab efirlari, fenollar, aldegidlar, ketonlar va boshqalar boladi. Keyingi vaqtida efir moylari tarkibidagi terpenlarning, ayniqsa, seskviterpenlarning tibbiyotda ahamiyati katta ekanligi aniqlandi.

Efir moylari tibbiyotda dori sifatida ichiladi yoki badanga surtiladi va inyeksiya qilinadi, bundan tashqari, ba'zi dorilar aralashmasi tarkibiga kiradi. Efir moyli o'simliklardan tayyorlangan dori turlari ham tibbiyotda keng qo'llaniladi. Efir moylari farmatsevtikada boshqa dorilar mazasi va hidini yaxshilash uchun qadimdan ishlatilib kelingan. Ko'pgina efir moylari bakteritsid xossasiga ega bo'lganidan tish kasalliklarini davolashda va ingalyatsiyada (nafas yo'llarini dezinfeksiya qilishda) qo'llaniladi. Xonalar (ko'pincha kasalxonalar) havosini yaxshilash uchun ham efir moylaridan foydalaniladi.

Efir moylari ko'proq parfyumeriyada, kosmetikada, texnikada va oziq-ovqat sanoatida ishlatiladi.

### **III BOB. ORGANIK KISLOTALAR, ALKALOIDLAR, GLIKOZIDLAR**

#### **3.1. Organik kislotalar va ularning ahamiyati**

Organik kislotalar fermentativ reaksiyalarning oraliq yoki oxirgi metabolitlari hisoblanadi. Asosan organik kislotalar glikoliz (pirouzum, sut, fosfoenolpirouzum va boshqa kislotalar) jarayonida, uch karbon kislotalar siklida (oksalotsetet, sitrat, izositrat, ketoglyutarat, yantarat, fumarat, olma kislotalari), glioksalat siklida (limon, olma, yantarat, fumarat kislotalar), askorbin kislota sintezi reaksiyalarida (glyukuron, gulon, askorbin kislota), yog' kislotalar sintezida (sirka, yog' kislotalari) va hokazolarda hosil bo'ladi.

Organik kislotalar mahsulotlarning ta'mi va sifatini belgilaydi. Organik kislotalar monosaxaridlarning oksidlanish reaksiyalari spirtlar, aldegidlar mahsulotlari bo'lib, aldeidlardan farqi, ular kuchli polyarlangan qo'shbog'ga egaligidir, ularning erishi va qaynashi yuqori harorat talab qiladi. Hamma organik kislotalar nordon reaksiya beradi, suvli eritmalari dissotsiatsiyasi kichik darajada bo'lib, kuchsiz kislotalar qatoriga kiradi.

Karbon kislotalari ichida chumoli, sirka va propion kislotalar kuchli maxsus hid beradilar, kislotalar o'rta qatori esa noxush hidga ega bo'ladilar, ammo yuqori yog' kislotalari bo'lsa umuman hidsiz bo'ladilar.

Organik kislotalar tirik organizmlarda spirlarni o'zgarishi (metanol, etanol, propanol va boshqalar) va aldegidlar (formaldegid, atsetaldegid va boshqalar) xususiy reaksiyalarida alkogoldegidrogenaza fermenti ishtirokida boradi, ularning ko'p miqdori donlarning murtagida kuzatiladi.

Asosiy biogen sistemalardagi karbon kislotalar uglevodlarning aerob va anaerob oksidlanishi natijasida hosil bo'ladilar (sirka, propion, va yog' kislotalari). Karbon kislotalari ichida keton guruh

tutadiganlari uchraydi (pirouzum, oksaloatsetat, ketoglyutarat kislota). Undan tashqari karbon kislotalari aminokislotalarning dezaminlanishi natijasida hamda transaminlanish reaksiyalarida hosil bo'ladi. Ularni ichida yuqori yog' kislotalari, hujayra membranalari tarkibiga kirib, mitsellyar struktura hosil qiladilar.

Hamma organik kislotalar suvda yaxshi eriydi, ularning kislotaliligi tarkibidagi karboksil guruh bilan belgilanadi. Karboksil guruhning dissotsiatsiyasi jarayoniga radikalning tabiatini ta'sir etadi. Shuning uchun organik kislotalarning suvli eritmalari ta'mi boyicha farqlanadi.

Masalan, limon kislotasi nordon bog'lanmagan ta'm, vino kislotasi nordon bog'langan ta'm, olma kislotasi – nordon, yumshoq ta'm beradi. Mahsulotlarda oz miqdorda bo'lsa ham uning ta'mini beradi. Aktiv va titrlanadigan kislotalilikni farqlaydi. Aktiv kislotalilik kislota miqdori va tabiatiga bog'liq bo'ladi. Nordon ta'm sezila boshlanishi 100 ml eritmadan boshlanadi. Vino kislotasi – 6mg, sirka – 13,2 mg, olma – 10,7 limon – 15,4, sut – 20,7 mg da seziladi.

Organik kislotalar ta'sirida ovqat hazm qilish jarayoni tezlashadi. Kuchli eruvchanligi va kichik o'lchami tufayli organik kislotalar organizmga oson kirib borib, u yerda modda almashinuv jarayonlariga qo'shib ketadilar. Ko'pgina organik kislotalar konservantlar sifatida ishlataladi. Ularni utilizatsiyaga uchratilganda organizm qo'shimcha ozuqa resursini oladi.

Kundalik inson uchun organik kislotalar miqdori 2 gr ni tashkil etadi va kundalik sabzavotlar, mevalar va sut mahsulotlari hisobiga to'ldiriladi.

Mahsulotlarning kislotaliligi ularda organik kislotalar to'planishi har xil biokimyoiy jarayonlarni beradi. Masalan, sutning kislotaliligi sut kislotalari bakteriyalarining faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Karamning yuqori kislotaliligi uning tuzlanishi davomida to'planadi. Meva va sabzavotlarni saqlash davomida bakteriyalar ishtirok etadi va bijg'ish kuzatiladi. Ba'zi organik

**kislotalar** (sut, propion, moy kislotalar) bijg'ish jarayonida hosil bo'ladi. Uzum vinolarida uchuvchan organik kislotalar miqdori 0,1 % bo'lgan maxsus xushbo'y hid, 0,2% bolsa ruxsat berilmaydigan nordon ta'm yuzaga keladi. Bunda sirk, limon, olma, vinotosh va boshqa kislotalar juda oz miqdordagi organik kislotalar pishloq ta'mi va sifatini yaxshilab, xushbo'y hid va ta'm beradi. Uzoq muddat noqulay sharoitda saqlanganda mevalarda erkin moy kislotalar to'planadi hamda mahsulotning to'yinmagan moy kislotalari oksidlanishi ko'payadi.

**Organik kislotalarning biologik roli va oziq-ovqat mahsulotlari sifatiga ta'siri.** Organik kislotalarning ahamiyati ularning yuqori energetik qiymati va moddalar almashinuvidagi ishtiroki bilan belgilanadi. 1 gr limon kislotasining to'liq oksidlanishida 2,5 kkal energiya, olma kislotada esa 2,4 kkal, sut kislotasining to'liq oksidlanishida 3,4 kkal energiya ajraladi.

Organik kislotalarning asosiy biologik roli ularni ovqat hazm qilish jarayonidagi ishtirokidan. Organik kislotalar biologik aktiv moddalar qatoriga kiradi va organizmdagi oksidlanish-qaytarilish jarayonlarida ishtirok etadilar. Lipidlar almashinuvida ijobiy ta'sir ko'rsatadi (limon kislota, olma kislota), natijada xolesterinning kamayishi va to'qimalarda pasayishi kuzatiladi. Insonning organik kislotalarga talabi sutkasiga 2 gr ni tashkil qiladi. Limon va olma kislotalari oziq-ovqat sanoatida keng qo'llaniladi. Ularni mevali ichimliklar va qandolat mahsulotlari tayyorlashda ishlataladi. Limon kislotasining natriyli tuzi qon quyishda konservant sifatida qo'llaniladi. Vino kislotasi meditsinada hamda meva suvlarini ishlab chiqarishda, xamirni yumshatuvchi kimyoviy tayyorlashda, tekstil sanoatida, bo'yoqlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Tibbiyotda organik kislotalar to'plovchi obyektlar sifatida malina, qorag'at, o'rmon qrupnayi va olcha mevalari olinadi.

Oksalat kislota kalsiy ishtirokida erimaydigan kalsiy oksalatni hosil qiladi. Shuning uchun ratsionda kalsiy yetishmasligi natijasida oksalatning katta miqdori organizmda kalsiy

yetishmasligiga olib keladi. Undan tashqari oksalat kislota organizmda ozi oksidlansa, uning ko'pligi buyrakda tosh hosil qilib, zaharli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Sut kislota mahsulotlarida 2 ta optik izomer holatda  $\Delta(-)$  va  $L(+)$  sut kislota tuzlari holida boladi.  $L(+)$  laktat uglevodlar almashinuvida oraliq mahsulot hisoblanib, Krebs siklida oksidlanib,  $CO_2$  va  $H_2O$  gacha parchalanadi.  $\Delta(-)$  laktat inson ichagida sekin izomerlanib,  $L-$  laktatga o'tib, so'ng so'riladi.

Vino kislotasi inson organizmida o'zlashtirilmaydi.

### **3.2. Alkaloidlar va ularning ahamiyati**

O'simliklar (qisman hayvonlar) to'qimalarida tayyor holda boladigan asosli (ishqorli) xossaga va kuchli fiziologik ta'sirga ega bolgan azotli murakkab organik birikmalar alkaloidlar deb ataladi. Alkaloid arabcha – “alkali” – ishqor va yunoncha “eydos” – o'xshash (simon) so'zlaridan iborat bo'lib, ishqorsimon birikma degan ma'noni bildiradi. Bu alkaloidlarning asosli xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. 1819-yilda Meysner sabadilla o'simligidan asos xossalni birikma ajratib oldi va uni birinchi bo'lib alkaloid deb atadi.

Tarkibida alkaloid bolgan o'simliklar qadimdan ishlatib kelinsa-da, bundan taxminan 200 yil muqaddam alkaloidlarni o'rganish va tekshirish sohasida ilmiy ishlar boshlandi. 1792-yilda fransuz olimi Furkrua xin daraxti po'stlog'i tarkibidagi alkaloidlarni tekshirdi va ularni smola holida ajratib oldi. 1797-yilda Bome, 1804-yilda Derozn hamda fransuz farmatsevti Sege n opiy alkaloidlaridan narkotin bilan morfin ajratib oldi va uni «opiy tuzi» deb atadi. Shunday bolsada, alkaloidlarni tekshirgan birinchi kishi nemis dorixonachasi Sertyurner hisoblanadi. U 1806-yilda opiydan kristall holda alkaloid ajratib oldi va 1811-yilda bu birikmaga morfin deb nom berdi.

1918-yillarda rus olimi akademik A.P. Orexov tomonidan

Rossiyada ilmiy-tadqiqot instituti qoshida birinchi marta alkaloidlar bo'limi tashkil etildi va Rossiyada alkaloid bo'lgan o'simliklarni o'rganishga asos solindi. 1930-1937-yillarda laboratoriya xizmatchilari A.P. Orexov rahbarligida 80 ta alkaloidli yangi o'simliklarni topdilar hamda ulardan 40 ta yangi alkaloid ajratib oldilar. Bu vaqtida butun dunyoda hammasi bo'lib 113 ta, jumladan, Hindistonda 20, Yaponiyada 18, Angliyada 12, Xitoyda 10 ta yangi alkaloid topilgan edi. Shunday qilib, Rossiya alkaloidli o'simliklarni o'rganish bo'yicha dunyoda birinchi o'ringa chiqib oldi.

Bu davrda MDH shaharlari orasida Moskva, Sankt-Peterburg, Kiyev, Xarkov, Baku, Toshkent, Tomsk va boshqa shaharlarda alkaloidlarni o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari avj olib ketgan edi.

1936-yildan boshlab Toshkent davlat universitetining (O'zMU) kimyo fakultetida G.V. Lazarevskiy va O.S. Sodiqov, O'zbekistonda yovvoyi holda o'sadigan alkaloidli o'simliklarni tekshira boshladilar. 1946-yilga kelib, shu fakultet qoshida o'simliklar kimyosini o'rganish kafedrasini tashkil qilindi. Hozir ham bu kafedra xodimlari O'zbekistonda o'sadigan alkaloidli o'simliklarni tekshirishni davom ettirmoqdalar.

1943-yilda akademik S.Yu. Yunusov boshchiligidagi O'zbekiston Fanlar akademiyasi kimyo instituti qoshida alkaloidlar laboratoriysi tashkil etildi. Ko'p o'tmay bu laboratoriya mamlakatimizdagi alkaloidlarni o'rganuvchi eng yirik markazga aylandi. Bu yerda ko'pgina malakali mutaxassislar yetishib chiqdi. 1943-1976-yillarda laboratoriya xodimlari tomonidan 160 tur o'simlik to'liq o'rganildi va ulardan 590 ta alkaloid ajratib olindi. Shulardan 295 tasi o'simliklardan birinchi marta ajratib olingan yangi alkaloiddir.

1976-yilgacha MDH hududi bo'yicha 430 ta alkaloidning kimyoviy tuzilishi aniqlangan bolsa, shundan 245 tasining tuzilishi S.Yu. Yunusov rahbarligidagi laboratoriya xodimlari tomonidan tasdiqlangan. Hozir ham bu laboratoriyyada ilmiy tadqiqot ishlari qizg'in davom etmoqda.

**Alkaloidlar o'simliklar dunyosida tarqalganligi.** Alkaloidlar o'simliklar dunyosida keng tarqalgan. 1974-yil ma'lumoti bo'yicha yer yuzida tarqalgan yuqori o'simliklarning 327 oilasidan 140 tasida (40% ini tashkil qiladi) alkaloidlar borligi aniqlangan. Tarkibida alkaloidlar bo'lgan turkumlar Yer sharida o'sadigan o'simliklar turkumlarning 8,7% ni (10615 turkumdan 926 tasini), turlar ichida esa taxminan 2% ini tashkil qiladi.

Quyidagi oilalar vakillari alkaloidlarga boy: bir pallalilar ichida lolaguldoshlar (Liliaceae) va chuchmomadoshlar (Amaryllidaceae); ikki pallalilar ichida kendirdoshlar (Arosunaseae), ayiqtovondoshlar (Ranunculaceae), menispermadoshlar (Menispermaceae), ko'knordoshlar (Papaveraceae), dukkakdoshlar (Fabaceae) shamshoddoshlar (Buxaceae), loganiyadoshlar (Loganiaseae), ituzumdoshlar (Solanaceae), sho'radoshlar (Chenopodiaceae), astradoshlar (Asteraceae) murakkabguldoshlar (Compositae), zirkdoshlar (Berberidaceae) va ro'yandoshlar (Rubiaceae). Hozircha Pandales, Salicales va Fagales tartibining vakillari tarkibida alkaloidlar topilganicha yo'q.

Shu davr ichida butun yer yuzida ajratib olingan va tasvirlangan 4959 ta alkaloiddan faqat bиргина kendirdoshlar (Arosunaseae) oilasiga 897 ta alkaloid xillari to'g'ri keladi.

O'simliklar tarkibida juda oz miqdordan tortib, to 10-15, ba'zan 25% gacha alkaloidlar bo'lishi mumkin. Traxilantus o'simligida 18% miqdorida alkaloidlar summasi topilgan.

O'simliklarda bir-biriga yaqin ko'pgina alkaloid bo'ladi. Alkaloidlar soni ba'zi o'simliklar tarkibida 50 tadan ortadi. Masalan, *Vinca erecta* o'simligining alkaloidlar summasidan 55 ta alkaloid xillari ajratib olingan.

O'zaro (botanik jihatdan) yaqin bo'lgan o'simliklar tarkibida ko'pincha bir xil alkaloid bo'ladi. Masalan, ituzumdoshlar oilasiga kiradigan bir qancha o'simliklar (*Atropa L.*, *Hyoscyamus L.*, *Datura L.*, *Scopolia Jacq.* turlari) tarkibida tropan guruhiga xos alkaloidlar (atropin, giostsiamin, skopolamin) uchraydi. Ayni vaqtida bitta

alkaloid botanik jihatdan bir-biriga bog'lanmagan, bir qancha oilalarda ham bo'lishi mumkin. Masalan, efedrin alkaloidi Ephedraceae, Celastraceae, Malvaceae, Papaveraceae va Taxaceae (ya'ni 5 ta), kofein alkaloidi Sapindaceae, Theaceae, Sterculiaceae, Rubiaceae, Aquifoliaceae, Liliaceae va boshqalar (ya'ni 16 ta) oilalariga kiradigan o'simliklar tarkibida uchraydi.

### **Alkaloidlarning o'simliklar hayotidagi ahamiyati.**

Alkaloidlarning o'simliklar hayotidagi roli haqida bir qancha fikrlar bo'lib, ular quyidagicha:

1. Bir guruh olimlar, alkaloidlar – o'simliklar hayotida hosil bo'lgan chiqindi modda;
2. Alkaloidlar o'simliklar uchun zaxira ozuqa o'rniда xizmat qiladi, degan nazariya ham bor. Ma'lum sharoitda o'simliklar alkaloiddan zaxira ozuqa sifatida foydalanishi mumkin.
3. Alkaloidlar o'simliklarni hasharotlardan va hayvonlardan himoya qiluvchi birikma. Alkaloidli o'simliklar zaharli bo'ladi, shuning uchun ular kam kasallanadi hamda hayvonlar bunday o'simliklarni deyarli iste'mol qilmaydi.
4. Alkaloidlar o'simliklar uchun kerakli biokimyoviy jarayonlarda faol ishtirot etadigan zarur birikma hamda hujayra va to'qimalarning ayrim spektr nurlariga sezgirligini, ularning reaktivlik sezgirligini kuchaytiradigan (sensibilizator) birikmalar hisoblanadi.

O'simliklar uchun turli alkaloidlar turlicha ahamiyatga ega. O'simlikning o'sish davrida gordenin alkaloidi asta sekin kamayib, ligninga aylanib ketadi. Nikotin oksidlanishidan hosil bo'lgan nikotin kislotaning amid formasi o'simliklarni ba'zi oksidlanish va qaytarilish jarayonida ishtirot etuvchi fermentlarning asosiy qismi hisoblanadi. Nikotin va konvolamin alkaloidlari o'z metil guruhini boshqa birikmalar sintezi uchun berishi mumkin. Piridin va piperidin alkaloidlari piridinnukleid fermentlar sintezida ishtirot etadi. O'simliklar to'qimasida alkaloidlarning oksidlangan N-oksid formasi o'zidan kislorod ajratib beradi va kerak bo'lganda ortiqcha

kislородни о'зига бирiktirib, то'qimalardagi oksidlanish va qaytarilish jarayonlarida faol ishtirok etadi. Alkaloidlar o'simlik to'qimalarida bufer rolini ham bajarishi mumkin.

O'simliklarning ko'karib turgan yer ustki qismida alkaloidlar odatda o'simlikning yaxshi o'sgan vaqtida maksimal miqdorda to'planadi. Bu davrda yer ostki organlarida alkaloidlar minimal miqdorda bo'lib, ularning maksimal miqdorda to'planishi yer ustki qismining qurib qolishi va o'simlikning uyquga kirish davriga to'g'ri keladi. Demak, alkaloidlar o'simliklarning ayni davrida kerak bo'lgan va nasl qoldirish uchun asosiy rol o'ynaydigan organlarida maksimal to'planar ekan. Bu hol alkaloidlarning o'simliklar hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadigan dalillardan biridir.

Haqiqatan ham alkaloidlarning kimyoviy tuzilishi turli variantlarda bo'lishini ko'z oldimizga keltirsak, yuqorida aytilgan, fikrlarning to'g'ri ekanligini isbotlash qiyin emas. Shu bilan birga hamma alkaloidlar o'simliklar to'qimasida bir xil biologik funksiyani bajaradi, deyish katta xatodir.

Agar o'simlikka bir butun organizm deb qaralsa, alkaloidlar o'z tuzilishiga, o'simlik xususiyatiga qarab turli vazifalarni bajara oladi. Ular ma'lum vaqtda zaxira ozuqa va himoya qiluvchi moddalar hamda o'simlik to'qimasida ro'y beradigan biokimyoviy jarayonlarda faol ishtirok etadigan zarur birikmalar sifatida xizmat qilishi mumkin.

**Alkaloidlarning fizik va kimyoviy xossalari.** Ko'pchilik alkaloidlar rangsiz, optik faol (qutblangan nur tekisligini og'diruvchi), hidsiz, achchiq mazali, uchmaydigan, qattiq kristall yoki amorf modda. Shu bilan birga rangli (berberin to'q sariq rangga bo'yagan), suyuq, hidli va uchuvchan (anabazin, nikotin, koniin va boshqalar) alkaloidlar ham bo'ladi.

Alkaloidlar o'simliklar tarkibida 3 xil ko'rinishda uchraydi:

1. Sof (asos) holida.
2. Kislotalar bilan birikkan birikmalar – tuzlar holida.

3. Azot atomi bo'yicha oksidlangan N-oksid formasida.

O'simlik to'qimasida alkaloidlar ko'pincha organik (oksalat, olma, limon, vino va boshqa), mineral (sulfat, fosfat va boshqa) va ba'zan o'simliklarning o'ziga xos (mekon, xin, xelidon va boshqalar) kislotalar bilan birikkan tuzlar holida uchraydi.

Sof (asos) holdagi alkaloidlar organik erituvchilarda yaxshi eriydi, suvda erimaydi. Ularning kislotalar bilan hosil qilgan birikmalari – alkaloidlarning tuzlari esa suvda yaxshi eriydi, ammo organik erituvchilarda erimaydi. Asos hamda tuz holdagi alkaloidlar spirtda bir xilda yaxshi eriydi. Shu bilan birga suvda va organik erituvchilarda bir xilda yaxshi eriydigan sof alkaloidlar (sitizin, metilsitizin, kofein va boshqalar) hamda suvda yomon eriydigan alkaloid tuzlari (xinin sulfat ) ham uchraydi.

Alkaloidlar kislotalar bilan birikib, kristall holdagi tuzlar hosil qiladi. Bu reaksiyada alkaloid molekulasiga kislotaning butun molekulasi qo'shiladi. Odatda alkaloid tuzini olish uchun yaxshi kristallananadigan tuz hosil qiluvchi kislotadan foydalaniladi.

Alkaloidlarning dissotsiatsiya konstantalari juda katta chegarada ( $1 \cdot 10^{-1}$  dan to  $1 \cdot 10^{-12}$  va undan yuqori) bo'ladi. Shuning uchun ular kislotalar bilan turli darajada turg'un bo'lgan birikmali tuzlar hosil qiladi. Kichik dissotsiatsiya konstantasiga ega bo'lgan alkaloidlar (kofein, kolxitsin va boshqalar) kislotalar ta'sirida turg'un bo'lмаган tuzlar beradi. Natijada bu birikmalar suvli eritmalarida tezda parchalanib ketadi.

Alkaloidlar juda kuchsiz asos xususiyatiga ega, shu sababli ular o'z tuzlaridan boshqa asoslar (hatto natriy karbonat yoki kaliy karbonat eritmalarini ham) ta'sirida osonlik bilan siqib chiqariladi.

Alkaloidlar molekulasida uglerod, vodorod va azot atomlari bo'lishi kerak, kislorod bo'lishi shart emas. Odatda molekulasi kislorodsiz alkaloidlar ko'pincha suyuq, hidli va uchuvchan, kislorodlilari esa hidsiz, uchmaydigan, kristall modda bo'ladi.

O'simliklar tarkibida murakkab efirdan tashkil topgan alkaloidlar ham uchraydi. Ular molekulasi kuchli ishqor va

kislotalar ta'sirida parchalanishi mumkin (atropin, kokain, skopolamin va boshqa alkaloidlar). Agar alkaloid molekulasi tarkibida fenol guruhi bo'lsa, u holda ishqorlar ta'sirida suvda eriydigan fenolyat tipidagi birikma hosil bo'ladi. Alkaloidlarning bu xususiyatlari ularni analiz qilinayotganda hisobga olinishi lozim.

Ko'pincha alkaloid molekulasi tarkibidagi azot atomi molekulasi tashkil etuvchi halqa tarkibiga kirib, geterosiklik birikma hosil qiladi. Shuning uchun ko'pchilik alkaloidlar (ochiq zanjirli alkaloidlardan tashqari) geterosiklik birikmalar unumi hisoblanadi.

**Alkaloidlar va tarkibida alkaloid saqlovchi mahsulotlar tasnifi.** O'simliklardagi protoalkaloid molekulalari yopiq zanjir ko'rinishida (siklik) bo'lib, tarkibida albatta azot atomini tutadi. Ular geterosiklik birikmaning xususiyatiga bog'liq tarzda tasniflanadi. Psevdoalkaloidlar esa izoprenoidlar tuzilishi qonuniyatiga ko'ra tasniflanadi.

Tarkibida alkaloidlar bo'lgan o'simliklarni sinflarga bo'lishda ular tarkibidagi alkaloidlarning uglerod-azotli skeletining tuzilishi asos qilib olingan. Shunga ko'ra dorivor vosita sifatida ishlatiladigan alkaloidlar va ularni o'z tarkibida saqlovchi dorivor mahsulotlar quyidagi sinflarga bo'linadi:

1. Ochiq zanjirli (atsiklik) va azot yon zanjirda bo'lgan alkaloidlar.

Atsiklik alkaloidlarga sferofizin, azot yon zanjirda bo'lgan alkaloidlarga efedrin, kapsatsin, kolxitsin va boshqa alkaloidlar kiradi.


2. Pirrolidin unumlari bo'lgan alkaloidlar.



pirrolidin


Pirrolidinning oddiy unumlariga gigrin, kuskgigrin, karpain va boshqa alkaloidlar kiradi.

3. Pirrolizidin – geliotrindan (pirollidinning ikki molekulasi azot orqali jipslangan birikmasi) unumlari bolgan alkaloidlar.



pirrolizidin

Pirrolizidin unumlariga platifillin, sarratsin, trixodesmin, inkanin va boshqa alkaloidlar kiradi.



Platifillin

4. Piridin va piperidin unumlari bolgan alkaloidlar.




piridin



piperidin


Piridin va piperidin unumlariga koniin, lobelin, nikotin, anabazin, pelterin va boshqa alkaloidlar kiradi.

a) piridin va piperidin hosilalari. Bu guruhga lobelin (shishsimon lobeliya) va koniin (dog'li boligolov) kiradi.




Lobelin

b) bitsiklik jipslashmagan tizimlar. Bu guruhga anabazin (bargsiz itsigak), nikotin (oddiy tamaki) alkaloidlari kiradi.




Anabazin

5. Tropan (piperidin bilan pirrolidinni azot orqali jipslangan birikmasi), unumlari bo'lgan alkaloidlar.



Tropan




Giostsiamin

Tropan unumlariga atropin, giostsiamin, skopolamin, kokain va boshqa alkaloidlar kiradi.


Sekurinin alkaloidi ham piperidin bilan pirrolidinni jipslangan birikmasining unumiga (lekin tropan unumi emas) kiradi.

6. Xinolizidin (piperidinni ikki molekulasini yoki piperidin va piridinni azot orqali jipslangan birikmasi) unumlari bo'lgan alkaloidlar.




Xinolizidin

Xinolizidin unumlariga paxikarpin, sitizin, termopsin, nufaridin va boshqa lupinan alkaloidlari kiradi.




Termopsin




Sitizin

## 7. Xinolin unumlari bo'lgan alkaloidlar:



xinolin

Xinolin unumlariga xinin, sinxoxin, exinopsin va boshqa alkaloidlar kiradi.



Xinin

## 8. Akridin unumlari bo'lgan alkaloidlar:


Akridin unumlariga rutadoshlar oilasiga mansub ba'zi tropik o'simliklarning alkaloidlari kiradi. Bu guruh alkaloidlar tabiatda kam tarqalgan.

## 9. Izoxinolin unumlari bo'lgan alkaloidlar;




Izoxinolin

Bu guruh alkaloidlar o'simliklar dunyosida keng tarqalgan. Ularga izoxinolini oddiy unumlari (salsolin, salsolidin va boshqalar), benzilizoxinolin (papaverin, narkotin va boshqalar), fenantrenizoxinolin (morphin, kodein, tebain va boshqalar), fenantridinizoxinolin (galantamin va boshqalar) hamda izoxinolining ikki molekulasi birlashgan birikmasi — diizoxinolin (berberin tipidagi alkaloidlar) unumlari bo'lgan alkaloidlar kiradi.




R=H – morfin


R= CH<sub>3</sub> – kodein




Papaverin



Glautsin




Sangvinarin




Xeliritrin

## 10. Indol unumlari bo'lgan alkaloidlar:




Indol

Indol unumlariga strixnin, brutsin, rezerpin, aymalin, serpentin fizostigmin, garmin, brevikollin, vinkamin, vinblastin, shoxkuya o'simligining alkaloidlari (ergometrin, ergotamin) va boshqa alkaloidlar kiradi. Bu guruh alkaloidlar ham o'simliklar dunyosida ancha keng tarqalgan.




Aymalin




Strixnin

## 11. Imidazol unumlari bo'lgan alkaloidlar:

Imidazol unumlariga pilokarpin va boshqa alkaloidlar kiradi.




Imidazol




Pilokarpin

## 12. Xinazolin unumlari bo'lgan alkaloidlar:

Xinazolin unumlariga febrifugin, izofebrifugin, peganin va boshqa alkaloidlar kiradi.




Xinazolin



$\alpha$ -peganin

## 13. Purin unumlari bo'lgan alkaloidlar:

Purin unumlariga kofein, teobromin, teofillin va boshqa alkaloidlar kiradi.



Purin

## 14. Diterpen unumlari bo'lgan alkadoidlar.

Diterpen unumlariga elatin, delsemin, metildikakonitin, akonitin, zongorin va boshqa alkaloidlar kiradi.

## 15. Tsikpopentanopergidrofenantren unumlari bo'lgan alkaloidlar (steroid alkaloidlar).

Steroid alkaloidlarga solasonin, solanin, chakonin, psevdioervin, veratrozin va boshqalar kiradi.

**O'simlik tarkibidagi alkaloidlarga tashqi muhit omillarining ta'siri.** O'simlikdagi alkaloid miqdori va tarkibiy qismi doimo dinamik o'zgarishda bo'ladi. Bu o'zgarish o'simliklarning o'sadigan yeri va sharoitiga bog'liq. Odatda alkaloidlar o'simliklar gullashi oldida yoki gullash davrida ularning yer ustki qismida ko'p to'planadi. O'simliklar gullab bo'lgandan so'ng alkaloidlar ularning (agar ko'p yillik o't o'simlik bo'lsa) yer ostki organlarida (ayniqsa

piyozboshida) va qisman mevasida, bir yillik o't o'simliklarning esa mevasida yig'iladi. Ba'zan alkaloidlar o'simlik endi ko'karib chiqayotganida ularning yer ustki qismida ko'p to'planishi mumkin. O'simlikning turli qismlari tarkibida alkaloidlar nafaqat miqdor bilan, balki sifat jihatdan ham farq qiladi. Masalan lansetsimon bargli termopsis o'tida termopsin, urug'ida esa sitizin alkaloidi bo'ladi.

Alkaloidlarni shakllanishi va miqdoriga ularning o'sish fazasi ham ta'sir etadi. O'simlikning yer ustki qismida alkaloidlarning eng ko'p miqdori gullash-mevalash fazasida, yer ostki organlarida esa – yer usti massasini qurish fazasida kuzatiladi.

Alkaloidlarning to'planishiga tashqi muhit omillari – harorat, namlik, tuproq, yorug'lik, dengiz sathidan balandlik, kun uzunligi ta'sir etadi.

*Harorat:* o'simliklardagi alkaloidlar miqdori o'simlik o'sayotgan joy harorati ko'tarilishi bilan ortib boradi. Haroratni 0°C dan tushib ketishi, masalan bangidevona tarkibidagi alkaloidlarni ham miqdori ham sifatiga salbiy ta'sir etadi.

*Namlik:* yomg'irli, namgarchilik ko'p yillari alkaloidlar miqdori quruq ob-havo yillardagi sharoitdan ko'ra kamroq bo'ladi.

*Tuproq:* tuproq ishqoriyligining ortishi bilan o'simliklar tarkibidagi alkaloidlarning miqdori ortadi. Tuproqqa azotli o'g'itlarning kiritilishi ham alkaloidlar miqdoriga ijobiy ta'sir etadi.

*Kun uzunligi:* qisqa kun sharoitida o'simlikdagi alkaloidlar miqdori uzun kundagiga nisbatan doimo ko'p bo'ladi.

*Dengiz sathidan balandligi:* dengiz sathidan ko'tarilgan sari, masalan skopoliya o'simligi tarkibidagi alkaloidlar miqdori ortib boradi.

**Alkaloidlarning tibbiyotda ishlatalishi.** Alkaloidlar tibbiyotda ishlataladigan dorivor moddalar ichida eng qimmatlisi hisoblanadi. Ular ko'pincha spetsifik (ma'lum kasallikkha nisbatan) va boshqa dorilar bilan almashtirib bo'lmaydigan ta'sirga ega bo'lganligi uchun turli kasalliklarni davolashda keng miqyosda ishlataladi.

Dorixona va zavodlarda alkaloidli mahsulotlardan har hil dori turlari (damlama, qaynatma, nastoyka, ekstraktlar, yangi galei preparatlari) tayyorlanadi hamda sof holdagi alkaloidlar va ularning tuzlari ajratib olinadi.

**Tarkibida turli guruhga kiruvchi alkaloidlar saqlaydigan va davlat farmokopeyasiga kiritilgan o'simliklar:**

**1. Qalampir mevasi** (Bir yillik qalampir – *Capsicum annum* L.) – Ishtaha ochuvchi, ovqat hazm jarayonini yaxshilovchi, shamollash (radikulit, miozit, nevralgiya), revmatizmda ishlatiladi.

**2. Sho'r bo'yan yer ustki qismi** (Sho'r bo'yan (shildirbosh) – *Sphaerophysa salsula* (Pall.) D.C.) – gipertoniya, tug'ish zaiflashgan hollarda, tuqqandan keyin qon ketishni to'xtatish uchun).

**3. Qizilcha yer ustki qismi** (Tog' qizilchasi – *Ephedra equisetina* Bge.; Cho'l qizilchasi – *Ephedra intermedia* Schrenk.) – efedrin kishi organizmiga adrenalinga o'xshash ta'sir qiladi (simpatik nervlarni qo'zg'atadi, qorin bo'shlig'i va yurak qon tomirdarni nihoyatda toraytiradi). U adrenalindan asosan kam zaharliligi, sekin, lekin uzoq ta'sir qilishi bilan farq qiladi.

Efedrin og'ir operatsiya yoki travmadan so'ng ko'p qon yo'qotilishi natijasida yuz bergen kollaps holatida, qon bosimi pasayganda (gipotoniya), miasteniya, allergik-bronxial astma, pichan isitmasida (pichan astmasi), eshakem toshganda va tumov va boshqa kasallikkarda ishlatiladi. Bundan tashqari, efedrin alkaloidi morfin, skopolamin va gangliolitiklar bilan zaharlanganda ham qo'llaniladi. Efedrin gidroxlorid poroshok, tabletka va ampuladagi eritma holida chiqariladi. Efedrin gidroxlorid turli kompleks preparatlar tarkibiga kiradi.

**4. Savrjonning quritilmagan tugunak piyozi** (Chiroyli savrjon – *Colchicum speciosum* Stev.) – kolxamin preparati teri raki va leykoz kasalligini davolashda, kolxitsin esa bod, podagrani, nevralgiyani davolashda ishlatiladi.

**5. Yassi bargli senetsio ildizpoyasi, ildizi va yer ustki qismi** (*Senecio platyphyloides* Somn.); **Romb bargli senetsio**

**ildizpoyasi va ildizi** (*Senecio rhombilolius* Willd.) – tarkibidagi platifillin alkaloidi atropinga o'xhash, ammo unga o'xhash ta'sir etadi. Qorin va ichaklar spazmida, jigar sanchig'i, xoletsistit, bosh miya tomirlari spazmi, bronxial astmada ishlatiladi. Ko'z qorachig'inini kengaytiruvchi.

Sarratsin alkaloidi esa spastik kolit, me'da yara kasalligi, siydiq yo'li spazmi, migrenni davolashda ishlatiladi.

**6. Itsigag yer ustki qismi** (Bargsiz itsigak – *Anabasis aphylla* L.) anabazin alkaloidi o'zining farmakologik ta'siriga ko'ra nikotin, sitizin, lobelinga yaqin. Uning gidroxlorid tuzi kichik miqdorda tamaki chekishni tashlash uchun qo'llaniladi. Anabazin unumi – metilanabazin nafas olish markazini qo'zg'atuvchi stimulyator vosita sifatida tavsiya etiladi. Anabazindan nikotin kislotasi (vitamin PP) olinadi. Anabazin sulfat qishloq xo'jaligi ekinlari zararkunadlariga qarshi purkaladi.

**7. Uyatchan mimoza bargi** (Uyatchan mimoza – *Mimosa pudica* L.) quritilmagan bargidan anginol nastoykasi – tomirlarni kengaytiruvchi vosita olinadi.

**Tarkibida xinolizidin unumiga kiruvchi alkaloidlar bo'lgan dorivor o'simliklar:**

**8. Afsonak (termopsis) yer ustki qismi va urug'i** (Nashtarsimoi (lantsetsimon) afsonak (termopsis) – *Thermopsis lanceolata* R.; Ketma-ket gulli afsonak (termopsis) – *Thermopsis alleniiflora* Rgl. et Schriialch., Turkiston afsonagi (termopsisi) – *Thermopsis tuskestanica* Gand; dukkakdoshlar Fabaceae oilasiga kiradi) – Afsonak turlarining preparatlari balg'am ko'chiruvchi, sitizin alkaloidi esa nafas markazini qo'zg'atuvchi va qon bosimini ko'taruvchi dori sifatida ishlatiladi. Afsonak chet eldan keltiriladigan, balg'am ko'chiruvchi ta'sirga ega bo'lgan ipekakuana o'simligining ildizi o'rnila ishlatishga tavsiya etilgan va shu maqsadda ishlatiladi.

Afsonak o'simligi me'da shirasining ajralishini kuchaytiradi. Shuning uchun uning dorivor preparatlarini me'da va ichak

**kasalligi bo'lgan bermorlarga berish to'gri kelmaydi.** Damlama, quruq ekstrakt. O'simlikning yer ustki qismi poroshok va tabletka holida ham ishlatiladi. Sitizin alkaloidining ampuladagi 0,15% eritmasi – sititon.

**9. Achchiqmiyaning yer ustki qismi** (Qalin mevali achchiqmiya — *Vexibia pachysagra* [Schrenk. ex S.A.Meu] Jakovl. [*Sophora pachycarra* S.A.Meu.]; dukkakdoshlar – Fabaceae oilasiga kiradi) – tibbiyotda bu o'simlik alkaloidlaridan faqat paxikarpin qo'llaniladi. Paxikarpin alkaloidi periferii qon tomirlari spazmi, surunkali ekzema va gipertoniya kasalliklarida, muskul distrofiyalarida (miopatiyada) hamda asosan tug'ruqni tezlashtirish uchun ishlatiladi. Alkaloid tuzi – paxikarpin gidroyodid (paxikarpin yodgidrat) poroshok va tabletka holida hamda 3% li eritmasi 2 ml dan ampulada chiqariladi.

Sekurineganing novdalari (Yarim butasimon sekurinega – *Securinega suffruticosa* [Pall.] Rehd.; sutlamadoshlar Euphorbiaceae oilasiga kiradi) – sekurinin alkalodi strixning o'xshash markaziy nerv sistemasini ko'zg'atuvchi ta'sirga ega (strixning nisbatan kuchsizroq va kam zaharli). Tibbiyotda sekurinin strixnin o'rnila ishlatiladi. Sekurinin nitrat – tabletka va eritma holida ishlatiladi.

**10. Sarig nufar ildizpoyasi** (*Nuphar luteum* [L.] Sw. Nilfiyadoshlar – Nymphaeaceae oilasiga kiradi) – lyutenerin (alkaloidalr yig'indisining hlorid kislota bilan hosil qilgan tuzi) eritma, suyuq surtma yoki sharcha va ko'pik hosil qiluvchi tabletka holida ishlatiladi.

**11. Xuperziya yer ustki qismi** (Oddiy xuperziya – *Huperzia selago* [L.] Bernah. [*Lycopodium selago* L.]; likopodiyadoshlar Lycopodiaceae oilasiga kiradi) – O'simlikning dorivor preparati tibbiyotda surunkali alkogolizm, kashandalik (nikotinizm) hamda ba'zi teri kasalliklari (psoriaz va boshqalar)ni davolashda qo'llaniladi. O'simlik zaharli bo'lgani uchun faqat vrachlar ko'rsatmasi bo'yicha kasalxonalarda ishlatiladi. O'simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan 5 % li qaynatmasi.

**Tarkibida tropan unumiga kiruvchi alkaloidlar bo'lgan o'simliklar:**

**12. *Belladonna bargi*, yer ustki qismi va ildizi** (Oddiy (dorivor) belladonna – *Atropa belladonna* L., Kavkaz belladonna – *Atropa caucasica* Kgeueg; ituzumdoshlar – Solariaceae oиласига кирди) – belladonna preparatlari turli spazmatik hollarda (ichak va siyidik yo'llari spazmida) antispazmatik hamda me'da va o'n ikki barmoq ichakning yara kasalligida, xoletsistit, o't pufagining tosh kasalligida, buyrak sanchig'ida og'riq qoldiruvchi dori sifatida, shuningdek, bronxial astma kasalligini davolashda hamda so'lak va shilliq bezlari ajratadigan suyuqlikni kamaytirishda ishlatiladi. Bulardan tashqari, ko'z kasalliklarida ko'z qorachig'ini kengaytirish uchun ham qo'llaniladi. Ildiz preparati Parkinson kasalligini davolash uchun beriladi. Belladonna, o'simligining alkaloidlaridan tibbiyotda atropin va skopolamin ishlatiladi, giostsiamin ko'proq zaharli bo'lgani uchun ishlatilmaydi. Atropin alkaloidining tuzi atropin sulfat, bargidan va yer ustki qismidan quyuq hamda quruq ekstrakt, nastoyka tayyorlanadi. Ildizning vinoda tayyorlangan qaynatmasi. Bargi «Astmatol» poroshogi – sigaretasi tarkibiga kiradi.

Bulardan tashqari, belladonna bargi va ildizidan tayyorlangan ekstraktlar «korabella» tabletkasi, solutan, bekarbon, besalol, bellugin, bellastezin, bepasal, me'da kasalligida ishlatiladigan tabletkalar, «betiol» shamchasi, «anuzol» shamchasi, o'simlik alkaloidlarining yig'indisi esa bellataminal, akliman (Chexoslovakiyada chiqariladi), lenbiren (Ruminiyada chiqariladi) kabi murakkab preparatlar tarkibiga kiradi.

**13. *Mingdevona bargi*** (Qora mingdevona – *Hyoscyamus niger* L.; ituzumdoshlar – Solanaceae oиласига кирди) – Mingdevona preparatlari belladonna preparatlari kabi og'riq qoldirishda va turli spazmatik holatlarda ishlatiladi. Mingdevona moyini xloroform bilan aralashtirib (suyuk surtma holatida), revmatizm va nevralgiya kasalliklarida muskullar og'riganda teriga surtiladi. Quruq ekstrakt, mingdevona moyi, mingdevona bargi bronxial astma

kasalligida chekiladigan poroshok: «Astromatol» va «Astmatin» sigaretalari, mingdevona moyi esa saliniment preparati tarkibiga kiradi.

**14. Bangidevona bargi** (Oddiy bangidevona – *Datura stramonium* L., ituzumdoshlari – Solanaceae oilasiga kiradi) – Bangidevona bargi bronxial astma kasalligida ishlatiladigan (chekiladigan) «Astromatol» va «Astmatin» poroshoklari-sigaretalari tarkibiga kiradi.

**15. Meksika bangidevonasi mevasi va urug'i** (Meksika bangidevonasi – *Datura innoxia* Mill; ituzumdoshlari – Solanaceae oilasiga kiradi.) – Skopolamin markaziy nerv sistemasini tipchlantiruvchi ta'sirga ega (atropindan farqi). Shuning uchun skopolamin gidrobromid, ba'zan xirurgik operatsiyadan oldin, markaziy asab sistemasini tinchlantirish uchun morfinga qo'shib, teri ostiga yuboriladi. Bundan tashqari, asab xastaliklarini davolashda, shuningdek, dengiz kasalligi va boshqa kasallikkarda tinchlantiruvchi, quisishni to'xtatuvchi vosita sifatida (aeron tarkibida) qo'llanadi. Skopolamin gidrobromid, skopolamin alkaloidining kamfora bilan hosil qilgan birikmasi aeron preparati tarkibiga kiradi.

**16. Karniol skopoliyasining ildizpoyasi** (Karniol skopoliyasi – *Scopolia carniolica* Jacq., ituzumdoshlari – Solanaceae oilasiga kiradi) – sanoatda mahsulotdan atropin, giostsiamin va skopolamin alkaloidlarining preparatlari (tuzlari) olinadi.

**Tarkibida xinolin unumiga kiruvchi alkaloidlar bo'lgan dorivor o'simliklar:**

**17. Tsinxona (xin daraxti) po'stlog'i** (Qizil shirali sinxona (xin daraxti) – *Cinchona succirubra* Pave. ro'yandoshlar oilasiga kiradi) – mahsulot preparatlari ishtaha ochadigan achchiq modda sifatida, xinin alkaloidining tuzlari esa bezgak kasalligida (yoki kasallikning oldini olish uchun) ishlatiladi. Xinin uch-to'rt kunlik hamda tropik bezgakni davolashda juda yaxshi natija beradi. Xinidin sulfat yurak qo'zg'aluvchanligini kamaytiradi va aritmiyaga

qarshi vosita sifatida taxikardiya hamda tebranuvchi aritmiya kabi yurak kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Xinin alkaloidining tuzlari: xinin gidroxlorid, xinin digidroxlorid va xinin sulfat poroshok, tabletka va ampuladagi 50% li (xinin digidroxloridning) eritmasi holida chiqariladi, xinidin sulfat tabletka holida chiqariladi.

**Tarkibida izoxinolin unumiga kiruvchi alkaloidlar bo'lgan dorivor o'simliklar:**

**18. Sho'rak (cherkez) mevasi** (Rixter sho'ragi (cherkezi) – *Salsola richteri* Karelin; sho'radoshlar – *Chenopodiaceae* oilasiga kiradi)–mahsulot alkaloidlari gipotenziv ta'sirga ega. Shuning uchun cherkez, preparatlari gipertoniya va bosh og'rig'i kasalliklarida ishlatiladi. Bu alkaloidlar tinchlantiruvchi ta'sirga ham ega. Salsolidin salsolinga nisbatan kuchsizroq ta'sir etadi.

**19. Qoncho'p yer ustki qismi** (Katta koncho'p – *Chelidonium majus* L., ko'knordoshlar – *Papaveraceae* oilasiga kiradi) – qoncho'pning yer ustki qismidan tayyorlangan damlama jigar va o't pufagi kasalligida, pastasi esa teri silini davolashda ishlatiladi. Ho'l o'simlikdan olingan shira so'gal va qadoqni ketkazishda hamda kekirdak papillomasi va teri kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Koncho'i o'simligi va uning alkaloidlari bakteritsid xususiyatiga ega. Damlama, pasta, ho'l o'simlik shirasi. Mahsulot o't haydovchi choylar-yig'malar tarkibiga kiradi.

**20. Glautsium yer ustki qismi** (Sariq glautsium – *Glaucium flavum* Crantz. ko'knordoshlar – *Rapaveraceae* oilasiga kiradi) – O'simlikning dorivor preparati gipertoniya kacalligining I va II bosqichini, endoartirit kasalliklarini davolashda hamda yo'tal qoldiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Glautsin alkaloidining gidroxlorid tuzi (tabletka holida chiqariladi).

**21. Makleya yer ustki qismi** (Yuraksimon makleya – *Masleaya cordata* (Willd.) R. Br. (*Bocconia cordata* Willd.); mayda mevali makleya – *Masleaya microcarpa* (Maxim.) Fedde; ko'knordoshlar – *Papaveraceae* oilasiga kiradi) – Makleya turlarining

**dorivor** preparatlari mikroblarga va zamburug'larga qarshi ta'sirga oga. Shuning uchun achitqisimon zamburug' va boshqa aralash mikrofloralar ta'sirida teri va shilliq pardaning zararlangan joylarini hamda, uzoq davolanmaydigan yiringli yaralar, paradontoz, qulqoq yalliglanishi va ba'zan poliomielit asorati – miopatiyani davolashda qo'llaniladi) – Sangviritrin (sangvinarin va ritrin alkaloidlarning bisulfat tuzlarini yig'indisi) 1% surtma, 0,2 % li spirtli eritma va tabletka holida chiqariladi. Suyuq surtma zararlangan joylarga surtiladi, spirtli eritmaga doka yoki bint namlanib paradontozda va boshqalarda qo'yiladi (applikatsiya qilinadi), tabletka miopatiyada ichishga beriladi.

**22. Magnoliya bargi** (Yirik gulli magnoliya – *Magnolia grandiflora* L., magnoliyadoshlar – Magnoliaceae) – o'simlikning dorivor preparati gipertoniya kasalligini davolashda ishlatiladi. Bargning suyuq ekstrakti.

**23. Qorakovuq bargi** (Viktor qoraqovug'i (Viktor omonqorasi, ungerniyasi) – *Ungernia victoris* Vved.; Severtsov qoraqovug'i (Severtsov omonqorasi, ungerniyasi) – *Urtgernia Severtzovii* (Rgl.) V. Fedtsch.; chuchmomadoshlar – Amaryllidaceae oilasita kiradi) – Qorakovuq (ungerniya) turlarining bargidan galantamin va likorin alkaloidlari olinadi. Galantaminning gidrobromid tuzi miosteniya (mushaklarning patologik kuchsizlanishi yoki soxta falajlik), miopatiya (mushaklarning kichrayishi va asta-sekin quvvatsizlanishi), poliomielit asoratlari hamda polinevrit, radikulit kasalliklarini davolashda, shuningdek nervlarning travmatik uzilishida, ichak va qovuqning bo'shashishi (zaiflanishi)da ko'llaniladi.

Likorinning gidroxlorid tuzi o'pka va bronxlarning qattiq va surunkali yalliglanishida balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida hamda bronxial astma va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi.

Galantamin gidrobromidning ampuladagi eritmasi, likorin gidroxlorid tabletka holida chiqariladi.

**24. Zirk bargi va ildizi** (Oddiy zirk – *Berberis vulgaris* L.; zirkdoshlar – Berberidaceae oilasiga kiradi) – o'simlikning hamma qismida protoberberin guruhiga kira digan alkaloidlar bo'ladi. Alkaloidlar summasidan berberin, palmatin, yatrORIZIN, kolumbamin, oksiakantin, berbamin, leontidin va boshqa alkaloidlar ajratib olingan. O'simlik bargidan tayyorlangan nastoyka ginekologiyada bachadon muskullari tonusini ko'tarish, tuqqandan so'nggi qon ketishda ishlatiladi.

### 3.3. Glikozidlар ва ularning ahamiyati

Glikozidlар (*glycys - shirin*) o'simlik olamida keng tarqalgan organik birikmalar hisoblanadi. Turli omillar ta'sirida doimo qand (glikon) va qand bo'lмаган (aglikon) qismlarga parchalanuvchi murakkab organik birikmalar glikozidlар deb ataladi. Qand bo'lмаган aglikon (yunoncha so'z bo'lib, qand emas degan ma'noni bildiradi), ba'zi glikozidlarda yana genin, sapogenin, emodin va boshqa nomlar bilan ataladi.

"Glikozid" termini birinchilardan bo'lib, 19 asrning birinchi yarmida nemis kimyogarları F.Veler va Yu.Libix tomonidan fanga kiritilgan.


Har xil glikozidlarning aglikonlari kimyoviy tuzilishi bo'yicha turlicha bo'lib, organik birikmalarning turli sinflariga kiradi. Shuning uchun ularning kimyoviy tarkibi hamda analiz qilish usullari ham turlicha. Glikozidlар tarkibidagi qand qismi mono-(ko'pincha glyukozadan), di-, tri- va qisman undan murakkab bo'lgan oligosaxaridlardan hamda ayrim glikozidlarning o'ziga xos spetsifik qandlaridan tashkil topgan bo'ladi.

Aglikon radikali bilan birlashgan qand molekulasining uglerod atomini  $\alpha$ -yoki  $\beta$ -konfiguratsiyasiga (aglikon radikali bilan almashingan gidroksil guruhining bo'shliqda joylashganiga) hamda monosaxaridlarning 6 ta (piranoza) yoki 5 ta (furanoza) a'zoli halqa hosil qilgan tautomeriya shaklida bo'lishiga qarab, glikozidlар  $\alpha$  -


yoki  $\beta$ -, shuningdek piranozid yoki furanozid holatida bo'lishi mumkin. Tabiatda ko'pincha o'simliklar tarkibida glikozidlarning  $\beta$ -piranozid shakli uchraydi.

Aglikon qand molekulasi bilan efir tipida birlashib, glikozidlarni hosil qiladi. Shuning uchun glikozidlarni oson parchalanadi. Ular fermentlar (enzimlar) yoki kislotalar ta'sirida, suv va harorat ta'sirida gidrozlanib, o'zining tarkibiy qismi aglikon va qand molekulalariga parchalanadi. Bu reaksiya orqaga qaytishi ham mumkin. Shuning uchun gidroliz natijasida hosil bo'lgan mahsulotlardan (aglikon va qand molekulalari) ma'lum sharoitda fermentlar ishtirokida qaytadan glikozid sintezlanadi. Lekin fermentlar qat'iy spetsifik ta'sir qilgani uchun har bir glikozidning parchalanish yoki sintezlanishida ularni o'ziga tegishli maxsus fermentlar ishtirok etadi.


-O-glikozidlarni




-N-glikozidlarni



-S-glikozidlarni



-C-glikozidlarni



R – aglikon (= radikal, = genin)

Glikozid molekulasiда aglikonga qand qismi oddiy va murakkab efirlar tipida kislorod atomi -O- orqali (O-glikozidlarda) yoki tioefirlar tipida oltingugurt atomi -S- orqali (S-tioglikozidlarda) birlashgan bo'ladı. Tsinogen (nitro-, N-glikozidlardan) glikozidlarning aglikoni tarkibida tsianid kislotasi bo'ladı. Bulardan tashqari, ba'zi glikozidlarda qand molekulasi aglikon qismining yadrosini uglerod -C- atomiga to'g'ridan-to'g'ri o'zining uglerod -C- atomi orqali birlashishi mumkin. Bunday glikozidlarni C-glikozidlardan nomi bilan yuritiladi. Boshqa, ayniqsa O- va S-glikozidlarga nisbatan C-

glikozidlar ancha turg'un va faqat qattiq sharoitda, kislotalarning kuchliroq eritmalarida uzoq qizdarish natijasida ularni aglikon va qand qismlariga parchalash mumkin.

Glikozidlar tarkibida bir (monozidlar), ikki (biozidlar), uch (triozidlar) va undan ortiq monosaxarid molekulasi bo'lishi mumkin. Ular odatda aglikonni bitta gidroksil guruhiga uzun zanjir tipida ketma-ket birlashadi. Shuning uchun bunday glikozidlarning gidrolizi – parchalanishi pog'onali boradi va monosaxarid molekulalari aglikondan bittadan ketma-ket ajraladi. Masalan, triozidning gidrolizlanish reaksiyasini quyidagi sxema bo'yicha tasvirlash mumkin:

**I davr.** Trioziid – I molekula monosaxarid + biozid.

**II davr.** Biozid – I molekula monosaxarid + monozid.

**III davr.** Monozid – I molekula monosaxarid + aglikon.

Ba'zan glikozidlardagi monosaxaridlarning ayrim molekulalari aglikonni 2 ta yoki 3 ta gidroksiliga birlashib di-, tri- yoki undan ham murakkab glikozid hosil qilishi mumkin. Glikozidlar osonlik bilan parchalanadi. Ayniqsa, ular o'simliklarning o'lik to'qimasida ferment, harorat ta'sirida va namlik ishtirokida tez parchalanadi. Shuning uchun tirik o'simliklar to'qimasida bo'ladigan glikozidlarni birlamchi glikozidlar deb hisoblanadi. O'simliklardan ajratib olingan glikozidlarga birlamchi glikozidlarning qisman gidrolizlanishidan vujudga kelgan mahsulot deb qaraladi. Glikozidlarni gidroliz mahsulotlari tarkibiga ko'ra gomoglikozidlar (gidroliz natijasida faqat uglevodalr hosil bo'ladi) va geterozidlarga (gidroliz mahsuloti sifatida uglevoddan tashqari uglevod bo'lмаган qismlarga (aglikon yoki genin yoki radikallarga parchalanuvchi) bo'linadi.




**Glikozidlarning tasnifi.** Tarkibida glikozid saqlovchi o'simliklar shu glikozidlardan aglikonining kimyoviy tuzilishiga qarab sinflarga bo'linadi. Ba'zi glikozidlardan hozirgacha yetarli darajada o'rjinalmagani uchun sinflarga bo'lishda ularning fizik xossalari yoki hayvonlar organizmiga ko'rsatadigan fiziologik ta'siri asos qilib olingan.

Tibbiyotda ishlataladigan tarkibida glikozidlardan bo'lgan dorivor o'simliklar va mahsulotlar quyidagi sinflarga bo'linadi:


1. Tarkibida tioglikozidlardan bo'lgan;
2. Tarkibida tsianogen glikozidlardan bo'lgan;
3. Tarkibida monoterpen (achchiq) glikozidlardan bo'lgan;
4. Tarkibida steroid (yurak) glikozidlari bo'lgan;
5. Tarkibida triterpen glikozidlardan (saponinlar) bo'lgan;
6. Tarkibida fenolglikozidlardan bo'lgan;
7. Tarkibida antraglikozidlardan bo'lgan;
8. Tarkibida flavon glikozidlardan bo'lgan va boshqalar.

Geterozidlardan aglikonini tuzilishiga ko'ra bir qancha guruhlarga bo'linadi:

1. *Alkilglikozidlardan* – aglikonlari alkillar vakili (-metil, -etil) hisoblanadi. Masalan, tiktonli eleutrokok ildiz va ildizpoyasida hosil bo'ladigan eleuterinizid-S glikozidi:



2. *Azot tutuvchi (tsianogen) glikozidlardan* – gidrolizi natijasida senil kislota (sianid vodorod) hosil qiluvchi. Masalan, achchiq bodom tarkibidagi amigdalil glikozidi, uning uglevodli qismi disaxarid gentibioza hisoblanadi.



3. *Tioglikozidlar* – tio-shakarlarni siklik hosilasi sanaladi, ulardagi SH-gruppadagi vodorod atomi aglikon bilan almashgan. Aglikonni tarkibida oltingugurt bo'lgan glikozidlar *tioglikozidlar* (*S-glikozidlar*) deb ataladn. Bu glikozidlardagi qand molekulasi aglikon qismi bilan oltingugurt atomi orqali birlashgan. Tioglikozidlarning ferment ta'sirida parchalanishidan hosil bo'lgan aglikon qismi efir moylari xossasiga o'xshash xossaga ega (uchuvchan va suv bug'i bilan haydaladi). Shuning uchun bu glikozidlarning ba'zi aglikonlari efir moyi deb yuritiladi.


*Tioglikozidlar* achchiq bo'lib, organizmning shilliq qavatlariga va teriga qitiqlovchi ta'sir ko'rsatadi (terini qizdiradi yoki kuydiradi). Oz miqdorda iste'mol qilinsa, ishtaha ochadi. *Tioglikozidlar* kuchli bakteritsid ta'sirga ega.

*Tioglikozidlar* yoki izototsianatlar hayvonlarda buqoq kasalligini paydo qilishi mumkin, degan fikr ham bor.

*Tioglikozidlarning* turlari ko'p. Ular asosan kavardoshlar, karamdoshlar (butguldoshlar, krestguldoshlar), rezedadoshlar va boshqa oilalar vakillarida uchraydi. Jumladan, masalan, karamdoshlar (butguldoshlar) oilasiga kiradigan o'simliklar (sholg'om, ~~karam~~, rediska, turp, xren, xantal va boshqa o'simliklar) da keng tarqalgan.

Tibbiyotda tioglikozidlar saqllovchi o'simliklardan hozircha faqat xantal urug'i (uni tarkibida tioglikozid sinigrin bo'ladi) ishlataliladi.


Sinigrin mirozin fermenti ta'sirida glyukoza, kaliy bisulfat va allilizotatsianatga (xantal efir moyiga) parchalanadi:



4. *Steroid glikozidlar* – aglikonlari siklopentanopergidrofenantren va uning unumlaridan iborat bo'lgan glikozidlarni *steroid glikozidlar* deb ataladi. Unga yurak (kardiotonik) glikozidlar, steroid saponinlar, glikoalkaloidlar, ekdisteroidlar (fiteokdizonlar) kiradi.

Bu guruhga kiruvchi glikozidlarning aglikonlari siklopentanopergidrofenantren unumlari bolsada, ularning kimyoviy tuzilishlari va ayniqsa, fiziologik ta'siri bir-biridan katta farq qiladi.

Steroid glikozidlar ba'zilarining aglikonlari o'z molekulasida azot atomini saqlaydi, masalan: steroid alkaloidlar. Ayrim glikozidlarning suvdagi eritmasi turg'un ko'pik hosil qilish va qizil qon tanachalari – eritrotsitlarini eritish xossasiga ega, masalan, steroid saponinlar. Ba'zilari esa yurakka spetsifik ta'sir qiladi, masalan: yurak glikozidlari. Shuning uchun steroid glikozidlar turlicha analiz qilish usullariga ega hamda tarkibida shu glikozidlar bo'lgan dorivor o'simliklar va mahsulotlar farmakognoziyaning har xil bo'limlarida o'rjaniladi.



siklopentanpergidrofenantren

ABS

D

Steroid glikozidlarga xos bo'lgan sifat reaksiyalari (Liberman-Burkard reaksiyasi hamda xolesterin va boshqa reaktivlar bilan o'tkaziladigan reaksiyalar) ham bor. Bu reaksiyalar ayrim steroid birikmalar o'rjaniladigan bo'limlarda keltirilgan.

Steroid glikozidlardan tibbiyotda turli maqsadlar uchun foydalaniлади. Yurak glikozidlari spetsifik ta'sirga ega bo'lgan qimmatbaho preparatlar sifatida yurak kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi. Steroid saponinlar hamda steroid alkaloidlar progesteron, kortizon va boshqa steroid gormonlarni sintez qilishda ishlataladi.

Steroid saponinlar, steroid alkaloidlar alohida dori sifatida qo'llanishidan tashqari kortizon, progesteron va boshqa steroid garmonal preparatlarni sintez qilishda xomashyo sifatida ham qo'llaniladi.

5. *Terpenoidli glikozidlar* – izopren  $(C_5H_8)_p$  hosilalari bo'lib, unga:

- achchiq monoterpenlar –  $(C_5H_8)_2$
- triterpen saponinlar –  $(C_5H_8)_6$  kiradi.

6. *Fenologlikozidlar* – aglikon qismi qandaydir fenolli birikma bilan bog'langan. Bu guruh o'z ichiga: flavonoid, kumarin, antratsen hosilalari, ksanton, oshlovchi moddalar va boshqalarni qamrab oladi.

7. *Kam o'rjanilgan glikozidlar*.

Yuqorida keltirilgan glikozidlardan tashqari oshlovchi moddalaridan katta bir guruhi (gidrolizlanuvchi oshlovchi moddalar), qisman kumarinlar (kumarin glikozidlar) va boshqa birikmalar ham glikozidlarga kiradi. Lekin fenolglikozidlar, antraglikozidlar, flavon glikozidlar, oshlovchi moddalar, kumarinlar fenollarning unumlari bo'lgani uchun farmakognoziya kursining tegishli boshqa bo'limlarida ko'rildi.

**Glikozidlarni o'simlik olamida tarqalishi.** Glikozidlar tabiatda eng keng tarqalgan tabiiy birikmalar sanaladi. Ko'pincha bir o'simlikda bir necha xil glikozidlar mavjud bo'ladi. Masalan angishvonagul bargi tarkibida 70 ga yaqin glikozidlar uchraydi. Glikozidlar o'simliklarning turli organlarida turli miqdorda hujayra shirasida eriydigan shaklda bo'ladi.

Ba'zan bitta yoki bir hil kimyoviy tuzilishdagi bir guruhi glikozidlar butun bir oilaga (yoki botanik bir-biriga yaqin bo'lgan qardosh oilalarga) xos bo'lib, ular shu oilaga kiradigan turlarda keng tarqaladi (masalan, amigdalini glikozid ra'noguldoshlar, tioglikozidlar esa karamguldoshlar (krestguldoshlar) oilalari turlarida). Shu bilan bir qatorda ba'zi glikozidlar bir nechta oilaga kiradigan o'simliklarda uchraydi.

Glikozidlar o'simlik to'qimalarida bo'ladigan moddalar almashinuvi jarayonida faol qatnashadi. Glikozidlarga uglevodlarning zaxira holda yig'ilgan shakllardan biri deb ham qaraladi.

O'simlik olamida ko'pincha O-glikozidlar, kamroq S-glikoizdlar (krestguldoshlar, liliyadoshlar) va C-glikoizdlar (ayrim flavonoidlar – viteksin, antratsen unumlari, ksantonlar) tarqalgan bo'ladi.

N-glikozidlar hayvon organizmida ham uchraydi (nuklein kislota, nukleoproteidlar), ayrim antibiotiklar – streptomitsin va boshqalar ham shu guruhgaga kiradi.

**Glikozidlarning fizikaviy va kimyoviy xossalari.** Sof holda ajratib olingan glikozidlar kristall modda bo'lib, ular ko'pchilik organik erituvchilarda erimaydi, spirtda yomon (ba'zan yaxshi),

suvgda yaxshi eriydi. Glikozidlarning suvdagi eritmasi neytral reaksiyaga, shuningdek, qutblangan nur tekisligini og'dirish (optik faollik) xususiyatiga ega. Hamma glikozidlar Feling reaktividan misni qaytaradi. Glikozidlarning suvdagi eritmalari bariy gidroksid, ko'rg'oshin atsetat va tanin eritmalari bilan cho'kma hosil qiladi.

Glikozidlarning kimyoviy xossalari va analiz qilish usullari aglikonlarning tuzilishiga bog'liq. Aglikonlarning kimyoviy tuzilishi turlicha bo'lganligi uchun analiz usullari ham turlichadir. Glikozidlarning terapevtik ta'siri ham ularning aglikonlariga bog'likdir. Qand qismi aglikonlarni (demak, glikozid molekulasi) suvgda erishini hamda hayvonlar organizmida shimalishini, ya'ni organizmga ta'sir qilishini tezlashтиради. Shu bilan birga, ba'zi monosaxaridlar ayrim aglikonlarni ta'sir kuchini oshirishi yoki aksincha pasaytirishi mumkin.

Glikozidlarni xususiyatlari turlicha bo'lib, bu ulardagi glikozid bog'lar soniga, bundan tashqari aglikonlarining tuzilishiga bog'liq.

Ko'pgina glikozidlar turg'un bo'lмаган bog'larga ega, ulardagi glikozid bog'i hisobiga ular suv muhitida fermentlar ta'sirida gidrolizlanadi, bu holat kislota, kam hollarda ishqorlar (*S-glikozidlar*) ta'sirida ham amalga oshadi.  $\beta$ - yoki  $\alpha$ -glikozidlar ta'siri natijasida O-glikozidlar tez parchalanadi. Kislotali gidrolizgan C-glikozidlar chidamli bo'lib, ular faqat konsentratlangan kislotalar yoki ularni aralashmalaridagina parchalanishi mumkin. Furanozidlar piranozidlarga qaraganda tezroq parchalanadi.

Glikozid molekulasiда 2 va undan ortiq monosaxaridlar va ularning hosilalari bo'lganida (uran kislotosi, spirtlar) bosqichli gidroliz amalga oshadi, bunda uglevod molekulalari birin-ketin ajralib chiqadi. Bosqichli gidroliz mahsulotlari ikkilamchi glikozidlar deyiladi, chunki ular o'simlik to'qimasida tabiiy holdagi glikozidlardan farq qiladi.

Strofantin – yurak glikozidi bo'lib, strofant urug'i tarkibidagi birlamchi glikozid, K-strofantin- $\beta$  va tsimarin – ikkilamchi glikozid sanaladi.

Ko'pchilik hollarda glikozidlarning gidrolizi – parchalanishi fermentlar va harorat ta'sirida hamda suv ishtirokida boradi (agarda kislota ta'sirida parchalanmasa). Fermentlar oqsil moddalar

bo'lib, yuqori haroratda (60-70°C dan va undan yuqorida) ular denaturatsiyalanadi. Past haroratda (+25°C dan va undan past haroratda) esa fermentlar ta'sir qilmaydi, ya'ni ularning faolligi to'xtaydi.

Bu hol mahsulot tayyorlash, quritish va saqlash vaqtida hisobga olinishi zarur. Haqiqatan ham yig'ilgan mahsulotni tezda quritilmay, uyib qo'yilsa, u namlik ta'sirida qizib, to'qimalaridagi fermentlar esa faollahshib, glikozidlarni parchalaydi yoki to'g'ri quritilgan mahsulotni issiq va nam yerda saqlansa ham yuqorida aytilgan ahvol qaytariladi. Shuning uchun tayyorlangan mahsulotni yig'ib qo'ymay tezda va to'g'ri quritish, quritilgan mahsulotni yaxshi yopiladigan idishlarga solib, quruq yerda saqlash lozim. Shundagina mahsulot tarkibidagi glikozidlar parchalanmay saqlanadi va dorivor mahsulot o'z sifatini yo'qotmaydi.

### **Glikozid saqlovchi xomashyoni yig'ish, quritish va saqlash.**

Yig'ish, quritish va saqlashda glikozidlarni fermentlar ta'sirida gidrolizlanishi sodir bo'ladigan haroratni shakllanishiga yo'l qo'ymaslik zarur. O'simlikning yer ustki qismi quruq havoda, kichik idishlarga (yaxshisi savatcha, teshiklarga ega yashiklar) tezlik bilan teriladi, va 2-3 soat ichida (xomashyo o'z-o'zidan qizib ketishiga yo'l qo'ymaslik zarur) quritish joylariga yetkaziladi. Quritishni tezlikda olib borish talab qilinadi, bunda xomashyo yupqa yoyilgan holda 50-70°C olib boriladi. Ushbu haroratda xomashyoni 1-2 soat ushlab turish talab qilinadi, fermentlar faolligi yo'qotilgandan so'ng, quritishni yakunlash oddiy xona haroratida olib boriladi.

### **Glikozidlarni tibbiyotda qo'llanilishi va imkoniyatlari.**

Glikozidlar inson va hayvonlar uchun juda muhim ahamiyatga ega, chunki ularni ko'pchiligi qimmatli farmakalogik ta'sirlarga – kardiotonik, tetiklashtiruvchi, bo'shashtiruvchi, o't haydovchi, ich suruvchi va boshq. ta'sirlarga ega.

Glikozid xomashyosidan bugungi kunda ko'pincha kompleks preparatlar – tindirma, ekstrakt, damlamalar, yig'malar tayyorlanmoqda. Biroq zamонавиу texnologiyani rivojlanib borishi bilan individual birlamchi va ikkilamchi glikozidlar (digoksin, tselanid, rutin va boshq.) saqlovchi preparatlar paydo bo'ldi. Tabiiy gligozidlarga analogik glikozidlarni sintezlashga urinishlarga hanuzgacha kamdan-kam muvaffaq bo'linadi. Asosiy mashaqqat –

qand molekulasi va aglikonni tabiiy glikozid konfiguratsiyasiga (D-, L-, α-, β) mos ravishda bog'lash hisoblanadi.

## **IV BOB. FERMENTLAR VA ULARNI QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI SAQLASH VA QAYTA ISHLASHDAGI O'RNI**

### **4.1. Fermentlarning ishlatalishi**

Fermentlar – biologik katalizatorlar bo'lib, tirik organizmda boradigan kimyoviy reaksiyalarni tezlashtiradi. Undan tashqari ular keng ko'lamda biotexnologiya, oziq-ovqat, terini ishlash sanoatida, meditsinada, qishloq xo'jaligida, farmatsevtikada ishlataladi. Fermentlarning asosiy manbai bo'lib, mikroorganizmlar hamda o'simlik va hayvon to'qimalari xizmat qiladi. 3000 dan ziyod fermentlar o'rjanilgan. Ular ajratib olingan va sof holda ishlataligan.

Hozirgi kunda fermentlarning yirik ishlab chiqarishlari AQSh, Yaponiya, Fransiya va Germaniyada tashkil qilingan.

Fermentativ usullar yordamida fermentlarni, substratlarini aktivatorlari va ingibitorlari aniqlangan.

Meditsinada ko'pgina antibiotiklarga chidamli patogen mikrorganizmlarga qarshi lizoamidaza ishlataladi. U antibiotik ta'sir qilmaydigan klinik shtammlarni samarali qirib tashlaydi. Undan tashqari lizoamidaza yiringli xirurgiyada, stomatologiyada, ginekologiyada qiyin bitadigan yaralarni davolashda ishlataladi.

Lizoamidazani fermentativ preparat nafaqat patogen bakteriyalarni parchalashi, balki, yaralarni nekrotik to'qimalardan tozalashi, yaralarni bitishini tezlashtiradi va kuchli immunostimulyatorlik ta'sirga ega boladi. Meditsinada trombozlarni davolash uchun streptokinaza preparati ishlataladi. Penitsillinaza har xil manbalardan olinib, farmatsevtika sanoatida ishlataladigan yangi penitsillinlar va tsefalosterinlar olishda zarur birikmalar hisoblanadi.

Oziq-ovqat sanoatida, xususan non pishirishda amilaza ishlataladi, u xamirning pishishini tezlashtirib, sifatini yaxshilaydi. Bu fermentlar erigan kraxmal, patoka va dekstrinlar olishda ishlataladi. Zamburug'lar amilazalari solod (qiyom)ni almashtirish mumkin, laktaza esa laktozanni sutdan yo'qtish uchun ishlataladi. Qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishda saxarozaning kristallanishini ogohlantirish maqsadida qandlar invertazasi ishlataladi. Tsitazalar meva-sabzavotlarning sharbatini to'liq ekstraktsiya qilish uchun hamda efir moylari olish uchun ishlataladi.

Katalaza va peroksidaza har xil muhitlarda vodorod peroksidning konsentratsiyasini pasaytirishda ishlataladi. Sellyulazalarning immobillangan shakllari don va kartoshka kraxmalini parchalashda ishlataladi hamda suv o'tlaridan agar-agar olishni kuchaytiradi. Sellyulaza kompleks preparatlari glyukoza olish maqsadida xomashyoning polisaxaridlarini gidrolizlaydi. Proteolik fermentlar ximozan bilan birga pishloq ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Lipaza fermentlari quruq sut olishda ishlataladi hamda pishloq pishishini tezlashtiradi.

Pektolitik fermentlar zig'ir pichanini ishlashda va undan tola olishda ishlataladi. Teri-charm sanoatida proteazalar terini yumshatishda va tekislashda ishlataladi. Yem-xashaklardan silos tayyorlashda murakkab ferment preparatlari tarkibida pentinazalar va gemitsellyulazalar bo'lgan preparatlar siloslashni tezlashtirishda foydalilaniladi. Papain va atsetilxolinesteraza fermentlari barglarda, mevalarda va rezavor mevalarda fungitsidlar va pestitsidlarni aniqlash uchun ishlataladi. Alkogoldegidrogenaza preparati ajratilayotgan havo va suyuqliklardagi etil spirti oz miqdorini aniqlashda qo'llaniladi. Bu preparat etanolning  $10^{-6}.....10^{-5}$  M miqdorini aniqlashi mumkin.

Bioluminestsent ATF-metriya biokimyoda, meditsina va biotexnologiyada atrof-muhitni monitoring qilishda amalda qo'llanilmoqda. Shuning uchun bakteriyalar lyutsesferazalari

yordamida har xil biologik suyuqliklarda ATF miqdori aniqlanadi. Buning uchun ATF reagentlar qo'llaniladi. Ular liofillangan (quritilgan) ko'p komponentli aralashmalar bo'lib, tarkibida erigan yoki immobillangan lyutsiferaza-lyutsiferin, bufer eritma komponentlari turg'unlashtiruvchi qo'shimchadan iborat bo'ladи.

Lyutsiferaza yordamida katalizlanadigan reaksiya asosi xemilyuminestsent reaksiyasidir. Ushbu ferment yordamida hujayraning har xil metabolitlari mikromiqdori biologik suyuqliklarda (ATF, FMN, NAD<sup>+</sup>, NADF<sup>+</sup>va boshqalar) hamda ushbu metabolitlar ishtirokida reaksiyalarni katalizlaydigan fermentlarni aktivligi aniqlanadi. Lyutsiferaza fermenti bevosita ATF va Mg<sup>++</sup> ishtirokida lyutsiferinning oqsidlanishi reaksiyasini katalizlaydi. Lyutsiferin va ATF ga nisbatan reaksiya absolyut maxsuslikka ega bo'lib, yorug'lik kvant nurlari yordamida amalga oshadi. Biolyuminessensiyaning kvant chiqishi 1 ga yaqin bo'lib, yorug'lik biolyuminessensiya jadalligini o'lchash uchun lyuminometr qollaniladi. Erituvchi yordamida ATF reaktsion aralashmaga purkaladi. Namuna tarkibida lyutsiferazani ishlatib ATF miqdorini konsentratsiyasi 50 nm dan 1m M yoki 0,1 N mol dan 2 mkmolgacha aniqlash mumkin.

Ureaza fermenti yordamida laboratoriyalarda mochevina miqdorini biologik suyuqliklarda aniqlanadi. Glyukoza miqdorini glyukozoksidaza va peroksidaza fermentlari yordamida aniqlanadi. Xren peroksidazasi va unga qarshi maxsus antitanachalar immunoferment analizda va immunotsitoximiyada keng ko'lalma foydalilaniladi. Peroxidaza reaksiyalarini analitik maqsadda ishlatilishi hozirgi kunda keng tarqalgan, ammo birgalikda oksidlanish reaksiyalarida ishlatilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, amidopirin pirozolonlar sinfiga kirib, uni meditsinada issiqni tushiruvchi va analgetik sifatida foydalilaniladi. Bu guruhdagи birikmalar diagnostik maqsadlarda ham ishlatiladi, kantserogen benzidin o-toluidin, o-dianizidinni almashtirib qollaniladi. Shuning uchun birgalikdagi peroksidazani oksidlanish aminoantipirinining fenol bilan yoki uning hosilalari mahsulotlarni jadal bo'yalishi

tufayli glyukozani fermentativ aniqlashda immunokimyoviy usullar yordamida amalga oshiriladi.

Masalan, past harorat fermentlarning faolligini hamda genom aktivligi va hujayralarning nafas olishini susaytiradi. Ammo bunday sharoitda ko'pgina bakteriyalar va zamburug'lар hayotiyligini saqlab qoladi.

Harorat +70°C yoki 0°C dan past bo'lsa, hujayra strukturalarining butunligi buziladi. Yuqori harorat oqsillarning denaturatsiyasi oqsil-lipid komplekslari va nuklein kislotalarning parchalanishiga olib keladi. Ko'pgina fermentlar katalitik faolligini yo'qotib denaturatsiyaga uchraydi. Sabzavotlarga uzoq vaqt yuqori harorat bilan ishlov berilsa, ularning tabiiy xususiyatlari yomonlashadi – ya'ni, konsistensiyasi (holati), ta'mi, rangi, xushbo'yligi o'zgaradi. Undan tashqari, tez qizdirib, mahsulot sterilizatsiyasi ferment aktivsizlanmasdan amalga oshiriladi. Bunda fermentlar to'liq aktivligini yo'qotib, saqlash vaqtida reaktivlanib uning buzilishiga olib keladi. Peroksidaza faolligini o'rganishda shunga o'xshash o'zgarishlar kuzatilgan. Ildizmevalilarga yuqori harorat ta'sirida ular to'qimalaridagi ferment aktivligi nolga teng bo'lgan, ammo saqlash jarayonida ferment aktivligi to'liq tiklanmagan. Bunga sabab peroksidaza yuqori termostabil fermentlar qatoriga kirib, juda yuqori haroratdagina denaturatsiyaga uchrashligidir. Peroksidaza fermentining Ca ionlari va oqsillar ishtirokida stabilligi (turg'unligi) ortadi. Peroksidaza fermentining aktivligi kuchayishi mahsulotni saqlash harorati ortishi bilan boradi. Go'shtlarni uzoq vaqt past haroratda dudlanganda, mahsulotlarida murakkab kimyoviy jarayonlar boradi. Natijada go'shtdagи uglevodlar, lipidlar, oqsillar va vitaminlar tarkibi o'zgaradi. Fermentlar ishtirokida oqsillar, polisaxaridlar, lipidlar va nuklein kislotalar gidrolizi reaksiyalari boradi. Ushbu reaksiya mahsulotlari dudlangan go'sht va go'sht mahsulotlarining ta'mi, rangi va xushbo'yligini belgilaydi. Ilgarilar meva va sabzavotlarni konservalashda, sterilizatsiya mahsulotni 100-120 Cda 30-60 minut davomida qizdirish bilan olib borilar edi.

Bunday sharoitda xomashyodagi biokimyoviy jarayonlarni boshqaruvchi yuqori haroratga chidamli fermentlar ham mikroorganizmlar o'lmasdan parchalanadi. Sterilizatsiya rejimini ishlab chiqarishda faqat sterilizatsiyaning mikrobiologik ko'rsatkichlari bilan chegaralangan. Ferment aktivligi esa inobatga olinmas edi. Ammo, yangi sterilizatsiya usulida o'tish bilan vaziyat o'zgardi.

Mahsulotlarga uzoq vaqt harorat bilan ishlov berilganda ularning tabiiy xususiyatlari, ta'mi, rangi, xushbo'yligi yo'qoladi. Shu sababli aseptik sterilizatsiyaga ahamiyat berilayapti, unda issiqlik bilan ishlov berish muddati bir necha marta qisqartiriladi va bu haroratni +130°C-150°C orttirish hisobiga amalga oshiradi. Hamma ishlovlar mahsulotni qayta zararlanishini oldini oladi. Ko'pgina tez qizdirilib, mahsulotni yuqori haroratda sterillanganda ferment sistemaning inaktivatsiyasigacha ro'y beradi. Undan tashqari, fermentlar issiqlik bilan ishlov berilganda to'liq aktivligini yo'qotib, mahsulotni saqlash davomida reaktivatsiyasiga uchrab, mahsulotni buzilishiga olib kelar edi.

Peroksidazaning termochidamlilagini o'rganilganda har xil sabzavotlarda ar xil termochidamlilikka ega bo'ladi. Qizdirilgan mahsulotda peroksidazaning aktivligi yo'qolishi kuzatilib, saqlash jarayonida tiklanishi mumkin.

Olma, pomidor va sabzi sharbatlarida peroksidazaning termochidamliliği taqqoslanilganda, olma peroksidazasi qizdirishga kam chidamli ekanligi aniqlanilgan. Bu fermentning aktivligini yo'qotish 80-90°C gacha 5 sekund davomida qizdirilsa yetarli bo'ladi.

Harorat chidamliroq bo'lib sabzining peroksidazasi hisoblanadi. Uni +145°Cda inaktivatsiyada uchratish uchun 30 sekunddan ko'proq vaqt talab qilinadigan.

Peroksidazaning aktivligini bevosita mahsulotni qizdirilgandan so'ng va ma'lum vaqt (2-7), harorat +2°C saqlab turish mumkin.

**Turli sabzavotlar fermentlari xususiyatlari**

| Sabzavotlar     | Qizdirish harorati °C | Vaqt (minut)   |  |
|-----------------|-----------------------|--|--|
|                 |                       | mahsulot qizdirilganda bevosita fermentning shakllanishi | ferment regeneratsiyasini oldini olish uchun |
| <b>Loviya</b>   | 100                   | 1,70   | 650  |
|                 | 121                   | 0,57   | 1,05   |
|                 | 143                   | 0,08   | 0,15   |
| <b>Brokkoli</b> | 100                   | 5,15   | 13,80  |
|                 | 121                   | 1,40   | 1,90   |
|                 | 143                   | 0,24   | 0,32   |
| <b>Turneps</b>  | 100                   | 16,0   | 28,70  |
|                 | 121                   | 4,00   | 6,70   |
|                 | 143                   | 0,96   | 1,50   |

Har xil sabzavotlarni qizdirish bilan ishlov berish peroksidazaning inaktivlanishi va muddatida uni regeneratsiyasini oldini olish mumkin.

Peroksidazaning regeneratsiyasi kuzatiladi, qachonki qizdirilgandan so'ng fermentning kuchsiz aktivligi saqlanib qolsa, to'liq fermentning inaktivlashishi ro'y bersa, so'ngra u pasayadi.

Ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi taxminga kelindi. Mahsulotni qizdirilganda denaturatsiyaga uchraydi va cho'kmaga tushadi. Bu oqsil qisman denaturatsiyaga uchramagan fermentni himoyaga oladi. Denaturatsiyaga uchramagan ferment mahsulot birinchi kun saqlanishi davomida elyurlangan oqsil bilan sekin tiklanib yana eritmada aktiv holatga o'tadi.

Peroksidazaning regeneratsiyasi mahsulot saqlash harakatiga qarab, yuqori haroratda tezroq boradi. Masalan, peroksidazaning regeneratsiyasini ogohlantirish uchun makkajo'xori doni ikki sutka saqlanganda harorat  $+2,2^{\circ}\text{C}$  bo'lganda uni 30 sekundda  $149^{\circ}\text{C}$  gacha qizdiriladi.  $+38^{\circ}\text{C}$ da saqlangan donlar esa 130 sekund davomida, sabzi sharbatiga peroksidaza  $137^{\circ}\text{S}$  saqlanganda regeneratsiyasi tajribada juda tez borib, 1-2 soat davomida ro'y beradi. Qadimda oziq-ovqat mahsulotlarini har xil turdag'i bijg'ish

orqali amalga oshirilgan. 19 asr oxiriga kelib, bijg'ish jarayonini mikroorganizmlar bajarib ulardan ajratiladigan fermentlar yordamida amalga oshiriladi va bu bijg'ish jarayonini fermentatsiyasi deyiladi.

Enzimologiya fanining yutuqlari asosida fermentativ reaksiyalarni boshqarishni yangi prinsiplari ishlab chiqildi. Bunda ishlab chiqarish aralashmasiga kerakli fermentni qo'shish orqali amalga oshiriladi. Bunda fermentlarning xarakterli xususiyatlardan biri ularning maxsusligidir, buning natijasida bir moddaning chuqur kimyoviy o'zgarishi mahsulotning boshqa tarkibiy qismlariga tegishli bo'lmaydi. Undan tashqari fermentlarning yumshoq ta'siri noo'rin o'zgarishlarni yuzaga keltirmaydi, kimyoviy ishlov berilganda esa yuzaga keladi.

Har xil mikroorganizmlar ferment olish uchun kerakli va qulay xomashyo hisoblanadi, masalan, ferment preparati qo'shilishi undan non pishirishni qisqartiradi va nonning ta'mini yaxshilaydi.

Meva va sabzavotlarni qayta ishlashda ferment yoki ferment preparatlari qo'llanilganda sharbat miqdori ortadi, mahsulotni tiniqlashishi va sifati yaxshilanishiga olib keladi. O'simliklar to'qimalarida sharbat miqdorini orttirilishi sellyulozaning, gemisellyulozaning, protopektinining, pektin va boshqalarning gidroliz jarayonlarini jadallashtirib boradi. Ushbu maqsadlarda sellyulozalar, protopektinazalar, pektinesterazalar, poligalakturanaza va boshqalar ishlatiladi. Sharbat ta'mi mevalardagi polifenollar hisobiga ko'pincha yomonlashadi. Bu kamchilik har xil oksidazalar polifenol oksidazalar, peroksidazalar va boshqalar yordamida bartaraf etiladi. Sharbatlarni tiniqlashtirish va loyqalanishini oldini olish uchun saqlash davomida, tarkibidagi oqsillarni gidrolizlash kerak. Bu jarayonni proteazalar yordamida amalga oshiriladi. Individual fermentlar hozircha meva-rezavor sharbatlar ishlab chiqarishda kam ishlatiladi. Keng ko'lamda tarqalgan konsentrangan pektolitik fermentlar preparatlardir – ular nafaqat pektolitik fermentlardan, balki boshqa gidrolitik fermentlar

- proteazalar, sellyulozalar va gemisellyulozalardan iboratdir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, fermentlar hamma biokimyoviy jarayonlarni sharoitini yaratib beradilar. Shuning uchun fermentlarning ahamiyati beqiyosdir. Bunda fermentlar tashkiliy va ko'pgina vazifalarni bajarishda ishtirok etadi.

## 4.2. Immobilangan fermentlar

Ervuvchan fermentlarni har xil sanoat va meditsina bo'lmlarida qo'llashga chegaralanishiga sabab quyidagilardan iborat.

- 1) Toza preparatlar ajratib olish qiyinligi va qimmatligi
- 2) Saqlash va har xil omillar ta'sirida o'zgaruvchanligi
- 3) Fermentning reagentdan ajralishi murakkabligi tufayli va reaksiya mahsulotlarini ko'p marta ishlatishni iloji yo'qligi.

Immobilangan fermentlar suvda erimaydigan tashuvchi bilan sun'iy bog'langan va o'zining qisman yoki to'liq katalitik xususiyatlarini saqlaydigan birikmalardir. Ular qimmat bo'sada, 2 ta yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklardan holi bo'lgan. Fermentlarning tashuvchi bilan bog'lanishi hisobiga termik chidamliligini oshiradi.

Immobilizatsiya usullari asosan fizik sorbtsiya hamda tashuvchiga oqsillarning kovalent birikishi natijasida yuzaga keladi.

Immobilangan fermentlarni qo'llash istiqbollari:

- amilazalar toza glyukozani makka va go'sht unidan olish uchun ishlatiladi;

-kraxmalni yo'qotish uchun sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishda;

-qog'oz fabrikalarining oqavalarini kraxmaldan tozalash uchun (neylonda, immobilangan amilaza ishlatiladi)

-istiqbolda polisaxaridlar (kraxmal)ni (selluloza sanoati) qoldiqlardan olish.

- $\beta$ -amilazani tozalangan maltoza sirop (sharob)ni kraxmaldan olish uchun ishlatiladi.

Glyukoamilazaning sellyuloza tolalarida immobillanganligi kraxmal va maltozada glyukoza va fruktoza olish uchun ishlatiladi. Fermentni bog'lanishi mikroblar florasidagi proteolitik fermentlar ta'siridan saqlaydi. Misol tariqasida makka kraxmalidan glyukoza, fruktoza sharobi olishni ko'rsatsak bo'ladi. Bu sharob qandolat mahsulotlari olishda ishlatiladi. Bu jarayon 3 bosqichda boradi.

1. α-amilazalar kraxmalni dekstrinlargacha parchalaydi.

2. Amiloglyukozidaza –uning yordamida glyukoza hosil bo'ladi.

3. Glyukozaizomerazalar – glyukozani teng glyukoza fruktoza aralashmasiga aylantiradi.

O'simliklar va hayvonlardan olinadigan fermentlar qimmatligi, sust labilligi, ma'lum bir faslda ajratib olish mumkinligi va boshqa omillar tufayli kam ishlatiladi. Bunday fermentlarga misol qilib, renin (hayvonlardan olinadi), anjirdan olinadigan fitsin, papain va boshqalarini olish mumkin. O'simliklar va hayvonlardan olinadigan fermentlarni to'qimalarini va organlarini in vitro ko'paytirish usulida olinsa, arzonroq va ko'p miqdorda olish imkonini yaratadi. 1990-yilga kelib dunyo bozoridagi ferment preparatlarining sotilishidan tushgan mablag' 800 mln dollarni tashkil qilgan. Shundan 80 % texnik fermentlar hisoblanib, asosan 3 ta sanoat yo'nalishlarida ishlatilgan.

1. Kraxmal gidrolizi – 40%.

2. Detergentlar ishlab chiqarish – 30%.

3. Pishloq ishlab chiqarishda – 10%.

Kraxmalni sanoat miqyosida qayta ishlashni asosini uni bijg'uvchi qndlarga (glyukoza, maltoza, izomaltoza) konsentrangan qandlar-sharoqlar (glyukoza, fruktoza) va kichik molekulali oligosaxaridlar va dekstrinlargacha aylanishidir. Bu birikmalar ko'pgina oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Kraxmal gidrolizi (kislotali, fermentativ) fermentativ usulda amalga oshirilishi uning ustunligidadir.

#### **4.3. Fermentlarni detergentlar bilan ishlatilishi**

Hamma mikroblari proteazalarni 3 ta sinfga bo'lsak: 1-serinli proteaza, 2-metalloproteaza, 3-nordon proteazalar. Serinli va metalloproteaza bakterial kulturalardan hosil boladi. Kislotali proteazalar esa mikroskopik zamburug'lardan hosil boladi. Metalloproteazalar pivo ishlab chiqarish va spirt sanoatida ishlatiladi. Pivo ishlab chiqarishda proteazalarni qollashdan maqsad loyqa hosil bo'lishini oldini olishdan iborat, undan tashqari o'simlik fermentlaridan bromelin va papain ishlatiladi. Kislotali proteazalar bakteriyalarda uchraydi, ammo zamburug'larda ko'p boladi. Bu fermentlar ko'proq sutni koagulyatsiyaga uchratganligi sababli, reninning almashinadigan birikmasi sifatida ishlatiladi.

*Aspergillus oruzae* kulturasidan, organik erituvchilar yordamida cho'ktirib takadiastaza ferment preparati olinadi. U o'zida kislotali va neytral proteaza hamda selluloza va pektinaza saqlaydi. Preparat soya o'simligini gidrolizlashda ishlatiladi (soya sousi tayyorlashda). Zamburug'li proteazalar kleykovinani degradatsiyasida doimiy darajada ishlatiladi.

### 5.1. G'alla ekinlari ahamiyati

Donli ekinlarga bug'doy, makkajo'xori, suli, arpa, sholi, jo'xori, javdar va boshqalar kiradi. Bu turlardan eng ko'p ahamiyatlisi bug'doy va javdar donlari un ishlab chiqarishda, non, bulochka va makaron mahsulotlari, bug'doy, suli, javdar, arpa donlari esa kombikormlar ishlab chiqarishda ishlatiladi. Bug'doy donidan biotexnologik ishlab chiqarish yo'li bilan etil spirti, fermentativ preparatlar va boshqa mahsulotlar olinadi. Bug'doy va arpa o'simtalari solod, pivo ishlab chiqarishda ishlatiladi.



5.1-rasm. **Don ekinlaridan oziq-ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalanish**

### 5.2. Donli ekinlarning kimyoviy tarkibi

Donli ekinlarning kimyoviy tarkibi xilma-xil, asosan kraxmal va oqsillardan iboratdir. Donli ekinlarda oqsil miqdori o'rtacha 7-15%

atrofida, kraxmal 50-70%, lipidlar 2-5,5%, kletchatka 2-14%, oligosaxaridlar 2-5%, monosaxaridlar 2,6-13,6, kul 1,3-6,2% bo'ladi.

Donlarning navi, turi, yetishtirish sharoiti, iqlimiyl omillar don tarkibiga ta'sir ko'rsatadi. Bug'doy donlarida oqsil miqdori 9-26 % gacha o'zgarishi mumkin, javdarda 9-19 %, sulida 8-21 %, arpada 7-25 %, jo'xorida 8-19 %, makkajo'xorida 5-20 %, sholida 5-11% quruq moddasiga nisbatan tashkil etadi.

Donlarning asosiy qismini uglevodlar (kraxmal, kletchatka, mono va oligosaxaridlar, gemitsellyuloza va boshqalar) kraxmal miqdori bug'doy donida 49-73 %, javdarda 55-73 %, arpada 45-68 %, sulida 34-64 %, makkajo'xorida 61-83 %, jo'xorida 51-70%, sholida 50-70 %. Donlardagi oqsil va kraxmal miqdori o'rtasida teskari korrelyatsiya kuzatiladi.

### 5.1-jadval

#### Donli ekinlarning biokimyoviy tarkibi

| Nº | Donlar        | Oq-sillar | Kraxmal | Lipid | Klet-chatka | Mono- va oligosa-xaridlar | Pentozanlar va boshqa uglevodlar | Kul |
|----|---------------|-----------|---------|-------|-------------|---------------------------|----------------------------------|-----|
| 1  | Bug'doy       | 15        | 65      | 2,0   | 2,8         | 4,3                       | 8,2                              | 2,2 |
| 2  | Makka-jo'xori | 10        | 70      | 4,6   | 2,1         | 3,0                       | 7,3                              | 1,3 |
| 3  | Javdar        | 13        | 70      | 2,0   | 2,2         | 5,0                       | 10,5                             | 2,0 |
| 4  | Suli          | 12        | 50      | 5,5   | 14,0        | 2,0                       | 13,6                             | 3,8 |
| 5  | Arpa          | 12        | 55      | 2,0   | 6,0         | 4,0                       | 12,2                             | 3,5 |
| 6  | Sholi         | 7         | 70      | 2,3   | 12,0        | 3,6                       | 2,6                              | 6,2 |
| 7  | Jo'xori       | 12        | 60      | 4,6   | 11,0        | 3,8                       | 2,8                              | 4,1 |

Donlardagi mono va oligosaxaridlar miqdori bug'doyda 4,3%, makkajo'xorida 3,0%, javdarda 5%, sulida 2,0%, arpada 4,0 %, sholida 3,6%, jo'xorida 3,8%. Bularda saxaroza ulushiga yarmidan ko'prog'i to'g'ri keladi va murtakda to'planadi.

Sellyuloza (kletchatka) asosan don urug'larining qobig'i tarkibiga kiradi va hujayra devorida to'planadi. Kletchatka endosperm tarkibida kam bo'ladi. Donlardagi kletchatka miqdori, donning razmeri va pishganlik darajasiga bevosita bog'liq. Pishmagan donlar tarkibidagi kletchatka kichik razmerlarda bo'ladi.

Bug'doy doni tarkibida geteropolisaxaridlar miqdori 8%, makkajo'xorida 7%, javdarda 10%, sulida 13%, arpada 12%, sholida 2%, tariqda 2% tashkil etadi. Donli ekinlar donida lipidlar miqdori 2-2,3% bo'lsa, makkajo'xorida 4,6%, sulida 5,5%, tariqda 4,6% atrofida bo'ladi.

Donli ekin donida hamma vitaminlar sintezlanib, ularning miqdori, navi, yetishtirish sharoitiga bog'liq. 100 gr bug'doy donida 0,5 gr vitamin bo'lishi mumkin. B<sub>1</sub> va B<sub>6</sub> lardan, 0,3 mg B<sub>2</sub> vitamini, 5,0-9,4 mg PP vitamini, 1,0-1,5 mg V<sub>3</sub> vitamini, 1 mg tokoferol tashkil etadi. Bug'doy kepagi tarkibida PP vitamin miqdori 25-30 mg%, sholi kepagida 40 mg% atrofida bo'ladi. Arpa urug'ining unishi davomida hosil bo'lgan erkin gibberellinlar murtakdan endosperm va aleyron qavatiga ko'chiriladi. Gibberellinlar hujayra devorida gidroliz jarayonini maxsus fermentlarning faollahuvi yordamida amalga oshiradi. Undan tashqari gibberellinlar amilazaning aleyron qavatida yangi fermentni hosil qiladi, endospermning kraxmalni eruvchan qandlargacha parchalaydi. Ular murtakning energetik va qurilish materiallari bo'lib xizmat qiladi.

Ko'pgina urug'lar tarkibida, xususan makkajo'xorida IUK bog'langan shaklda uchraydi. Makka urug'ining pishish davrida donning endospermida glikozidlar to'planadi. Urug'larning unib chiqish davrida glikozidlar IUK ga aylanadi va ular murtakka ko'chirilib gidrolizga uchraydi. Makka doni endospermida erkin IUK kam bo'lib, ammo uning efirlari ko'pdir. Shunday qilib IUK poya qismida to'planadi. Makkajo'xori urug'larida boshqa o'simliklar urug'lariga nisbatan sitokininlar miqdori - zeatin va uning hosilalari topilgan, o'sish nuqtalarida to'planishi kuzatilgan, quruq urug'larda nisbatan kam miqdorda bo'lishi aniqlangan. Makkajo'xorida endogen sitokininlar muhim rol o'ynashi o'suvchi jarayonlarda kuzatilgan.

### **5.3. Don tarkibidagi mineral moddalar**

Donlardagi kul miqdori xilma-xil bo'lib, ular nav va yetishtirish sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Arpa donida 1,8-4,5%, sulida 2,2-5,9%, tariqda 2,3-5,0%, sholida 3,6-8,1% atrofida kul bo'ladi. Donning har xil qismida elementar tarkibi o'ziga xosdir. Masalan, javdar donining har xil qismlarida quyidagicha bo'ladi: to'liq don 1,8%, meva qobig'ida 3,5%, urug' qobig'ida 2,9%, aleyron qavatida 7,9%, murtakda 5,3%, endospermda 0,4%. Bunday holatda bug'doy, makkajo'xori va javdar donlarda fosfor va kaliyning ulushi 80% ga etadi, magniy 13%, Ca, S, Cl, Si va boshqa elementlarning umumiy miqdori 7% ga yetadi. Donlar tarkibidagi R biogen molekulalar tarkibiga (fitin, fosfoglitseridlar, nukleotidlari, nuklein kislotalar) kiradi. Mineral fosforning ulushi 7-15% umumiy P hisobiga to'g'ri keladi. S tutuvchi aminokislotalardan sistein va metioninlar tarkibida uchraydi.

### **5.4. Donlarning har xil qismlaridagi kimyoviy moddalarning taqsimlanishi**

Don o'simliklarning embrional bo'lagi bo'lib, tinim holatda bo'lib, zaxira moddalar bilan ta'minlovchi qismdir, ular urug' pallalarda endosperm va perispermda himoya vazifasini o'tovchi, urug' po'sti va boshqa strukturalardan iboratdir. Urug'larda genetik axborotlar saqlanib, ular o'simlik turining tegishliligini, so'ngra organizmning tuzilishi, funksiyalari va o'sish rivojlanishini belgilab beradi.

Donning asosiy qismlari bo'lib, ustki qatlami, murtak qobig'i va endospermdan tashkil topgan. Pishgan don tarkibi murtak 3,7%, endosperm 77,5%, ustki qatlami 18,6% iborat bo'lib, ustki qavat perikarp va urug' po'stini o'z ichiga oladi.

Murtakda yuqori miqdorda oqsillar, lipidlar, uglevodiar, endospermda esa kraxmal borligi aniqlangan. Kletchatka,

monosaxaridlar va kul elementlari ko'proq donning ustki strukturalarida topilgan. Geteropolisaxaridlar donning har xil qismlarida nomutanosib tarqalgan. Masalan, endospermda 2,7%, murtakda 9,7%, aleyron qavatda 36,7%.

Donda lipidlarning taqsimlanishi bir tekis bo'lmaydi. Eng ko'p miqdor lipidlar bug'doy murtagining donida bo'ladi. Eng kam miqdorda endospermda ko'rildi. Don tarkibida quyidagi yog' kislotalari: palmitin, olein, linolen va linol kislotalari borligi aniqlangan. Don tarkibida to'yinmagan moy kislotalari ko'proq bo'lishi to'yinganlariga nisbatan kuzatiladi. Bunda olein va linol kislotalarining miqdori 85%ni tashkil etadi.

Don tarkibida vitaminlar notejis taqsimlangan. Eng ko'p miqdori qalqonchada, murtakda va aleyron qavatida, eng kam miqdorda endospermda uchraydi.

### 5.2-jadval

#### Bug'doy doni qismlaridagi biogen birikmalar kimyoviy tarkibi

| No | Don qismlari             | Oqsil | Kraxmal | Lipid | Klet-chatka | Mono va oligosaxaridlar | Pento-zanzalar | Kul  |
|----|--------------------------|-------|---------|-------|-------------|-------------------------|----------------|------|
| 1  | To'liq don               | 16,1  | 63      | 2,2   | 2,8         | 4,3                     | 8,1            | 2,2  |
| 2  | Endosperm                | 12,9  | 78,8    | 0,7   | 0,2         | 3,5                     | 2,7            | 0,5  |
| 3  | Murtak                   | 41,3  | 0       | 15,0  | 2,5         | 25,1                    | 9,7            | 6,3  |
| 4  | Aleyron qavati qobiqlari | 28,8  | 0       | 7,8   | 16,2        | 4,2                     | 36,7           | 10,5 |

Komponentlarning antioksidantlik faolligi donning har xil qismlarida 23°C da bo'kish davrida xilma xil bo'ladi. Peroksidaza fermentining faolligi, bug'doy donida modda almashinuv jarayonlarida ishtirokidan dalolat beradi, bu jarayonlar donning tinim davri va o'sish davriga to'g'ri keladi. Peroksidaza antioksidant tizimi tarkibiga kirib, uning faolligi har xil omillarning o'simliklarning ontogenezdagi chidamlilik darajasidan dalolat beradi. Bu ferment har xil anorganik va organik birikmalarni oksidlanishini katalizlash xususiyatiga egadir. Shuning uchun

peroksidaza fermentining aktivligi nafas olishi kuchayishi bilan ortadi, bunda urug'lar majburiy tinim holatidan chiqadilar.

Peroksidazaning yuqori aktivligi va antioksidantlarning katta miqdori murtakda va donning qalqonchasida borib, ularda lipidlarning faol peroksidlanish jarayonlari boradi. Peroksidazalar va antioksidantlar dondag'i peroksid oksidlanish jarayonlarini boshqarishda ishtirok etadilar. Peroksidaza substrat sifatida antioksidantlar va vodorod peroksidni ishlatalish xususiyatiga ega. Antioksidantlar oksidlanib, vodorod peroksid suvgacha qaytarilishini katalizlaydi. Ammo yuqori kontsentratsiyada antioksidantlar fermentni tormozlab, hujayrada peroksidlanish daajasini ko'tarib beradi. Tizimni o'zaro boshqarish orqali bug'doy donidagi peroksidlanishni nazorat qilish imkonini beradi va ma'lum bir darajada ushlab turiladi.

## **5.5. Don oqsillarining tarkibi va biologik qiymati**

Don oqsillarini shartli ravishda 4 ta guruhga bo'lish mumkin:  
1) albuminlar, 2) globulinlar, 3) prolaminlar, 4) glyutelinlar.

Bug'doy donida albuminlar miqdori 5-15%, umumiy oqsil miqdoridan, makkajo'xori donida 6-14%, arpada 8-15%, javdarda 3-5%. Bug'doy donida globulinlar miqdori 10-20%, makkajo'xorida 7-15%, sulida 15-25%, javdarda 15-25% ni tashkil etadi. Prolaminlar donli ekinlarning maxsus oqsili hisoblanib, bug'doy va javdar donida gliadinlar deyiladi, arpada gordeinlar, sulida aveninlar, makkajo'xorida zeinlardir. Bug'doy donida 20-40% gliadinlar bo'ladi, javdarda 2 marta kam (10-20%). Bug'doy donidagi avenin miqdori 20-30% atrofida, zein makkajo'xorida 40-50%, arpadagi gordein miqdori 35-40%ga etadi (umumiy oqsil miqdoriga nisbatan). Glyutelinlar bug'doy, arpa va suli donida 25-40 %, sholida 60-70% ni tashkil qiladi.

Oqsillarning aminokislota tarkibi donlarda har xil bo'lib, zaruriy aminokislotalar miqdori kam bo'ladi. Asosan lizin, triptofan va

treoninlardir. Aminokislotalardan tashqari donlarda amidlar, nuklein kislotalar, peptidlar va boshqalar uchraydi. Azotning oqsil bo'lмаган биримлари миқдори 1% дан ошмайди (quruq massa hisobiga). Donda hamma aminokislotalar sintezlanadi, shundan eng ko'п qismi murtakka to'g'ri keladi.

Bug'doy donining yuqori biologik qiymati uning donida o'tacha 13 % oqsil bo'lib, har getkar erdan o'tacha 30 ts/ga hosil olinsa, har gettarida 390 kg/ga xom protein bo'lishidir.

### **5.6. Bug'doyning kleykovina sifati va kimyoviy tarkibi**

Bug'doy unidan non tayyorlanadi va u oson o'zlashtiriladi. Bug'doy doni oqsilga boy, uning miqdori etishtirish sharoitiga qarab 11-24 % gacha bo'lishi mumkin. 80% dan ortiq umumiy oqsili bug'doyda zahira oqsil (gliadin va glyutenin) lardan iborat bo'ladi. Ular kleykovin oqsillar deyiladi. Bug'doy xamirini yuvganda suvda elastik va erimaydigan qayqum (kleykovina) uning asosini ishqorda spirtda eriydigan oqsillar tashkil etadi. Ishqorda eriydiganlari glyuteninlar, spirtda eriydiganlari gliadinlar.

Umuman kleykovina kuchli gidratlangan geldan iborat bo'lib, uning tarkibiga oqsillardan tashqari uglevodlar hamda lipidlar va mineral moddalar kiradi. Kleykovina komponentlari miqdori unning navidan, xamir tayyorlashga (aralashtirishga), yuvishning davomiyligiga bog'liq bo'ladi.

Unni suv bilan aralashtirilgan oqsillarni gidratlanishi va yopishishi (kompakt, qattiq xamir massasini hosil qilib) yuz beradi. Xamirning biologik xususiyatlari (qattiqligi, elastikligi, cho'ziluvchanligi) tarkibidagi glyutenin va gliadinlar bilan belgilanadi. Glyuteninlar kleykovin kompleksining tolalarini hosil qilib, gliadinlar glyuteninlar subbirliklariga qo'shilib elastiklikni oshiradi va xamirning stabilligi aralashtirish davomida kuchayadi. Har xil komponent gliadinlar va glyuteninlar borligi kleykovinaning kompleksi bug'doyning ishlab chiqarishdagi xususiyatlariga xizmat qiladi.

Kleykovinaning sifat ko'rsatkichlari (elastiklik, qattiqlik, cho'ziluvchanlik, bog'lovchanlik,gidratlanganlik va boshqalar) unning va non-bulochka mahsulotlarining sifatini belgilaydi. Bug'doy unidagi xom kleykovinaning miqdori 15-50% atrofida bo'ladi. Oliy navli un o'z tarkibida 35-45% xom kleykovina tutadi, past navli unlar esa 15-20% tutadi. Xom kleykovina tarkibini 65-70% suv tashkil etadi.

Kleykovinaning donni qismlarida tarqalishi bir xil bo'lmaydi. Donning aleyron qavati, ustki qavati va murtakda kleykovina bo'lmaydi. Hamma kleykovina endospermda bo'ladi va old qismida joylashadi. Umuman kleykovina geterogen bo'lib, uning asosini oqsillar - 88%, lipidlar - 2%, kraxmal - 6,7%, mono-oligosaxaridlar - 1,2%, va kul - 0,9%ni tashkil etadi.

## **VI BOB. DON-DUKKAKLI EKINLAR BIOKIMYOSSI**

### **6.1. Don-dukkakli ekinlarning ahamiyati**

Dukkaklilar atamasi barchasi oziq ovqat mahsulotlari hisoblanadigan 13000 dan ortiq turlarni o'z ichiga oladi. Dukkaklilar insoniyat ozuqa mahsulotlari orasida eng ko'p iste'mol qilinadigan mahsulotlar hisoblanadi. Ammo minglab turlarning ichida eng ko'pi soya, yoryong'oq, loviya, no'xat, yasmiq kabilar hisoblanadi va bularning ichida eng ko'p foydalaniladigani soyadir. Dukkaklilarning ko'pgina turlari dunyoning turli burchaklarida maxalliy axolining asosiy ozuqa mahsulotlari bo'lil hisoblanadi. Ammo bu oila vakillari ko'p bo'lganligi sababli ularni bitta bo'lim doirasida muhokama qilishning iloji yo'q.


### **6.2. Dukkaklilar donlarining tuzilishi va tarkibi**

Dukkakli o'simliklar donlarining makro-ozuqaviylik tarkibi bir-biridan farqlansada, ularning urug' strukturalari bir xil bo'ladi. Etilgan donlar uchta asosiy tarkibdan iborat: urug' qobig'i (po'st), murtak va endosperm. Ko'p dukkaklilarning donlari rivojlanishi davomida juda kam endospermli bo'ladi, va shu sababli urug'larning asosiy qismini murtak urug'pallasi egallaydi hamda asosiy ozuqa moddalarini saqlaydi. Shu yo'sinda, urug'palla kletchatka va kalsiyni istisno qilgan holda ozuqaviylik darajasi baholanadigan, to'yimli tarkib bilan ta'minlash vazifasini bajaradi.

Dukkakli o'simliklarning doni o'zining ozuqaviy moddalari tarkibi, donlarning turliligi, etishtirilgan tuproq sharoitiga va atrof-muhit omillariga qarab bir biridan farq qilishi mumkin. Tanlangan dukkakli o'simlikning oqsil tarkibi, ularning xom protein miqdori 15% dan 45% gacha bo'lishi mumkin bo'sada, ozuqaviylik tarkibida 19,30% dan 26,12% gacha o'zgarib turishi mumkin, ba'zi

soya navlarida 50% gacha oqsil saqlanishi mumkin. Uglevodlarning tashkil qiladigan qismi esa 24% dan 68% gacha bo'lishi mumkin va ular lipidlarning tarkibiy miqdoriga qarab teskari ravishda miqdoriy xarakatga ega.

Uglevodlarning katta miqdoriga ega bo'lgan dukkalilarning doni tarkibida o'z navbatida lipidlarning miqdori kam bo'ladi va aksincha. Buning yaqqol misoli sifatida tarkibida lipidlarning miqdori (49,24%) sezilarli darajada ko'p bo'lgan va nisbatan kam uglevod (16,13%) saqlaydigan eryong'oqni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ko'pgina dukkakli o'simliklarda kaliy keng tarqalgan element hisoblanadi, soya misolida uning miqdori 1,80 g/100g nisbatdagi miqdorda bo'ladi.



**6.1-rasm. Soya doni strukturasi (a) va soya urug'i po'stining ko'ndalang kesimi (b)**

## 6.1-jadval

**2007 yilda dunyo bo'ylab etishtirilgan dukkaklilar miqdori**

| <b>Dukkaklilar</b>                    | <b>Million tonna</b> |
|---------------------------------------|----------------------|
| Loviya, quruq                         | 19.3                 |
| Loviya, yashil                        | 6.4                  |
| <i>Vicia faba</i> (ot no'xati), quruq | 4.9                  |
| Eryong'oq, po'sti bilan               | 34.9                 |
| Yasmiq                                | 3.9                  |
| No'xat, quruq                         | 10.1                 |
| No'xat, yashil                        | 8.3                  |
| Soya                                  | 216.1                |

## 6.2-jadval

**Ba'zi muhim oziq-ovqat dukkalilarining bevosita tarkibi**

| Oziq modda                 | Glycine max L | Cicer arietinum | Arachis hypogaea | Pisum sativum | Vicia faba | Lens culinaris | Phaseolus vulgaris |
|----------------------------|---------------|-----------------|------------------|---------------|------------|----------------|--------------------|
| Suv (g)                    | 8.54          | 11.53           | 6.50             | 11.27         | 10.98      | 10.40          | 11.02              |
| Oqsil (g)                  | 36.49         | 19.30           | 25.80            | 24.55         | 26.12      | 25.80          | 21.60              |
| Umumiylipid (g)            | 19.94         | 6.04            | 49.54            | 1.16          | 1.53       | 1.06           | 1.42               |
| Cho'kma (g)                | 4.87          | 2.48            | 2.33             | 2.65          | 3.08       | 2.67           | 3.60               |
| Uglevod, turli xillari (g) | 30.16         | 60.65           | 16.13            | 60.37         | 58.29      | 60.08          | 62.36              |
| Tola, umumiyparxez (g)     | 9.30          | 17.4            | 8.50             | 25.5          | 25         | 30.50          | 15.2               |
| Kaltsiy (mg)               | 277           | 105             | 92               | 55            | 103        | 56             | 123                |
| Temir (mg)                 | 15.70         | 6.24            | 4.58             | 4.43          | 6.70       | 7.54           | 5.02               |
| Magniy (mg)                | 280           | 115             | 168              | 115           | 192        | 122            | 171                |
| Fosfor (mg)                | 704           | 366             | 376              | 366           | 421        | 451            | 352                |
| Kaliy (mg)                 | 1797          | 875             | 705              | 981           | 1062       | 955            | 1483               |
| Natriy (mg)                | 2             | 24              | 18               | 15            | 13         | 6              | 5                  |
| Rux (mg)                   | 4.89          | 3.43            | 3.27             | 3.01          | 3.14       | 4.78           | 3.65               |
| Mis (mg)                   | 1.658         | 0.847           | 1.144            | 0.866         | 0.824      | 0.519          | 0.841              |
| Maraganets (mg)            | 2.517         | 2.204           | 1.934            | 1.391         | 1.626      | 1.33           | 1.06               |
| Selen (mg)                 | 17.8          | 8.2             | 7.2              | 1.60          | 8.2        | 8.30           | 3.2                |

Fofor, mis, temir, kalsiy va magniy dukkaklarda sezilarli darajada ko'p uchraydigan muhim elementlardan hisoblanadi.

Niatsin va pantoten kislota ham dukkakli o'simliklarda uchraydigan muhim vitaminlar hisoblanadi va ularning ko'pchilik turlari folat kislotaning ham muhim manbasi hisoblanadi

### **6.3. Oqsillar**

Dukkakli o'simliklarda oqsilning eng ko'p miqdori urug'pallalarda, murtak o'qida va urug' po'stida juda kam miqdorda uchraydi. Dukkaklilarning donlari oqsillari ularning struktura xususiyatlari va saqlaydigan proteinlariga qarab tasniflanadi. Struktur oqsillar ba'zida fermentativ yoki katalitik oqsillar deb ham yuritiladi va ular proteaz ingibitorlar, lektinlar, lipokksigenazalar, amilazalar va ingibitorlardan iborat boladi. Shu bilan birga ular don tarkibidagi urug'pallalarda topilgan umumiy oqsillarning kam foizini tashkil qiladi va hujayra metabolizmi uchun javobgar oqsillar sirasiga kiradi.

Bu struktur oqsillar suvda eriydi va yig'im mavsumidan keyin donlarning mazasini va so'riluvchanligini ta'minlab beradi. Saqlash uchun mo'ljallangan oqsillar dukkakli o'simliklar donining asosiy qismini tashkil qiladi va ular suvda erimaydi. Ammo xlорид kislota eritmasida eriydi va globulin sinf oqsillari sirasiga kiradi. Ular urug'pallalarda topilgan va oqsil tanalari deb ataladigan membranalari bog'langan katta bo'lмаган organellalarda saqlanadi va ularning ol'chamlari 2 dan 20  $\mu\text{m}$  diametr da bo'lishi mumkin.

Oqsillar o'sish jarayonlarida donlarning rivojlanishi va o'sishi uchun zarur bo'ladigan, qurilish bloklari hisoblanadigan uglerod va azotni saqlaydi. Ular keyinchalik oqsillarning cho'kish koeffitsientiga qarab to'rtta asosiy fraktsiyalarga ajratiladi: 2S, 7S, 11S va 15S. Yuqori cho'kish koeffitsientiga ega bo'lgan fraktsiyalar (18S dan yuqori bo'lgan) soyaning bir necha shtammlaridagina aniqlangan. Shu bilan birga hech bir fraktsiya bir-biriga o'xshamaydi. 2S va 15S fraktsiyalar asoson ferment ingibitorlari va allergen omillar hisoblanadi.

7S globulinlar 7S fraktsiyaning asosiy qismini tashkil qiladi, 11S globulin esa 11S fraktsiyasining asosiy oqsili hisoblanadi. 7S va 11S globulinlar bирgalikda bir qator soya turlarida 50% gacha miqdorni tashkil qiladi ammo odatda soya va dukkakli o'simliklarning ko'pchiligidagi 70% gacha oqsillarni shakllantiradi. Ba'zi dukkaklilar, masalan Frantsuz loviyasi va sigir no'xatda saqlanadigan oqsillarning 75% idan ortig'ini globulinlar tashkil qilishi mumkin.

**Proteinlarning strukturasi va xususiyatlari.** 7S va 11S globulinlar dukkaklilarning asosiy oqsil tarkibi bo'lganligi bois chuqur o'rganilgan. Bu globulinlar struktur jihatidan bir-biriga o'xshash bo'lishi mumkin, ammo ular orasidagi farqlar umumiy oqsillar xususiyatlarida farqlarni keltirib chiqaradigan, oqsillarning subbirliklari va aminokislotalarining ketma-ketligi jihatidan farq qilishi mumkin. 7 S globulinining turli dukkaklilardagi ko'rinishlari turlicha nomlanadi. 7 S globulinlarning soyada eng ko'p tarqalgani  $\beta$ -konglitsinin hisoblanadi. Bu globulin uchta subbirliklardan tashkil topgan uch o'lchamli glikoprotein hisoblanadi, ular  $\alpha$ ,  $\alpha'$  va  $\beta$  deb belgilanadi.

Subbirliklarning turli xil kombinatsiyalari soya navlari orasida turli funktional xususiyatga ega bo'lgan bir xil bo'lmagan fraktsiyalarni hosil qiladi.  $\alpha$ ,  $\alpha'$  subbirliklarning har biri 418 aminokislota qoldiqlaridan iborat bo'lgan qismlardan tashkil topadi va mos ravishda 125 va 414 qoldiqli uzaygan qismlardan iborat bo'ladi.  $\beta$ -subbirligi esa 416 aminokislota qoldig'idan tashkil topadi.

Subbirliklarning issiqlikka turg'unligi, eruvchanligi, emulsiya hosil qilish xususiyati, gidrofob yuzasi va issiqlikka ehtiyoji jihatidan bir-biridan farq qiladi. Ular shuningdek, bu xususiyatlarning pH va ion kuchi kabi sharoit o'zgarishlari ta'siri ostida o'zgarishini aniqlaganlar. Shuni xulosa qilish mumkinki, subbirliklarning asosiy qismlari yuza gidrofoblik xususiyatini va issiqlikka chidamlilik uchun javobgar bo'ladi va o'z navbatida eruvchanlik, issiqlikka nisbatan induktsiyalanishi va emulsiya hosil

qilish xususiyati uzaygan qismlari, uglevod fragmentlari va markaziy qismlarga bog'liq bo'ladi. Oddiy soya o'simligida (*Phaseolus vulgaris* L) dominantlik qiladigan 7S oqsili fazeolin nomi bilan ma'lum. U sintez paytida 420 aminokislota qoldig'idan iborat bolsada, rivojlanish jarayonida 21 ta qoldiqni yo'qotadi. U ham soyaning 7S oqsili kabi fazeolin ham uch olchamli bo'ladi va  $\alpha$ ,  $\beta$  va  $\gamma$ -subbirliklardan iborat bo'ladi. Umuman olganda, 7S oqsillar muvozanatning assotsiatsiyasi va dissotsiatsiyasiga bog'liq bo'lgan holda pH va ion kuchiga ega bo'ladi.

### 6.3-jadval

#### Ba'zi muhim ozuqa dukkaklilarining amino kislota tarkibi

| Aminokislota         | <i>Glycine max</i> | <i>Cicer arietinum</i> | <i>Arachis hypogaea</i> | <i>Pisum sativum</i> | <i>Vicia faba</i> | <i>Lens culinaris</i> | <i>Phaseolus vulgaris</i> |
|----------------------|--------------------|------------------------|-------------------------|----------------------|-------------------|-----------------------|---------------------------|
| Triptofan (g)        | 0.591              | 0.185                  | 0.250                   | 0.275                | 0.247             | 0.223                 | 0.256                     |
| Tireonin (g)         | 1.766              | 0.716                  | 0.883                   | 0.872                | 0.928             | 0.895                 | 0.909                     |
| Izoleytsin (g)       | 1.971              | 0.828                  | 0.907                   | 1.014                | 1.053             | 1.078                 | 0.954                     |
| Leytsin (g)          | 3.309              | 1.374                  | 1.672                   | 1.760                | 1.964             | 1.809                 | 1.725                     |
| Lizin (g)            | 2.706              | 1.291                  | 0.926                   | 1.772                | 1.671             | 1.740                 | 1.483                     |
| Metionin (g)         | 0.547              | 0.253                  | 0.317                   | 0.251                | 0.213             | 0.212                 | 0.325                     |
| Tsistin (g)          | 0.655              | 0.259                  | 0.331                   | 0.373                | 0.334             | 0.327                 | 0.235                     |
| Fenilalanin (g)      | 2.122              | 1.034                  | 1.337                   | 1.132                | 1.103             | 1.230                 | 1.168                     |
| Tirozin (g)          | 1.539              | 0.479                  | 1.049                   | 0.711                | 0.827             | 0.667                 | 0.608                     |
| Valin (g)            | 2.029              | 0.809                  | 1.082                   | 1.159                | 1.161             | 1.238                 | 1.130                     |
| Arginin (g)          | 3.153              | 1.819                  | 3.085                   | 2.188                | 2.411             | 1.928                 | 1.337                     |
| Gistidin (g)         | 1.097              | 0.531                  | 0.652                   | 0.597                | 0.664             | 0.702                 | 0.601                     |
| Alanin (g)           | 1.915              | 0.828                  | 1.025                   | 1.080                | 1.070             | 1.042                 | 0.905                     |
| Aspartam kislota (g) | 5.112              | 2.270                  | 3.146                   | 2.896                | 2.916             | 2.758                 | 2.613                     |
| Glutamin kislota (g) | 7.874              | 3.375                  | 5.390                   | 4.196                | 4.437             | 3.868                 | 3.294                     |
| Glitsin (g)          | 1.880              | 0.803                  | 1.554                   | 1.092                | 1.095             | 1.014                 | 0.843                     |
| Prolin (g)           | 2.379              | 0.797                  | 1.138                   | 1.014                | 1.099             | 1.042                 | 0.916                     |
| Serin (g)            | 2.537              | 0.973                  | 1.271                   | 1.080                | 1.195             | 1.150                 | 1.175                     |

Glitsinin, soya donidagi 11S globulini, geksamер hisoblanadi va beshta subbirliklardan, G1, G2, G3, G4 va G5 lardan, G1 va G2 allel genlar xususiyatidan iborat bo'ladi. Har bir subbirlik oddiy disulfid bog'lar bilan bog'langan kislotali va asosli polipeptidlardan tashkil topadi. Polipeptidlardagi aminokislotalar ketma-ketligi va ularning

xususiyatlari orasidagi farqlar turli xususiyatlardagi sifatga ega bo'lgan oqsillarning geterogonik shakllarini hosil qiladi. Masalan, turli glitsinin fraktsiyalari gellarining xilma-xilligi kislotali polipeptid zanjirlaridagi aminokislalar ketma-ketligining turfa xilliligiga bog'liq bo'ladi.

**Oqsillarning sifati.** Oqsillarning sifati ularning aminokislota tarkibi, so'riluvchanligi va biokirishuvchanligi bilan belgilanadi. Shu narsa ma'lumki, dukkaklilarning oqsillari oltingugurt saqlovchi metionin oqsilini kam miqdorda saqlaydi va o'z navbatida lizinga boy bo'ladi. Dukkakli o'simliklarda ikkinchi chegaralovchi oqsil – triptofan saqlovchi oqsil hisoblanadi ammo ba'zi bir dukkaklilarda (sigir no'xat, yasmiq va yashil no'xatda) bu oqsil eng ko'p chegaralovchi oqsil hisoblanadi. Etishmovchiliklarning ta'siri oqsilni saqlab turish uchun talabdan ko'ra, o'sish jarayonlari davrida ko'proq seziladi.

Dukkakli o'simliklarning ozuqaviy qimmati turli usullar yordamida aniqlanishi mumkin. Hozirda ko'proq qo'llaniladigani almashinmaydigan aminokislotalarni o'z ichiga oladigan FAO/BJSST tomonidan taklif etilgan aminokislotalarning standart miqdori va oqsil samaradorligi koeffitsienti usuli hisoblanadi (tajriba hayvonlarining o'sish reaksiyasiga bog'liq ko'rsatkich, masalan kalamushlarda). Dukkakli o'simliklarning so'riluvchanlik koeffitsienti katta diapozanlarda, 51% dan 92% gacha o'zgarib turadi va bu ko'rsatkich ular tarkibidagi ozuqaviy bo'lмаган moddalarning mavjudligiga bog'liq.

#### **6.4. Uglevodlar**

Umumiyligi quruq modda sifatida dukkaklilarda, qanotli loviyada 24% dan to, 68% gacha sigir no'xat donida, keng ko'lamda uchrashi mumkin.

Umuman olganda barcha uglevodlar eriydigan va erimaydigan fraktsiyalardan iborat bo'ladi. Eriydigan uglevodlar monosaxaridlar

va oligosaxaridlarni o'z ichiga olsa, o'z navbatida erimaydigan uglevodlar fraktsiyalari kraxmal, ozuqa tolasi (volokna) va boshqa polisaxaridlardan tashkil topgan bo'ladi. Bu uglevod tarkibiy qismlar odam organizmi salomatligidagi samarasi va xususiyatlari jihatidan bir-biridan farq qiladi.

6.4-jadval

### Ozuqa dukkanaklarda umumiy uglevodlar va kraxmal tarkibi

| Dukkanaklilar                                | Umumiy<br>uglevodlar | Kraxmal   | Amiloza   | Jelatinlanish<br>harorati (°C) |
|--|----------------------|-----------|-----------|--------------------------------|
| <b>Qanotli loviya<br/>urug'i</b>             | 24.0-42.2            | -         | -         | -                              |
| <b>Tish no'xat</b>                           | 56.6                 | 36.9-48.6 | 5.3-8.7   | 65-69                          |
| <b>Yapaloq no'xat</b>                        | -                    | 24.0      | 36.6      | > 99                           |
| <b>Katta loviya</b>                          | 61.2-61.5            | 44.0      | 9.9       | -                              |
| <b>Kaliforniya<br/>mayda oq<br/>loviyasi</b> | -                    | 57.8      | 7.7       | -                              |
| <b>Qizil kurtak<br/>loviya</b>               | 56.3-60.5            | 31.9-47.0 | 17.5-37.2 | 64-68                          |
| <b>Dengiz loviya</b>                         | 58.4                 | 27.0-57.2 | 22.1-36.0 | 68-74                          |
| <b>Dog'li loviya</b>                         | -                    | 51.0-56.5 | 25.8      | -                              |
| <b>Pushti loviya</b>                         | -                    | 42.3      | 14.9-35.3 | -                              |
| <b>Qora ko'z<br/>loviya</b>                  | -                    | 41.2      | 15.8-38.3 | -                              |
| <b>Qora gram</b>                             | 56.5-63.7            | 32.2-47.9 | 43.9      | 71.5-74                        |
| <b>Bengal grami</b>                          | 60.1-61.2            | 37.2-50.0 | 31.8-45.8 | -                              |
| <b>Mosh loviya</b>                           | 53.3-61.2            | 37.0-53.6 | 13.8-35.0 | 63-69                          |
| <b>Qizil gram</b>                            | 57.3-58.7            | 40.4-48.2 | 38.6      | -                              |
| <b>Soya</b>                                  | 25.2-33.5            | 0.2-0.9   | 15.0-22.0 | 73-81                          |
| <b>Keng loviya</b>                           | 57.3                 | 41.2-52.7 | 22.0-35.0 | -                              |
| <b>Yasmiq</b>                                | 59.7                 | 34.7-52.8 | 20.7-45.5 | 58-61                          |
| <b>Sigir no'xat</b>                          | 56.0-68.0            | 31.5-48.0 | -         | -                              |
| <b>Lyupin urug'i</b>                         | -                    | 0.3-0.5   | -         | -                              |

Xar bir dukkanakli o'simliklar uglevodli tarkibi va uglevodlarning tarkibiy qismlari jihatidan farqlanishi ham mumkin va buning

natijasida ularning ozuqa moddalari sifatida ishlatilishi va ozuqaviy qimmatining turli darajalari kelib chiqadi.

**Erimaydigan uglevodlar: Kraxmal.** Kraxmal dukakli o'simliklarning asosiy uglevod tarkibiy qismi hisoblanadi. Dukkakli o'simliklarning doni kraxmal saqlash siqdori va tarkibi jihatidan bir-biridan ancha farq qiladi. Kaliforniya mayda oq loviyasi 57,8% kraxmal saqlaydi, o'z navbatida soya dukkaklilari esa 0,2% miqdorda kraxmal saqlaydi. Umuan olganda, soya, lyupin va qanotli loviya kam miqdorda kraxmal saqlaydi. Dukkaklilarning donida saqlanadigan kraxmal yuqori kontsentratsiyada amiloza saqlaydi va ma'lum darajada o'zining amilozasi va amilopektin koeffitsientiga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Dukkaklilarda amilozaning saqlanish miqdori 5,3% dan silliq no'xatda va 43,9% gacha qora gram loviyasida o'zgarib turishi mumkin. Turli dukkaklilarning kraxmalining jelatinlanish harorati esa 60°C dan 90°C gacha bo'lgan ko'rsatkichlarda amalga oshadi va mos ravishda taqqoslaysidan bo'lsak, makkajo'xorining kraxmali jelatinlanishi mum makkajo'xori kraxmalining jelatinlanishiga qaraganda yuqoriroq harorat talab qiladi. Jelatinlanish harorati kraxmalning strukturasi va tarkibiga qarab belgilanadi: amilopektinning ma'lum miqdori amilopektinning kraxmalda jelatinlanish harorati ta'sirida tarmoqlanish jarayoni davomida jelatinlanish amalga oshishini keltirib chiqaradi. Jelatinlanish haroratining o'zgarishiga sabab bo'ladigan boshqa omillarga lipid bog'larining mavjudligi, oqsillar va fosfatlar hamda kraxmal granulalarining o'lchamlari kiradi.

Tadqiqotlar natijasida yana shu narsani xulosa qilish mumkinki, iste'mol qilingan mahsulotlardagi dukkakli o'simliklarning kraxmali, ular hattoki umumiyligi energiyaga bo'lgan talabning sezilarli miqdorini ta'minlab bersada, kraxmal butunlay gidrolizlanmasligi mumkin. Insonlarning ovqat hazm qilish tizimida gidroizlanmaydigan kraxmalning tarkibiy qismlari turg'un kraxmallar (TK) deb tasnifланади. Turg'un kraxmal, yaxshilangan

glikemik indeks (GI) deb ataladaigan, qondagi glyukoza darajasiga ta'sir qiladigan uglevodlarning ko'rsatkichiga zga bo'lishi mumkin. Turg'un krazmalning hosil bo'lishiga va kraxmal so'rishash darajasining o'zgarishiga ko'pgina omillar ta'sir qilishi mumkin.

Ular urug' strukturasi, amiloza va amilopektinning o'zaro nisbati, issiqlik miqdorining mayjudligi yoki unga bo'lgan talab, kraxmalning boshqa kimyoviy moddalar bilan ta'sirlashishi, shuningdek ishlab chiqarish va saqlash sharoitlari kabi kraxmalning ajralmas xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Masalan, issiqlikning ta'siri dala no'xatida TK kontsentratsiyasi shaklining 2,4% dan 1,9% gacha, 3,3% dan 2,5% gacha chechevitsa dukkaklilarida, 3,4% dan 2,3% gacha turk no'xatida, kamayishiga olib keladi. Bundan farqli ravishda bug'ning issiqligi TK ko'rsatkichini qora no'xatda 1,9% dan 6,0% gacha, Lima no'xatida 0,8% dan 4,0% gacha oshirishi va quruq bug' bosimda pishirish ham TK ko'rsatkichini Lima no'xatida 0,8% dan 2,1% gacha oshiradi, ammo bu omil qora no'xatda bu ko'rsatkichni o'zgarishiga ta'sir qilmadi, taxminimizcha, bu navda kraxmalning ajralmas xususiyatlari va issiqlikka talab va namlikka bo'lgan talab TK ning shakllanishiga olib kelmaydi.

Namlash va avtoklavlash (sterillash) 28% kraxmal saqlaydigan mukuna loviyasida kraxmalning hazm qilinishini o'zgartiradi. Suvda namlash jarayonidan keyin so'rildigan kraxmalning miqdori 67,4% dan 87,2% gacha ko'tariladi. Bu TK ko'rsatkichining sezilarli kamayishi bilan, oddiy urug'larda 88,3 g/kg dan namlangan urug'larda 48,1 g/kg gacha kamayishi bilan kuzatiladi. Xitoy dukkaklilarining namlanishi ularning tarkibidagi kraxmalning so'rishini 36,4-98,2% gacha oshirishi mumkin va issiklikning ta'sirida so'riluvchanlik 6-7 marta va unish ta'sirida 1-2 marta oshishi mumkin.

**Xom va pishirilgan dukkaklilar tarkibidagi turg'un kraxmal (TK)**

| Dukkaklilar                   | Xom (% TK) | Pishirilgan (% TK) |
|-------------------------------|------------|--------------------|
| Dala no'xati <sup>a</sup>     | 2.4        | 1.9                |
| Yasmiq <sup>a,b</sup>         | 3.3-6.53   | 2.5                |
| Turk no'xati <sup>a,b</sup>   | 3.4-5.7    | 2.3                |
| Qora loviya <sup>a</sup>      | 1.9        | 6.0                |
| Qizil loviya <sup>a</sup>     | 0.8        | NA                 |
| Lima loviyasi <sup>a</sup>    | 2.0        | 4.0                |
| Kurtak loviya <sup>b</sup>    | 4.6-6.6    | NA                 |
| Coya <sup>b</sup>             | 0.2-0.3    | NA                 |
| Soya faba loviya <sup>b</sup> | 0.3-5.6    | NA                 |
| Tish no'xat <sup>b</sup>      | 5.6-7.1    | NA                 |
| Yapaloq no'xat <sup>b</sup>   | 9.6-10.3   | NA                 |
| Oq kepak                      | 0.4        | NA                 |

Dukkaklilarning urug'i ozuqabop tolalarning ajoyib manbai hisoblanadi. Ulardagi tolalarning umumiy miqdori qora gram, bengal grami, qizil gramda 1,2% (u/u) hamda moshda, bengal gram loviyasida 25,6% gacha (u/u) etishi mumkin. Umumiy tolalarning miqdori xar bir dukkaklilarning donida bir-biridan farq qiladi. Masalan, tolalarning umumiy miqdori 1,2% dan 25,6% gacha o'zgarib turishi va tsellyuloza miqdori 1,1% dan 13,7% gacha, Bengal gram loviyasida o'zgarib turishi mumkin. Dukkaklilarda dukkak tolalari tsellyuloza, gemitsellyuloza va ligninning ma'lum miqdoridan tashkil topadi va o'z navbatida biroz miqdorda pektin moddalari, arabinogalaktan, ksiloglyukanlardan iborat bo'ladi.

Ko'pgina xulosalar dukkaklilarning tolalari va boshqa ozuqa tolalalarning inson salomatligi uchun maqbul foydali xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Ularning foydali xususiyatlari ko'p, chegaralanmagan holda, fekaliv miqdorini va fekaliv namligini saqlab turadi, xolesterinning qondagi darajasini kamaytiradi, GI ko'rsatkichini yaxshilaydi va yo'g'on ichak saratoni kasalligining oldini oladi. Tolalarning ozuqa molekulalari insonning yo'g'on ichagida hazm qilina olmasligi mumkin ammo ichakdagisi mikroorganizmlar tomonidan qisqa zanjirli yog' kislotalariga

fermentatsiyalanadi. Ular maxalliy pH ko'rsatkichini kamaytiradi, ichaklarning o'tkazuvchanligini yaxshilaydi va o't qislotalarining o'zlashtirilishini yaxshilaydi. Yo'g'on ichak saratonining oldini olishi ularning hosil qiladigan qisqa zanjirli yog' kislotalari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ozuqaviy tolalar o't kislotalarini ushlab qolish yoki yutish xususiyatiga ega va bu kislotalarning fekaliy bilan tashqariga chiqarib yuborilishini ham ta'minlaydi. Bu jarayon natijasida jigarda xolesterinlarning o't kislotalarigacha aylanishi stimullanadi va plazmadagi xolesterinning kamayishiga olib keladi.

### 6.6-jadval

#### Ozuqa dukkaklilarining tola tarkibi

| Dukkaklilar                  | Umumiy tola | Tsellyuloza | Lignin  | Gemitsellyuloza |
|------------------------------|-------------|-------------|---------|-----------------|
| <b>Qanoqli loviya urug'i</b> | 3.4-12.5    | -           | 0.7-1.0 | 1.36            |
| <b>Tish no'xat</b>           | 4.6-7.0     | 0.9-4.9     | 0.5-0.9 | 1.0-5.1         |
| <b>Yapaloq no'xat</b>        | 7.6         | 1.2-4.2     | 0.3-1.0 | 0.9-6.6         |
| <b>Katta loviya</b>          | 4.5-6.7     | -           | -       | -               |
| <b>Qizil kurtak loviya</b>   | 3.7         | 2.5-5.9     | 2.7-3.1 | 0.3             |
| <b>Dengiz loviya</b>         | 3.4-6.6     | 3.2         | 0.1     | 0.5-4.9         |
| <b>Dog'li loviya</b>         | 4.3-7.2     | 9.0         | 1.8-3.0 | 4.0             |
| <b>Pushti loviya</b>         | -           | 6.0         | 0.2     | -               |
| <b>Qora ko'z loviya</b>      | 3.1         | 4.9         | 0.1     | -               |
| <b>Qora gram</b>             | 1.2-19.5    | 5.0         | 3.8     | 10.7            |
| <b>Bengal grami</b>          | 1.2-25.6    | 1.1-13.7    | 2.9-7.1 | 0.6-9.1         |
| <b>Mosh loviya</b>           | 1.2-12.8    | 2.5-4.6     | 2.2-7.2 | 0.3-9.1         |
| <b>Qizil gram</b>            | 1.2-20.3    | 7.3         | 2.9     | 10.1            |
| <b>Soya</b>                  | 2.4-5.5     | -           | -       | 7.6             |
| <b>Keng loviya</b>           | 8.0         | 1.0         | 0.7-1.1 | 4.0-4.6         |
| <b>Yasmiq</b>                | 2.6         | 4.1         | 2.6     | 6.0             |
| <b>Sigir no'xat</b>          | 1.7-4.0     | -           | 0.6-1.8 | -               |
| <b>Lyupin urug'i</b>         | 3.0         | -           | 0.7-0.8 | 9.3-9.9         |

**Eruvchan uglevodlar.** Dukkaklilarining doni sezilarli darajada suvda eriydigan uglevodlarga, o'z navbatida biroz miqdorda soyada

glyukoza va arabinoza kabi monosaxaridlar, ma'lum miqdordagi kontsentratsiyada disaxarid va oligosaxaridlar, odatda saxaroza, rafinoza, staxioza, verbaskoza va ayuskozalardan tarkib topadi.

### 6.7-jadval


#### Ozuqa dukkaklilarining eriydigan uglevodolar tarkibi

| Dukkaklilar                          | Saxa-roza | Raffi-noza | Staxio-za | Verba-skoza | Ayuskoza | Umumiy eruvchanlik |
|--------------------------------------|-----------|------------|-----------|-------------|----------|--------------------|
| <b>Qanotli loviya urug'i</b>         | 0.3-8.2   | 0.2-2.0    | 0.1-3.6   | 0.04-0.9    | -        | 3.4                |
| <b>Tish no'xat</b>                   | 2.3-2.4   | 0.3-0.9    | 2.2-2.9   | 1.7-2.3     | 0.06     | 5.3-8.7            |
| <b>Yapaloq no'xat</b>                | 2.3-4.2   | 1.2-1.6    | 2.9-5.5   | 2.2-4.2     | 0.13     | 10.2-15.1          |
| <b>Katta loviya</b>                  | 2.0-3.8   | 0.3-0.7    | 2.3-2.8   | -           | -        | 9.9                |
| <b>Kaliforniya mayda oq loviyasi</b> | 3.0       | 0.3-0.7    | 2.9-3.7   | 0.1         | -        | 7.7                |
| <b>Qizil kurtak loviya</b>           | 1.6       | 0.3-0.9    | 2.4-4.0   | 0.1-0.5     | -        | 8.0                |
| <b>Dengiz loviya</b>                 | 2.2-3.5   | 0.4-0.7    | 2.6-3.5   | 0.1-0.4     | -        | 5.6-6.2            |
| <b>Dog'li loviya</b>                 | 2.        | 0.4-0.6    | 2.9-3.0   | 0.1-0.2     | -        | 6.7                |
| <b>Pushti loviya</b>                 | 1.4       | 0.2-0.4    | 0.2-0.4   | -           | -        | -                  |
| <b>Qora ko'z loviya</b>              | 2.6       | 0.4-1.0    | 0.4-0.9   | -           | -        | -                  |
| <b>Qora gram</b>                     | 0.7-1.5   | 0-1.3      | 0.9-3.0   | 3.4-3.5     | -        | 3.0-7.1            |
| <b>Bengal grami</b>                  | 0.7-2.9   | 0.7-2.4    | 2.1-2.6   | 0.4-4.5     | -        | 3.5-9.0            |
| <b>Mosh loviya</b>                   | 0.3-2.0   | 0.3-2.6    | 1.2-2.8   | 1.3-3.8     | -        | 3.9-7.2            |
| <b>Qizil gram</b>                    | 2.7       | 1.0-1.1    | 2.7-3.0   | 4.0-4.1     | -        | 3.5-10.2           |
| <b>Soya</b>                          | -         | 0.7-1.3    | 2.2-4.2   | 0-0.3       | -        | 5.3                |
| <b>Keng loviya</b>                   | 1.4-2.7   | 0.1-0.5    | 0.5-2.4   | 1.6-2.1     | -        | 3.1-7.1            |
| <b>Yasmiq</b>                        | 1.8-2.5   | 0.4-1.0    | 1.9-2.7   | 1.0-3.1     | -        | 4.2-6.1            |
| <b>Sigir no'xat</b>                  | 1.8-3.1   | 0.4-1.2    | 2.0-3.6   | 0.6-3.1     | -        | 6.0-13.0           |
| <b>Lyupin urug'i</b>                 | 1.0-2.6   | 0.5-1.1    | 0.9-7.1   | 0.6-3.4     | 0.3-2.0  | 7.4-9.5            |

Dukkakli o'simliklarning doni ular tarkib topadigan uglevodlarning tarkibi va tuzilishi jihatidan bir-biridan farqlanadi.

Uraynklid no'xati umumiy eriydigan uglevodlarni 10,2% dan 15,1% gacha saqlashi mumkin bo'lsa, o'z navbatida soya 5% gacha umumiy eriydigan uglevodlar miqdorini saqlashi mumkin.

Dukkaklilarni oziq-ovqat mahsulotlari sifatida ishlatalishi yoki foydalanimishida e'tiborga olinishi kerak bo'lgan, aloxida oligosaxaridlarning bir xil miqdorda urug'larning fraktsiyalarida taqsimlanishini kuzatishimiz mumkin. Bu oligosaxaridlarn redutsirlanmaydigan shakarlar hisoblanadi, ular saxarozaдан hosil bo'lgan bo'lib, unga bir yoki bir necha galaktoza qismlarini  $\alpha$  ( $1 \rightarrow 6$ ) bog'lar yordamida glyukozaga biriktirib saxaroza birliklarining yarmiga bog'lanishi bilan hosil bo'ladi. Ular odatda rafinoza oilasi sifatida yoki galakto-oligosaxaridlarn nomi bilan ma'lum. Saxaroza inson ichaklarida gidrolizga uchrash va so'rilishi mumkin bo'sada, rafinoza oilasiga mansub shakarlar inson ingichka ichaklari tomonidan ichaklar shilliq qavatining yuzasida  $\alpha$ -1,6-galaktozidazaning bo'limgan holatida hazm qilina olmaydi.



**6.2-rasm. Dukkaklilar uglevodlari – staxioza, raffinoza va saxaroza strukturasi**

Raffinoza oilasiga mansub oligosaxaridlardukkaklilarnin iste'mol qilinganidan keyin ichaklarda gaz hosil bo'lishi va noqulay hissiyotlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bu oligosaxaridlarn

ozuqa tarkibidagi suyuqliklarni osmos ta'sirida yutib olishi mumkin va buning natijasida qorinning dam bo'lishi, sanchiqlar va ich ketishi mumkin. Yo'g'on ichakda bu oligosaxaridlar maxalliy mikroorganizmlar tomonidan ishlab chiqariladigan fermentlar tomonidan parchalanishi mumkin. Buning natijasida maxalliy osmolyarlik miqdori oshadi va ko'p miqdoda suvning ushlanib qolishiga sabab bo'ladi. Monosaxaridlar shuningdek, gazlarning sezilarli qismini hosil qiladigan va kichik molekulchr og'irlilikka ega bo'lgan kislotalarnin ishlab chiqaradigan mikroorganizmlar tomonidan ham ishlatilishi mumkin. Kislotalar pH muhitini tushirib yuborishi va yo'g'on ichak ichki yuzasini qitiqlaydi va ichaklarning harakatini kuchaytiradi.

Suyuqlikarning ushlanib qolishi va ichak harakatining oshishining har ikkalasi ham diareyani keltirib chiqaradi. Gaz mahsulotlari, karbonad angidridi, vodorod va metan yo'g'on ichak patologiyasi, shuningdek qitiqlanadigan ichak sindromi kasalliklari bilan kasallangan bemorlarda bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Ozuqa moddalari tarkibidagi oligosaxaridlarning darajasini tushirish uchun bir qator, urug'larnin namlantirish yoki suvda ivitish kabi usullardan foydalanish mumkin. Bir qator seleksioner usullar va genetik modifikatsiya texnologiyalari dukkakli o'simliklarda oligosaxaridlarning miqdorini kamaytirish chora-tadbirlariga qaratilgan.

Bundan tashqari urug'larni undirish, fermentatsiyalash,  $\alpha$ -galaktozidaza bilan ishlash va donlarni nur bilan ishlash kabilar ham dukkaklilarda oligosaxaridlarning miqdorini kamaytirish maqsadida qo'llaniladi. Oligosaxaridlar sinfiga mansub raffinozalarning butunlay yo'qotilishi dukkaklilarning iste'moli natijasida kelib chiqadigan gaz to'planishlarini butunlay bartaraf qilinishini ta'minlamaydi, tolalarning parxez tarkibiy qismlari ham bunday simptomlarni keltirib chiqarishi mumkin. Qizig'i shundaki, keyingi o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra bu oligosaxaridlar potentsial sog'liq uchun foydali bo'lgan immunomodulyator va

oshqozon-ichak trakti harakat tezligini oshirish kabi foydali samaralarga ham ega bo'ladi.

Uglevodlar dukkaklilarning asosiy tarkib moddalarini hisoblanadi va ozuqa tolalarining eng maqbul manbalaridan va inson iste'mol qilganida bir qancha foydali xususiyatlarga ega bo'ladi. Dukkaklilarning uglevodlarining ba'zi turlari insonlarning iste'moli sohasi va oziq moddalarining havfsizligi borasida, oziqlanish va o'ziga xoslik borasida muhim vazifalarga ega bo'ladi. Hosil yig'ilganidan keyin o'tkaziladigan ishlovlari, o'z navbatida ozuqa tayyorlashdagi jarayonlar ham dukkaklilarning so'riliishi va ularning ozuqaviy qimmatining, foydali xususiyatlarining o'zgarishiga, shuningdek, meteorizm kabi yoqimsiz holatlarni keltirib chiqaradigan xususiyatlarning ham o'zgarishiga olib keladi.

## 6.5. Lipidlar

O'simliklarning donlarida lipidlar  $0,5 \mu\text{m}$  dan to  $2,5 \mu\text{m}$  diametrdagi kichik sharsimon organellalar ko'rinishida saqlanadi va ular yog' tanalari deb ataladi. Bu organellalar shuningdek sferosomalar deb ham ataladi va ular urug'pallalarda saqlanib triglitseridlar haolida tarkib topadi. Soya o'simligida lipidlarning sintezlanishi biosintetik proteinlar yog' kislotalarining darajasini boshqarish yo'lli bilan nazorat qilinadi, va ularning mavjudligi urug'ning rivojlanish bosqichlariga bog'liq. Dukkaklilarning urug'lari yarim to'yingan yog' kislotalarining maqbul manbasi hisoblanadi, asosan almashinmaydigan omega-6-linolein kislota va omega-3-linolen kislota manbasi hisoblanadi. Soya turlari linolen kislotalarning eng ko'p miqdorini saqlaydi va olein va palmitin kislotaning ham sezilarli darajada ko'p miqdorini saqlaydi.

Eryong'oqsimonlar (*Arachis hypogaea*) eng ko'p to'yinmagan yog' kislotalarini hujayra membranadlarida saqlaydi va butun miqdori bo'yicha hisoblaydigan bo'lsak, deyarli olein kislotadan tashkil topgan bo'ladi. Fitosterollar xolesterin tushurivchi

nutratsevtik (ozuqa moddalrining foydali xususiyatlarini oshiradigan ozuqa qo'shimchasi) vositalar sifatida ma'lum. Ular tarkibiy tuzilishi jihatidan xolesteringa o'xhash bolib, o'simlik hujayrasining membranalarida, membranalarning mustahkamligini ta'minlovchi vosita cihatida joylashadi.

### 6.8-jadval

#### Ba'zi muhim ozuqa dukkaklilarining fitosterol va yog' kislota tarkibi

| Dukkaklilar               | 16:1  | 18:1   | 18:2   | 18:3  | To'yingan | Mono-to'yin-magan | Poli-to'yin-magan | Fito-sterol (mg) |
|---------------------------|-------|--------|--------|-------|-----------|-------------------|-------------------|------------------|
| <i>Glycine max</i>        | 2.116 | 4.348  | 9.925  | 1.330 | 2.884     | 4.404             | 11.255            | 161              |
| <i>Cicer arietinum</i>    | 0.501 | 1.346  | 2.593  | 0.101 | 0.626     | 1.358             | 2.694             | 35               |
| <i>Arachis gypogaea</i>   | 5.154 | 23.756 | 15.555 | 0.003 | 6.834     | 24.429            | 15.559            | 220              |
| <i>Pisum sativum</i>      | 0.125 | 0.232  | 0.411  | 0.084 | 0.161     | 0.242             | 0.495             | 135              |
| <i>Vicia faba</i>         | 0.204 | 0.297  | 0.581  | 0.046 | 0.254     | 0.303             | 0.627             | 124              |
| <i>Lens culinaria</i>     | 0.133 | 0.180  | 0.404  | 0.109 | 0.156     | 0.189             | 0.516             | -                |
| <i>Phaseolus vulgaris</i> | 0.343 | 0.123  | 0.332  | 0.278 | 0.366     | 0.123             | 0.610             | -                |

Lipidlarning boshqa turi, fosfolipidlar ham dukkaklilarning urug'larida topilgan. Ular polyar lipidlarning katta qismini tashkil qiladi va ularning orasida eng ko'p ma'lum bo'lganlari soyadagi letsitin hisoblanadi.

Soya letsitini inson salomatligi uchun ko'pgina afzallikkarga ega va ozuqa mahsulotlarini tayyorlashda ularning ko'pgina xususiyatlaridan foydalanildi. Ot no'xati donining asosiy fosfolipidlariga fosfatidilxolin, fosfatidiletanolamin va fosfati-dilinozitol kabilar kiradi. Dukkaklilarning donlaridagi fosfolipidlar rivojlanayotgan urug'lardagi hujayra membranalari tarkibiy qismlarining kamayishi evaziga urug'nинг rivojlanishi boshlanishi bilan kamayib boradi.

## **6.6. Unish jarayonining ta'siri**

Unish jarayoni dukkanlilarning donlarining ozuqaviy qimmatining oshishi va estetik tarafdan chiroli ko'rinishga kirishi uchun xizmat qiladigan usul hisoblanadi. Etilgan donlardan foydalanish maqsadlari turlicha: ular quritilishi mumkin va un holiga keltirilishi hamda o'xhash etilmagan donlardan olingan unlar uchun qo'shimcha sifatida ishlatilishi mumkin. Yangi etishtirilgan urug'lar sabzavot sifatida iste'mol qilinishi mumkin, odatda Sharq ekinlari orasida ularning etilayotgan nihollari ham parxezbop mahsulotlar sifatida ko'rilgan, o'z navbatida g'arb ekinlari orasida ham shu maqsadlarda foydalanib kelingan.

Aksincha holatda unish dukkanlilarning etkazib beruvchilariga bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. O'z navbatida quritilgan donlarning saqlash muddatining oddiy sharoitlarda o'zgarmasa ham, yangi ungan nihollar tez buziladigan mahsulotlar hisoblanadi va harorat va namlikning qat'iy nazoratini talab qiladi. Unish jarayoni paytida urug'larda yuzaga keladigan o'zgarishlar shu erda muhokama qilinadi, ammo unish jarayonida o'rganilgan ma'lumotlarni turli namlik sharoiti, harorat, urug'ning yoshi, urug'ning turi, unish vaqt va boshqalar evaziga taqqoslash qiyin.

Bundan tashqari, unayotgan urug'larning tahlili natijalari quruq og'irlikdagi kabi bo'lmaydi va xulosalar chiqarish ham shunga yarasha murakkab bo'ladi: nihppardagi suv miqdorining kamayishi avvalo makroelementlarning darajasini va kilokaloriyalarning butun massada kamayishiga olib keladi. O'rganilayotgan donlarning tarkidi juda murakkab bo'lib, ularning tarkibiy qismlarining har birini muhokama qilish ushbu bo'limda keltiriladi. Shu bilan birga, unish jarayonining asosiy tamoyillari ham keltirilgan. Bu bo'limda siz unish jarayonlari haqida aniq taassurotlarga ega bo'lishingiz mumkin.


**Uglevodlar.** O'sish jarayonlarida dukkanlilarning uglevodlari muhokamasida asosiy e'tibor meteorizmlarni keltirib chiqarish

uchun asosiy sababchilar hisoblangan raffinoza va staxioza va ikkita  $\alpha$ -galaktozidlarga qaratiladi. Bu borada o'tkaziladigan boshqa tadqiqotlar, oddiy soya, qora no'xat va turk no'xati tarkibida ham shunday o'zgarishlar amalga oshganini tasdiqlaydi. O'sish jarayonlarida  $\alpha$ -galaktosidazalarning faolligi o'sish jararyonlarida turli o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Kimyoviy substrat reaksiyalari orqali ularning har ikkalasini ham mustahkamlaydi va qisman tozalangan ferment ko'rinishida bo'ladi.

$\alpha$ -galaktozidazalarning har ikkalasining ham kamayish darajasi turdi dukkakkilarning urug'ida tolalarning miqdori kabi turlicha bo'ladi. Turk no'xatining tarkibidagi tolalarning, ozuqaviy ahamiyati kichik bo'lgan darajada, tafovuti og'irligi bo'yicha  $\pm 2\%$  da o'zgarib turishi mumkin. Unayotgan soya dukkakkilari quruq holatiga nisbatan 10% gacha tolalarini 24 soat vaqt mobaynida yo'qotishi mumkin.

**Lipidlar.** Ma'lumki, unish jarayonlari davomida dukkakkilarning urug'ida quruq asosdagiga nisbatan lipidlarning kamayishi kuzatiladi. O'z navbatida kamayish darajalari bir-biridan farqlanadi, sezilarli kamayish urug'lardagi boshqa quruq moddalarning kamayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Taxminimizcha, lipidlarning degradatsiyasi, uglevodlarga o'xshamagan holda nihollarning o'sishi uchun va bu jarayon bilan bog'liq amalga oshadigan jarayonlarni kerakli energiya bilan ta'minlash uchun ishlataladi.

Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dukkakkilarning quruq og'irligiga nisbatan protein tarkiblarining oshishi ularning o'sish jarayonlarida kuzatiladi. Bu quyidagilar bilan bog'liq bo'lishi mumkin: (1) unayotgan urug'larda o'sish jarayonlari uchun lipidlar va uglevodlardan foydalanimishi, shuning natijasida urug' tarqibidagi asosiy qismni proteinlar tashkil qilishi va (2) fermentlarning ishlab chiqarilishi. Kam sonli tadqiqotlar o'sish jarayonida oqsillarning kam miqdorda oshishi yoki umuman oshmasligini ko'rsatdi.



6.3-rasm. Raffinoza (○), staxioza (■), fruktoza (▲) sakaroza (x) tarkiblарining (mg, %) unayotgan soya urug'idagi miqdori

**Proteinlar.** Bir qancha guruh olimlar unish jarayonlarining erkin aminokislotalar va protein tarkibiga kirmaydigan aminokislotalar tarkibiga ta'sirini o'rganishdi. Unish jararyoni soya, no'xat va chechevitsada (yasmiq) erkin oqsil aminokislotalar va oqsil bo'limgan aminokislotalarning hosil bo'lishiga ta'sir qiladi va uchchala dukkaklilarda amalga oshadigan ushbu jarayonlarning tafsilotlari ma'lum emas. Ular shuningdek, unish davomidagi yorug'ilikning ta'siri aminokislotalarning o'ziga xos xususiyatlari tarkiblari hosil bo'lishiga ta'sir qiladi. Unayotgan loviya, no'xat va yasmiqlarning tarkibidagi proteinlar azotining kamayishini va unga mos ravishda protein aminokislota bo'limgan aminokislotalarning miqdori oshadi. Individual aminokislotalardagi o'zgarishlar yana o'ziga xos xususiyatlarini nomoyon qiladi.

**Vitamin va minerallar.** O'z navbatida dukkakli o'simliklarda o'sish jarayonlari davomida xar tomonlama yuzaga keladigan o'zgarishlar haqida muhokama qilar ekanmiz, kamroq muhokamali mavzu vitamin C haqida bo'lishi mumkin. Vitamin C yoki askorbin kislotaning tarqibiy miqdori oddiy soyaning va turli xil no'xat va soya turlarining o'sishi davomida oshib boradi.

Ahamiyati biroz kam bolsada keyingi muhokama B vitaminlar haqida boladi. Ayni sharoitlarda o'stirilgan soyada shuningdek

turk no'xati va oddiy no'xatda riboflavinlarning ham oshishi kuzatiladi. Tiamin miqdorining ham biroz oshishi unayotgan soyaning oq va qora turlarida va kaptar no'xatida kuzatiladi, o'z navbatida kamayishi yoki umuman o'zgarmasligi jo'ja no'xati va no'xatda kuzatildi. Niatsinda olingan natijalar ham o'xhash va biroz chegaralangan.

Vitamin E va A haqida olingan ma'lumotlar kam. No'xat va soyada ularning ahamiyatini kam deb hisoblashgan, ammo ularning miqdori o'sish jarayonida quruq urug'ga nisbatan oshii kuzatiladi. Turli soya navlarining ikkitasida tokoferol qismlarining farqlanishini aniqlaganlar, o'z navbatida ularning har ikkalasida ham tokoferolning to'rtta izomeri miqdorining oshishi va unish jarayonidan keyin vitamin E ning faolligining kuchayishini kuzatilgan.

Moshning urug'ida, tadqiqotlarga ko'ra, α-tokoferol izomerlarining miqdori oshishiga qaramasda, tokoferol tarkiblari va vitamin E faolligining biroz kamayishini kuzatish mumkin.

Minerallarning o'sish jarayonlariga turfa xil ta'siri ham bu qo'llanmada keltirilgan. O'sish davomida kalsiyning oshishi qora, oq va kaptar no'xatda kuzatiladi. Turli dukkaklilarda temirning miqdori esa kamayishi kuzatiladi. Temir miqdorining kamayishi kuzatilsada, vitamin C uni kam miqdorining ham bikorishuvchanligini oshirishi mumkin.

Boshqa minerallarning o'sish jarayonlaridagi faoliyati haqida dalillar mavjud emas yoki ular haqida aniq ma'lumotlar o'r ganilmagan. Shuni ta'kidlab o'tish mumkinki, o'sish jarayoni uchun suvning mineral tarkibidan foydalanish dukkaklilarning o'sishi davomidagi minerallargi bo'lgan talabini qondira olish uchun etarli potentsialga ega.

**Ozuqa mahsulotlarining estetik sifati.** Etilgan dukkaklilarning donlari odatda yaxshilangan organoleptik sifatlarga ega bo'ladi. Soya ekilganidan keyin 3 kun o'tib uning butunlay hosil qilgan yoqimli mazasi kamaya boshlashini ko'rishimiz mumkin.

Soyaning unishi shuningdek, Nigeriya davlatida soya-noni mahsulotlarining keng miqyosda baholashda ham ishlataladi.

### **6.7. Donlarning qarishi va ozuqaning sifati**

Asosiy e'tibor nafaqat urug'larning qarishiga, shu bilan birga ushbu jarayonlarda qanday o'zgarishlar yuzaga kelishi va u urug'larning qo'llanilishida qanday ahamiyatga ega ekanligiga ham qaratiladi. 11S oqsillarining ajraluvchanligi 7S oqsillarinikiga ko'ra tezroq kamayadi. Ko'rsatkichning tushishi noqulay sharoit  $\geq 30^{\circ}\text{C}$ ,  $\geq 80\%$ , nisbiy namlik va/yoki ortiqcha muddat saqlash evaziga yuzaga kelishi mumkin. Soyani noqulay sharoitda saqlash oqsil tanalarining deformatsiyasiga va kraxmal granulalarining yo'qotilishiga olib keladi.

*6.9-jadval*

#### **Dukkaklilarning urug'ini saqlashda tanlangan tavsiya qilingan namlik miqdori**

| Tavsiya qilingan namlik miqdori |                         |                            |
|---------------------------------|-------------------------|----------------------------|
| Dukkaklilar                     | Tropik iqlim, uzoq vaqt | Mo'tadil iqlim, qisqa vaqt |
| Loviya                          | 15                      | 19                         |
| Yasmiq                          | 15                      | 16                         |
| Turk no'xati                    | 14                      | 16                         |
| No'xat                          | 15                      | 18                         |

Etilgan dukkak donlar maydalanganlariga qaraganda degradatsiyaga chidamli bo'ladi. Soyanning rangi birlamchi kremsimon sariq rangdan 9 yil mobaynida saqlanganida, yorqin jigarrang tusga o'zgaradi. Dukkaklarda oqsillarning degradatsiyasi, asosan soyadagi o'zgarishlar ozuqa mahsulotlarida qo'llashda o'ziga xos ahamiyatga ega. Soya dukkaklarini noto'g'ri saqlash natijasida tofu (soya suti tvorogi) olish miqdorining

kamayishi, tofuning yumshoq bo'lib qolishi va soya suti tarkibidagi minerallarning kamayishiga olib keladi.

Donlarni 9 yil saqlanganidan keyingi soyadan olingan soya suti, tofu va soya yong'oqlarining organoleptik sifatlari sezilarli darajada kamayganligini kuzatishimiz mumkin. Notug'ri saqlash jarayoni shuningdek boshqa o'ziga xos xususiyatlar, emulsiyalanish faolligi, emulsiyalanish turg'unligi, issiqlikka turg'unlik va protein dispers indeksi kabi ko'rsatkichlarning ham tushishiga sabab bo'ladi. Soyada boshqa o'zgarishlar ham kuzatilgan: neytral yog'larning erkin yog' kislotalarigacha gidrolizlanishi; erkin shakarlar miqdorining kamayishi; tripsin, lizin ingibitorlari faolliginning uyg'onishi va lipoksiygenaza faolligi; hamda oqsil bo'limgan azot birikmalari va peroksidlar hosil bo'lishining oshishi.

## VII BOB. MOYLI EKINLAR BIOKIMYOSI

### 7.1. Moyli ekinlar va ularning ahamiyati

Urug'i tarkibida ko'p miqdorda moy to'playdigan o'simliklar moyli o'simliklar deyiladi. O'simlik moylari ovqat tayyorlashda, non va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishda, mahsulotlarni konservalashda, margarin ishlab chiqarishda, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi va biotexnologiya sanoatida va meditsinada ishlataladi. Moyli ekinlar qatoriga g'o'za, eryong'oq, palma, soya, kungaboqar, maxsar, kunjut, ko'knori, grek yong'og'i va boshqalar kiradi.

### 7.2. Moyli ekinlar urug'inining kimyoviy tarkibi

Moyli ekinlar urug'i tarkibida lipidlar va oqsillar ko'p miqdorda bo'ladi. Lipidlar miqdori 40-70 % ga etadi. Moyli ekinlar urug'ida oqsillar donli ekinlarga nisbatan 1,5-2 marta ko'proq bo'ladi va 15-30 % atrofida, masalan kungaboqar urug'ida oqsillar 16 %, yadrosida 26 %, lipidlar kungaboqarda 56 % ga etadi.

7.1-jadval

Ayrim moyli ekin urug'lari tarkibidagi oqsil fraktsiyalari

| № | Ekin turlari | Albu-minlar | Globu-linlar | Glyutelin-lar | Erimaydigan fraktsiya |
|---|--------------|-------------|--------------|---------------|-----------------------|
| 1 | Eryong'oq    | 48          | 33           | 7             | 12                    |
| 2 | Zig'ir       | 47          | 31           | 13            | 9                     |
| 3 | Kungaboqar   | 22          | 54           | 14            | 10                    |
| 4 | Kunjut       | 10          | 76           | 8             | 6                     |
| 5 | G'o'za       | 28          | 50           | 13            | 9                     |

Moyli ekinlar urug'i oqsillari fraktsiyasida albuminlar, globulinlar, glyutelinlar va boshqa oqsillar mavjud. Albuminlar eryong'oq, zig'irda 47-48%, kunjutda esa 10% ga etadi. Kunjutda globulinlar miqdori 76%ga, kungaboqarda 54%, chigitda 50% ga etadi.

Moyli ekinlar urug'i qobig'ida 60-70% uglevodlar tutadi. Ammo urug'larining yadrosida uglevodlar kam bo'lib, 5-10% ga etadi, ularning yarmi saxarozaga to'g'ri keladi (2-5%). Moyli ekinlar urug'idagi mineral moddalar miqdori, navi, turi va etishtirish sharoitiga qarab o'zgarishi mumkin. Mineral elementlar miqdori 1,8-7,4% atrofida bo'ladi. Urug'lari tarkibida fosfor va kaliy, qobig'ida kremniy ko'proq uchraydi.

### **7.3. Moyli ekinlar moyi xususiyatlari**

Moyli ekinlar tarkibidagi lipidlar o'simliklar turi va naviga qarab har xil bo'ladi. O'simlik moylari tarkibida to'yingan yog' kislotalardan kapron, kapril, kaprin, laurin kislotalari ko'proq uchraydi. Palmitin va stearin kislotalari ham ko'proq o'simliklar moyida uchraydi. Undan tashqari o'simliklar moyi tarkibida to'yinmagan moy kislotalardan oleinat, linolat va linolenatlar bo'ladi. Kanakunjutda 95%gacha to'yinmagan moy kislotalardan ritsin 85% ni tashkil etadi. To'yinmagan moy kislotalari muzlash harorati to'yanganlarga nisbatan juda past bo'ladi. Moy kislotalari tarkibidagi qo'shbog'lar muzlash harorati bilan bevosita bog'liqdir.

Kungaboqar moyi och sariq suyuqlik bo'lib, xushbo'y hidga ega va (-18-19°C) da muzlaydi. Ushbu moyni kungaboqar urug'idan olinadi va uning tarkibini 20-57% lipidlar tashkil qiladi, uni xomashyosini presslab, maydalab nam termik ishlov berib 100-150°С da yoki organik erituvchilarda (geksan, etanol va boshqalarda) 50-55°Cda eritib olinadi. Kungaboqar moyining tarkibi uning naviga, etishtirish sharoitiga, ajratib olish usuli va tozalashga bog'liq. Uning tarkibiga quyidagi moy kislotalari kiradi: palmitat 3-6%, stearinat 2-5%, oleinat 25-35 %, linolat 55-70%. Tarkibidagi fosfolipidlar 0,5-1,2% tashkil etib, tokoferollar 50-100 mg% atrofida bo'ladi.

Kungaboqar moyini asosan oziq-ovqat mahsuloti sifatida va konserva hamda mayonez tayyorlashda ishlataladi. Bu moyni

gidrogenlanish asosida margarin ishlab chiqariladi. Undan tashqari sovun ishlab chiqarishda, glitserin, moyli lak bo'yqlari va kosmetik vositalar olishda ishlatiladi. Rossiyada har yili 81000 tonnadan ziyod kungaboqar moyi ishlab chiqariladi.

Zig'ir moyi och sariq yoki jigar rangga ega bo'lib, muzlash harorati  $-23+5^{\circ}\text{C}$  bo'ladi. Uch glitseriddan iborat bo'lib, tarkibida 9-11% to'yingan moy kislotalari (palmitat va stearinat), to'yinmagan moy kislotalaridan oleinat - 13-29%, linolat - 15-30%, linolenat 44-61% atrofida bo'ladi. Undan tashqari zig'ir moyida organik kislotalar, sterinlar, linotsimarin borligi aniqlangan. Kislorod ishtirokida zig'ir moyi tezda achchiqlashadi va quyuqlashadi. Zig'ir moyi olif ishlab chiqarishda, alkid mumlar, moyli laklar va sovunning yumshoq xillari olishda ishlatiladi.

Nasha moyi 6-10% to'yingan moy kislotalari tutadi. To'yinmagan moy kislotalaridan oleinat 6-16%, linolat 46-70%, linolenat 14-28%. Undan tashqari nasha moyi tarkibida bakteritsid moddalar, glitseridlar va aminokislotalar tutadi. Kimyoviy tarkibi bo'yicha nasha moyi zig'ir moyiga yaqin bo'lib, farqi nozik, xushbo'y ta'mga ega. Shuning uchun nasha moyi oziqa maqsadida, medtsinada hamda olif va yashil sovun ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Paxta yog'i to'q jigar rang bo'lib, ozgina achchiq bo'ladi. Rafinatsiyadan so'ng sariq tusga kiradi, xushbo'y hid va ta'mga ega bo'lib, oziq-ovqat maqsadida ishlatiladi. Paxta moyi tarkibida liristinat 0,3-0,5%, palmitinat 18-22%, stearinat 1-5%, araxidonat 1-2%, oleinat 20-30%, linolenat 40-60% ni tashkil etadi.

Makkajo'xori moyi urug'murtagidan olinadi. Yaxshi ozuqa sifatlari bilan ajralib turadi va tarkibida 80% to'yinmagan moy kislotalari tutadi. Moylari tarkibida palmitinat 7-8%, stearinat 2-4%, oleinat 42-46%, linolat 40-48%, linolenat 1% atrofida bo'ladi. Rossiyada har yil 400 t makkajo'xori moyi ishlab chiqariladi..

Soya moyi sariq tilla rangli bo'lib, tarkibida palmitinat 6-8%, stearinat 3-5%, oleinat 25-35%, lenolenat 5%, linolat 50-65%. Moyi

tarkibida fosfolipidlar miqdori 1,5-2% tashkil etadi, tokoferollar esa 100-200 mg% dan iborat bo'ladi. Rossiyada soya moyi har yil 500 t ishlab chiqariladi.

Eryong'oq moyi juda yaxshi oziqa sifatiga ega. Margarin ishlab chiqarishda, holva, mahsulotlarni konservalashda ishlataladi. Tarkibida 20% gacha to'yingan moy kislotalari, shundan 2-5% araxinat kislotosi bo'ladi. Asosan 50-80% oleinat va 10-20% linolenat to'yinmagan moy kislotalari tutadi.

Zaytun moyi zaytun daraxti mevasidan olinadi va 50% gacha lipidlardan tashkil topadi. Moyining rangi sariq bo'lib, xushbo'y hid va ta'mga egadir. Tarkibida asosan oleinat 65-85%, linolat 5-15%, linolenat 0,5-5%, palmitinat 8-10% tutadi. Oziq-ovqat sanoati va kosmetologiyada keng qo'llaniladi.

#### **7.4. Kunjaraning kimyoviy tarkibi**

Kunjara – moyli ekinlar urug'idan moy ajratib olingandan so'ng hosil bo'ladigan hayvonlar uchun qimmatli ozuqa hisoblanadi. Uning tarkibida ko'p miqdorda oqsil va uglevodlar hamda funktsional faol moddalar, vitaminlar, aminokislotalar va mikroelementlar uchraydi. Oqsillar miqdori 47-49% ga, uglevodlar esa 22-34% ga etadi.

7.2-jadval

#### **Ba'zi moyli ekinlar kunjarasining kimyoviy tarkibi**

| Nº | Ekin turlari | Lipid | Oqsil | Uglevod | Kul  |
|----|--------------|-------|-------|---------|------|
| 1  | Kungaboqar   | 9,2   | 48,1  | 22,6    | 10,2 |
| 2  | G'o'za       | 9,5   | 49,3  | 27,5    | 9,4  |
| 3  | Soya         | 3,8   | 47,5  | 34,2    | 10,3 |

Moyli ekinlar urug'i tarkibida zaharli moddalar uchraydi. Masalan, kanakunjut urug'ida 0,1-1% gacha tsianogen alkaloid – ritsinin tutadi. Zig'ir moyi tarkibida glikozid linamarin uchraydi, g'o'zada – gossipol bo'ladi. Bu birikmalar hayvon organizmiga tushganda zaharlanishi mumkin. Gossipol hosilalari asosida

virusga qarshi preparatlar, antigerpes, immunosupressiv, interferon-indutsirlovchi preparatlar olinadi.

## **7.5. Moyli ekinlar urug'ini saqlash va etilish davridagi biokimyoviy jarayonlar**

Moyli ekinlar urug'lari pishishi murakkab ko'p bosqichli jarayon bo'lib, ularda fermentativ reaksiyalar, biosintez va lipidlar to'planishi kuzatiladi. Bu jarayon lipogenez va neytral lipidlar hamda fosfolipidlar sintezi jarayonidir, shuning uchun moyli ekinlar urug'i tarkibidagi lipidlar xili rang-barang bo'lib, otalangandan so'ng o'zgarib to'liq pishgangacha boradi:

Pishishning boshlang'ich davrlarida urug'larda asosan uglevodlar almashinushi borib, uglevodlar va oqsillar sintezini ta'minlaydi. Urug' to'qimalari o'sish to'xtashi bilan oqsillar sintezi susayib, uglevoldlarning lipidlarga aylanish jadalligi ortadi. Bunda mitokondriyalarning oksidlanish faoliyati ortib, urug'larda lipidlar to'planadi va uning sintezi to'liq pishguncha davom etadi.

Moyli ekinlarning har bir turi uchun lipidlar sintezi jadalligi shaxsan borib, ularning sharoiti va yashash muhitiga bog'liq bo'ladi.

Kanakunjut moyi olinadigan urug'larda lipidlar sintezi gullahdan so'ng 3-4 haftada boshlanadi, zig'ir urug'i va kungaboqarlarda esa gullahdan 10-15 kundan keyin boshlanadi. Gullah boshlanishida to'yingan moy kislotalar miqdori to'yinmagan moy kislotalardan ko'proq bo'ladi. Ammo gullah davrining yakunida esa to'yinmagan moy kislotalar miqdori ortishi tarafga kuchayadi. Bunda 2-3 ta qo'shbog' tutgan to'yinmagan moy kislotalar miqdori ortadi. Asosan linolat va linolenat kislotalar urug'lari tarkibida 2 martagacha ortadi.

## **7.6. Moyli ekinlar urug'i tarkibidagi moylarni to'planishi va sifatiga ta'sir etuvchi omillar**

Tashqi muhit omillari urug'ning ximiya viy tarkibiga ta'siri bo'ladi. Shimoliy mintaqalarda etishtiriladigan moy ekinlari

urug'larida oqsillar kam to'planadi, janubdagilarda esa aksincha holat yuz beradi. Bunda ayrim oqsil fraktsiyalari miqdori ham har xil bo'ladi. Masalan, janubiy mintaqalarda etishtiriladigan moyli ekinlar urug'i tarkibida albuminlarga nisbatan ko'proq globulinlar sintezlanadi.

Moyli ekinlarni etishtirish sharoitiga qarab lipidlar miqdori har xil bo'ladi. Masalan, kungaboqar urug'ida (yadrosida) lipidlar (%) 36,4-67,8 bolsa, g'o'zada 17,2-29,1, zig'irda 18,5-49,5, soyada 12,8-28,1, ko'knorda 38,8-57,2% atrofida bo'ladi. Shimoliy mintaqalarda etishtirilgan urug'lar tarkibida to'yinmagan moy kislotalar soni ko'proq va ularning qaynash harorati pastroq bo'ladi. Tuproq namligi ortishi bilan urug'larida lipidlar miqdori ortib, oqsillar miqdori kamayadi.

Moyli ekinlarni past harorat va yuqori namlikda o'stirilganda urug'i tarkibida to'yinmagan moy kislotalar ko'payadi. Shunday qilib, yuqori namlik va past harorat moyli ekinlar urug'ini sifatini yaxshilaydi. Shuning uchun moyli ekinlar sug'orilganda urug'i tarkibidagi lipidlar miqdori 3-5 % ga ortadi va hosildorlik ham ortadi.

Moyli ekinlar urug'i sifatiga kaliyli va fosforli o'g'itlar ta'sir ko'rsatadi. Bunday o'g'itlar solinganda urug'lardagi lipidlar miqdori 2-3 % ortadi. Azotli o'g'itlar berilsa, urug'lar tarkibidagi oqsillar miqdori ortadi. Masalan, moyli ekinlar etishtiriladigan maydonlarga 150 kg/ga azotli o'g'it berilsa, kungaboqar urug'i tarkibidagi lipidlar 71,4%dan 52,2% gacha kamaygan va urug'lardagi oqsillar miqdori esa 12,3% dan 28,8 % gacha ortgan. Ammo azot etishmasa o'simliklarning sust o'sishi kuzatilib, ularda sintez jarayonlari tezligi kamayib, urug'larda lipidlar va uglevodlar miqdori pasayishiga olib kelgan.

Shunday qilib, sug'orish natijasida urug'lar tarkibida lipidlar miqdori ko'payib, oqsillar miqdorini oshiradi, tuproqqa o'g'itlar berish esa bu jarayonlarni yanada tezlashtirishi mumkin. Ammo asos bo'lib tabiat va o'g'itlar miqdori o'rinni oladi. Tuproqqa magniy bilan fosforni qo'shib berilsa qo'shimcha sifatida moyli ekinlar tarkibidagi lipidlar miqdorini ortishiga olib keladi.

## **VIII BOB. KARTOSHKA BIORIMYOVI**

### **8.1. Kartoshkaning ahamiyati**

Kartoshka - ko'p yillik ildizmeva tutuvchi o't o'simligi ituzumdoshlari oilasiga (Solanaceae) mansubdir. Kartoshka tiganagida ozuqa moddalar to'planadi, bu moddalar oziq-ovqat, farmatsevtika, va boshqa sanoat sohalarida ishlataladi. Kartoshka tiganagidan kraxmal, askorbin, limon kislotalari hamda texnik spirt va hayvonlar ozuqasi olinadi.

Kartoshka tiganagi yig'ib olingandan so'ng organik tinim xolatiga o'tadi, bu jarayonning borish muddati saqlash sharoitiga bog'liq. Saqlash davomida tiganaklarda murakkab biokimyoziy jarayonlar boradi va biogen birikmalar tarkibiga ta'sir ko'rsatadi.

Tiganaklarning oziqaviy qiymati ular tarkibidagi biogen birikmalar oqsillar, kraxmal, organik kislotalar, azotli birikmalar, mineral moddalar bilan belgilanadi. Undan tashqari tiganaklarda vitaminlar, alkloidlar, fermentlar, lipidlar, lipoидlar kabi moddalar mavjud bo'lib, ular kartoshkaning ta'mi va oziqa sifatiga ta'sir etadi. Biogen birikmalar tarkibi kartoshkaning navi, etishtirish sharoiti, iqlimi, tuproq tipi, qo'llaniladigan o'g'itlar, agrotexnik ishlov berish kabilardan iborat.

### **8.2. Kartoshka tiganagini kimyoziy tarkibi**

Kartoshka tiganagi yuqori qimmatli ozuqa bo'lib uning asosiy kimyoziy birikmlari suv, kraxmal, kletchatka, oqsillar va boshqalardan tashkil topadi.

Kartoshka tiganagi kraxmal tarkibida amiloza (20–25%) va amilopektindan (75–80%) iborat. Undan tashqari, kartoshka tiganagida fosfor, oqsillar, yog'lar topilgan. Tiganaklarda 1–8 % mono va oligosaxaridlar va ularning fosforli efirlari, glyukoza 0,5–

1,5 %, fruktoza 0,4-2,5%, saxaroza 0,7-6,7 %, glyukoza 1-0,1-0,2%, glyukoza 0,7-4,5%, fruktoza 0,2-2,5, triozafosfatlar 0,2-1,0%. Kichik molekulali uglevodlar miqdori kartoshka tuginagi past haroratda saqlanishda ko'payishi kuzatilgan.

8.1-jadval

### **Kartoshka tuganagining kimyoviy tarkibi**

| <b>Nº</b> | <b>Moddalar</b>         | <b>Miqdori</b> |
|-----------|-------------------------|----------------|
| 1         | Suv                     | $75,0 \pm 1,2$ |
| 2         | Kraxmal                 | $15,0 \pm 7,0$ |
| 3         | Mono va oligosaxaridlar | $4,0 \pm 2,0$  |
| 4         | Kletchatka              | $2,5 \pm 1,0$  |
| 5         | Oqsillar                | $1,6 \pm 0,5$  |
| 6         | Lipidlar                | $1,2 \pm 0,5$  |
| 7         | Organik kislotalar      | $0,8 \pm 0,3$  |
| 8         | Mineral elementlar      | $1,2 \pm 0,5$  |

Kartoshka tuginagida 2% gacha oqsillar borligi topilgan. Navi va etishtirish sharoitiga qarab tuganaklarning tarkibi keskin o'zgarishi mumkin. Masalan, oqsillardan tuganaklari tarkibida globulinlar 50-65%, albuminlar esa 20-60% bo'lishi mumkin.

Tuganaklarda zaruriy aminokislotalar sintezlanadi va kartoshka ozuqa qiymatini orttiradi. Tuganaklar tarkibidagi aminokislotalardan valin 4,0-4,3%, leytsin va izoleytsin 12,9-13,2%, lizin va gistidin 9,7-9,9%, metionin 2,0-2,1%, treonin 4,4-4,7%, triptofan 1,7-1,8%, fenilalanin 4,6-4,7% boladi.

Tuganaklar tarkibida har xil organik kislotalar, xususan limon, olma, oksalat, pirouzum, yantar va boshqa kislotalar borligi topilgan. Olma va limon kislotalar miqdori 0,4-0,6% va 0,6-0,8% quruq modda hisobida aniqlangan.

Kartoshka tuganagidan limon kislota olish texnologiyasi ishlab chiqilgan, bunda asosan 1 tonna kartoshka tuganagini qayta ishlaganda 1kg limon kislotasi olinadi.

Kartoshka tuganaklari vitaminlarga boy bo'lib, 100 gr tarkibida **mg** kuzatilgan. Vitamin C - 10-25 mg%, PP - 0,4-2,0 mg%, B<sub>1</sub> - 0,05-0,2 mg%, B<sub>2</sub> - 0,2-0,3%, B<sub>6</sub> - 0,9-1,2%, H - 0,004-0,002 mg%, A - 0,3-0,8 mg%, E - 0,05-0,40 mg% tashkil etadi.

Tarkibidagi vitaminlar miqdori hosil yig'ishtirish va saqlash muddatiga bog'liq. Vitaminlar miqdori yosh, yangi terilgan tuganaklar tarkibida ko'proq, saqlash davomida 8-10 oy muddatda askorbin kislotasi miqdori 2-3 marta kamayib ketishi kuzatilgan. Har kuni 200-300 gr kartoshka iste'mol qilinsa, uning tarkibida 10-15 mg% vitamin S bo'lsa, inson bu vitaminga ehtiyoji qondiriladi.

Tuganaklarda lipidlar miqdori juda oz bo'lib 0,1-0,15% ho'l og'irligiga to'g'ri keladi. Lipidlar tarkibida asosan to'yinmagan yog' kislotalardan olein, linol va linolen kislotalar tashkil qiladi. Tuganaklarini mollarga ozuqa sifatida berilganda, ularning to'yinmagan yog' kislotalarga bo'lgan ehtiyoji to'la qondiriladi.

Kartoshka tuganaklari kaliy va fosfor tuzlariga boy, undan tashqari Na, Ca, Mg, Fe, C, Cl, Zn, Br, Si, Ci, Co, B, Mn, J, S va boshqalar ham uchraydi. Tuganaklilar tarkibida kul 1% bo'lib, ularda kaliy 61 mg%, fosfor 60 mg% temir 21 mg%, magniy 23 mg%, qaltsiy 10 mg%ni tashkil etadi. Tuganaklar tarkibidagi mineral elementlar yengil o'zlashtiriladigan shaklda bo'lib, asosan ishqoriy tuz vakillaridir, ular qondagi ishqoriy muvozanatni saqlaydilar.

Undan tashqari tuganaklarda karotinoidlar 0,02-0,14 mg% miqdorida bo'lishi aniqlangan. Qobig'ida flavonlar va antotsianlar topilgan (tsianidin, delfinidin).

### **8.3. Tuganaklardagi kimyoviy moddalarni tarqalish xususiyatlari**

Kraxmal kartoshka tuganaklarida notejis tarqaladi. Po'stida kraxmal kam bo'lib, asosiy qismi kambiy va ichki qismi o'rtasida to'planadi. Bir xil tuganaklar tarkibida tutgan kraxmal miqdori bilan farqlanadilar, po'stida 0,05-0,1% erigan pektin bo'lsa, erimagan pektinlar 0,06-0,45% miqdorda bo'ladi. Eng ko'p C

vitamini tuganakning kambiy qavatida bo'lib, uning miqdori 40 mg % gacha yetadi.

Tuganakning po'stloq va yuqori qavatida 2 ta asosiy glyukoalkaloid po'stlog'ida salonin va chakonin aniqlangan. Glyukoalkaloidlarning asosiy qismi tuproqda va kam miqdorda tuganaklarda to'planadi. Bu moddalar 200-400 mg miqdorda juda zaharli bo'lib, hayvon va inson organizmiga tushsa, kuchli zaharlaydi. Tuganaklarning zaharliligi o'sish davomida va uni qaynatilganda kuchayishi mumkin. Yosh tuganaklarda solanin to'planishi 1 dan 10-mg % gacha bo'lishi mumkin. Po'sti tarkibida ko'p to'planib, ular ko'kargan va o'zgargan tuganaklarda ko'rish mumkin.

Mineral moddalar tuganaklarida notejis tarqalgan, asosan po'stida, ozroq o'rta qismida, yuqori qismida asosiga ko'ra ko'proq bo'ladi. Masalan, po'stida kaliy miqdori 417 mg% bo'lsa, fosfor 51,5 mg%, magniy 23,2 mg%.

#### **8.4. Pishishi davrida tuganaklarning kimyoviy tarkibini o'zgarishi**

Kartoshkaning o'ziga xosligi shundaki, assimilyatsiya jarayonining asosiy qismida o'simlik tuganaklarida zaxira sifatida to'playdi. Bu holda tuganaklar maxsus ko'payish organi sifatida ishlatilishida plastik moddalar unib chiqib, o'sish va ildiz sistemasini hosil bo'lishida ishtirok etadi. Avtotrof ovqatlanishiga o'tishi bilan ona tuganakning ahamiyati susayadi. 25-30 kun davomida kartoshka ona tuganak hisobiga rivojlanadi, gullah oldidan ona tuganakning ozuqa modddalarini ishlatilishi tugaydi.

Yangi tuganaklar gullah boshsiz ildizdan shakllana boshlaydilar. Tuganaklarning o'sishi oqsil va kraxmal sintezi faollanishi natijasida kuchayadi. Sintez jarayonlari borishi uchun tuganaklarga mono va oligosaxaridlar zarur bo'ladi, ular kartoshkaning ustki qismidagi organlardan oqib keladi. Faqat bir

qismi kraxmal sinteziga sarflanib, qolgan uglevodlar esa hujayraning energetik jarayonlariga sarflanadi. Kartoshka pishish davrida tuganaklarda asosiy qism shakllanadi.

Fellogenning ikkilamchi o'sishi natijasida tuganaklarda tabiiy periderma paydo bo'ladi, epidermis hujayrasining tangenal bo'linishi natijasida yuzaga keladi.

Ammo felogen faoliyati vegetatsiya tugashi bilan to'xtamaydi, balki butun saqlash davomida ham davom etadi.

Kartoshkaning stolonida mexanik to'qima jadal rivojlanadi, tugunakda esa parenxima to'qimalari zaxira sifatida kraxmal va boshqa biogen molekulalarini to'playdilar, ushbu zaxira moddalar tugunaklarning o'sishida ishtirok etadi. O'simliklardagi bargda mono va oligosaxaridlar oqimi zaxira uglevodlarini hosil qiladilar, bunda parenxima to'qimalardagi uglevodlar ham ishtirok etadi.

Tuganak pishishi davrida stolon kabi epidermis bilan qoplangan bo'ladi. Tuganaklarning razmeri 1,5-2,0 sm ga yetganda epidermis periderma bilan almashishi boshlanadi. Periderma epidermisdan o'laroq, kompleks to'qimalarni hosil qilib, unda tirik va o'lik hujayralar mavjud bo'ladi. Tuganaklardagi asosiy o'zgarishlar ingichka to'plamlar atrofida ro'y beradi. Natijada ingichka to'plamlar tuganaklarga sochiladi. Floema parenximasini kuchli o'sib, uni hisobiga tuganak razmeri kattalashuvi kuzatiladi.

Kartoshka pishish davrida meristema to'qimalari faol rivojlanadilar. Meristematik to'qimalar hayotchan bo'lib, yangi organlar hosil bo'lishini taminlaydi (murtak, ildiz, gul). Meristematik to'qimalarda biokimyoiy jarayon faollashadi, natijada tuganaklarning tinim davriga o'tishi kuzatiladi. Bunda tinim davrida ma'lum biologik faol moddalar bo'lmasligiga sabab, ularni o'rniغا tabiiy ingibitorlar to'planadi, ular ta'sirida DHK va PHK aktivligi to'xtatiladi, ferment komplekslari ham faoliyatni to'xtatadilar. Nafas olish mitoxondriyalarida susayib oksidlanish fosforlanish mexanizmlari va ATP sintezi kamayadi. Mitoxondriyalarining oksidlanish aktivligi 30-70 % gacha pasayadi.

Tuganaklar to'qimalari tuzilishini xilma-xilligi biogen molekulalarining tarkibi o'zgarishi holida biokimyoviy jarayonlarning har xil aktivligi tuganaklar pishishi va tinim davrida kuzatiladi.

Pishish davrida hujayralarning faol bo'linishi davom etib, ferment sistemalari va genomning faolligi ortadi. Shuning uchun uglevodlarning bir qismi ATP sinteziga sarflanadi.

Tuganaklarning shakllanishida tuproqdagi suv va mikroelementlarning miqdori alohida o'rin tutadi. Tuganaklar pishish davrida 87% gacha suv to'playdilar, mikroelementlar esa biogen molekulalari sin'tezida ishtirok etadilar. Bor va marganets elementlari yetishmasligi tuganaklar o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mn ko'pgina fermentlarning katalitik ta'sirida ishtirok etadi (suktsinat-degidrogenaza, geksokinaza va boshqalar). Yuqorida qayt etilgan elementlarning yetishmasligiga noqulay ob-havo sharoitlari va yuqori pH ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tuganaklar pishishining yakuniy bosqichida o'z tarkibida juda oz miqdorda mono va oligosaxaridlar tutadi (ho'l mevasiga nisbatan 0,7 %, quruq massasi 2,8 %). Bunda glyukozaga 65%, saxarozaga 30%, fruktozaga 5% to'g'ri keladi. Qandlar asosan tuganaklarning o'rta qismida, yuqori qismida esa ozgina to'planadi. Tuganaklarning tashqi va ichki qismlarida qandlar miqdori farq qilmaydi. Ammo ichki qavatlarida asosan saxaroza va o'rta qismida monosaxaridlar kuzatilgan.


Kartoshka barglari tushishi bilan tuganaklar hosil bo'lishi tezlashib, kraxmal sintezi tezlashadi. Tuganaklarning o'sishida kraxmal to'planishi bilan borib, oqsillar sintezi sekinlashadi. Bu jarayonlarning borishiga o'simlikning oziqlanishi, tuproq namligi va harorat ta'sir etadi.

Pishgan tuganaklar tinim holatida bo'lib, meristema hujayralari tinim davrida bo'ladilar. Ammo po'kaklangan kambiy bu davrda aktiv holatda bo'lib, yaralangan po'st hujayralarini tiklash xususiyatiga ega bo'ladilar. Tinim davrida tuganaklarni nafas olish intensivligi kamayadi. Bu jarayon saqlash sharoitiga qarab 1 oydan 3 oygacha davom etishi mumkin.

## **8.5. Tuganaklarda kulinarik va texnologik xususiyatlarini shakllanishi**

Kartoshkaning sifati uning organoleptik xususiyatlari, ya'ni unliliqi va qaynatilganda bo'lib qolmasligi shart. Tuganakni kesganda oq yoki och sariq rangga ega bo'lib, xushbo'y hid tarqatishi kerak. Kartoshkaning kulinarlik sifati kraxmal donachalarining o'lchami va kraxmal oqsil nisbatiga bog'liq bo'ladi. Kartoshka tuganaklari tarkibida oz miqdorda kraxmal va ko'proq oqsil tutsa yumshoq konsistentsiyaga ega bo'ladilar. Kraxmal miqdori ko'p bo'lsa oqsil kam bo'lsa qaynatilganda yorilib ketib kulinarlik sifatini yo'qotadi.

Kartoshkaning eng sifatlari tiganagida kraxmal:oqsil nisbati 12:1 bo'lsa me'yor deb qabul qilingan, nisbati 16:1 bo'lsa kraxmal miqdori ortiqcha bo'lib qaynatilganda sochilib ketadi. Kartoshkaning xususiyatlari kraxmal donachalarining razmeriga bog'liq. Kraxmal bo'kkanda, kartoshka sochilgan holda bo'ladi. Kraxmalning mayda donachalari yiriklariga nisbatan tezroq bo'kadi. Kraxmal donachalari tez bo'kkanida hujayraning devorlari uzilib kartoshka qaynatilganda yarim suyuq massa hosil qiladilar. Shuning uchun kartoshkaning sifatini baholashda tuganaklardagi kraxmal donachalarining o'lchami ko'rsatkichi qayd etiladi (ishlatiladi). Kraxmal donachalarining o'lchami 20 mkm bo'lsa kartoshkaning kulinar sifati yuqori bo'ladi. Tugunaklar po'stidan tozalanganda havoda qizil va qo'ng'ir tusga kiradi, sababi atmosfera kislороди ishtirokida aromatik moddalarning oksidlanishi natijasida ro'y beradi va bunda oksidlanish reaksiyasini fenoloksidaza katalizlaydi:



Qaynatilgan kartoshka ham qorayishi mumkin, u holda to'q ko'k rang hosil qiladi. Muzlatilganda kartoshka sifatini yo'qotadigan shirin bo'lib qoladi, eruvchan uglevodlar ko'payadi va tuganaklarda to'planadi (kraxmalning gidrolizi oqibatida).

## **8.6. Tugunaklarda qaytarilgan qandlar va erkin aminokislotalar to'planishini pasaytiruvchi omillar**

Saqlashda kartoshkani o'sib ketmasligi uchun eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri past harorat va boshqariladigan gaz muhitidan iboratdir. Bunday sharoitda meristema tuganaklardagi genomning sust aktivligi, modda almashinuv jarayonlarining pasayishi, oqsil biosintezi tezligini susayishi va tarkibidagi ingibitorlarning uzoq saqlanishidir. Ammo bunday sharoitda kraxmal va oqsillarning gidrolizlanish jarayoni borib, qaytarilgan qandlar va aminokislotalar hosil bo'ladi. Saqlashdagi past harorat tinim davrini chuqurlashtirib fermentlarning faolligini susaytirib xususiy oksidlanishning fosforlanish fermentlarini ATF sintezida ishtirok etishini tormozlaydi. 0°C da tugunaklarda kichik molekulali uglevodlar miqdori ortib, shirin ta'm beradilar. Ammo bu tugunaklarni issiqda ushlansa shirin ta'mi yo'qoladi. Ushbu ma'lumotlar kartoshkani uzoq muddat saqlaganda harorat va boshqa sharoitlarni hisobga olish zarur bo'ladi. Saqlash davomida kartoshkaning buzilishi sabablaridan biri qaytarilgan uglevodlar bilan aminokislotalarning o'zaro ta'sir etishlari bo'lib, bunda mahsulotlar to'q rangga kiramolar. Hosil bo'lgan melanoidinlar mahsulotni to'q rangga kiritadi va sifatini buzadi.

Kartoshka sifati pasayishi uning tarkibidagi mono- va oligosaxaridlarning ko'payishi 5-8% gacha natijasida shirin ta'mi yuzaga keladi. Kartoshkani 0°C da 7 oy davomida saqlaganda saxaroza miqdori 6,6 marta, fruktoza 7 marta, glyukoza 1,3 marta ortsa, kraxmal miqdori 67% dan 61% gacha pasayishi kuzatilgan.

Shunday qilib, saqlash davomida harorat pasaytirilganda kraxmalning gidrolizlanishi tezlashib, tugunaklarda kichik molekula qandlar to'planadi. Bu jarayonga muhit pH va CO<sub>2</sub> asosiy ta'sir ko'rsatadi. CO<sub>2</sub> miqdori past haroratda tugunaklarda hosil bo'ladi va to'planadi, natijada muhitni zaharlaydi. Past pH ko'rsatgichlarida kraxmal gidrolizi tezligi ortadi, aksincha pH ko'rsatgichini orttirilsa, sintez jarayonlari jadallahshadi. Kraxmalning

parchalanishi amilaza yoki fosforilaza fermentlari ishtirokida amalga oshadi. Fosforilaza fermentining aktivligi kartoshka tinim davrida yuqori bo'lib, amilaza esa unib chiqishida faollashadi.

CO<sub>2</sub> konsentratsiyasi 5-15% gacha orttirilsa, kislorod 10% bo'lsa, uglevodlarning parchalanishi kuchayadi. Kislorod konsentratsiyasi 2-3% ga yetkazilsa uglevodlarni kam sarflanishi kuzatilgan (5%). Shunday qilib, aerob sharoit uglevodlar sarflanishini kamaytirib, kichik kontsentratsiyadagi kislorodga nisbatan (anaerob parchalanish) pasayishi kraxmal parchalanishini tormozlaydi, tuganaklardagi mono va oligosaxaridlar miqdori kamayishi kuzatiladi.

### **8.7. Kartoshka yetishtirish sifatiga iqlimiyligi-tabiiy omillar, o'g'itlash va boshqa sharoitlarni ta'siri**

Tuganak tarkibidagi biogen birikmalar miqdori o'simlik turidan, yetishtirish sharoiti, tuproq tipi va namligidan, o'g'itlar xili va tarkibiga bog'liqdir. Shimoliy mintaqalarda yetishtirilgan kartoshka tarkibida kraxmal miqdori kam bo'lib, markaziy va janubiy mintaqalarda yetishtirilganlarida kraxmal nisbati ko'p bolishiga sabab shimolda qisqa va kuchli yoz fasli uzun kunligi bilan farqlanadi. Vaqtli sovuq tushishi tufayli gullah tezlashib, pishish kuzatiladi. Yuqorida qayd etilgan omillar ta'sirida kartoshka tez pishib, tuganaklarda oz miqdorda kraxmal to'planadi.

Shimolda yetishtirilgan kartoshka tuganaklari tezroq kichik molekulali uglevodlarni to'plashi kuzatiladi. Ular asosan monosaxaridlardan iborat boladi, saxaroza esa kamroq bo'ladi. Janubda yetishtirilgan kartoshka tuganaklarida mono- va oligosaxaridlar bir tekisda to'planadi.

Tuproq namligi tuganakning o'sishiga ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Tuproq namligi 30-40% bo'lsa, tuganaklardagi kraxmal miqdori ortadi va kartoshkaning hosildorligi pasayadi. Namlik 90% bo'lsa, hosildorlik pasayib, kraxmal sifati ham o'zgaradi.

K<sup>+</sup> ionlari kraxmal sintezi va uglevodlar to'planishiga ijobiy ta'sir etadi. Kraxmal bargda va tuganaklarda sintezlanadi. K<sup>+</sup> ionlari yetishmaganda modda almashinuvida muvozanat yo'qolib, kichik molekulali birikmalar sinteziga o'tadi va kraxmal sintezi sekinlashadi. Sintez jarayonlarini faollashtirish uchun tuproqqa kaliyli o'g'itlar solinadi. Cl<sup>-</sup> ionlari esa amilaza fermentining aktivligini kuchaytirib, kraxmalning gidrolitik parchalanishini katalizlaydi. Kraxmal sinteziga kaliyning sulfat, nitrat, fosfat ionlari ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Azotli o'g'itlar esa tuganaklar miqdorini ko'paytirib, hosildorlikni oshirish bilan birga tarkibidagi kraxmal sintezini kamaytirishi kuzatiladi. Azotli o'g'itlar ta'sirida oqsillar miqdori 2 martaga ortadi. Fosforli o'g'itlar esa hosildorligini oshirib, tuganaklardagi kraxmal miqdorini orttiradi.

### **8.8. Kartoshka tuganaklarini saqlash davomida kechadigan biokimyoiy jarayonlar**

Kartoshka hosili yig'ib olingandan so'ng organik tinim holatiga o'tadi. Ammo tuganaklarda pishib yetilish jarayonlari davom etadi. Bunda qoplovchi to'qima hujayralarining qo'shimcha qavatini hosil qiladi, po'sti qalinlashib tashqi noqulay sharoitlarga va mexanik shikastlanishga chidamli bo'ladi. Meristema to'qimalari va tuganak organlari o'sishga qodir bo'lmaydilar, fiziologik – biokimyoiy jarayonlar susayadi. Faol o'sish holatiga o'tganga qadar tinimdagи meristemalarda nuklein kislotalar va oqsillar sintezi boradi. Tinim holatida to'liq organ emas, balki uning ba'zi to'qimalari bo'ladi. Faqat tuganaklarda meristema to'qimalari tinim holatida bo'lib, zaxira to'qimalari esa biokimyoiy jarayonlar borishida faol ishtirok etadi, sababi mexanik shikastlarga va infeksiyaga javob beradilar. Shikastlangan to'qimalar bitish davrida, o'z tarkibida alohida moddalar zaharli birikmalar sintezlab chiqarishga qarshi kurashadi. Infeksiya shikastlangan hujayralarda ko'payishga ulgurmay, joyida yo'qotiladi. Natijada shikastlangan to'qimalar bitib, sog'lomlashishi kuzatiladi.

Shunday qilib, tinim holatida kartoshka saqlash davomida muhit sharoiti kuchli ta'sir ko'rsatadi, qanday sharoitda shikastlanishi ahamiyatlidir.

Tinem holatini o'simliklarni noqulay muhit sharoitlariga moslashishi va yashash uchun kurashdan iborat deb hisoblaniladi. Mexanizmini amalga oshirilishida genom tuzilishida axborot holida o'simlik navining individual belgilaridan iborat bo'ladi. Sovuq va yomg'irli yoz oylari o'simlik tinim davrini cho'zilishiga olib keladi, issiq va quruq yoz oylarida esa tinim davri qisqaradi. Pishmagan holda terilgan tuganaklarda tinim davri uzayadi, pishgan tuganaklarga nisbatan mayda tuganaklarda yiriklariga nisbatan tinim davri cho'ziladi.

Kartoshka tuganaklari tinim holatida nafas olish faolligi yuqori darajada boradi. Bunda gaz almashinuvi asosan po'stidagi maxsus teshiklar yasmiqlar mavjud bo'lib, o'tkazuvchanligi saqlash davomida susayadi.

Tinem holatida tuganaklar stimulyatorlar bilan ishlov berilganda javob reaksiyalari sifatida nafas olish jadalligi ortadi va oksidoreduktaza fermentlar (katalaza, peroooksidaza, polifenoloksidaza) faolligi ham kuchayadi. Har xil dozadagi radiatsiya o'sish jarayonlarini tormozlab, tuganaklarning nafas olishini pasaytiradi. Tinim holati kompleks fitogormonlar (etilen, abtsizin kislotasi, auksinlar va fenol birikmalar) hisobiga ushlab turiladi. Chuqur tinim davrida ABK miqdori ortadi. Tinim davrining tugashida ABK miqdori o'sish nuqtalari va po'stida 5-6 marta kamayadi. ABK DHK va PHK ning sintez jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi, oqsillar sintezini to'xtatib, nuklein kislotalari bilan sitokininlarning antogenisti bo'lib xizmat qiladi. ABK kichik konsentratsiyalarda t-RNK sintezini susaytiradi, ko'payganda t-PHK va p-PHK hosil bo'lishini kuchaytiradi.

Shunday qilib, ABK va fenol birikmalari nuklein kislotalar sinteziga tanlab ta'sir etishi o'sish regulyatorlari bilan o'zaro bog'lanib, har xil modda almashinuvi jarayonlarini to'xtatadilar.

Askorbin kislota erkin radikallarni boshqarishi mumkin, bu jarayonda u antiradikal va antioksidant bo'lib xizmat qiladi. Askorbin kislota miqdorini pasayishi tuganaklarning saqlash muddati va muhitiga bog'liq.

Tinim davrida ingibitorlar yordamida o'sishni to'xtatuvchi DHK ning matritsa aktivligi PHK va oqsil sintezini to'xtatadi. Bunda asosiy ta'sirni fenol birikmalari ko'rsatib, ular ATF va boshqa nukleotidlar sintezini tormozlab, erkin radikallarning shikastlanishidan himoya qiladilar.

Tinim davrining yakunida hujayradagi regulyator oqsillar miqdori kritik nuqtaga yetadi va ular o'sish ingibitorlarini o'ziga biriktirib, o'sish stimulyatorlarini sintezini fermentativ reaksiyalarini faollashtiradilar. Bunda metabolik jarayonlarning anaerob holdan aerobga o'tish va mitoxondriyalarning nafas olish aktivligi ortishi va ATF sintezi boshlanishi kuzatiladi. Natijada oqsil va nuklein kislotalar sintezi boshlanib, meristema to'qimalari bo'linishi boshqariladi.

Tuganaklarning tinim holatidan chiqishi hujayradagi IUK miqdorining ortishi bilan boradi. Gibberellinlar miqdori tuganaklar o'sishi boshlanishi bilan meristemmatik to'qimalarda to'satdan ortadi.

Meristema to'qimalari tuganaklar tinim holatida bo'lganda xromotin faoliyat ko'rsatmaydi. Tuganaklarning tinim holatidan chiqish vaqtida, ingibitorlar miqdori kamayib, nuklein kislotalar biosintezi ortadi va ushbu kislotalar miqdori ortishi kuzatiladi. Unib chiqish davomida meristemmatik to'qimalardagi o'sish fitogormonlari miqdori ko'payadi.

Past haroratda tuganaklarda uglevodlar to'planishi to'qimalarning fiziologik holatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, tuganaklar 0°C da 2 oy davomida saqlansa, mono va oligosaxaridlar miqdori 5 marta ortgan, +4°C da esa 2 marta. Tuganaklarda mono va oligosaxaridlarning to'planishini +10°C saqlaganda yo'qotish mumkin, ammo bunday haroratda saqlash muddati juda qisqarishi mumkin, sababi tuganaklar namlikni yo'qotishi natijasida mikroorganizmlar ta'siri kuchayib, parchalanish jarayonlari boshlanadi. Undan tashqari harorat ko'tarilganda fermentlar faolligi boshlanib, erkin radikallarning ta'sirida parchalanish kuzatiladi.

Lipidlarni oksidlanish darajasi ortib, biogen molekulalar va membrana strukturalari buzilishi ko'rildi. Shuning uchun tuganaklarni saqlash davomi tarkibidagi plastik moddalarni buzilmaslik uchun qish mavsumida kartoshkani +3 +4°C da bahorda esa +1°C da saqlash tavsiya etiladi.

## **IX BOB. ILDIZMEVALAR VA YEM-XASHAK EKLINLARI BIOKIMYOSI**

### **9.1. Ildizmevali eklarlarning ahamiyati**

Ildizmeva ildizning yumshoq kattalashuvi (yo'g'onlashuvi) qisman poya bilan birga bo'ladi. Ildizmevalilarga qand lavlagi, xashaki lavlagi, xo'raki lavlagi, sabzi, sholg'om, turp, selder, rediska, petrushka, rovoch va boshqalar kiradi. Ildizmevalar meditsinada, qishloq xo'jaligida, oziq-ovqat, kimyo, farmatsevtika sanoatlarida ishlatiladi. Masalan, qand lavlagidan qand olinadi, yem ishlab chiqarishda esa xashaki lavlagi ishlatiladi. Sabzi va qizil lavlagi ko'p miqdorda bo'yoq moddalari to'playdi, bu moddalarni gazlamalarni bo'yashda ishlatiladi. Xren ildizidan peroksidaza fermentini sanoat miqyosida olinadi va uni enzimologiya, immunologiya, biotexnologiya sohalarida ilmiy izlanishlarda ishlatiladi. Undan tashqari ildizmevalilardan sanoat miqyosida etanol va uglevodlar olinadi hamda tsukatlar ishlab chiqarish uchun xo'raki lavlagi ishlatiladi.

### **9.2. Ildizmevalar kimyoviy tarkibi**

Ildizmevalar o'z tarkibida 75-88% suv va 9-24% uglevodlar saqlaydi. Uning ozuqa qimmatini tarkibidagi uglevodlar belgilaydi. Ildizmevalardagi uglevodlar ularning navi, turi, yetishtirish sharoiti va joyiga bog'liq bo'ladi. Qand lavlagi tarkibida uglevodlar ko'proq to'planadi (12-24%), eng kam miqdorda sabzi mevasida kuzatiladi (5-8%).

Ildizmevalilarda lipidlar miqdori kam bo'ladi, masalan, lavlagida 0,1% ho'l massasiga nisbatan, sabzida esa 0,2-0,3%. Lipidlar asosan old qismida to'planib, ularning asosini to'yingan moy kislotalari tashkil etadi.

**Turli ildemeva ekinlarining biokimyoviy tarkibi**

| No | Ildiz-mevalar   | Monosaxaridlar | Oligosaxaridlar | Kletchatka | Pektin moddalar | Kul |
|----|-----------------|----------------|-----------------|------------|-----------------|-----|
| 1  | Qandlavlagi     | 1,2            | 18              | 1,2        | 2,0             | 0,6 |
| 2  | Xashaki-lavlagi | 1,4            | 8               | 1,5        | 0,6             | 1,0 |
| 3  | Xo'raki-lavlagi | 1,5            | 10              | 0,8        | 1,2             | 1,0 |
| 4  | Sabzi           | 2,0            | 7               | 1,5        | 0,6             | 1,0 |

Sabzi mevasida 89,1% suv, oqsillar-0,8%, mono va oligosaxaridlar - 8,0%, selluloza - 1,1%. 100 g sabzi tarkibida 240 mg kaliy, 70,1 mg% natriy, 46,5 mg% kalsiy, 19,0 mg% magniy, 34,1 mg % fosfor, 3,8 mg% yod, 1,0 mg% temir bo'ladi.

Sabzi tarkibida ko'proq karotin to'planadi va unga olov-qizil rang beradi. Selder ildizmevasi ozuqa moddalarga boy bo'lib, tarkibida suv - 86,1%, saxaroza - 4,5%, selluloza - 1,8%, mono va oligosaxaridlar - 3,2%, kul elementlari - 1,1, kaliy - 321 mg%, kalsiy - 66m g%, fosfor - 115 mg%, temir - 0,5 mg% bo'ladi. Selder bargida esa 9,7-17,3% gacha quruq modda bo'lib, saxaroza - 0,6-1,4%, oqsillar - 2,0-2,8%, kul elementlari 1,4% tashkil qiladi. Selderey ildizmevasida vitamin S miqdori -30,0 mg%, karotin - 7,0 mg% atrofida bo'ladi.

Xashaki lavlagi tarkibida saxaroza miqdori 6-14% bolsa, xo'raki lavlagida - 5-13%, sabzida 5-12% atrofida bo'ladi. Ular tarkibidagi monosaxaridlar miqdori 0,3-1,3 ga yaqin bo'ladi. Sholg'om tarkibida 5-7% monosaxaridlar va 1-2% saxaroza mavjud. Pishgan lavlagi tarkibida kraxmal miqdori oz, 0,06-0,1%, sabzida - 0,2-0,8% tashkil etadi.

Ildizmevalarda azotli birikmalar juda oz miqdorda -- 0,05-0,25% uchraydi. Azotli birikmalardan asosiyлari oqsillar va aminokislotalardir. Shundan oqsillar ulushiga 40-60% umumiy azot hisobidan, aminokislotalar esa 20-30%ni tashkil etadi.

Ildizmevalar vitaminlarga boy bo'lib, asosan sabzida karotinoidlar miqdori 10-12% ga yetadi. Ildizmevalar askorbin kislotaga boy bo'lib, sabzida 10 mg%, xashaki lavlagida 3-6 mg%, xo'raki lavlagida 5-10 mg%, rediska, sholg'om va turpda vitamin S miqdori 20-30 mg%ni tashkil etadi.

Ildizmevalarda kul elementlari juda oz bo'lib, sabzi, xashaki va xo'raki lavlagilarda 0,9-1,3 % ni tashkil esa qand lavlangida 0,5-1,8 % ga etadi. Yetishtirish sharoitiga qarab bu elementlarning tarkibi o'zgaradi. Ildizmevalar kuli tarkibida ko'proq natriy borligi topilgan. Sholg'om va turpda mineral tuzlardan kaliy, kalsiy, magniy, fosfor va temir tuzlari to'planadi. Sholg'om va rediska ildizmeva efir moylari tutadi.

### **9.3. Ildizmevalar tarkibida qandlar, azotli moddalar va vitaminlarni taqsimlanishi**

Ildizmevalarda uglevodlar nomutanosib tarqalgan. Masalan, qand lavlagi ildizmevasida maksimum miqdorda ildizning keng qismi - bo'ynida to'planadi, bosh qismida esa uning miqdori minimumni tashkil etadi. Qand lavlagida saxaroza mono-oligosaxaridlarning asosini tashkil etib, 80-90% ga etadi. Saxarozadan tashqari ildizmevalarda oz miqdorda maltoza va raffinoza uchraydi. Glyukoza va fruktozaning umumiy miqdori 1 % dan oshmaydi. Biogen birikmalar (aminokislotalar, oqsillar, nuklein kislotalar) ildizmevalarning zaxira to'qimalarida to'planib ildizning old va o'rta qismida maksimumga yetadi. Ildizmevaning bosh qismida minimal miqdorda uglevodlar to'planadi. Sabzida uglevodlar asosan tashqi to'qimalarda (floemalarda) to'planadi, kamroq o'rta qismida bo'ladi.

Pektin moddalar ildizmevalar hujayra devorlarida yig'ilib, ularning miqdori ildiz massasiga nisbatan 0,2-2,0 % ni tashkil qiladi. Ildizmevalar pektin moddalari asosan propektin holida berilgan va uning borligi ozuqa qiymatini orttiradi. Lavlagida

**kletchatka** miqdori 1%, sabzida 1,5-2 %, lavlagining bosh qismida **ko'proq** kletchatka to'planadi, sabzida esa ildizmevaning o'rta qismida to'planadi. Qizil lavlagining bargi va mevasi ozuqa moddalarga boy bo'lib, lavlagida suv 87,6%, oqsillar 1,2%, uglevodlar 9,3%, mono- va oligosaxaridlar 6,3%, kul elementlari 0,9% atrofida bo'ladi. Lavlagidagi qizil rang bo'yoq moddalar betanin va antotsian hisobidan chiqadi. Antotsianlar lavlagida 50-145 mg% bolsa, bargida vitamin S miqdori 39 mg% va karotin miqdori 2,4 mg% ga yetadi.

#### **9.4. Ildizmevalar pishishi va saqlash davomida biokimyoviy o'zgarishlar**

Biogen birikmalar to'planishi ildizda sintez elementlarining shakllanishi bilan boradi. Ildizmevalarning pishish jarayoni oqsillar sintezi va hujayralarning faol bo'lishi bilan boradi. Bunda suvning o'zlashtirilishi va mono-oligosaxaridlar sintezi bilan amalgamoshiriladi. Ildizmevalar pishish davrida uglevodlarning miqdori 2-3 marta ortadi. Yosh ildizmevalarda monosaxaridlar miqdori asosan glyukoza va fruktoza saxarozagaga nisbatan 5-10 marta ko'p. Bunda pishmagan ildizmevalar ko'p miqdorda azotli birikmalar to'playdi, pishgan mevalarga nisbatan. Buning sababi, assimilyatsiya jarayonlarining o'zgarishi natijasida ildizmevalarda, xususan saxaroza hosil bo'lishidadir.

Pishish jarayonida ildizmeva tashqarisidan probka-to'qima bilan qoplanadi, ichida esa floema va (ksilema) qismida asosini tashkil qiluvchi zaxira (ozuqa moddalarga boy) parenximadan iborat bo'ladi.

Ichki tuzilishi bo'yicha ildizmevalar 3 ta tipga bo'linadi: sabzilar, rediskalar, lavlagilar. Sabzi tipidagi ildizmevalar (sabzi, petrushka, selder)da ozuqa moddalari asosan ikkilamchi qavatda, probka ostida yig'iladi.

Ildizmevaning lub qismi uning asosiy qismini hosil qiladi. Ildizmevaning ichki qismi - yog'ochligi (o'rtasi) ozuqa moddalari kam

bo'lib, och bo'yalgan, yog'ochlangan hujayralardan iboratdir. Bunda, o'ttasining zichligi qancha kichik bo'lsa, ildizmeva mazali bo'ladi. Rediskaga o'xshagan ildizmevalar (sholg'om, turp, rediska va boshqalar) ozuqa moddalari yog'ochlik qismida to'planadi va uning asosiy massasini tashkil qiladi, lub qismi rivojlanmagan va po'stiga zich joylashadi. Xo'raki lavlagi kabi ildizmevalar (qand va xo'raki)ga xos to'q va och rangli aylanalarning almashinishi bilan boradi. Och rangli (yog'ochlangan) qismida ozuqa moddalari kam bo'lib, yog'ochlangan elementlardan tashkil topadi. Ildizmevalar pishish davrida biogen molekulalarning individual tarkibi to'planadi. Undan tashqari ular ma'lum shakl va hajmni hosil qilib, ularning ozuqaviy va texnologik qiymatini belgilaydi. Masalan, sabzining ildizmevalari razmerlari bilan farqlanib rangi, shakli, kattaligi, kimyoviy tarkibi, ta'mi bilan ajralib turadilar. Pishgan ildizmevalar sabzida uzunchoq shaklda bo'lib, silindrsimon, konussimon, uchli va uchsiz bo'ladi. Ildizmevalar rangi olov, sariq, qizil, binafsha ranglarda bo'lib, ularning tarkibidagi karotinoidlarning miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Rediska ildizmevalari pishish davrida maxsus ta'm va hidga ega bo'lib, glikozidlar hisobiga yuzaga keladi. Uning ildizmevalari har xil shaklda (yumaloq, ovalsimon, cho'zinchoq) va rangi (oq, pushti, qizil, binafsha) bo'yalishi mumkin. Pishish muddatiga qarab rediskalar ertapishar, o'rtapishar va kechpisharlarga bo'linadi.

Selder ildizmevasida qandlar to'planadi, shu qatorda ko'p atomli spirt - mannit, kletchatka, mineral moddalar ham yig'iladi. Maxsus xushbo'y hidi uning tarkibidagi efir moylari hisobiga seziladi. Ularda pishish davrida nikotin va pantoten kislotalar hamda flavanoidlar (kvartsetin, lyuteolin) to'planadi.

Qizil lavlagida betanin to'planadi va u ildizmevani binafsha rangga bo'yaydi. Lavlagining go'sht qismi ko'proq suv to'playdi, oz miqdorda kletchatka tutadi va ko'p miqdorda saxaroza yig'adi (8% gacha). Lavlagi ildizmevasida olma, oksalat, vitaminlardan C, B, P, PP, fol kislotasi to'planadi.

Hosil yig'ilgandan so'ng ildizmevalar tezda sotiladi, bir qismi qayta ishlashga anchagina qismi saqlashga qo'yiladi. Ildizmevalarni saqlashda katabolizm jarayonlari ro'y berib, bunda oligosaxaridlar monosaxaridlarga parchalanib, ular hujayralarning nafas olishi uchun sarflanadi.

Plastik moddalarning ishlatilishi ildizmevalarning saqlash muddati va sharoitiga bog'liq bo'ladi. Uglevodlar miqdori 1-3% gacha pasayadi. Undan tashqari saqlashda oqsillar parchalanishi borib, parenxima hujayralari buzilib, ildizmevalardagi suv kamayishi kuzatiladi. Bu ko'rsatkichlar o'zgarishi meva sifatiga salbiy ta'sir etadi. Sabzavotlarni saqlashdagi optimal harorat +1°C da havoning nisbiy namligi 85-90% bo'lishi kerak.

### **9.5. Qand lavlagida qand to'planishi sharoitlarini optimallashtirish**

Qand lavlagi o'z tarkibida mono- va oligosaxaridlar to'plab, eng ko'p xarajat bilan o'stiriladigan qishloq xo'jaligi ekini hisoblanadi. Lavlagining hosildorligi tuproq iqlim va agrotexnik sharoitlarga bog'liqdir. Qand lavlagini yetishtirishda ekiladigan sharoiti moslashgan turlarni ekishni yo'nga qo'yiladi. Undan tashqari hosildorlikka va sifat ko'rsatkichlari bo'lgan qand lavlagining gibrid genotipi, mineral ozuqalarni muvozanatini va vegetatsiya davrida kasallikka chidamli navlarini ekish tavsiya etiladi. Shuning uchun yuqori hosildor gibridlarni tanlab, yetarli mineral o'g'itlar bilan oziqlantirib, sug'orish va zarakunandalardan o'simliklarni himoya qilish tizimini yo'nga solish kerak. Ushbu talablarga javob berilganda qurg'oqchil va mo'tadil mintaqalarda qand lavlagining hosildorligi 23-30t/ga, o'g'itlarni N-90, P-90, K-150 berilganda maksimal hosildorlik 51,5-57,5 t/ga ga yetadi va ularda qandning miqdori 17,6-18,8 % gacha boradi. Lavlagining qandliligi qand ishlab chiqarishda birlamchi ahamiyatga ega bo'ladi. Saqlash va qayta ishslash davomida uning miqdori anchagina o'zgarishi mumkin.


Assimlyat tarkibi xloroplastlarning fotosintetik faolligiga bog'liqdir. Bunda barg assimilyatsion apparatining quvvati bargdan ildizmevaga uglevoddrlarning o'tishini belgilaydi. Shuning uchun uglevodlar to'planishiga o'simliklarning vegetatsiya davri, kun rejimi, ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Vegetatsiya davri uzunliginiing 10 sutkaga orttirilsa, ildizmevalarning qandliligi 0,5-0,8 % ga ko'payadi, qand lavlagining gibridlari bilan ishlash natijasida hosildorlik 6,8-7,0 % ga ortadi.

O'sish jarayonida qand lavlagidagi uglevodlar miqdori 2-3 marta ko'payadi. Bu jarayon saxaroza biosintezini katalizlovchi fermentlar hisobiga amalga oshadi.

### Saxarozasintetaza



### Saxarozafosfatsintetaza



Qand lavlagida bu disaxaridni to'planishi uning oziqaviy va texnologik qiymatini belgilaydi. Shuning uchun, qand lavlagining tezpishterlik darajasini hisobga olish kerak. Pishmagan ildizmevalar yig'ib olinsa ularda saxaroza miqdori past bo'ladi. Undan tashqari ozuqa qiymati ildizmevalardagi yuqori molekulyar uglevodlar miqdori va tarkibiga bog'liq bo'lib, ularning miqdori pishmagan ildizmevalarda ortadi va pishish davriga kelib ularning konsentratsiyasi pasayadi. Ildizmevalarda qurg'oqchilik va tuproqda elementlar yetishmaganda gullah davrida ko'proq kletchatka hosil bo'ladi. Ildizmeva pishish davrida uning yer ustki qismidan assimlyatlar ildizmevaga tushib to'qimalarda azotli moddalar va uglevodlar sintezlanadi. Qurg'oqchilik davrida azotli birikmalar sintezi ortadi, shuning uchun tuproqda namgarchilik pasayishi bilan ildizmevalarda azotli birikmalar to'planadi. Tuproq va havo namligi o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatib, ildizmevalarning shakllanishida ishtirot etadi. Namlik

**yetishmasligi** hosil sifatiga ta'sir etadi. Shuning uchun darhol **ug'orish** kerak bo'ladi, ortiqcha namlik ham salbiy ta'sir etadi.

Ildizmevalarda uglevodlar to'planishi barglarning fotosintetik apparatiga bog'liq bo'lib, ularning shakllanishida tuproqqa beriladigan elementlarning roli beqiyosdir. Shuning uchun tuproqda elementlarning yetishmasligi natijasida o'sish va rivojlanish susayib, ildizmevalarda saxaroza miqdori kamayishiga olib keladi. Tuproqqa fosfatli va kaliyli o'g'itlar berilishi bilan ildizmevalarda uglevodlar miqdori ortib, bir vaqtida oqsil bo'lмаган azotli birikmalar kamayishi kuzatiladi. Azotli o'g'itlar bilan ortiqcha ta'minlanishi natijasida ildizmevalarda azot tutuvchi birikmalar ko'payib uglevodlar kamayishi mumkin (mono- va oligosaxaridlar). Shunday qilib, tuproqdan olinadigan elementlar uglevodlar muvozanatiga ta'sir ko'rsatadi. Hosildorlik ortadi, ammo qandlilik ildizmevalarda kamayadi. Buning sababi, azotli o'g'itlarga javoban ildizmevalarda saxarozasintetaza fermentining aktivligi ortadi. Bunda fermentativ reaksiya muvozanati saxaroza parchalanishi tarafga suriladi. Hosil bo'lgan monosaxaridlar hujayraning energetik jarayonlariga sarflanadi, natijada hujayrada ATP miqdori ortadi. Hujayra bo'linishi jarayonlari kuchayib, ildizmevalarning massasi ortishi kuzatiladi. Tuproqda B (bor) miqdori yetishmasa qand lavlagi hosildorligi pasayadi, ildizmevalar esa oz oz miqdorda uglevodlar, xususan saxaroza to'playdilar. Borli o'g'itlar tuproqqa solinsa, qand lavlagining hosildorligi 3-4 t/ga ortadi. Qand lavlagining nordon tuproq sharoitida yetishtirilganda ohak qo'shish yo'li bilan ildizmevalarning qandliliginini oshirish mumkin. Gerbitsidlarni qo'llash yordamida qand lavlagini hosildorligi 20-30% ga ortib, 10-15 ts/ga qo'shimcha hosil yetishtiriladi. Ba'zi protravitel-changsimon torf organik va mineral o'g'itlar, mikroelementlar, o'sish stimulyatorlari va kleylovchi moddalar bilan ho'llangan tuproqqa ekiladi.

## **9.6. Yem-xashak o'tlari**

Yem-xashak o'tlariga xashak tayyorlanadigan pichan, o'tlarning uni, senaj, silos va boshqa yem turlari, qishloq xo'jalik hayvonlari uchun yemning asosini tashkil qiladilar. Yem-xashak o'simliklari turlariga tulkiquyruq, yaltirbosh, betaga, oqso'xta, yaylov raygrasi, sudan o'ti, qizil sebarga va boshqalar kiradi.

Yem-xashak o'tlarining qiymati ular tarkibidagi oqsillar, kletchatka, kraxmal, aminokislotalar, vitaminlar va boshqalarga bog'liq bo'ladi. Yemlarni sifatini aniqlashda asosiy ko'rsatkich - xom proteiniga beriladi, u azotli moddalarning umumiyligi tarkibini ko'rsatadi. Bunda xom protein tarkibi 60-70% oqsillar va faqat 30-40% azotli oqsil bo'lмаган birikmalaridan iborat bo'ladi. Xashaklardagi biogen birikmalar miqdori o'tlarning turi, navi va yashash sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Masalan, qizil sebargada xom protein miqdori o'zgarib, 11-24% atrofida ekma bedada 12-27% tashkil etadi.

Yem-xashak o'tlarining barglari azotli moddalarga boy bo'lib, ularning poyasida esa 2-4 marta kam azotli moddalar to'planadi.

### **9.2-jadval**

**Yem-xashak o'tlari tarkibidagi biogen birikmalar**  
(% quruq modda hisobiga)

| Nº | O'simlik turi | Xom protein | Lipid-lar | Kletchatka | Azotsiz moddalar | Kul | Karotin mg% |
|----|---------------|-------------|-----------|------------|------------------|-----|-------------|
| 1  | Qizil sebarga | 17          | 3         | 25         | 47               | 8   | 25          |
| 2  | Ekma beda     | 20          | 3         | 28         | 41               | 7   | 30          |
| 3  | Tulkiquyruq   | 8           | 2         | 29         | 52               | 6   | 12          |
| 4  | Yaltirbosh    | 9           | 2         | 29         | 51               | 7   | 13          |
| 5  | Oq so'xta     | 10          | 2         | 30         | 48               | 7   | 15          |
| 6  | Betaga        | 11          | 2         | 28         | 49               | 6   | 18          |
| 7  | Sudan o'ti    | 12          | 2         | 34         | 42               | 10  | 10          |

Yem-xashak o'tlari tarkibida albumin va globulin oqsillari ko'proq bo'lib, ularni ta'mi 60-75% gacha etadi. Shuning uchun

yem-xashak o'tlari ko'proq yuqorida qayd etilgan oqsillar tutganligi sababli hayvonlar uchun eng yaxshi ozuqalardan biri hisoblanadi.

Yem-xashak o'tlari hamma zaruriy aminokislotalarni tutadi. O'tlarning rivojlanishining boshlang'ich bosqichlarida erkin aminokislolar ko'p bo'lib, ularning miqdori pishish bilan kamayishi kuzatiladi. O'tlarning asosiy to'qimalarini uglevodlar (kletchatka, gemitsellyuloza, pentozanlar) tashkil qiladi. Oson o'zlashtiriladigan uglevodlar qatoriga mono- va oligosaxaridlar, fruktozanlar va kraxmal kiradi. Dukkakli o'tlar tarkibida monosaxaridlar 3-5%, saxaroza 2-5%, kraxmal 6-8%ni (quruq moddasiga nisbatan) tashkil qiladi. Kraxmal o'rniiga fruktozanlar tutadilar. (2-6% quruq modda hisobiga). Undan tashqari yem-xashak o'tlari o'z tarkibida gemitsellyuloza saqlaydi. (4-15%).

O'simliklarning poyasi asosini kletchatka (tsellyuloza) tashkil qiladi. Masalan, beda tarkibida kletchatka 21-46%, yovvoyi bedada 15-40%, espartsetda 19-30% quruq massa hisobiga to'g'ri keladi. Kletchatka miqdori 40% dan ortsa, yemning ozuqaviy qiymati pasayadi. Sababi, o'simlik devorlari qattiqlashib, ozuqa moddalari o'zlashtirilishi qiyin bo'lib qoladi. Yem-xashak o'tlarida 10 % gacha lignin to'planadi va uning asosini 50% koniferol spirti, 30% oksidolchin spirti va 20 % sinap spirti hosilalaridan iborat bo'ladi.

Lignin organik erituvchilarda erimaydi, hayvon organizmidagi fermentlar ham parchalay olmaydi. Shuning uchun lignin to'planishi bilan yemning ozuqaviy qiymati pasayadi.

O'sayotgan o'simliklar to'qimalarida lignin miqdori 3-5% bo'lsa, pishib o'tgan pichanlar tarkibida 12-14% gacha yetadi. Yem-xashak o'tlari tarkibida lipidlar juda oz miqdorda bo'ladi. Vegetativ qismlarda esa 1,5-5% gacha yetadi. Lipidlarning asosiy miqdori barglarda va gullarda bo'ladi. Moy tarkibi 75-80% to'yinmagan moy kislotalardan iboratdir (linolat va linolenat). Bu moy kislotalari hayvonlar organizmida sintezlanmaydilar va juda zarur bo'ladi.

**Yem-xashak o'tlari tarkibidagi moy kislotalari miqdori (%)**

| <b>Nº</b> | <b>O'simlik turi</b> | <b>Palmitat</b> | <b>Stearinat</b> | <b>Olinat</b> | <b>Linolat</b> | <b>Linolenat</b> |
|-----------|----------------------|-----------------|------------------|---------------|----------------|------------------|
| 1         | Oq beda              | 6,5             | 0,5              | 6,6           | 18,5           | 60,7             |
| 2         | Yaylov<br>raygrasi   | 11,9            | 1,0              | 2,2           | 14,6           | 68,2             |
| 3         | Oqso'xta             | 11,2            | 2,6              | 0             | 76,5           | 5,1              |

Undan tashqari yem-xashak o'tlari tarkibida organik kislotalar 1-10% gacha quruq massa hisobida ko'proq olma va limon kislotalari uchraydi. Ularning miqdori 0,8-1,3% va 0,3-0,5 % quruq massa hisobida topilgan, qolgan kislotalar to'qimalarda juda oz miqdorda uchraydi. Ularning asosiy miqdori poyalarda topilgan.

### **10.1. Sabzavotlarning kimyoviy tarkibi**

Sabzavotlarga geterogen guruh o'simliklari kirib, pishish davomida har xil biogen birikmalar to'playdilar. Bu birikmalar insonlar va hayvonlar uchun zarur hisoblanadi. Bu o'simliklar tarkibi har xil oilalardan tashkil topadi: qovoqdoshlar (qovoq, bodring, patisson, kabachki), tomatdoshlar (pomidor, qalampir, baqlajon), karamdoshlar (karam, sholg'om, rediska, turp), piyozdoshlar (piyoz, sarimsoq), savatgullilar (sabzi, petrushka, selder, ukrop). Sabzavotlarning qiymati ular tarkibidagi har xil biogen birikmalar (uglevodlar, oqsillar, vitaminlar, efir moylari, mineral moddalar va boshqalar) bilan aniqlanadi.

Sabzavotlar tarkibida suv miqdori 85-95% atrofida bo'ladi. Uglevodlar miqdori keskin o'zgarishi mumkin. Masalan, karamda ho'l massasiga nisbatan 3,6-6,8%, pomidorda 2,8-4,2%, bulg'or qalampirida 6,4-9,0%, baqlajonda 3,6-5,5%, bodringda 1,8-3,0%, piyozda 4-12%, sarimsoqda 1,2-3,1% tashkil etadi.

Sabzavotlarda monosaxaridlar glyukoza, fruktoza, galaktoza, mannoza, oligosaxaridlar asosan saxaroza holida bo'ladi. Bodringda esa eng kam miqdorda mono va oligosaxaridlar uchraydi. Oqbosh karamda va shirin qalampirda glyukoza 2,5%, fruktoza 1%, saxaroza 0,4% ga etadi. Eng ko'p saxaroza piyozda 9% gacha to'planadi. Oqbosh karamni tuzlaganda mahsulotda sutli-kislotali bijg'ish jarayoni yuz beradi, bunda asosiy monosaxaridlar sut kislotasigacha oksidlanadi. Sut kislotasi karam tuzlaganda konservant vazifasini bajarib, mahsulotni saqlashga va sifatiga javob beradi.

Sabzavotlarda mono- va oligosaxaridlardan tashqari kletchatka, gemitsellyuloza, pektin moddalari bo'ladi. Masalan tomatlarda sellyuloza miqdori 0,2%, oqbosh karamda 0,8%, rangli karamda

2,2%, piyoza 1,5% ho'l massasiga nisbatan to'planadi.

Sabzavotlardagi kletchatka miqdorini ortib borishi mahsulot sifatini pasayishi bilan boradi. Bunday jarayonlar o'simliklar qarishi va azotli oziqlanishining yomon bo'lishida namoyon bo'ladi.

Sabzavotlarda kraxmal juda oz to'planadi. Masalan, pomidor mevalarida kraxmal miqdori 0,1-0,2% bo'lsa, piyoza – izlari, bodringda yo'q, karam bargida 0,4-0,5%, salatda, ko'k piyoza, petrushka va ukropda uning miqdori 1-2% atrofida bo'ladi.

Pomidor mevasida pektin moddalari 0,1-0,2%, shirin qalampirda ham shu atrofda, karamda esa pektin moddalari miqdori 0,3-2,0% gacha bo'ladi.

Oqsillar tirik hujayralarning rivojlanishiga juda zarur bo'lib, ammo ularning miqdori juda ozdir. Masalan, salatda ho'l massasiga nisbatan 2%, gulkaramda 1,7-3,3%, Bryussel karamida 6,1-6,4%, sarimsoqda 6,8-8,2% tashkil etadi. Sabzavotlar oqsillari o'z tarkibida zaruriy aminokislotalar tutadi va yem tayyorlashda ishlataladi.

Sabzavotlarda organik kislotalar tarkibi xilma-xil bo'lib, pomidorda limon va olma kislotasi, oksalat va uzum kislotasi uchraydi. Karamda organik kislotalar miqdori 0,05-0,2% ga va ularning asosini limon, sirka, oksalat, olma kislotalari tashkil qiladi. Piyoza 0,15-0,3% ni organik kislotalardan olma va qahrabo kislotasi tashkil qiladi.

Sabzavotlar tarkibida lipidlar juda oz miqdorda bo'ladi. (1% atrofida). Ko'proq lipidlarni saqlaydigan organ urug'lar bo'lib, masalan qovoqda lipidlar miqdori 45-58%, patissonda -37-49%, kabachkida 45-57 % bo'ladi. Lipidlar tarkibini asosin oleinat 24-41 % va linolat kislotalar 33-46 % tashkil etadi.


Mineral elementlar ko'pgina sabzavotlarda oz miqdorda uchraydi. Ularning miqdori ho'l massasiga nisbatan 0,4-0,8% ga etishi mumkin. Faqat petrushka bargi, shpinat va ukrop tarkibida 2-4% kul elementlari topilgan.

Sabzavotlar vitaminlarga boy manbaa hisoblanadi. Oqbosh karam tarkibida vitamin C miqdori - 20-60 mg% bolsa, pomidorda - 20-30 mg%, bodringda 2-10 mg%, sarimsoqda 10-30 mg%, baqlajonda 2-10 mg%, qizil bulg'or qalampirida 100-400 mg%, xrenda 150-200 mg%, ko'k piyozda 40-60 mg%, ukropda 150-200 mg%, petrushkada 100-200 mg%, shovulda 50-70 mg%. Piyoz mevasida vitamin C - 80 mg%, karotin - 0,7 mg%, vitamin E - 3,2 mg%, B<sub>1</sub> - 0,1 mg%, B<sub>2</sub> - 0,06 mg%, PP - 0,5 mg% miqdorda bo'ldi. Karotin miqdori sabzavotlarda quyidagi tartibda bo'ldi: petrushka - 8-12 mg%, ukrop, shavel - 8-10 mg%, ko'k piyoz - 4-6 mg%, pomidorda - 2-4 mg%, shirin qalampirda - 15-30 mg%, bodringda - 0,1-0,3 mg%.


Fol kislotasi sabzavotlarda quyidagi miqdorda topilgan: oqbosh karamda - 1, sabzida - 1,5, ko'k piyozda - 1,6, pomidorda - 0,9, ukropda - 4,4, petrushkada - 5,2, bodringda - 0,7 mkg/g bo'lishi mumkin.

Ko'pgina sabzavotlar ta'mi va hidi ular tarkibidagi efir moylari va boshqa aromatik moddalar hisobiga bo'ldi. Masalan, piyozda efir moylari miqdori ho'l massasiga nisbatan - 10-35 mg%, sarimsoqda - 100 mg%, qalampirda - 10-25 mg%, sholg'omda - 10-50 mg% bo'ldi.


Sarimsoq tarkibidagi efir moylari qatoriga lakton allitsin kiradi va u kuchli fitontsidlar qatoridan joy oladi.




Turp ildizmevasida glyukonasturin moddasi to'planadi, u glyukoza va feniletilspirt qoldig'idan iborat.




Sholg'om efir moyi tarkibiga metilmerkaptin va sinalbin mavjud.



Qalampirning achchiq ta'mi uning tarkibidagi kapsaitsin alkaloidi hisobiga beradi.



Selder mevasi efir moyi – limonen - 70-80% tutadi va spirtlar hamda efirlar miqdori 5% atrofida bo'ladi.



Ukrop urug'i tarkibida karvon 50%, fellandren 20-30% va limonen 15-20% boladi.

## **10.2. Sabzavotlarda asosiy kimyoviy moddalarning taqsimlanishi**

Sabzavotlarning yer ustki va yer ostki qismi oziqaviy va texnologik qiymatga ega boladi. Ba'zilari ildizmeva deyilib, ularga rediska, sholg'om, turp, lavlagi, sabzi, petrushka, selder va boshqalar kiradi. Ba'zi sabzavotlarning yer ustki qismi bargi va mevalari ozuqa qiymatiga ega. Hamma sabzavot mevalari epidermis bilan qoplangan boladi va birlamchi to'qima hisoblanib, bir qavat hujayralardan tashkil topadi. Epidermis hujayralari tirik, devorlari sellulozali, tashqi qobig'i ichki qobig'idan yo'g'onroq, shuning uchun epidermis hujayralari cho'ziladi.

Sabzavotlarda zaxira to'qimalar alohida ahamiyatga ega bo'lib, parenxima to'qimalaridan tuzilgan, ularda ozuqa qiymatini belgilovchi moddalar to'planadi. Zaxira parenxima hujayralari faqat birlamchi selluloza qobiqlaridan iborat bo'ladi. Shuning uchun sabzavot to'qimalari parenxima hujayralarining massasi ortishi hisobiga o'sadi. Ammo parenxima to'qimalari biogen moddalarning ko'pligi sababli parazitlar uchun yemish bo'lishi mumkin.

Selderning har xil qismlarida efir moylari miqdori har xil boladi: mevasida ho'l massa hisobiga - 2,5-3,0%, bargida - 0,1%, ildizida - 0,01% to'g'ri keladi.

Ismaloqning bargi oziqa sifatida ishlataladi. Tarkibida 90% suv, oqsillar - 3,2%, uglevodlar - 3,2%, selluloza - 1% bo'ladi. Ismaloqda oksalat kislota miqdori pomidorga nisbatan 8 marta ko'p va yosh ildizlari o'z tarkibida mineral tuzlar va elementlar tutadi.

Bodring mevasida 95-96% suv, oqsil - 0,6%, monosaxaridlar - 1,8%, oligosaxaridlar - 0,47 %, tsellyuloza - 0,4%, kaliy miqdori - 191mg%, Ca - 26,2%, fosfor - 21,8% bo'ladi. Bodring po'stida vitaminlar va selluloza ko'p, ichki qismida oqsillar, uglevodlar va mineral tuzlar ko'proq to'planadi.

Pomidor mevalari ozuqa uchun ishlatalib, yupqa po'st va zich go'sht qismlarida urug'lari bo'ladi. Pomidorda 93,9% suv, oqsillar - 1,0%, uglevodlar - 3,7%, selluloza - 0,7%, kaliy - 180 mg%, fosfor - 185 mg%, undan tashqari vitamin C - 23 mg%, karotin - 0,61 mg%, vitamin E - 0,85 mg%, vitamin K - 0,63mg%, PP - 0,56 mg% lar topilgan.

Karam barglari ozuqaviy qiymatga ega bo'lib, karotinga boy. Karotin asosan tashqi barglarda to'planadi. Karamning ichki barglar ko'proq suv - 94% saqlaydi, selluloza - 0,8%, oqsillar - 1,4%, uglevodlar - 4%, mineral elementlar - 0,6%, vitamin C - 40 mg% tashkil etadi.

Baqlajon mevalari o'z tarkibida pishib yetilgan davrda 91,8% suv, uglevodlar - 4%, oqsillar - 1,4%, sellulozalar - 0,7%, lipidlar - 0,2%, kul elementlar - 0,5% tutadi, yana 180 mg% - K, 26,9 mg% - P, 16,2 mg% - Ca, 15,6 mg% - Mg, 1,8 mg% - Na, 0,4 mg% - Fe bo'lishi mumkin. Vitaminlardan C - 6,0 mg%, karotin - 0,2 mg%, PP - 0,6mg% ni tashkil qiladi.

Qalampirlar keng, yupqa, go'shtdor meva ichida urug' joylashadi. Qalampirga achchiq ta'm beradigan birikma - kapsaitsin og'iz bo'shlig'i va oshqozonga ta'sir etadi. Kapsaitsin asosan mevaning ichki devori va urug' atrofida to'planadi.

Piyoz eng ko'p tarqalgan sabzavotlar qatoriga kirib, yil davomida ishlataladi. Uning tarkibida suv - 86 %, uglevodlar - 10,5%, oqsillar - 1,7%, tsellyuloza - 0,6%, lipidlar - 0,3%, undan

tashqari piyozda kaliy - 173 mg%, fosfor - 51,9 mg%, magniy - 27,6 mg%. Vitamin C miqdori - 9mg%, ko'k piyozda - 24mg%. Undagi kaliy miqdori 210 mg% va karotin 6 mg% ga yetadi. Piyozda fitontsidlar serob bo'lib, ular infeksiyaga qarshi kurashda juda foydali hisoblanadi.

Sarimsoq oziq-ovqat sanoatida keng ko'lamda qo'llaniladi. Uning tarkibida suv - 61,4%, uglevodlar - 29,1%, oqsil - 6,3%, glyukoza - 1,8 %, kaliy - 992 mg%, fosfor - 178,6 mg%, natriy - 3,0 mg%, temir - 2,3 mg% mavjud. Sarimsoq piyoziда efir moylari miqdori - 1,58 mg% bo'lib, uning o'zgacha kuchli hidini belgilaydi.

### **10.3. Pishayotgan sabzavotlardagi biokimyoviy jarayonlar**

Sabzavotlarni maxsus ekinlar qatoriga qo'shsa bo'ladi, chunki ular pishish davomida ma'lum biogen birikmalar sintezlaydilar. Pishish davrida asosiy biogen birikmalar to'planadi. Bu davrda hujayralarning faol bo'linishi, sintetik jarayonlar tezligi ortib, suv bilan ta'minlanadi. Har bir sabzavot turi uchun pishish jarayoni o'zining xossalari va muddatlari bilan farqlanadi. Hujayraning faol metabolizmi, meristikatik va parenximatik to'qimalarning o'lchami ortishi bilan xarakterlanadi. Bunda har xil tur sabzavotlar nuklein kislotalar miqdori bilan farqlanadi, sababi nuklein kislotalar hujayraning biokimyoviy jarayonlarini boshqaradi. Yosh hujayralarda nuklein kislotalar miqdori ortishi bilan boradi, natijada ular faol bo'linadi. Undan tashqari to'qimalarda nukleozidtrifosfat (ATF, GTF, UTF, va TsGF) miqdori ortadi, ular bevosita metabolik jarayonlarni stimullaydilar va ularni boshqaradilar.

Sabzavotlar pishish davrida hujayra va to'qimalarda boradigan biokimyoviy jarayonlar biogen molekulalarning o'zaro almashinuvni bilan boradi. Natijada metabolitlar hosil bo'ladi, ular murakkab strukturalarni yuzaga keltiradi, hujayra membranasini elementlarini va muhitni belgilaydi.

Biokimyoviy jarayonlarning asosiy elementlari bo'lib fermentlar xizmat qiladi. Ular biogen birikmalar sintezini amalga oshiradi. Ko'pgina fermentlarning katalitik faolligi tarkibidagi kofermentlar va mikroelementlarga bog'liq bo'ladi. Metabolitik faollikning ko'rsatkichi sabzavot pishish davridagi oksidlanish-fosforlanish darajasiga, ya'ni, nukleozidtrifosfatlar to'planishiga bog'liq bo'ladi. ATP miqdori mitoxondriyalarda nafas olish faolligi ortishi bilan boradi. Nafas olishning maksimumga chiqishi sabzavotlarning pishish jarayonini tugashidan dalolat beradi va qarish jarayoni boshlanadi. Sabzavotlarni pishish davrida organik kislotalar miqdori ortadi, ular uch karbon kislotalar va glikoliz tsikllarining oraliq mahsulotlari hisoblanadi. Organik kislotalardan keyinchalik modda almashinuvida biogen molekulalar sintezlanib (aminokislotalar, spirtlar, aldegidlar, va boshqalar) bunda nafas olish jarayoni aerob xilidan anaerob xiliga o'tadi. Aerob nafas olishni kuchayishiga sabab, kislorod etib borishining susayishidir, yuzasining qavatlari zichlashishidandir.

Sabzavotlarning ustki qavatini shakllanishi bilan birga ularda xilma-xil biogen birikmalar to'planadi, xususan, askorbin kislotasi. Askorbin kislotasi darajasi pishish davrida kuchli o'zgarishi mumkin. Bu jarayon qalampirda yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, ko'k bulg'or qalampirida vitamin C miqdori 100 mg% bolsa, qizarganlari 2 marta ko'p bo'lishi kuzatilgan.

Karotin miqdori pishayotgan sabzavotlarda ildizmeva rangi bilan bog'liq. Sabzi o'sishi vaqtida karotin sintezi jarayonlari faollashadi va ildizmeva mos rangga kiradi.

Sabzavotlar to'qimalarining asosiy komponenti uglevodlardir. Shuning uchun sabzavotlar pishishi vaqtida avval kraxmal sintezlanadi, pishishning oxirgi bosqichida esa bu ko'rsatkich kamayib ketadi, ammo kichik molekulali uglevodlar sintezi ortadi. Sintezlangan uglevodlarning bir qismi oksidlanish-qaytarilish jarayonlariga sarflanadi va ATP sintezi bilan ta'minlanadi. Bunda

**hujayrada** anabolik jarayonlar borib, hujayraning bo'linishi yuzaga keladi. Biokimiyoviy jarayonlar hujayrada oqsillar va monosaxaridlar miqdorini ortishiga olib keladi. Bunda askorbin kislota miqdori kamayadi, sababi, oksidlanish-qaytarilish jarayonlari kuchayadi, ular qaytarilgan biogen birikmalarni sarflaydi. Shunday holat karam pishishi davrida ham kuzatiladi.

Sabzavotlarning pishish davrida lipidlar sintezi ro'y beradi, ularning asosini moy kislotalarining murakkab efirlari va yuqori molekulali bir atomli spirtlar tashkil qiladi. Bu birikmalar mumlar tarkibiga kiradi, ular mevalarni yupqa qavat bilan qoplaydi, so'lishidan va mikroorganizmlardan jarohatlanishdan saqlaydi.

Pishish davrida ferment sistemalarning faolligi ortadi, xususan glikoliz fermentlari, uch karbon kislotalar tsikli, piruvatdegidrogenaza kompleksi va pentozofosfat yo'lida kuzatish mumkin. Yuqorida qayd etilgan fermentativ reaksiyalarda har xil organik kislotalar (olma, qahrabo, limon, oksoloatsetat, pirouzum, sirka va boshqalar) hosil bo'lib, uning miqdori 0,2-1,3% quruq massasiga to'g'ri keladi.

Sabzavotlar pishish davrida organik kislotalarning umumiy miqdori to'xtovsiz ortadi. Ammo oxirgi bosqichlarida boshqa moddalar hosil bo'lishi hisobiga kamayadi, xususan uglevodlar ko'payadi. Bunda organik kislotalar mevaning o'rta qismida to'planib po'stida kamayadi.

Ferment sistemalarning faolligi mevalarning pishishi davrida mikroelementlarga bog'liq. Fosforga alohida e'tibor beriladi, ular biogen molekulalar tarkibida oksidlanish-fosforlanish va fotosintez jarayonlarida ishtirok etadi. O'simliklar organizmida P fosfat kislota va fosfat tuzlari tarkibiga kiradi. Magniy elementi esa xlorofill tarkibiga kirib, ATPfaza fermentlari ta'sirida ishtirok etadi. Ca elementi struktura hosil qilishda va oqsillarning funksional foniida hamda hujayra membranalari o'tkazuvchanligida ishtirok etadi. Temir, mis, molibden elementlari oksidoreduktazalar (katalaza, peroksidaza va boshqalar) ta'sirida ishtirok etadi.

Sabzavotlarning asosiy tarkibini suv tashkil qiladi. Suvning asosiy qismi vakuolada to'planadi va 90% ni tashkil qiladi. Sabzavotlar to'qimasida suvning to'planishi har xil qismlarida har xil miqdorda bo'ladi. Parenxima hujayralariga nisbatan qoplovchi to'qimalarda kamroq suv bo'ladi. To'qimalarning suvgaga to'yinganligi bo'yicha ular erkin va bog'langan suvlarga bo'linadi.

Suv biogen birikmalarda erituvchi vazifasini bajaradi, unda biokimyoviy reaksiyalar boradi. Suv reaksiya boruvchi jarayonlarni muhitini shakllantiradi. Undan tashqari gidrolazalar bilan boradigan fermentativ jarayonlarda ishtirok etadi. Bunda polimerlarning gidrolizi natijasida monomerlar (aminokislotalar, nukleotidlar, mono va oligosaxaridlar, glitserin va moy kislotalari) hosil bo'ladi.

Sabzavot ekinlarida biogen birikmalar miqdoriga iqlimiylar sharoitlar sug'orilishi va tuproqqa solinadigan o'g'itlar ta'sir etadi. Janubiy mintaqalarda yetishtirilgan sabzavotlar tarkibida uglevodlar miqdori ortadi, ayniqsa, saxaroza miqdori. Uning miqdori janubda yetishtirilgan pomidorlarda 1,5-2,0 % ga ortishi kuzatiladi. Pomidor va qalampirlarda vitamin S miqdori ko'payib, karam barglarida saxaroza va askorbin kislota miqdori kamayadi. Issiq harorat ta'sirida pomidor mevalari tarkibida saxaroza miqdori 1,5-2,5 marta ortadi. Bunday sharoitda sug'orish orqali uglevodlar miqdorini kamaytirib, hosildorlikni oshirishga erishiladi.

Piyoz barglari va mevasi biogen moddalarni to'plab, past haroratga chidamliligi ortadi. Ammo uning pishib yetilishi uchun uzun kun kerak bo'ladi, qisqa kunda piyoz yaxshi o'smaydi va urug' bermaydi. Piyozning o'sib rivojlanishiga namlik va o'g'it juda zarurdir. Tuproqqa azotli o'g'it berilganda hosildorlik ortadi, sabzavotlarga ortiqcha azot berilishi natijasida ularning tarkibidagi saxaroza va vitamin S miqdori kamayadi. Undan tashqari sabzavotlarda ortiqcha nitratlar to'planishi mahsulotning iste'molga yaroqsizligiga olib keladi. Nitratlar ko'proq sabzavotlarning

barglarida to'planadi. Masalan tuproqqa 400 kg/ga azotli o'g'it berilsa, pomidor tarkibidagi nitratlar miqdori 7 mg% dan 57 mg% gacha ortadi, lavlagi barglarida esa 5 mg% dan 240 mg% gacha ortadi, ismaloq bargida 30 mg% dan 3500 mg% gacha ortishi kuzatilgan. Shuning uchun bargli sabzavotlarni yetishtirishda azotli o'g'itlarni tuproqqa me'yorida solish kerak bo'ladi. Tuproqqa kaliyli va fosforli o'g'itlar solinganda sabzavotlarda saxaroza va askorbin kislota miqdori ko'payishi kuzatiladi va karam hosildorligi 1,5-1,8 barobar ortadi, pomidor mevalarida esa saxaroza miqdori 11% ko'payadi.

Mikroelementlardan molibden, sabzavotlarning sifatini yaxshilaydi, uning yetishmasligi esa uglevodlar, oqsillar miqdorini kamayishiga olib keladi. Mineral elementlar sabzavotlarni sifatini yaxshilash bilan birga uzoq muddat saqlashga yordam beradi.

#### **10.4. Sabzavotlarda nitratlar to'planishini pasaytiruvchi omillar**

Azot o'simliklardagi biogen molekulalar tarkibiga kirib, faqat qaytarilgan shaklda (aminokislotalar, azotli birikmalar, vitaminlar, kofaktorlar va boshqalar) bo'ladi. Bunda o'simliklarni o'rab turgan muhitda azot molekulyar shaklda va ionlar holida  $\text{NO}_3^-$  bo'lishi mumkin. Ko'pgina o'simliklar atmosferadagi molekulyar azotni o'zlashtira olmaydi, ammo azotobakter kabi turkumdag'i bakteriyalar uni o'zlashtirib tuproqqa beradi. Mikroorganizmlar yordamida ishlab chiqarilgan azot o'simliklar uchun yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun o'simliklarning normal o'sishi va rivojlanishi uchun tuproqqa hamisha azotli o'g'itlar berib turish darkor. Buni tuproqqa ortiqcha solinishi natijasida sabzavot mahsulotlari tarkibida nitratlar to'planib, inson salomatligiga salbiy ta'sir etadi. Nitratlarning yuqori konsentratsiyasi kantserogen bo'lib kasalliklarni rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Sabzavot ekinlaridan nitratlarni eng ko'p to'playdigan turlariga karam, qovoq va selderlar kiradi. Ulardagi nitratlar miqdori 600-3000mg/kg ho'l massasiga to'g'ri kelishi mumkin. Pomidor, shirin qalampir, baqlajon, sarimsoq mevalarida nitratlar miqdori 20-300 mg/kg gacha bo'ladi. Sabzavot organlari tarkibidagi nitratlarga kelsak, ularda asosan ildizda va poyada to'planadi, barg va gullarida esa qisman yig'iladi. Karam va selder, ukrop bargida ko'proq nitratlar uchraydi. Qovoqdoshlar oilasiga mansub o'simliklarda nitratlar miqdori meva bandidan yuqori qismiga qarab kamayadi.

Sabzavotlarda nitratlar to'planishi azotli o'g'itlarning tuproqqa berilishi me'yorlaridan kelib chiqadi. K va Ca ionlarining konsentratsiyasi muhitda ortishi va tuproqning Mo bilan ta'minlanishi yetarli bo'lmasligida nitratlar miqdori ortishi mumkin. Nitratlar miqdorini kamaytirishda kompleks tadbirlarni amalga oshirish kerak bo'ladi.

*Quyidagi selektsion – genetik tadbirlar amalgga oshiriladi:*

-sabzavotlarni tuproq azotini yuqori samarali foydalanuvchi navlarni topish va ishlab chiqish;

-o'simliklarning past darajada nitratlar tutuvchi va ularni metabolik sistemaga qo'shadigan, yuqori faollikka ega bo'lgan nitratreduktazalarga ega bo'lgan turlarni tanlash;

-nitratlarni yuqori assimilyatsiya qilish potensialiga ega bo'lgan navlarni joriy etish.

*Agrotexnik tadbirlarga quyidagilar kiradi:*

-hosildorlikni maksimaldan 5-10% kamaytirib o'g'itlar me'yorini ishlatish;

-amaliyotga sekin ta'sir etuvchi o'g'itlarni tatbiq qilish;

-polimer shakldagi o'g'itlarni qo'llash (mochevina va karbamus formaldegid birikmalar va kondensatlangan fosfatlar)

-nitrifikatsiya ingibitorlarini joriy qilish;

*Texnologik tadbirlar quyidagi usullarga asoslanadi:*

-sabzavot ekinlariga vaqtida azotli o'g'itlar berilishi;

-vegetatsiyaning har xil bosqichlarida o'g'itlar me'yorini qo'llash;  
-vegetativ qismlarning faol o'sishida o'g'itlarni me'yorini boshqarish;

-hosilni optimal muddatda yig'ishni aniqlash.

Nitratlarni yuqori miqdorda bo'lishiga sabab ko'pincha sabzavotlarni yetishtirish texnologiyalariga amal qilmaslik natijasida ro'y beradi.

## **10.5. Sabzavotlarni saqlashdagi biokimyoviy o'zgarishlar**

Sabzavotlarni yig'ib olingandan so'ng ko'pgina qismi saqlashga qo'yiladi. Bu davrda ozuqa moddalari meva qismiga tushmaydi, ammo hujayralarda faol nafas olish va biogen birikmalar metabolizmi boradi. Sabzavotlarning ozuqaviyligi namlik, harorat va saqlash xonalarining havosi gaz tarkibi hamda infeksiya va zararkunandalarning mavjudligiga bog'liq bo'ladi.

Sabzavotlarni saqlash davomida to'xtovsiz biokimyoviy va fiziologik jarayonlar borib, ulardan asosiysi nafas olish jarayonidir. O'simlik hujayralari va to'qimalarining faol nafas olishi hayotiyligidan dalolat beradi. Nafas olish jarayoniga harorat bevosita ta'sir etadi. Past harorat mitoxondriyalarning nafas olish faoliyatini susaytiradi. Undan tashqari o'simlik hujayralarining faol bo'linishi to'xtaydi. O'simlik hujayralariga erkin radikallar reaksiyalari xavfli bo'lib, ular asosan ortiqcha kislород hisobiga, uning nafas olish jarayonida sarflanmaganligidadir. Bunday sharoitda sabzavotlarning ozuqaviy qiymati saqlanib qolishiga sabab, hujayra va to'qimalarning buzilmasligi jarayonlar tezligining pasayishidadir. 1 kg karam optimal sharoitda saqlanganda 1 soat davomida 4-6 mg CO<sub>2</sub> ajratadi, sabzi-3-5 mg, piyoz-3-4 mg, lavlagi-2-4 mg CO<sub>2</sub> ajratadi. Muhit harorati ortishi bilan sabzavotlarning nafas olishini kuchayishi va CO<sub>2</sub> miqdorini ortishi bilan boradi. CO<sub>2</sub> ning yuqori konsentratsiyasi sabzavotlarni o'z-o'zidan qizishiga olib kelib, parchalanish jarayonlarini tezlashtiradi va mikro-

organizmlarni rivojlanishiga yordam beradi. Shuning uchun bu jarayonlarni oldini olish maqsadida harorat va namlikni optimallashtiriladi, xonalarni shamollatib yoki havoni almashtirib turiladi. Karam va ildizmevalar  $0+2^{\circ}\text{C}$  haroratda saqlanadi va havoning nisbiy namligi 90-95% bolishi shart. Piyoz donalari  $8-10^{\circ}\text{C}$ , namlik 60-70%, sarimsoq  $+1-3^{\circ}\text{C}$ da namlik 65-75% da yaxshi saqlanadi.

Saqlash davomida sabzavotlar (ildizmevalar) tarkibidagi antioksidantlarning xususan askorbin kislota miqdorini o'zgarishi bilan boradi. Natijada ildizmevalarda lipidlarning peroksid oksidlanishi ro'y berib, kutikulyar lipidlarning o'zgarishiga olib keladi. Undan tashqari sabzavotlarni saqlash davomida to'qimalarda etil spirti to'planishi hamda mono va oligosaxaridlarning parchalanishi kuzatiladi. Bunda sabzavotlarda organik kislotalar miqdori ko'payadi. Bu o'zgarishlar sabzavotlarning ozuqaviy qiymatini pasaytirib, ta'mi, sifatini yomonlashtiradi.

Sabzavotlarni saqlashda asosiy muammo – suvni yo'qotish bolsa unda massasini kamayishi, mahsulotning tovar ko'rinishining yo'qolishi va sifat ko'rsatkichlari o'zgarishidan iborat boladi. To'qimalarning turgor holati pasayib, hujayralar buzila boshlaydi va ular tarkibi mikroorganizmlar uchun o'ziga jalb etuvchi bo'lib qoladi. Mikroorganizmlar faoliyati natijasida har xil mahsulotlar to'planadi. Natijada pH ko'rsatkichi kislotalilik tarafga siljib, har xil organik kislotalar to'planishi evaziga (sirka, sut kislota, propion kislota va boshqalar) oqsillar gidrolizi, nuklein kislotalar va uglevodlar parchalanishi kuzatiladi. Kislotali muhitda oqsillar denaturatsiyasi gidrolazalar faollashishi va murakkab lipidlar parchalanishiga olib keladi. Muhitda moy kislotalari to'planishi kuzatilib, ular faol kislород shakllari bilan oksidlanadi. So'ngra lipidlarning peroksid oksidlanishi jarayoni boshlanadi va biogen molekulalar va membrana strukturalari buziladi. Natijada membranalarning o'tkazuvchanligi o'zgarib, ionlar disbalansi

(muvozanat buzilishi) kuzatiladi. Buzilish jarayonlarida hujayralar va organoidlar ham ishtirok etadi. Ion potentsiali o'zgarib hujayrada degradatsiya (parchalanish) jarayonlari tezlashadi. Metabolizm jarayonlarining birligi va sinxronligi buzilib katabolizm jarayonlari yuzaga keladi.

Muhitda parchalanish mahsulotlari aminokislotalar, azot asoslari, uglevodlar va boshqa biogen birikmalar to'planishi mumkin. Ammiak, CO<sub>2</sub> va organik kislotalar miqdori ortadi. Bunda sabzavotlarda chirigan hid berib, ularning ozuqaviy qiymati va texnologik xususiyatlari pasayadi.

#### **10.6. Sabzavotlarni konservalashning fizik-kimyoviy usullari**

Sabzavotlarni konservalash – ularni saqlashning eng ko'p qo'llaniladigan usuldir. Bu jarayonda ham fizik, ham kimyoviy usullar qo'llaniladi. Konservalashning asosiy shartlaridan biri biogen birikmalarni ayniqsa harorat va kislorod ta'sirida tez buziladigan mahsulotlarni maksimal miqdorda saqlashdan iborat. Past harorat fermentlar faolligini pasaytiradi va hujayralarning nafas olishini susaytiradi ammo ushbu sharoitda ko'pgina bakteriya va zamburug'larning hayot faolligi davom etadi. 70°C dan yuqori va 0°C past haroratlar hujayra strukturalarini butunligini buzadi. Yuqori harorat oqsillarning denaturatsiyasiga, oqsil-lipid komplekslari va nuklein kislotalarni buzilishiga olib keladi. Ko'pgina fermentlar denaturatsiyaga uchrab, o'zining katalitik faolligini yo'qotadi. Sabzavotlarga uzoq muddat issiq bilan ishlov berilsa, ularning tabiiy xususiyatlari yo'qolib, holati, rangi, ta'mi va xushbo'yligi o'zgaradi. Undan tashqari tez qizdirilganda va harorat orttirilsa, mahsulot sterilizatsiyasi ferment aktivligi yo'qolmasidan boshlanadi. Natijada ferment faolligini to'liq yo'qotib saqlash davomida qayta aktivylanadi va mahsulotni buzilishiga sabab bo'ladi. Peroksidaza faolligi o'rganilganda shunday o'zgarishlar

kuzatilgan. Masalan, yuqori harorat ta'sirida har xil ildizmevalardagi to'qimalarda ferment faolligi 0 ga teng bo'lgan. Ammo saqlash davomida ferment faolligi tiklanishi mumkin bo'lgan, sababi peroksidaza fermenti yuqori termostabil fermentlar guruhiiga kirishi bo'lsa kerak. Peroksidazaning stabilligi oqsillar va  $\text{Ca}^{2+}$  lari ishtirokida ortadi.

Muzlatish usuli qo'llanilganda  $-50^{\circ}\text{C}$  va so'ngra  $-18^{\circ}\text{C}$  da saqlanganda mahsulotning rangi o'zgarishi mumkin. Bu jarayonni defrostatsiya deyiladi. Bunda ko'pgina sabzavotlar o'zlarining birlamchi ranglarini yo'qotadilar sababi oksidazalarning ta'sirida ular strukturasi buzilgan hujayralarda fermentlar bilan qattiq bog'langan bo'ladi. Ajralgan oksidazalar kislorod ishtirokida muhitda fenol birikmalarni oksidlanish reaksiyalarini tezlashtiradi. Natijada mahsulotning rangi o'zgaradi, ko'proq qorayadi. Gidrolazalarning lizosomalardan ajralishi natijasida biopolimerlar gidrolizi reaksiyalari boradi va ta'mi ham o'zgaradi. Harorat ta'sirida buzilgan to'qimalarda boshqarib bo'lmaydigan jarayonlar borib, mahsulotning oziqaviy qiymati yomonlashishi va sifatiga salbiy ta'sir etadi.

Konservalashni kimyoviy usullar yordamida amalga oshirsa bo'ladi, mahsulotni atrof-muhitdan ajratib olib, ulardagи bakteriya va sporalarni qirib tashlab, mikroorganizmlarni rivojlanishini yo'qotib, metabolik jarayonlarning faolligini to'sib yoki ularning membranalarini buzish orqali amalga oshiriladi. Bunda konservalangan mahsulot yuqori harorat va quyosh nuri ta'siridan himoyalangan bo'lishi shart. Undan tashqari konservalanuvchi mahsulotlar parchalanish jarayonlarini to'xtatadi hamda hujayrada metabolik jarayonlarning faolligini susaytiradi.

Konservantlar 2 guruhga bo'linadi: biogen va abiogen. Biogen konservantlar guruhiiga biologik tizimda sintezlanadigan moddalar kiradi, metabolik jarayonlarda ishtirok etadilar va organizmning ferment tizimi orqali tashqariga chiqariladi. Fermentlarning tarkibi

ularning tabiatи va organizmdagi funktsiyalari bilan ifodalanadi. Abiogen konservantlar biologik sistemalarda sintezlanmaydi. Ularning metabolizmi organizmlarda borib, ammo hosil bo'ladi gan mahsulotlari zaharli bo'lishi mumkin. Ba'zi abiogen birikmalar organizmda to'planadi va intoksikatsiya (zaharlanish)ni chaqiradi. Bunday birikmalarni konservalash uchun ishlatishda ehtiyoj bo'lish kerak. Biogen tabiatli konservant moddalar, tirik organizm hujayralarida oson o'zlashtirilib chiqarilib tashlanadi. Bunda konservant ozuqaviy qo'shimcha sifatida ishlatiladi. Undan tashqari konservant suvda oson erib, mahsulot yuzasida oson so'rilib ketishi kerak, uning ta'sirini suvli muhitda neytrallash imkonи bo'ladi.

Konservant ta'sirining asosida mikroflora rivojlanishini to'xtatish, bevosita zahar hosil qiluvchi shakllariga ta'sir etishdan iborat bo'ladi. Konservant mahsulot ichiga oson kirib olib, uzoq muddatda mahsulotning organoleptik xossalariга (ta'mi, hidi, rangi) ta'sir yetmasligi shart bo'ladi. Undan tashqari ishlatilishi oson, arzon, oziq-ovqat mahsulotlarda qo'llashga ruxsati bo'lishi, tozalangan holda ishlatilishi va sifati xalqaro me'yorlarga mos bo'lishi kerak.

Ishlatilishi oldidan konservantlar genotoksiklikka tekshirilgan bo'lishi kerak, ya'ni naslga salbiy ta'sir ko'rsatishi mutatsiyalarni hosil qilishi mumkin emas. Ular DNK bilan bog'lanib, gen apparatini strukturasi va funksiyalarini buzishga olib keladi. Konservantning kantserogenlik xususiyatiga alohida ahamiyat beriladi. Bu jarayonlarni boshlovchilari bo'lib genotoksik ta'siriga ega bo'lgan moddalar keltirib chiqaradi. Bularga formaldegid, fenol, nitratlar va boshqalar kiradi. Konservantlarning ta'siri asosan hujayra qobig'i va membranalarining butunligini buzishga yo'naltiriladi. Konservalashda bir qancha konservantlarni ishlatish yoki konservantlarning ta'sirini fizik usullar yordamiga almashtirish (qizdirish, sovutish, nurlatish, bosimlash, quritish va boshqa usullar)dan foydalaniladi.

Konservant sifatida qo'shimcha ozuqa substrati ishlatish mumkin. Bu masala juda ehtiyyotkorlik talab etadi. Ko'pincha konservant sifatida organik kislotalar (sirka, propion, sut, limon va boshqa kislotalar) ishlatiladi. Ammo ularning miqdori tirik organizmlarda juda oz bo'ladi. Konservalash uchun ularning miqdori ko'p ishlatilishi mumkin. Organizmda kislotali muhit yaratilib kislotali denaturatsiya jarayonlarini xususan fermentlarning denaturatsiyasi yuzaga keltirib biologik membranalarning butunligini buzadi. Bu o'z navbatida organizmdagi modda almashinuv jarayonlarini buzilishiga olib kelishi mumkin.

## **XI BOB. HO'L VA REZAVOR MEVALAR BIOKIMYOSI**

### **11.1. Ho'l va rezavor mevalar, ularning biokimyoviy tarkibi**

Ho'l va rezavor mevalar – o'zlarida kompleks biogen birikmalar to'playdilar va ular tarkibida uglevodlar, organik kislotalar, vitaminlar, oshlovchi va aromatik birikmalar tutadilar. Ho'l va rezavor mevalarning kimyoviy tarkibi xilma-xil bo'lib, ularda uglevodlar ko'proq qismni tashkil etadi. Mevalar tarkibida 80-85% suv bo'ladi. Mevalarning asosiy komponentlari uglevodlardan glyukoza, fruktoza va saxaroza tutadi. Mono va oligosaxaridlarning umumiyligi miqdori mevalarda 0,5-28% ho'l massasiga to'g'ri keladi. Tsitrus mevalarda kam miqdorda uglevodlar uchraydi: limonda 2,5%, apelsinda 7%, mandarinda 8% ho'l massasiga to'g'ri keldi. Smorodinada 9% dan ko'proq, uzum mevasida 14-28 %, qulupnayda 12-24%, olmada 5-20%, nokda 7-14% atrofida uglevodlar bo'ladi.

Mono- va oligosaxaridlar miqdori mevalarda o'zgarib turadi. Ho'l rezavor mevalarda uglevodlar miqdori meva turi, navi, etishtirish sharoiti va joyiga bog'liq bo'ladi. Fruktoza miqdori ko'proq olma, nok, behi va uzum mevalarida uchrasa, saxaroza miqdori ko'proq o'riklarda, shaftolida, olxo'ri va olchada ko'rilgan. Pishmagan mevalarda kraxmal miqdori olma va nokda 4-6% ga etadi, so'ngra pishishi davomida kraxmal parchalanib, mono va oligosaxaridlar hosil qiladi.

Bananning ko'k pishmagan mevalarida kraxmal miqdori 15-20% ga etadi. Ko'pgina mevalarda sellyuloza miqdori 0,5-2,0% atrofida bo'ladi. Malina va na'matak mevalarida sellyuloza miqdori 6-20%gacha yetishi mumkin.

Pektin moddalar hamma mevalarda mavjud bo'lib, uning miqdori 0,3-0,5% bo'ladi. Ammo ba'zi mevalar o'z tarkibida pektin moddalar to'playdi. masalan, apelsin mevasi po'stida va limon mevasi po'stida 4,7-7,0%, smorodinada - 1,5% bo'ladi.

Ho'l va rezavor mevalar tarkibida ma'lum miqdorda organik kislotalar to'planishi mumkin. Masalan, olma tarkibida olma kislota miqdori 0,3-0,4%, zirk tarkibida 6% atrofida bo'ladi. Limon kislotosi malinada, smorodinada, qulupnayda, va tsitrus o'simliklarida ko'p bo'ladi. Limon mevasida 6-7%, mandarinda 1,0, apelsinda 1,5% atrofida bo'ladi. Uzum mevasida vino kislotosi to'planib, uning miqdori 0,02-0,04% ga yetadi hamda kaliyli, natriyli tuzlari sifatida 0,45% gacha yig'iladi. Oksalat kislota mevalarda ko'pincha kaliyli va kalsiyli tuzlar holida uchraydi. Malina mevasida - 0,05%, smorodinada 0,03%, nokda - 0,02% oksalat kislota tuzlari holida bo'ladi. Yantar kislota asosan olcha, olma, gilos, uzumlarning pishmagan mevalari tarkibida uchraydi.

### 11.1-jadval

#### **Ho'l va rezavor mevalarning biokimyoiy tarkibi**

| Nº | O'simlik turi     | Mono-oligo-saxaridlar | Organik kislotalar | Umumiy azot | Pektin moddalar | Selyulloza | Kul     | Vitamin C mg% |
|----|-------------------|-----------------------|--------------------|-------------|-----------------|------------|---------|---------------|
| 1  | Olma navlari      | 9-15                  | 0,-0,8             | 0,05-0,08   | 1,0-1,2         | 1,0-1,2    | 0,4-0,6 | 15-17         |
| 2  | Nok navlari       | 10-17                 | 0,2-0,4            | 0,05-0,08   | 1,0-1,2         | 0,8-1,0    | 0,4-0,6 | 15-17         |
| 3  | Olcha navlari     | 9-11                  | 1,6-1,8            | 0,15-0,17   | 0,3-0,5         | 0,5-0,7    | 0,6-0,8 | 6-8           |
| 4  | Uzum navlari      | 18-20                 | 0,7-0,9            | 0,1-0,2     | 0,8-0,9         | 0,5-0,6    | 0,6-0,8 | 50-60         |
| 5  | Qulupnay navlari  | 18-20                 | 0,2-1,4            | 0,2-0,4     | 1,0-1,2         | 1,2-1,4    | 0,5-0,7 | 50-60         |
| 6  | Smorodina navlari | 9-10                  | 2,5-3,0            | 0,2-0,4     | 1,5-1,7         | 2,0-2,2    | 0,5-0,6 | 200-220       |
| 7  | Apelsin           | 7-8                   | 1,4-1,6            | 0,15-0,2    | 0,8-1,0         | 2,0-2,2    | 0,7-0,8 | 65-70         |
| 8  | Limon             | 2,5-3,5               | 5,8-6,0            | 0,15-0,2    | 1,0-1,2         | 2,0-2,2    | 0,6-0,7 | 55-60         |

Mevalar vitaminlarning asosiy manbai hisoblanadi. Eng ko'p miqdorda vitamin C qoraq'at va na'matakda to'planadi – 300 mg dan 4000 mg% gacha etadi. Undan tashqari vitamin S quyidagi mg% miqdorda boshqa mevalarda bo'ladi: uzum mevasida - 3,0 mg%, apelsinda 40,0 mg%, ananasda 40,0 mg%, behida – 18 mg%,


bananda - 11 mg%, o'rikda - 9,0mg%, olchada - 15 mg%, qulupnayda - 60mg%, limonda - 40,0 mg%, malinada - 30 mg%, mandarinda - 30 mg%, shaftolida - 10 mg%, olxo'rida - 5,0 mg%, olmada - 7,0 mg% atrofida bo'ladi.

Vitamin P qora smorodina mevasida, sitruslilar va olmada to'planadi. Fol kislotasi mevalarda quyidagi miqdorda: tarvuzda - 0,5 mkg/g, qovunda - 0,5 mkg/g, olmada - 1,4 mkg/g, limonda - 2,5 mkg/g, uzumda - 1,0mkg/g, o'rikda - 1,3mkg/g, na'matakda - 1,4 mkg/g. Mevalarda azotli moddalar juda oz miqdorda uchraydi - 0,006-0,3%. Bundan yarmiga yaqin azotli birikmalarni oqsillar hosil qiladi.

Mevalar tarkibida hamma zaruriy aminokislotalar uchraydi. Mevalar tarkibida oshlovchi moddalar chegaralangan miqdorda uchraydi. Nokda - 0,03-0,05%, olmada - 0,08-0,13%, olchada - 0,03-0,08%, behida - 0,12-0,36% atrofida bo'ladi.

### **11.2. Mevalarning tuzilishi va ularda kimyoviy moddalarning taqsimlanishi**

Mevalarning asosini mevaning go'sht qismi tashkil qiladi, u po'st qismi va urug' qismini o'z ichiga oladi. Mevalarda kul elementlari 0,3-0,8 % atrofida bo'ladi. Ular asosan po'st qismida to'planadi. Mandarin po'sti 0,87% kul elementlari tutadi, go'shtdor qismida 0,45% atrofida bo'ladi. Temir elementi uzumda, qulupnay, olma mevalarida to'planadi. Mevalarning hidi va ta'mi ular tarkibidagi efir moylariga bog'liq bo'ladi. Masalan, sitrus mevalarida asosan po'stida kuzatiladi. Olmalarda efir moylari 0,07-0,1% atrofida, shaftolida 0,001% ho'l massasi hisobida bo'ladi. Sitrus o'simliklari mevasi tarkibida efir birikmalaridan spirt linalol holida uchraydi.



Apelsin po'stida efir birikmalar miqdori 1,2-2,1%, limonda 1,5-2,0%, mandarinda 1,9-2,5% atrofida bo'ladi. Apelsin moyi tarkibida limonen, tsitral, linalol hamda moy va kapron kislotalar efirlari aniqlangan. Limon moyida limonen miqdori 90%, tsitral 3,5 % ni tashkil qiladi. Mandarin moyida asosan limonen bo'lib, uning hidi antranil kislotaning metilli efiri hisobiga tarqaladi. Sitrus moylar asosan parfyumeriya va oziq-ovqat sanoatida ishlatiladi.

### **11.3. Pishayotgan mevalardagi biokimyoviy jarayon**

Pishayotgan mevalarda biokimyoviy jarayonlar bo'lib, kletchatka va pektin to'planishi ta'minlaydi. Protepektin fermentlar ishtirokida eruvchan pektin moddalarigacha parchalanadi, bunda kletchatka va gemitsellyuloza esa qisman gidrolizlanadi. Gidroliz jarayoni gidrolaza fermentlari faolligi ortishi bilan boradi. Bu vaqtda mevalarda mono- va oligosaxaridlar xususan glyukoza, fruktoza va saxarozalar miqdori ortishi kuzatiladi.

Mevalarda glyukoza manbai bo'lib kraxmal hisoblanadi. Uning miqdori mevalar pishishi davomida kamayib boradi. Monosaxaridlarning bir qismi saxaroza sintezida ishtirok etadi.

Taninlar gidrolizi natijasida mevalarning mayin ta'mi yo'qoladi. Uchuvchan moddalarning tarkibi va miqdori o'zgarishi mevaning ta'mi va hidini shakllantiradi. Mevalarda katabolik jarayonlarning kuchayishi organik kislotalarning to'planishi bilan tasdiqlanib, ular uglevodlarning oksidlanish mahsulotlari ekanligidan dalolat beradi. Mevalar pishib yetilishi bilan ularning ustki qavatlarida pigmentlar karotinoidlar to'planib, ular xloroplastlarda fotosintez jarayonida ishtirok etadilar. Xlorofillning ortiqcha miqdori tufayli mevaning ustki qavati yashil rangga kiradi. Pishish davomida xlorofill parchalanib, mevalar karotinoidlar hisobiga rangga kiradi.

Pishish davrida mevalar suv mineral va boshqaruvchi moddalarga muhtoj bo'ladi. Boshqaruvchi moddalar yuqori

konsentratsiyada etilen hosil qiladi, va o'sish jarayonlarini tormozlaydi. Etilen mevalarning pishishini tezlashtiruvchi birikmalar qatoriga kiradi. Etilenning ta'sirida meva perikarpiyasi etiladi, hamda xlorofill parchalanishi kuzatiladi, yashil mevalar rangga kiradi.

Yosh mevalarda auksinlar ko'proq bo'lib, etilen kam bo'ladi. Mevalar pishishida auksinlar miqdori kamayib, etilen ko'payadi.

Etilen hosil bo'lishida metionin ishtirok etadi, fermentativ reaksiyalarda aminotsiklopropangarbon kislota (ATsK), etilenning dastlabki shakli yuzaga keladi. ATsK-sintetaza fermenti pishish davomida faolligi ortib ,auksinlar yordamida boshqariladi. Nafas olish jadalligini murakkab birikmalarni oddiylargacha parchalanishini etilen boshqaradi. Shu bilan bir qatorda pektinni parchalanishida ham hidi va ta'mi o'zgarishi mumkin. Etilen hujayralarning o'sishini, cho'zilish fazasini tormozlaydi, poya o'sishini sekinlashtiradi, barglarni va mevalarni to'kilishini tezlashtiradi. Etilenli kameralarga mevalarni joylashtirilsa ularning pishishi tezlashadi. Shuning uchun etilen mevalarni pishishini tezlashtirishda (olma, nok, behi, o'rik, shaftoli va boshqalar) keng ko'lamda qo'llaniladi. Ekzogen ta'sir etib ham mevalarning pishishini tezlashtirish mumkin. Boshlang'ich bosqichlarda pishishni tezlashtirish uchun olmalarda karboril preparati qo'llaniladi,gul kurtaklari hosil bo'lishini stabilashtirish uchun etifen tavsiya qilinadi. Olmalarning to'kilishiga qarshi o'sish regulyatorlari (a- naftilsirka kislota yoki uning amidi, naftil, sirka kislotasining kaliyli tuzlari) qo'llaniladi. Meva uzilishi qiyin bo'lgan taqdirda ftordimeks qo'llaniladi.

#### **11.4. Mevalar pishishida organik kislotalar almashinuvni**

Organik kislotalar qatoriga tarkibida bir yoki bir nechta karboksil (-COOH) guruh tutgan birikmalar kiradi, ular oqsidlanish qaytarilish jarayonlarida  $H^+$  ning donori bo'lib xizmat qiladi.

Ko'pgina organik kislotalar o'z tarkibida qo'shimcha funksional guruhlar (-OH, NH<sub>2</sub>-SH va boshqalarni) tutadi. Masalan pishayotgan olmalarda quyidagi organik kislotalar to'planadi: olma, yantar, limon, α-ketoglyutorat oksoloatsetat, pirouzum, sirka kislotalar. Kislotalar asosan uch karbon kislotalar siklida hamda glikoliz jarayonida hosil bo'ladi. Mevalarda nordon tam bo'lishiga sabab ularda organik kislotalar to'planishidir. Efirlar bilan birikib organik kislotalar ko'pgina mevalarning xushbo'y hidini yuzaga keltiradi. Chumoli kislotsasi metil efiri va moy kislotsasi metil efiri olmalarga xushbo'y hid beradi.

Olma mevalarida olma kislotsasi miqdori - 70% ga o'tadi, limon kislotalarda esa - 20%ga, qahrabo kislota - 7% va 3% qolgan kislotalar tashkil etadi. Sitrus mevalarda ko'proq limon kislota, uzumda vino va olma kislotsasi bo'ladi.

Organik kislotalar mevalarda notekis taqsimlangan. Masalan meva etida limon kislota - 5,3-5,9%, po'stida - 0,26-0,32% urug'ida - 0,1% uchraydi. Organik kislotalar miqdori mevalar o'sishi davrida ko'payib, so'ngra pishish davrida kamayib uglevodlar miqdori ortishi kuzatiladi.

Pishish davrida mevalarda har xil biokimyoviy jarayonlar borib meva massasini ortishi bilan boradi, bunda boshlang'ich bosqichlarda to'plangan biogen birikmalar keyinchalik plastik va energetik moddalar sifatida ishlatiladi. Biogen birikmalar metabolik jarayonlarda organellalarning membrana strukturalarini hamda hujayra strukturalarini hosil qiladilar. Undan tashqari organik kislotalar aminokislotalar sintezi reaksiyalarida o'z navbatida oqsillar biosintezi va azotli birikmalar sintezida ishlatiladi. Ular nuklein kislotalar tarkibiga kirib, hujayradagi metabolik jarayonlarni boshqarishda ishtiroq etadi.

Pishish davrida mevalarda hujayraning bo'linishi faol davom etadi, u DHK ning replikatsiyasiga bog'liq holda oqsillar biosintezi, uglevodlar va lipidlar katabolizmini amalga oshiradi. Organik kislotalarning to'planishi muhitning pH ko'rsatkichiga fermentativ

reaksiyalarga tasir ko'rsatadi. Hujayrada hamma anabolik jarayonlar ferment sistemalar yordamida katalizlanadilar, ularning faolligi va tarkibiga bog'liq holda biogen birikmalar to'planishi va almashinuvi kuzatiladi.

### **11.5. Omillar ta'sirida mevalarda tami, xushbo'yligi va oziqaviy xususiyatlari shakllanishi**

Mevalardagi biogen birikmalar tarkibi va miqdoriga iqlim sharoitlari, sug'orish va o'g'itlash ta'sir etadi. Mevalarning shirin tami va ozuqaviyligi ular tarkibidagi mono va oligosaxaridlarga bog'liq bo'ladi. Glyukoza va fruktoza hamma mevalarda mavjud, saxaroza esa ba'zilarda bo'lmaydi (uzum, qizil smorodina). Pistalilar mevasida fruktoza ko'proq kuzatiladi, danakkilarda esa glyukoza ko'proq bo'ladi. Bularidan istisno ravishda, olcha va gilos mevalari saxarozaga boydir.

Mevalarning kislotaliligi tarkibidagi organik kislotalarga bog'liq. Nordon tami xlorid kislotaning 1,1 mm konsentratsiyasida olma kislotasi - 0,82, sirka - 2,2, limon kislotasi - 0,7mm bo'ladi. Olma kislotasi hamma mevalarda bo'ladi, faqat sitrus mevalarda bo'lmaydi. Tarkibidagi olma kislotasi mevalarga xushbo'y yoqimli nordon ta'm beradi. Limon kislota ham shunday xususiyatga ega.

Organik kislotalar shimolda yetishtirilgan mevalarda janubdagilarga nisbatan ko'p to'planadi. Undan tashqari azotli fosforli – kaliyli mineral o'g'itlar ta'sirida organik kislotalar miqdori kamayadi.

Mevalarning hushbo'yligi ular tarkibidagi efir moylariga bog'liq, ushbu moylar tarkibiga atsetaldegid, amilspirtining, chumoli, sirka, kapron kislotalari bilan hosil qilgan murakkab efiri kiradi.

Mevalarning ta'mi va sifatiga organik kislotalarning va qandlarning nisbati tasir etadi. Undan tashqari askorbin kislotasi miqdori mevalarning ta'miga ta'sir qo'rsatadi. Hamma mevalar vitamin S manbai hisoblansada, ammo bu vitaminning miqdori bir-biridan farqlanadi. Mevalardagi askorbin kislota miqdoriga o'simlikning turi va navi, mevaning pishish darajasi, yetishtirish sharoiti ta'sir etadi. Masalan bir turdag'i olma mevalari tarkibida shimolda yetishtirganlarda janubda yetishtirilganlariga nisbatan

askorbin kislota miqdori ko'p bo'ladi. Kechki navlar o'zlarida ko'proq vitamin to'plasa, ertagi navlar esa kamroq vitamin to'playdi.

Janubda yetishtirilgan mevalar o'z tarkibida ko'proq mono- va oligosaxaridlar va kletchatka to'playdi. Ammo kamroq organik kislotalar yig'adilar, shimoldagi esa aksincha ko'proq organik kislotalar va kamroq uglevodlar to'playdi.

Undan tashqari mevalardagi uglevodlarning sifati va miqdoriga xarorat va muxit namligi ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yuqori harorat va kam yog'ingarchilik sharoitida mevalarda saxaroza va monosaxaridlar miqdori ortib, mevalarning hosildorligi kamayishi mumkin. Hosildorlikni oshirishda fosfor-kaliyli o'g'itlarni qo'llash ahamiyatli hisoblanadi.

Mevalarni uzib olgandan so'ng, element sintezini to'xtatish samarasi yo'qolib, pishayotgan mevalarda element ishlab chiqarila boshlanadi. Bananlarning pishmagan mevalarda etilen miqdori ko'p bo'ladi, lekin mevalar unga sezgir bo'lmaydilar. Ammo mevalar pishish davrida etilenga sezgirligi ortib, tezda yetilishi kuzatiladi. Qovunlarda ham xuddi shunday, pishish davrida etilen hosil bo'lishi kam bo'lib, uzilgandan so'ng etilen sintezi kuchayadi.

Undan tashqari mevalarni saqlash jarayonida ularda katabolik jarayonlari faollashib, hujayraning boshqarishga bog'liq bo'lмаган xolda o'z-o'zidan boradi. Bu jarayon biogen birikmalarni to'satdan parchalanishiga olib keladi. Tezpishar mevalarda organik kislotalar miqdori pasayib ular har xil metabolik jarayonlarga tortiladilar. Mevalarning har xil qismlaridagi biokimyoiy jarayonlar borishiga pH ko'rsatkichi ta'sir etadi, hujayradagi fermentativ reaksiyalarni yo'nalishi va tezligini oshiradi.

Masalan, olmalarni saqlash vaqtida pH ko'rsatkichi ishqoriy muhitga siljiydi, qo'ng'ir tusga kirgan olmalarda esa pH ko'rsatkichi 1,0-1,5 birlik ishqoriy muhitga siljiydi, saqlashga nisbatan. Olmalarning qorayishi mevalarning ayrim qismlarida ko'rinish, pH ko'rsatkichni past bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Mevalarni saqlash davrida uglevodlar tarkibi ham o'zgaradi, masalan kraxmal va boshqa polisaxaridlar (pektin moddalar, gemitselyuloza, tselyuloza) gidrolizlanib, eruvchan qandlarni hosil qiladilar. Umumiy kandlar miqdori nafas olishga sarflanib kamayadi, bunda saxaroza bilan monosaxaridlar nisbati o'zgarib, ko'proq fruktoza hosil bo'ladi.

Mevalarni saqlash davomida asosiy biogen birikmalar parchalanishi natijasida etanol va atsetaldegid hosil bo'ladi. Pirouzum kislotasining dekarboksillanish reaksiyasi natijasida fruktoza to'planadi, etanol esa sut kislotasining dekarboksillanishidan hosil bo'ladi. Etanol hujayralarining energetik substrati bo'lib ximat qiladi, lipidlarning peroksidlanish jadalligini boshqaradi hamda hujayra membranalarining o'tkazuvchanligida ishtiroq etadi. Atsetaldegid kimyoviy faol birikma bo'lib, oqsil molekulasi dagi amino, oksi- va sulfigidril guruhlarini modifikatsiyaga uchratib, ularning biologik aktivligini o'zgartiradi.

Hujayradagi atsetaldegidlar ortishi terminal oksidlanishni tormozlaydi. Tizimdagagi etanol-atsetaldegid muvozanati akogoldejidrogenaza fermenti yordamida, masalan olmalarda etanolning boshlang'iya miqdori 2,3-4,7 mg% 6 oy saqlangandan so'ng ortib, 10,0-16,3 mg% ga etadi. Ammo CO<sub>2</sub> konsentratsiyasini saqlash davomida orttirish 5-8% ga va O<sub>2</sub> miqdorini kamaytirish 2-3% ga mevalarda anaerob jarayonlarni kuchaytirib, to'qimalarda etanol va atsetaldegid to'planishi natijasida zaxarli konsentratsiyaga olib kelishi mumkin.

Harorat fermentativ reaksiyalarni boshqarishga ta'sir etadi. Past haroratda saqlangan mevalar hujayralarida reaksiya tezligi pasayib, nafas olish faolligi ham pasayadi. Bunda aerob nafas olishdan ko'ra anaerob nafas olish kuchayadi. Bunday sharoitda ortiqcha kislorod aktiv shakllar generatsiyasiga sarflanadi, hujayra membranalarini shikastlaydi, lipidlarni oksidlaydi, oqsillarni, nuklein kislotalarni va boshqa biogen birikmalarni parchalaydi. Buning natijasida hujayrani boshqarish tizimi pasayadi, azotli asoslar oksidlanadi.

Pishayotgan mevalardagi suv miqdori 70-95% ni tashkil kiladi. Suv gidroliz reaksiyalarda ishtirok etib, erituvchi xisoblanadi. Suv hujayra strukturalarini va mevani butun saqlab turadi. Pishgandan sung mevaga suvning kirishi to'xtaydi va shu vaqtadan boshlab suvni bug'lanishi boshlanadi, bunda mevaning tashqi qobig'i va razmeri o'zgaradi. Bu jarayonlarning borish tezligi harorat va namlikga bog'liq bo'ladi. Suvning bug'lanish tezligi va kondensatsiyasi hujayradagi suvning kimyoviy potensiali va uning atrofidagi havo qavatining farqiga bog'liq bo'ladi.

Meva to'qimalarida suv teng taqsimlangan. Suvning ko'proq qismi parenxima to'qimalarida oz qismi qoplovchi tuqimalarda buladi. Masalan, mandarin po'stida o'rtacha 74.7% suv, etida 87.2% suv buladi. Mevalarning saqlash davomida yuzasidan faol bug'lanishi hujayradagi metabolik jarayonlarni normal borishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Suv bug'latilganda turgor holat pasayib, to'qimalarning so'lishi kuzatiladi.

Natijada biogen birikmalar parchalanishi tezlashib hujayrada nafas olish kuchayib metabolik jarayonlar balansi buzilib, mavalarning mikroflora bilan zararlanishiga olib keladi.

Mevalarni saqlash davomida suv buglatish hisobiga massasi kamayadi. O'rtacha mevalar massasini 2/3 kamayishi suvni bug'latishiga to'g'ri kelsa, qolgan qismi biogen birikmalarning buzulishi hisobiga bo'ladi. Bunday uzgarishlar mevalarni +2°C va +4°C da ro'y beradi. Yuqori haroratlarda saqlanganda mevalar nafas olishi kuchayib biogen birikmalar sarflanishi hisobiga massasi kamayadi. Umuman saqlash davomida mevalar biogen birikmalarni kam sarflab, asosan suv bug'latadi, shuning uchun saqlash yakunida mevalardagi quruq moddalar ulushi ortadi. Bunda kul elementlari miqdori o'zgarmaydi.

Mevalarni yaxshi saqlash maqsadida xonalarda mikroklimat yaratish zarur bo'ladi. Shuning uchun omborxonalarda yuqori havo namligi, past harorat va faol ventilyatsiyani (shamoliyatishni) ta'minlash kerak. Undan tashqari, mevalarni uzoq muddat saqlaganda har xil omillar (mexanik, fizik, kimyoiy va biologik) ta'sir ko'rsatadi. Mexanik ta'sir natijasida mevalar yuzasida buzilish ro'y berib, to'qimalarga mikroorganizmlarning kirishiga imkoniyat yaratadi. Fizik omillar ya'ni, past va yuqori harorat ultrabinafsha nurlar va boshqalar hujayra va organoidlarning buzulishiga olib keladi va muhitga fermentning chiqishiga yo'l ochiladi. Bu fermentlar oqsillar, nuklein kislotalar, uglevodlar va lipidlar barchalanish reaksiyalarini katalizlaydi. Natijada, katabalik jarayonlar tezligi ortib, parchalanish mahsulotlari to'planadi. Bunday muhitda kislorod faol shaklga o'tadi ( $O_2$ ,  $H_2O_2$ , OH, HOCl). Mevalarda erkin radikallarning faol generatsiyasi ularga ultrabinafsha nurlari ta'sirida amalga oshiriladi. Hujayralarda kislorodning faol shakli to'planishi transkripsiya va replikatsiya jarayonlarini buzilishiga olib keladi va membranalarning lipidlar tarkibini o'zgartiradi. Superoksid radikallar oqsillarni

modifikatsiyalab DNK strukturasini buzadi, kofermentlar va boshqa funksional faol moddalarni parchalaydi. Erkin radikallar lipidlarning oksidlanish reaksiyalarida ishtirok etadi, lipidlarning peroksid oksidlanish darajasini kutarishga yordam beradi, bunda mahsulotning ta'mi, sifati yo'qoladi. Ushbu sharoitda reaksiyalar oksidereduktazalar ishtirokida faol boradi. Masalan, peroksidazaning faolligi buzilgan to'qimalarda 3-5 marta ortadi. Ferment kislород hamda vodorod peroksid ishtirokida organik va anorganik birikmalarning oksidlanish reaksiyalarini katalizlaydi. Peroksidaza har xil biologik faol birikmalarni (NAD, IUK, IMK, askorbin kislota, flavonoidlar) oksidlanish reaksiyalarini katalizlaydi. Hujayra membranalari buzilgandan so'ng oksidlanish reaksiyalarini hamma temir tutuvchi oqsillar va fermentlar katalizlab o'zlarining maxsuslik va tanlab ta'sir etish xususiyatlarini yo'qotadi.

Aromatik birikmalar oksidlanishi natijasida mahsulot rangi qorayadi. Oksidlanish reaksiyalarini ko'payishi bilan mevani shikastlangan qismida chirish jarayonlari yuz berib mevani buzulishiga olib keladi.

## **XII BOB. SUT VA SUT MAHSULOTLARI BIOKIMYOSI**

### **12.1. Sut va sut mahsulotlarining hosil bo'lishi**

Sut yuqori kaloriyalı ozuqa mahsulot bo'lib, hayvonlar laktotsitlarida sut bezlari qirralarda ishlab chiqariladi. Laktotsitlarning vazifasi organlarda maxsus moddalarni shakllantiradilar va ular sutning asosini hosil qilib, xususiyatlarini belgilaydi. Bunday strukturaliga kazein mitsellasi va moy donachalari kiradi. Strukturalangan noyob tuzilma bo'lib, ularning kimyoviy tarkibi va tuzilishi sut mahsulotlari ishlab chiqarish uchun yaratilgan texnologik yo'lni belgilaydi.

Sut biologik suyuqlik bo'lib, o'z tarkibida zarur komponentlar (vitamin, oqsil, lipid, uglevod, makro- va mikro elementlar va boshqa birikmalar) tutadi. Sutning sifati va miqdori, hayvonning turi va nasli, yoshi, laktatsiya bosqichi, oziqlanish sharoiti va salomatlik holatiga bog'liq.

Sut tarkibi hayvonlarni boqish ratsioni, hamda bu ratsionda asosan o'simliklar ishlatiladi. Shuning uchun sut tarkibida har xil moddalar bo'lib, ular o'simliklarda sintezlanadilar va ozuqa bilan hayvon organizmiga o'tadilar. Undan tashqari sut tarkibida biogen molekulalar mavjud bo'lib, ular hayvonlarning har xil organlari va to'qimalarda sintezlanib, qonga o'tadilar va qon orqali sut bezlariga olib boriladi. Ammo sut bezlari maxsus biogen molekulalarini sintezlaydigan joyi hisoblanadi. Biogen molekulalardan sut tarkibida uchraydiganlarini quyidagilarga ajratish mumkin: aminokislotalar, peptidlar, oksillar (oddiy va murakkab), azot asoslari (adenin, guanin, sitozin, timin, uratsil), nuklein kislotalar (PHK va DHK), uglevodlar (mono-, oligo-, polisaxaridlar), lipidlar (moy kislotalari, neytral lipidlar, fosfolipidlar, steroidlar), vitaminlar, gormonlar, biologik faol moddalar. Sutning asosiy tarkibiy qismlari bo'lib, plazma va oqsil lipid komplekslari hisoblanadi. Shunday qilib

sut o'z tarkibida inson uchun zarur bo'lgan oson hazm bo'ladigan shaklda ozuqa moddalar tutadi.

Sut bezlari maxsus organ bo'lib, hujayralarida oqsil sintezi boradi, noyob strukturaga egadirlar, uning oqsillari hech qayerda sintezlanmaydi. Bunday oqsillarga kazeinlar kiradi, ular bir qancha fraktsiyalardan iborat, tarkibi bo'yicha individual aminokislotalar qoldigi bilan birlamchi oqsil strukturasiga ega bo'ladi. Faqat sut bezlari hujayralarida sintezlanadigan asosiy oqsillar – kazeinlar,  $\beta$ -laktoglobulin,  $\alpha$ -laktoglobulin va laktozalardir. Laktotsidlarda sintezlanadigan lipidlar o'z tarkibi bo'yicha qon plazmasi va hayvonlar to'qimalaridagi lipidlardan farqlanadi. Laktotsidlarda disaxarid lakteza sintezlanadi uning tarkibiga 2 ta monosaxarid galaktoza va glyukoza kiradi. Ushbu 2 ta biogen birikmalar, sut hom ashyosini ikkilamchi qayta ishlash orqali olinadi va oziq ovqat, meditsina va texnik ehtiyojlarda ishlatiladi. Yog'sizlangan sut sut zardobini olish va sut homashyosini ikkilamchi qayta ishlash chiqindisiz ishlab chiqarishni imkoniyatini yaratadi. Yog'sizlangan sut tarkibida hamma oqsil, uglevod va mineralarni almashinuvini tutadi va 15% lipidlar ham bo'ladi. Sut zardobiga uglevod oqsil va mineral tuzlar kiradi. Yog'sizlangan sutning oqsil birikmalari kazeinning hamma fraktsiyalaridan (bo'lakchalaridan) iborat bo'lib, toza sut bilan bir xil bo'ladi.

Oqsil bo'lмаган azotli birikmalar erkin aminokislotalar, mochevina, siydik kislotosi, kreatin va purin asoslaridan tashkil topadi. Sut zardobida oqsil bo'lмаган azot tarkibi ko'proq bo'lib, oqsil gidrolizi mahsulotidir.

Ikkilamchi sut xom-ashyosining organik kislotalari asosan sut, limon va sirka kislotalaridan iboratdir. Ikkilamchi sut xom-ashyosining ozuqa qiymati xuddi sut singari yuqori kaloriyaga egaligi, oson o'zlashtirilishi, ozuqa moddalarning optimal nisbati, biologik va fiziologik to'yimliliqi bilan harakterlanadi.

Sut texnologik mahsulotlar qatoriga kiradi. Undan smetana, kefir, suzma, va boshqalar olinadi. Sut bijg'ish mahsulotlari

tarkibida asosiy ozuqa moddalarni tutadi, tarkibi yaxshi muvozanatlangan va qo'shimcha iste'mol xususiyatlariga ega bo'ladi. Ular sut, sirka va boshqa kislotalarni to'playdilar. Sut bijg'ish mahsulotlari dietik xususiyatlariga ega, ulardan ko'plari qimiz, kefir, uy pishlog'i (tvorog) shifobaxsh sifatlarga ega.

Pishloq va sariq yog'lar ozuqaviy, biologik va energetik qiymatga egadir. Inson bir sutkada  $1.5 \text{ dm}^3$  sut mahsulotlaridan iste'mol qilishi kerak, shu qatorda sut  $0.5 \text{ dm}^3$ , saryog' 15-20 g, pishloq 18 g, smetana va uy pishlog'i 20 g dan iborat bo'ladi.

## **12.2. Sutning kimyoviy tarkibi**

Qaramol suti oq sarg'ish tiniq suyuqlik bo'lib, shirinroq tam va o'ziga xos xidga ega bo'ladi. Qaymog'i olinmagan sutni 2 ga bo'lish mumkin. 1) Sutning plazmasi (suyuqligi) va 2) Oqsil-lipid komplekslari.

Sutning 2 qismi kichik bo'lakchalardan iborat bo'lib, sutli yog'li dumaloqchalar deyiladi. Yog'li dumaloqchalar kattaligi 0,5 dan 18 mkm (o'rtacha 3 mkm) atrofida bo'ladi. Sut plazmasi ko'p komponentli tizim bo'lib, xar xil darajadagi disperslikka ega bo'lgan organik va mineral moddalardan iboratdir.

Xayvonlar sutining kimyoviy tarkibi juda murakkab bo'lib, uning tarkibida aminokislotalar, oksillar, uglevodlar, lipidlar, fosfotidlar, steroidlar, vitaminlar, fermentlar va boshqalar bo'ladi. Sutning asosini suv, mineral tuzlar, kalsiy tashkil etadi, qora mol suti 83-88% suv 12-17% quruq modda, uning tarkibiga 3,8-6,0% lipid, 2,7-3,7% oqsil (2,2-2,9% kazein), 2-5% azot asoslari 4-5% sut shakari (laktoza), 0,6-0,8% mineral moddalar 0,1-0,2% limon kislotalari kiradi. Shimoliy bug'ining suti oqsil-lipid komponentlariga boy bo'lib, unda 64% suv 36% quruq modda (19% lipid, 11% oqsil 8,7% kazein), 1-2,0% azot asoslari bor. Shunday qilib, shimoliy bug'ining suti sigir sutidan to'yimli bo'lib, lipidlar 3-5 marta, oqsillari esa 3-4 marta ko'p bo'ladi. Bug'i suti konsistensiyasi (quyuq suyuqliligi) bo'yicha sigir suti qaymog'iga yaqin, ammo sog'ilgan sut miqdori kam bo'ladi. 7-11 oy laktatsiya

davomida 45-84 kg sut sog'ib olinadi. Bunda bug'i sutini texnologiya asosida ishlab chiqarishda qo'llash mumkin.

Sut tarkibidagi suv erkin xolda yoki mitsellalar tarkibida bo'lishi mumkin. Suvning qutubliligi (polyarligi) stabil mitsellalar shakllanishini ta'minlaydi, uning tarkibidagi xar xil lipidlar ichki qismida joylashadi, tashqi qismida oqsil va uglevod joylashadi. Sutdagi kalsiy oqsillar bilan bog' hosil qilib, sutga kolloid xususiyatlarini beradi. Sut yangi sog'ilgan sut, qaymog'i olinmagan sut va ichiladigan sutga ajratish mumkin. Yangi sog'ilgan sut xarorati hayvon tana xaroratiga yaqin bo'ladi. Ammo vaqt o'tishi bilan sut xarorati pasayadi va uning yuzasiga yog' donachalari chiqib qaymoq qavatini hosil qiladilar. Yog'li donachalarning kattalari yog' qatlamini shakllantiradi – bunday sutni qaymog'i olinmagan sut deyiladi. Ichimlik sutini qaymog'i olinmagan sutni gomogenizatsiyalash yo'li bilan olinadi. Gomogenizatsiyadan maqsad sutning tashqi ko'rinishi va tamini yaxshilashdan, quyuq-suyuqli darajasi va xom ashyoning sarflanishini kamaytirishdan iborat bo'ladi. Gomogenizatsiyalangan sutda yog' donachalarining agregatsiyasi bormaydi, chunki agregatsiya mexanizmi kuchsiz molekulyaararo tasirni paydo bo'lishi aminokislota qoldiglari va yuzaki oqsillarning yog' donachalari paydo bo'lib, gomogenizatsiyada buziladilar.

Sutdan suv va lipidlar olinganda quruq yog'sizlangan sut qoldig'i qoladi va uni sutni sifatini ko'rsatuvchi ko'rsatkich hisoblanadi. Davlat standart bo'yicha COMO qoramol sutida 8 % dan kam bo'lmaslik kerak, masalan COMO shimol bug'usi sutida 16% teng bo'ladi.

### **12.3. Sutning oqsil bo'limagan azotli birikmalar**

Sut emizuvchilar sutida azot tutuvchi birikmalar xar xil metabolik jarayonlarning oraliq va yakuniy mahsulotlari bo'ladi. Bir qismi qon orqali sut bezlariga tashiladi va sutda to'planadilar. Bularga aminokislolar, mochevina, peptidlar, kreatin, ammiak, siyidik va heparin kislotalar kiradi. Bu moddalarning miqdori sutda 30-60 mg% etadi.

Sutning asosiy aminokislotalari hayvon organizmida sintezlanib qanday faol transport yordamida laktotsitlarga boradi. Bazi aminokislotalar sut bezlarida sintezlanishi mumkin. Sigir sutida rN ko'rsatkichini meyorida ushlaydigan aminokislotalar mavjud bo'lib, ular sutning tamini belgilaydi. Sutdagi aminokislotalar miqdori yil fasllariga bog'liq. Yozda sut tarkibida aminokislotalar 5-8 mg% bolsa, baxor faslida uning miqdori 1,5-2 marta pasayadi. Baxorda sut tarkibida zaruriy aminokislotalar (arginin, valin, metionin, leytsin, fenalalanin, tirozin) miqdorlari kamayadi.


Sigir sutida karotin va karotinin miqdori 2,5-4,5 mg% dan oshmaydi. Azot asoslari va aminokaslotalarning parchalanishini oxirgi maxsuloti ammiak bo'lib uning sutdagি miqdori 0,3-1,0 mg% foiz atrofida bo'ladi, va sutning uzoq muddat saqlaganda ortishi kuzatiladi, sababi uning tarkibida chetdan tushgan mikrofloraning rivojlanishi natijasida ro'y beradi. Undan tashqari sigir sutida orotat kislotaning katta miqdori 0,7-1,5 mg% foiz kuzatiladi. Mochevina hayvonlarning azot almashinuvida oxirgi mahsulot sanaladi. Ozuqa tarkibida oqsil va boshqa azotli birikmalarning ko'pligi tufayli qoramollar qoni tarkibidagi mochevina miqdori ortadi. Bu xolat bohor yozgi davrda mollarni yashil ozuqa bilan boqilganda yaqqol namoyon bo'ladi. Sut tarkibidagi mochevinaning normal miqdori 15-30 mg% bo'ladi.

#### **12.4. Sut oqsillari va fermentlari**

Asosiy sut oqsillariga kazeinlarning 4 ta elektroforetik bo'linuvchi fraktsiyalari kiradi, zardob oqsillari ( $\beta$ -laktoglobulin,  $\alpha$ -laktoalbumin), qon zardobidagi albumin, immunoglobulin  $\beta$ -mikroglobulin, laktoferrin, tseruloplazmin. Sutda kazeinning miqdori 80% atrofida (umumiyoq oqsil hisobida), -laktoglobulin 7-12%,  $\alpha$ -laktoalbumin 2-5%, zardob albumini 0,8-1,4% bo'ladi.

Kazein - strukturasiga ko'ra kazein fosfoproteid bo'lib kalsiy, tsitrat va fosfat yo'llari ishtirokida o'zidan shakllanish xususiyatiga

ega. Kazeinning 4 ta tipi mavjud  $\alpha_{s1}-\alpha_{s2}-\beta-\gamma$  kazein, ular sut tarkibida umumiyligi kazein miqdori quyidagi miqdorda 38%, 10%, 39% va 13% boladi. Kazeinlar bir-biridan molekulyar ogirliklari bilan farqlanadilar, tarkibidagi fosfat kislota Z-kazein tarkibidagi uglevodlar glyukozamindan farqlanadi.



Sutdagi 95% atrofidagi kazein globulyar shakldagi mitsellalar hosil qiladi, ularning razmeri 150-200 nm, faqat 5% kazein monomer shaklda boladi. Har bir mitsella tarkibida hamma turdagiligi kazeinlar bo'lib 7000-8000 Ca<sup>++</sup> ioni bilan bog'langan polipeptid zanjiridan tashkil topadi. Mitsellalar oldida z-kazein joylashib ximoya rolini bajaradi.

z-kazeinning tuzilishiga alohida ahamiyat beriladi. Bu oqsil bir qancha komponentlardan tuzilgan bo'lib, asosiysi o'z tarkibida uglevod tutmaydi, strukturadagi boshqa komponentlar tarkibida oligosaxaridlar boladi. Ikkilasi z-kazein strukturasini shakllanishida unda 32%  $\alpha$ -spiral 31% parallel va 24% antiparallel strukturalar murakkablik keltirib chikaradi. z-kazein polipeptid zanjirining spiralizatsiyasi ximozin (rennin) atrofida boladi.

Ferment rennin sutga qo'shilib pishloq tayyorlashda ishlatilganda z-kazeindan glikopeptid ajralib chiqadi, so'ngra mitsella strukturalari buzilib sutni pishloqlanishi kuzatiladi. Pishloqlanish sababi z-kazein ferment tasirida neytral muhitda Ca<sup>++</sup> ionlari bilan erimaydigan tuzlar hosil qiladi, bunday holat sutning tabiiy holdagi oqsilda ro'y bermaydi. Erimaydigan  $\alpha_{s1}-\alpha_{s2}$  va  $\beta$ -kazeinlar sut plazmidi tasirida gidrolitik parchalanishga uchraydi.

Kazein o'z tarkibida to'liq aminokislotalar to'plami tutganligi sababli yuqori biologik qiymati bilan xarakterlanadi. Kazein tarkibida 0,1-1% gacha fosfor bo'ladi, u murakkab efir bog'i bilan oqsil molekulasiiga kiruvchi seringa birikadi. Kazein bilan kalsiy bog'langan kazein sintezi sut bezida amalgalashiriladi, aminokislotalar va fosfatlar qon orqali etkaziladi. Ushbu maqsadda bezlarda zardob albuminlar ishlataladi, ular boshlanishida aminokislotalarga gidrolizlanadilar, so'ngra oqsil biosintezi jarayonlariga kirishadilar.

$\beta$ -laktoglobulin kazeinni cho'kmaga tushirilgandan so'ng (sutga tomizg'i qo'shilganda yoki rennin tasirida) zardob qoladi, u o'z tarkibida oqsillar to'plami tutadi va ular ichida  $\beta$ -laktoglobulin ham bo'ladi. U albuminlar guruhiга kiradi, sababi  $(NH_4)_2SO_4$  eritmasida erish xususiyatiga egadir, tarkibida ko'p SH guruh tutganligi uchun  $\beta$ -laktoglobulin 2 ta polipeptid zanjiridan tashkil topadi, uning molekulyar massasi 18,3 kDa, +30° C yuqori xaroratda monomer shaklga parchalanadi. Keyingi qizdirish subbirliklarni agregatsiyasiga olib keladi, o'zaro disulfid bog'lari bilan bog'langan joylardan uziladi. Umuman  $\beta$ -laktoglobulin 2 ta disulfid bog'iga ega bo'lgan tsisteindan iborat. Sutni +70C° da qizdirilganda sulfogidril guruhlarning bir qismi S-H xolida ajraladi, va qaynatilganda sutga maxsus xid beradi. Sutni qizdirish zardob oqsillarning strukturalari o'zgarishi bilan borib natijada qo'shimcha disulfid bog'lar hosil bo'lib oqsil molekulalari denaturatsiyaga uchraydilar.  $\beta$ -laktoglobulin sutga ma'lum fizik-kimyoviy xossalari beradi. Denaturatsiya holatida bu oqsil kazein mitsellalarida so'tiladi, sutni quyuqlashishida ivishdan saqlaydi.  $\beta$ -laktoglobulin denaturatsiyaga uchragan holatda sutning pishloqqa aylanishiga xalaqit beradi, shuning uchun sut pishloq olishga mo'ljallangan taqdirda, uni isitish mumkin emas.

$\alpha$ -laktoalbumin – bu oqsil glikoproteinlar qatoriga kiradi va bir polipeptid zanjiridan tashkil topadi. Molekulyar og'irligi 16,5 kDa, izoelektrik nuqtasi 5,1 laktosintaza tarkibiga galaktoziltransferaza bilan birga kiradi. Uchlamchi strukturasini stabillashtirishda  $\alpha$ -

laktoalbuminda  $\text{Ca}^{++}$  ishtiroq etadi shuning uchun  $\alpha$ -laktoalbumin +65° C dan yuqorida denaturatsiyaga uchraydi.


*Qon zardobi albumini* (zardob albumini) sut tarkibida zardob albumini bo'lib, u oqsil globulyar strukturaga ega bo'lib, molekulyar massasi 66 kDa ga tengdir. Qoni oqsilidan farqi – uning sintezi sut bezlarida emas, balki boshqa organlarda sodir bo'ladi.

*Tseruloplazmin va laktoferrin*. Bular mis va temir saqllovchi sut oqsillardir. Ikkala oqsil xam mis, temir ionlarini to'plash va o'tkazish, yani oqsil globulasida (sharida) so'rilib yuzasiga chiqarishdan iborat, ular maxsus tashuvchi sifatida  $\text{Ca}^{++}$  va  $\text{Fe}^{++}$  ionlarning yosh organizmga etkazib, o'sayotgan organizmda bu ionlarning etishmasligini oldini oladilar. Ammo tseruloplazmin (1) va laktoferrin (2) molekulyar massalari bilan farqlanadilar 1) 151 kDa va 2) 76,5 kDa.

Tozalangan tseruloplazmin tarkibidagi yuqori miqdordagi mis xisobiga xavo rangli tusga ega bo'ladi (8 atom  $\text{Cu}^{++}$  ioni bir molekula oqsilda). Oksidaza oksidlanish reaksiyalarini katalizlaydi (askorbin kislota, gidroxromin, katekin va fenilendiamin) pH=5,6-6,0 atrofida tseruloplazmin optimal aktivlikka ega bo'ladi. Ferment ingibitori bo'lib tsianid va azidlar hisoblanadi. Aktivatori bo'lib esa  $\text{Fe}^{++}$  ionlari ishtiroq etadi. Sutdagi tseruloplazmin miqdori 1 mg/kg ni tashkil qiladi.

Laktoferrin o'z tarkibida uglevodlar saqlab, glikoproteidlar qatoriga kiradi. Laktoferrin sintezi sut bezlarida amalga oshadi. Sigir sutida uning miqdori 20-350 mg\kg bo'ladi. Bunda uning miqdori og'iz suti va qora sog'in sigir sutida bir qancha marta ko'p bo'ladi.

**Sut fermentlari.** Sutda fermentlardan glutationperioksidaza, katalaza, lipaza, fosfotaza va boshqalar uchraydi. Glutationperoksidaza fermenti hayvonlar organizmida bir necha shaklda boladi (gpx-I,gpx-II,gpx-III,gpx-IV). gpx-I eukariot selen tutuvchi oksil, quyidagi reaksiyalarni katalizlaydi.




Г-SH-qaytarilgan shakli va Г-S-S-Г oqsidlangan shakli glutationning gpx-II oksidlanish reaksiyalarini lipidlarning gidroperoksidlari ishtirokida katalizlaydi.



*R- alkil radikal (fosfalipid)*

Oxirgi vaqtida glutation peroksidazaning (gpx-IV) yangi shakli topilgan maxsuslik tasiri bo'yicha gpx-II-ga o'xshash, ammo farqi polipeptidning birlamchi strukturasi tuzilishi bilan bo'ladi. Sutning peroksidaza aktivligini ortishi bevosita sut bezlarida yallig'lanish jarayonlari bilan boradi. Sutda juda oz miqdorda katalaza fermenti uchraydi. U vodorod peroksidning parchalanishga olib keladi.




Peroksidaza va katalaza fermentlari antioksidantlar sistemalari tarkibiga kiradi. Ferment aktivligi yangi tutgan va qari sog'in sigirlarda ortadi. Fermentning juda yuqori aktivligi sigirlarda mastit bo'lganda ro'y beradi.

*Lipazalar* bu fermentlar sutning murakkab efir bog'larini gidrolizlaydi. Glitserin va moy kislotalarga parchalaydi. Lipaza fermentining miqdori qishda qo'payib, yoz faslida sutda kamayadi. Yana sog'in sigirlarda laktatsiya tugashi arafasida lipaza aktivligi ortadi, va sutning ta'mi o'zgarishi (achchiqroq sut) kuzatiladi. Lipaza fermenti yog' donachalari yuzasida surilib, yog'ni buzilishiga olib kelishi mumkin, mog'or bosishi kuzatiladi. Lipazalar ta'sirida pishloqlar mog'or ishtiroqida pishib, maxsus ta'm beradilar.

*Ishqoriy fosfataza* – ishqoriy muxitda ortofosfat efirlar gidrolizini katalizlaydi. Ferment tasirida gidrolazalarga xos xususiyatlar

fosfatning substratidan ajralishi va transferazalar yordamida unda fosfatsni aktseptor molekulasiga tashilishi yuz beradi.



Maksimal ferment aktivligi pH 9-10 atrofida bo'ladi. Sut bezidan sut ajralayotgan vaqtida ferment miqdori ortishi kuzatilgan. Ishqoriy fosfotaza o'z tabiatiga ko'ra membrana fermentlariga kiradi, shuning uchun fosforni hujayra membranalari orqali tashish mexanizmida ishtiroq etadi. Undan tashqari ferment to'qimalarning kaltsifikatsiya jarayonlarida faol ishtiroq etib, qon zardobida uning miqdorini ko'paytiradi, u erdan faol qon bilan taminlanishda sut bezlariga boradi.

Fermentlar sutga qonlar orqali yoki sekrektor epiteliyning asosiy qismlari orqali kiradi. Shuning uchun sutdagi ishqoriy fosfatazaning yuqori aktivligi jigar kasaliklari va boshqalardan dalolat beradi. Fermentning yuqori aktivligi sutning past sifatidan dalolat beradi.

## 12.5. Sutdagi uglevodlar va vitaminlar

Sutning yog' kislotalari qisman sut bezlarida sintezlanadi qolgan qismi qondan o'tadi. Sut tarkibidagi neytral lipidlar miqdori 2,8-4,5% atrofida bo'ladi. Sutdagi mono- va diglitseridlari miqdori 1,2-2,6% ni tashkil qiladi.

Fosfatilxolin va fosfatdietanolamin sutning asosiy fosfolipidlari hisoblanib, uning miqdori 60%dan ortadi. Bunda sutdagi

fosfolipidlarning 60-70% yog' donachalari qobig'i tarkibiga kiradi. Fosfolipidlarning umumiyl sut va sut mahsulotlardagi miqdori 0,02-0,06%, qaymoqda 0,15-0,19%, yog'sizlangan sutdagi 0,016-0,028%, saryog'da 0,36-0,38% va yog'li sut 0,14-0,23% aralashdirib (gomogenatsiya qilinganda) 5-15% fosfolipidlar eritmaga o'tadi, separatordan o'tkazilganda esa 60-70% fosfolipidlar qaymoqqa o'tadi, sariq yog' olishda esa 50-65% fosfolipidlar yog'li qismiga o'tadi.

Sutning asosiy sterini xolesterin bo'lib, ular yog' donachalari tarkibiga kiradi. Sutdagi sterin miqdori 0,010-0,014% bo'lib, umumiyl lipidlar miqdorining 0,2-0,4% tashkil qiladi.

Lipid tabiatli biologik aktiv moddalar, oksignerallangan polito'yinmagan yog' kislotalarning xosilalari bo'lib, uglevodorod zanjirlari tarkibida 5 azoli vakillari tutadi va prostoglandin deb ataladi. Sutda bu moddalar past kontsentratsiyada (oz miqdorda) bo'ladi. Ammo ularning qondagi miqdori ortsa sut bezlariga kuchli tasir ko'rsatadi.

**Sutdagi vitaminlar.** Sigir sutida 23 dan ortiq vitamin boladi. Vitamin manbai bo'lib o't o'simliklari hisoblanadilar, uning bir qismigina oshqozon mikroflorasida sintezlanadi. Sut tarkibidagi vitaminlar miqdoriga sut beruvchi hayvonlarning oziqlantirish ratsioni, fiziologik holati, hayvon turi va nasli yilning fasllari tasir etadi.

Undan tashqari sut tarkibidagi vitaminlar miqdoriga uni saqlash va transportirovkasi (tashish), xamda xar xil fizik omillar (past va yuqoriy harorat, ultrabinafsha nurlari va hokazo) ta'sir ko'rsatadi.

Sut tarkibida quyidagi vitaminlar A, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>12</sub> va C lar miqdori qo'p boladi. Tiamin oshqozon mikroflorasi yordamida sintezlanadi va asosan ozuqa bilan beriladi. Sutda B<sub>1</sub> vitamini miqdori 0,8-1,2 mg/kg ga etadi. Riboflovin miqdori fasllarga qarab 1,0-2,9 mg/kg atrofida bo'ladi. Vitamin sariq rangda boladi, ko'proq bolsa sut zardobini rangini beradi.

Og'iz sutida vitamin V<sub>2</sub> sutga nisbatan 3-4 marta ko'p miqdorda bo'ladi. Pantoten kislotosi hayvonlarga yashil o'simlik o'tlaridan o'tadi, hamda hayvon oshqozonidan mikroflorasidagi zamburug'lar yordamida sintezlanadi. Koenzim-A tarkibiga kirib sutdagi miqdori 2,5-3,6 mg/kg atrofida bo'ladi. B<sub>4</sub> vitamini miqdori sut tarkibida 0,2-0,6 mg/kg ga etadi.

Nikotin kislota va uning amidi sutda erkin holda hamda koferment tarkibida (NAD<sup>+</sup>, NADF<sup>+</sup>) uchraydi. Unda PP va B<sub>5</sub> vitaminlari miqdori 1,0-1,2: 0,8-1,8 mg/kg teng bo'ladi. Sutda vitamin V<sub>6</sub> esa qaytarilgan va oksidlangan shaklda (pirodoksol, piridooksal) hamda ularning fosforlangan efirlari (fosfopiradoksal) holida bo'ladi. Vitamin B<sub>6</sub> ning umumiy miqdori va uning sutdagi hosilalari 0,2-1,7 mg/kg atrofida bo'ladi. Kuzda qish va bahor fasllariga nisbatan vitaminlar ko'proq bo'ladi.

Folat kislota vitamin B<sub>12</sub> bilan birga koferment sifatida metillanish reaksiyasida ishtirok etadi. Sutda falat kislota va vitamin V<sub>12</sub> miqdori 0,04-2,6 hamda 2,3-5,9 mg/kg atrofida bo'ladi. Askorbin kislota hayvonlar organizmida oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida ishtirok etadi. Undan tashqari vitamin C suvli muhitda havo kislороди bilan tezda oksidlanadi, vitamin C ning oksidlanish reaksiyaları Fe<sup>+2</sup> va Cu<sup>+2</sup> ionlari hamda nur va harorat ta'sirida tezlashadi. Yangi sog'ilgan sut tarkibida 3,8-25,2 mg/kg miqdorda vitamin C bo'ladi.

Biotin zamburug'larning metabolik jarayonlarida faol ishtirok etadi, hayvonlar organizmida koferment korboksilaza sifatida bo'ladilar. Sutda vitamin A piruvat va ketoglutaratdegidrogenaza komplekslariga prostetik guruh sifatiga kirib α-ketokislotalarning oksidlanish dekorboksillanish reaksiyalarida ishtirok etadi. Sut tarkibida mionat kislota miqdori 0,12-0,15 mg/kg atrofida bo'ladi. Karotin kontsetratsiyasi sutda oziqlanish ratsioni, yil fasllari, sigir turi va nasliga bog'liq bo'ladi. Yozda mollar ko'k massa bilan boqilganda sutdagi karotin miqdori 0,5-0,95 mg/kg ortadi, qish faslida esa 0,3-0,18 mg/kg gacha kamayishi kuzatilgan.

Karotinning yuqori konsentratsiyasi yog'ning rangiga ta'sir etadi. Fizik ta'sir (pasterizatsiyalash, sterilizatsiyalash, nur) karotinni parchalab sut va sut mahsulotlaridagi miqdorini kamaytiradi. A vitaminlar guruhi (A<sub>1</sub>, A<sub>2</sub>) kiradi. Bularidan vitamin A (retinol) miqdori 0.08-1.0 mg/kg atrofida boladi. Sutdagi retinol miqdori laktatsianing birinchi oylarida ko'payib laktatsiya yakunida pasayishi kuzatiladi. Og'iz sutida retinol miqdori 0.6-1.2 mg/kg ga etadi. Oziqa tarkibining asosini yashil o'tlar tashkil qilganligi uchun vitamin A bilan sut tarkibi yoz oylarida boyiydi. Sababi sut mahsulotlari tarkibidagi karotinoidlar miqdori 5-6 marta qish mavsumiga nisbatan ko'payadi.

Sutda vitamin D ning hamma shakllari boladi, ammo D<sub>3</sub> ko'proq boladi. Vitamin miqdori yil fasllariga bog'liq boladi, o'rtacha miqdori 0,5-1,5 mg/kg atrofida boladi. Qishga nisbatan yozda uning miqdori 1-8 marta ko'p boladi. Vitamin D miqdorini hayvonlarga ultrabinafsha nurlari berilsa uning miqdori ortadi.

Sutda tokoferollar guruhi ( $\alpha$ ,  $\beta$ ,  $\gamma$ ,  $\delta$ ) birikmalardan iborat, ulardan  $\alpha$ -tokoferol miqdori sutda ko'proq 1.2-1.3 mg/kg boladi. Vitamin antioksidant ta'siriga ega bolgan moddalar tarkibiga kiradi. Tokoferolning yuqori konsentratsiyasi sut mahsulotlarini saqlashda erkin radikallar ta'siridan himoya qiladi. Vitamin K hayvonlar ichaklaridagi mikroflora yordamida sintezlanadi va sutda juda oz miqdorda 30-40 mg/kg boladi.

## **12.6. Sutning element tarkibi**

Sut tarkibida 30 dan ziyod makro va mikroelementlar bo'lib, ular erkin holda yoki oqsil va biologik faol moddalar tarkibida boladi. Sut tarkibidagi makroelementlarga Na<sup>+</sup>, K<sup>+</sup>, Ca<sup>+2</sup>, Cl<sup>-</sup>, P<sup>+5</sup>, Mg<sup>+2</sup> kirsalar, Zn<sup>+2</sup>, Si<sup>+2</sup>, Fe<sup>+3</sup>, Al<sup>+3</sup>, F<sup>-</sup>, B<sup>+3</sup>, Br<sup>-</sup>, Cu<sup>+2</sup>, Mn<sup>+2</sup>, Mo<sup>+2</sup>, Pb<sup>+2</sup>, I<sup>-</sup>, As<sup>+3</sup>, Sc<sup>+2</sup>, Cr<sup>+3</sup>, Ni<sup>+2</sup>, Cd<sup>+2</sup>, Hg<sup>+2</sup>, Co<sup>+2</sup> kabi mikroelementlar kiradi. Bunda ularning hujayra va to'qimalardagi ta'siri oqsil va biologik faol moddalar tarkibida amalga oshadi. Masalan, Na<sup>+</sup> va K<sup>+</sup>

transmembrana potensialini tashkil bo'lishida,  $\text{Na}^+$  va  $\text{K}^+$  ATF faollashuvida ishtirok etadi. Sutdag'i  $\text{K}^+$  ionlari miqdori 126-170 mg%,  $\text{Na}^+$  ionlari 36-78 mg% bo'ladi. Ionlashtirilgan  $\text{Ca}^{+2}$  shaklidagi miqdorini boshqarish rolini  $\text{K}^+$  va  $\text{Na}^+$  ionlari bajaradi, ular kazeinning mitsellalarini shakllantirishida ishtirok etadilar.

$\text{Mg}^{++}$  ionlari muskul ATF ni aktivlaydi va bu ATF ga qaram fermentlar ta'sirida amalga oshadi (glyukoza 6-fosfat, degidrogenaza, piruvatkinaza, geksokinaza va boshqalar). Sutda 12-14 mg% magniy ionlari, ular kazeinning mitsellalari shakllanishida ishtirok etadi.

$\text{Fe}^{+2}$  ionlari hayvon organizmida gemoglobin, mioglobin, ferritin molekulalari ta'sirida ishtirok etadi va  $\text{Fe}^{+3}$  tsitoxrom va gem halqasi tutuvchi fermentlar tarkibiga peroksidaza, katalaza, tsitoxrom peroksidaza bilan kirib, sut oqsilini – laktoferrinni hosil qiladi

Fosfid, fosfat kislotaning asosiy qismiga kirib, u nukleotidlarning tarkibiga kiradi (ATF, GTF, TsTF, UTF) va nuklein kislota (DHK, PHK) koferment (NAD, NADF, FAD, FMN, KoA) tarkibida ham bo'ladi. Undan tashqari sutning kozeinatkalsiyfosfat kompleksiga ham kiradi.

Xlor ionlari  $\text{Cl}^-$  hayvonlar organizmida transmembranna potensiallarini ta'minlaydi, ichakning shilliq qavatida xlorid kislota ajralishida ishlataladi. Sut tarkibida 100-120 mg% xlor ionlari bo'ladi.

$\text{Ca}^{++}$ ,  $\text{Zn}^{++}$ ,  $\text{Co}^{++}$ ,  $\text{Mo}^{++}$ ,  $\text{Mn}^{++}$  va  $\text{F}^-$ ,  $\text{I}^-$ ,  $\text{Br}^-$  ionlari sut tarkibida oz miqdorda (mikroelementlar) uchraydi va ular funksional muhim fermentlar va biologik aktiv moddalar tarkibiga kiradi. Masalan,  $\text{Ca}^{++}$  sitoxromglyukaza, plastotsinin fermentlari tarkibiga kiradi. Sutdag'i  $\text{Ca}^{++}$  ionlarining miqdori 0,013-0,018 mg%,  $\text{Zn}^{++}$  esa karboksipeptidaza, laktodegidrogenaza, glyutamatdegidrogenaza tarkibiga kiradi va sut tarkibida 0,3-0,5 mg% bo'ladi.

$\text{Ca}^{++}$  hayvonlar organizmida suyak to'qimalarining shakllanishida ishtirok etadi, nerv impulslarini o'tkazadi, qon

ivishining VIII omilini faollashtiradi. Muskullarni qisqarishida ishtirok etadi, oqsillarni tayyorlaydi. Sutdag'i kalsiyning miqdori 114-130 mg% ga etadi. 20% kalsiy panakazein mitsellalarini shakllanishida ishtirok etadi, qolgan qismi fosfat va limon kislotaning tuzlari holida bo'ladi. Ca<sup>++</sup> asosiy qismi hayvon organizmiga fosfat kislota tuzlari holida kiradi. Ca<sup>++</sup> ni so'riliishi ingichka ichakda borib, u o'sayotgan organizmlarda va hamda laktatsiya jarayonlarida tez boradi.

### **12.7. Sutning fizik-kimyoviy xossalari**

Sutning umumiy yoki titralanadigan tarkibidagi karbon kislotalar, sut kislota, limon kislotalar tuzlari, aminokislotalar, oksillar miqdori bilan belgilanadi. Sutda sut kislotasining to'planishi sut kislota bakteriyalarining faolligidan, ular sut shakarini bijgish reaksiyalarida ishlatilishi bilan boradi. Sutning umumiy kislotaligini Terner gradusida ifodalanadi ( $^{\circ}\text{T}$ ) yoki moy uchun Kettstofer gradusida ( $^{\circ}\text{K}$ ). Bunda bir gradus Terner 0,1 M natriy gidroksidning suvli eritmasi hajmiga to'g'ri keladi, u 100 gr mahsulotni neytrallash uchun ketgan miqdoridir. Bir gradus Kettsofer 5 gr saryog'ni neytrallash uchun ketgan 0,1 M natriy gidroksidning suvli eritmasi bilan ifodalanadi. Yangi sog'ilgan sutning kislotaligi 16-18 gr atrofida bo'ladi

Umumiy kislotaliligidan farqli o'laroq, suvning faol kislotaliligi pH metr yordamida aniqlanadi bu asosida patentsiometrik usul yotadi. Sut tarkibidagi amino kislotalar, oksillar, uglevodlar, azot saqlovchi birikmalar pH domiyligini va uning bufer hajmini ta'minlaydilar. Yangi sog'ilgan sutning pH ko'rsatgichi 6,2-6,9 ga teng bo'ladi.

Sigir sutning zichligi ular tarkibidagi lipidlar va oqsilga bog'liq. Sigir sutining zichligi 1,029-1,032 g/sm<sup>3</sup> atrofida bo'ladi. Yogsizlantirilgan sut zichligi 1,033-1,035 g/sm<sup>3</sup> bo'ladi. Bug'i suti zichligi - 1.048 g/sm<sup>3</sup>. Sutga suv qo'shilganda uning zichligi kamayadi.

Sut osmotik bosimga ega, bu ko'rsatkich qonning osmotik bosimiga yaqin va tarkibidagi uglevodlar va tuzlar miqdoriga bog'liq.

Sut tarkibida har xil ionlar mavjud bo'lib, ular elektr o'tkazuvchanligini belgilaydi. Elektr o'tkazuvchanligi ortishi natijasida hayvon kasallanadi, kamayishi sutni suv bilan suyultirilganda ro'y beradi.

*Sutning qovushqoqligi* uning aralashtirilganda o'zaro ta'sir natijasida ko'riladi. Sutning qovushqoqligi suvning yopishqoqligidan yuqori va oqsillar, lipidlar va tuzlar miqdoriga bog'liq. Harorat ortishi bilan sutning yopishqoqligi pasayadi, ammo sutda lipidlar ortishi bilan va quruq yog'sizlantirilgan sut qoldig'i ortishi bilan yopishqoqligi ham ortib boradi. Sutning bijg'ishi qovushqoqligini ortishiga olib keladi.

Sutning qovushqoqligini chegarasi 1,6 dan 2,1 gacha o'zgaradi. Sut yuzasining tortilishi suvdan kam bo'lib, sutda oqsil va yog' donachalarining borligi bilandir.

Sutda quyidagi gazlar:  $\text{CO}_2$ ,  $\text{O}_2$ ,  $\text{N}_2$ . Bundan sut bezining tarkibida 10% gacha  $\text{CO}_2$ , umumiy gaz hajmidan tutadi. Sog'ish paytida  $\text{CO}_2$  miqdori 4-5% kamayadi, sutning ko'paytirish hisobiga sog'ib bo'lqandan so'ng bir necha soatda  $\text{CO}_2$  miqdori 3% gacha tushadi.

*Ivishi* – sut komponentlarini ferment ta'sirida ma'lum muhit sharoitida ro'y beradi. Pishloq ishlab chiqarishda ahamiyati katta va sutning pishloqqa yaraydigan xususiyati orqali baholanadi. Sutning ivishining muddati uning kislotaliligi va muhit haroratiga bog'liq. Past haroratda ferment faolligi susayadi, yuqori haroratda ferment denaturatsiyaga uchrab, oqsil tabiiy holatini yo'qotadi. Sutning ivishi uchun optimal harorat 40-42°C, uning davomiyligini kislotaliligi ortishi bilan ortadi. Sutning ivishi va sifati oziqlantirish sharoiti va sigirlarni tutishga bog'liq bo'ladi.

## 12.8. Sutning bakteriotsid xususiyatlari

Yangi sog'ilgan sutda bakteriotsid xususiyatlarni beruvchi moddalar ya'nii bakteriyalarini ko'payishini to'xtatuvchi moddalar

bo'ladı. Bakteriotsid xususiyatlı birikmalarını quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: opsoninlar, agglyutininlar, lizinlar, antitoksinlar, lakteninlar, lizotsinlar va boshqalar.

Opsoninlar – antitanachalar bo'lib, ular bakteriyalarni fagotsitlanishiga yordam beradi, ya'ni bakteriyalarni komplement komponentlari ishtirokida parchalanish mexanizmlarini faollashtiradi.

Agglyutininlar – bakteriyalarni yopishtiruvchi antitanachalar. Bu antitanachalarning ta'sir mexanizmi – agglyutinatsiyadir.

Lizinlar – hujayralarni lizisga (eritish) xususiyatlı antitanachalar. Ular hujayra va bakteriyalarga zaharlash orqali ta'sir etadilar.

Antitoksinlar – bakteriyalar ajratgan zaharlarni neytrallaydigan antitanachalar. Bunda antitanachalar bakteriya toksinlarini (zaharni) bog'lab uni parchalaydi.

Lizotsinlar – oqsil tabiatli birikmalar bo'lib, ularning ta'sir mexanizmi lizisga uchratish, ya'ni ba'zi bakteriyalarni parchalashdan iborat bo'ladı. Undan tashqari sut tarkibida immunoglobulinlar mavjud bo'lib, ular bakteriyalarni faoliyatini vaqtincha tormozlash xususiyatiga ega.

## **12.9. Sut mitsellalari va oqsil kompleksi**

Sutning oqsil-lipid murakkab komplekslari tartiblangan struktura hosil qilib, mitsellalar tipida quriladi va geterogen tarkibli strukturani tashkil qiladi, ko'pincha dumaloq shaklda va har xil hajmda bo'ladı.

Mitsellalar kuchsiz bog'lar – asosan gidrofob, hidrofil, ion, vodorod va boshqa bog'lar orqali uyg'unlashadi. Mitsellalar tarkibiga kiruvchi komponentlar erituvchi molekulalari ta'sirida shakllangan hamda muhit sharoiti (harorat, pH, ion kuchlari va boshqalar)ga moslashgan holda bo'ladı.

Polyar erituvchilarida mitsellalar hosil bo'lishida lipidlarning tartiblangan joylashuvi ularning hidrofil uchlari suvning polyar


molekulalariga qaragan bo'ladı, polyarlanmagan uglevod radikallari esa gidrofob yadroni shakllantiradilar, ular erituvchi molekulalaridan iborat bo'ladı.

Chidamli mitsellalar aralashgan oqsil-lipid komplekslarida hosil bo'ladı. Bunda oqsillar mitsellalar old qismiga joylashadi, ular suv molekulalari bilan qo'shiladi, gidrofob molekulalar (lipid) esa molekula markaziy qismini egallaydi.

Mitsella yadroasi gidrofob bo'lishi sababli uning yuzasida zararlangan molekulalar joylashadi, bunday strukturalar nopolyar moddalarni solyubilizatsiyalash xususiyatiga ega bo'lib, ularning nopolyar muhitga erishishni ta'minlaydi. Bunday holatda hamma birikmalar erimaydigan va suvda yomon eriydigan holatdan erishini ta'minlaydi.

Mitsellalar stabilligi (turg'unligi) kritik konstanta ko'rsatkichi va agregatsiya soni bilan belgilanadi.

*Kazein mitsellalar.* Ular Golji apparat vakuolalarida suyuqlanadi. Jarayon bosqichma-bosqich amalga oshadi. Boshlanishida, hujayra ribosomalarida kazeinning poleptid zanjiri biosintezi tugashi bilan, ular Goldji apparati vakuolalariga kiradi, u yerda glikolizga uchraydi (ya'ni uglevodlarni oqsil yuzasiga birikishi kuzatiladi) hamda fosforlanish reaksiyalarini boradi.




Kalsiy ioni ishtirokida kazeinning sublimitsellasi hosil bo'ladı. So'ngra sublimitsellasi  $\text{Ca}^{+2}$  ionlari va fosfat ionilariga to'yinishi natijasida sublimitsellalar qo'shilib mitsellalarni hosil qiladilar. Hujayra membranasi bilan qo'shilgan kazein mitsellalar alveolalarga surib chiqariladi.


Mitsellalar hajmi yil fasli, hayvonlarning nasli va boqilishiga qarab o'zgarishi mumkin. Kazeining hosil bo'lishida eritmadagi

kalsiy fosfat ishtirok etib, kazein kalsiy fosfat bufer kompleksini hosil qiladi (KKFK).

Sutda kazein kalsiy kazeinat holida uchraydi. Uning hosil bo'lishida asparagin va glutamin kislotalar qoldig'i ishtirok etadi va o'z tarkibida erkin karboksil guruh tutadi.




Bunda kalsiy fosfat kislotasining gidroksil guruhi birikishi mumkin.




Kazeinkalsiyfosfat kompleksi

Undan tashqari, kalsiy soni kalsiy ko'prigini (2 yoki ko'prod oqsilni o'ziga biriktirib olib) oqsil yuzasidagi fosfat kislota qoldiqlari bilan bog'laydi.



Kazein mitsellalari shakllanishida kalsiyning bu xususiyatlari namoyon bo'ladi. Mitsellalarning xilma-xilligi, uning shakllanishida ishtiroq etuvchi kalsiy va fosfor ionlari, quyidagi strukturalarda amalga oshiriladi:




Shunday qilib, kazein mitsellalari tartiblangan oqsil strukturalaridan iborat bo'lib, ularni hosil qilishda kalsiy va fosfor ionlari ishtirok etadilar kalsiyfosfat ko'priklarini shakllantirib, kazein mitsellalarni o'zaro bog'laydi. Shuning uchun sutdagagi kazein murakkab KFKK holida uni tarkibiga ba'zi polyar birikmalar (limon, sirka kislotalar, vitaminlar va boshqalar bo'ladi)  $\text{Na}^+$ ,  $\text{K}^+$ ,  $\text{Mg}^{+2}$ ,  $\text{Cl}^-$  va boshqa ionlar kiradi. Mitsellalarning 35-65% kalsiy, 25-50% anorganik fosfor, 25-30%  $\text{Mg}^{+2}$  va 8-10% sitrat kislotadan iborat bo'ladi.

Kazein mitsellalari hajmi sutning texnologik xossalaridan biri bo'lib, ayniqsa pishloq tayyorlashda uning yaroqliligini belgilaydi. Bunda sutning ferment ta'sirida ivishi namoyon bo'ladi.

### **12.10. Yog' donachalari**

Yog' donachalari deb pinotsitoz natijasida shakllangan, tomchi qobig'iga ega bo'lgan laktotsitlarning membranalarini oqsil-lipid kompleks holida strukturalangan hosilasiga aytildi. Yog' donachasi hajmi 0,1-20 mkm atrofida o'rtacha razmeri 3-4 mkmga teng bo'ladi.



Yog' donachasi tuzilishi

Laktatsiya davrida sut bezi sekretor hujayralarida (laktotsidlarda) biosintetik jarayonlar faollashadi, natijada laktotsit mikrovoronkalaridagi yuzada shakllanib (yog' tomchilari), o'z tarkibida har xil lipidlar tutuvchi va ma'lum razmerga yetganda ajralib uni qoplovchi plazmolemmalar bilan birga alveolalari bo'shlig'iga kirib boradi. Alveolalarga sekretor hujayralarning biogen molekulalari ajraladi. Kazein, lakteza va boshqa sut komponentlari bilan birga ular mitsellalarni shakllantiradi.

Yog' donachalari qobigi shakllanishida 40 ga yaqin oqsil komplekslari ishtirok etadi. Bu oqsillarning asosiy qismi glikoproteidlar, uning tarkibida uglevodlar (galaktoza, N-atsetilaktozamin, N-atsetilglyukozamin va sian kislotasi) va fermentlardan (kislotali va ishqoriy fosfatazalar, ksantinoksidaza, L-glyutamintransferaza, nukleodidaza va boshqalar) iborat bo'лади. Yog' donachasining yuzasi oqsil va fosfolipidlardan shakllanadi, ular hujayra membranalari strukturasiga kiradi. Fosfolipidlar asosan letsitindan va kefalindan tashkil topgan. Bu ikkita fosfolipidlar hayvonlar hujayrasi membranasi lipidlari hisoblanadi.

Yog' donachalari ichki qismiga tarkibidagi triglitserid, yog' kislotalari va steroidlar kiradi. Undan tashqari yog' donachalari tarkibida vitaminlardan A, D, E va metall ionlaridan Cu<sup>+2</sup>, Fe<sup>+2</sup>, Ca<sup>+2</sup>, K<sup>+</sup> va boshqalari mavjud. Yog' donachalarining strukturasini turg'unligi kuchsiz gidrofob va hidrofil bog'lar bilan belgilanadi. Shuning uchun ular fizik omillar ta'sirida parchalanadi. Yog' donachalari yopishib, sutning yuzasiga suzib chiqadi, va qaymoq qavat hosil qiladi.

## **12.11. Og'iz sutining kimyoviy tarkibi**

Onaning sut bezi sut berishini boshlagan kunlari og'iz suti beradi. Bu quyuq, sariq, ta'mi sho'rroq, kuchsiz kislotali reaksiya beruvchi sut. Og'iz suti tarkibida oqsillar sutga nisbatan 3,5 marta ko'p bo'ladi. Oqsillari ichida immunoglobulinlar ko'proq bo'lib, oson hazm bo'ladigan albuminlar va globulinlardan iborat bo'ladi.

Og'iz suti letsitin va fermentlarga boy bo'lib, laktozasi kam bo'ladi. Og'iz suti lipidlarida to'yinmagan moy kislotalar, karotin va vitamin A ko'p bo'ladi. Mineral elementlardan qo'proq P, Mg, Ca uchraydi. Og'iz suti zichligi 1,040-1,080 g/sm<sup>3</sup> bo'lib, uning tarkibi quyidagicha: suv - 72%, laktosa - 2,5%, kuli - 1,0-1,4 %, kazein - 4,8%, albumin va globulinlar - 10-11%, lipidlar - 8,5% tashkil etadi. Og'iz sutining immuglobulinlari oldindan gidrolizlanmasdan ichak devorlari orqali buzoqchalar qoniga so'riladi. Ular oziqa sifatida og'iz suti ichib, o'zlarida kolostral immunitet hosil qiladilar, bu o'z navbatida infektion kasalliliklarga 1,5-2 oy tug'ilgandan so'ng chidamlilikni ta'minlaydi.

Og'iz suti tarkibida lipidlar miqdori ko'pligi, vitaminlarga boyligi (A, D, E, K) bilan ham farqlanadi. Karotin va vitamin A og'iz sutida oddiy sutga nisbatan 5-6 marta ko'p, E vitamin esa 6-7 marta ko'p bo'ladi.

1 kg og'iz sutining ozuqaviy qiymati 1 - kun sut berganda o'rtacha 0,43 ozuqa birligi ega va 93-96 g oqsil tutadi – oddiy sutdan ozuqa qiymati 1,5 marta va oqsil buyicha 2,5 marta ustun turadi. Og'iz sutining ozuqaviy moddalarini buzoqcha to'liq o'zlashtiradi.

Og'iz sutida neytrofil leykotsitlar, kichik va o'rta epitelial hujayralar va boshqa shakl elementlar bo'lib, ular yangi tug'ilgan buzoqchalar organizmini patogen mikroorganizmlar ta'siridan saqlaydi.

Ozuqa qiymatidan tashqari, og'iz sutining ahamiyati u yangi tug'ilgan buzoqchani himoyasini ta'minlaydi. Immunoglobulin-

lardan tashqari og'iz suti tarkibida boshqa autimikrob omillar bo'lib, ular yangi tug'ilgan buzoqchalarni nospetsifik rezistentligini oshirishga xizmat qiladi. Bularga lizatsion, laktoferrin, peroksidaza, antitelolar, vitamin B<sub>12</sub> fol kislotasi, ksantinoksidant va boshqalar kiradi.

### **12.12. Sutni sovutish, muzlatish va qizdirish jarayonlarida tarkibidagi o'zgarishlar**

Sutni past haroratlarda saqlaganda uning sifat ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadi, asosan kazein mitsellalari va yog' donachalarida kuzatiladi.

Past haroratda kazeinning bir qismi eritmaga o'tadi. Bu holatda erigan kazein proteazalar ta'sirida gidrolizga uchraydi. Undan tashqari sutni uzoq muddat +4°C da saqlanganda idish tagiga cho'kma tushadi (agregatlanadi). Oqsillarning agregatlanishi tezligi tarkibidagi Ca<sup>++</sup> ionlariga bog'liq. Kalsiyning yuqori konsentratsiyasida oqsillarni cho'kish tezligi ortadi.

Past harorat sutning xususiyatlarini saqlamagan holda uning tarkibidagi vitaminlar yo'qolishini keltirib chiqaradi. Xususan, vitamin C 2-3 sutkada 50-70% gacha oksidlanishi mumkin. Past haroratda sutdagi yog' donachalari tarkibi o'zgaradi. Bunda yog' kislotalari eritmaga o'tib aktiv kislorod yordamida oksidlanadi. To'yinmagan yog' kislotalari ko'proq oksidlanishga moyil bo'lib, ular aldegidlarni hosil qiladilar va sutga noxush ta'm beradi. Sutdagi yog' donachalarini parchalanishi sutning organoleptik texnologik va fizik-kimyoviy xususiyatlarini yomonlashtiradi. Uzoq muddat past haroratda saqlanganda sutdagi fosfolipidlar yog' donachalari qobig'idan eritmaga o'tadi. O'tish tezligi harorat va saqlash muddatiga bog'liq bo'ladi.

Sutni muzlash harorati suvnikidan past - -0.53 dan -0.57°C atrofida bo'ladi. Muzlash haroratining o'zgarishi sutga qo'shilgan

suv miqdori bilan belgilanadi. Muzlatish jarayoni 2 xil bo'ladi: 1) tez muzlatish jarayoni – sutni bir necha minutda muzlatiladi, 2) davomiy muzlatish bir qancha soat davomida past harorat ta'sirida muzlatiladi. Ikkala bosqich muzlash ham sutning holatiga ta'sir ko'rsatadi. Muzlash jarayonlari kazein mitsellalari va yoq donachalari xolatiga ta'sir etadi. Bunda kristallangan suv kazein mitsellalarning butunligini buzadi va oksilning denaturatsiyasiga olib keladi. Buning natijasida bir qism oqsillar cho'kmaga tushadi (denaturatsiya xisobiga). Muzlagan sutni saqlashning optimal harorati  $-18^{\circ}\text{S}$  dan  $-25^{\circ}\text{C}$  hisoblanadi. Muzlatilgan sutni saqlash davomida harorat  $-20^{\circ}\text{C}$  dan past bo'lmaslig kerak.

